

# EKSPLUATATSIYA QILISH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

Ekspluatatsiya  
Texnik xizmat ko‘rsatish  
Texnik xarakteristikalar

Ushbu yo‘riqnomada keltirilgan barcha ma‘lumotlar nashr etilgan vaqt xolatiga ko‘ra keltirilgan. HYUNDAI doimiy amal qiluvchi mahsulotni modernizatsiyalash dasturi doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

Ushbu yo‘riqnoma ushbu avtomobilning barcha modellariga taalluqli bo‘lib, qoshimcha hamda standart uskunalarning tavsifi va izohlarini o‘zichiga oladi. Shuning uchun, ushbu qo‘llanmada Siz abtomobilingizning muayyan modeliga bog‘liq bo‘lmagan materiallarni topishingiz mumkin.

Ba‘zi modellar o‘ng tomondan boshqarilishini (RHD) hisobga olish zarur.

RHD avtomobillari uchun ayrim bajariladigan ishlarning tavsiflari va tasvirlari ushbu qo‘llanmada keltirilgan bajariladigan ishlarga teskaridir.

## **DIQQAT: SIZNING HYUNDAI AVTOMOBILINGIZ KONSTRUKSIYASIGA O'ZGARTIRISH KIRITISH**

Sizning HYUNDAI avtomobilingiz konstruksiyasiga har qanday o'zgartirish kiritish taqiqlanadi. Bunday o'zgartirishlar avtomobil ishlashini, uning xavfsizligini yomonlashtirishi yoki uning xizmat ko'rsatish muddatini qisqartirishi, shuningdek, avtomobilingizga kafolatli xizmat ko'rsatish shartlarini buzishi mumkin. Shuningdek ba'zi o'zgartirishlar Transport vazirligi va mamlakatingizning boshqa ijro etuvchi organlari tomonidan o'rnatilgan qoidalarni buzishi mumkin.

## **DUPLEKS RADIO ALOQA YOKI MOBIL TELEFON TIZIMLARINI O'RNATISH**

Sizning avtomobilingiz yonilg'isini elektron quyish va boshqa elektron komponentlar bilan jihozlangan. Dupleksli radio aloqa yoki mobil telefon tizimlarining noto'g'ri o'rnatilishi va sozlanishi avtomobilning elektron bloklari ishlashiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Shuning uchun, agar Siz shunga o'xshash qurilmalarni o'rnatishga qaror qilsangiz, ushbu tizimlarni ishlab chiqaruvchisining barcha ko'rsatmalariga e'tiborlik bilan amal qilishingizni yoki ehtiyot choralari va maxsus yo'l-yo'riqlarni tushuntirishi uchun HYUNDAI kompaniyasining dileriga murojaat qilishni tavsiya qilamiz.

## **DIQQAT! (MAVJUD BO'LGANDA)**

Avtomobil ERA-GLONASS favqulotda shoshilinch xizmatini chaqirish qurilmasi bilan jihozlangan.

ERA-GLONASS tizimiga, avtomobil va/yoki uning tarkibiy qismlariga har qanday mustaqil va/yoki ruxsatsiz aralashishi, shuningdek, avtomobilni ishlab chiqaruvchisi tomonidan tavsiya etilmagan va/yoki HYUNDAI avtorlashtirilmagan dilerlik markazlarining uskunalarini o'rnatilishi ERA-GLONASS qurilmasining noto'g'ri ishlashiga, yolg'on chaqiruvlarni amalga oshirishiga, yo'l-transport hodisasida va/yoki Sizga shoshilinch yordam kerak bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa hodisalarda qurilmaning ishlamay qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bu xavfsiz bolmasligi va hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin!

## **XAVFSIZLIK TEXNIKASIGA RIOYA QILISH TO‘G‘RISIDA VA AVTOMOBILNING SHIKASTLANISHI TO‘G‘RISIDA OGOHLANTIRISH**

Ushbu qo‘llanmada XAVFLI, OGOHLANTIRISH, DIQQAT va ESLATMA kabi belgili axborot mavjud.

Bu belgilar quyidagilarni bildiradi:



### **XAVFLI**

**XAVFLI** xavfli vaziyatni bildiradi, agar uning oldini olish imkoni bo‘lmasa, o‘limga yoki jiddiy shikastlanishga olib keladi.



### **EHTIYOT BO‘LING**

**OGOHLANTIRISH** xavfli vaziyatni bildiradi, agar uning oldini olish imkoni bo‘lmasa, o‘limga yoki jiddiy shikastlanishga olib kelishi mumkin.



### **DIQQAT**

**DIQQAT** xavfli vaziyatni bildiradi, agar uning oldini olish imkoni bo‘lmasa, og‘ir bo‘lmagan yoki o‘rtacha shikastlanishga olib kelishi mumkin.

### **MA‘LUMOT UCHUN**

**ESLATMA**, agar vaziyatning oldini olish imkoni bo‘lmasa, transport vositasining shikastlanishiga olib kelishi mumkinligini bildiradi.

# MUNDARIJA

So‘zboshi	1
Transport vositasi haqida ma’lumot	2
Xavfsizlik tizimi	3
Asboblar kombinatsiyasi	4
Qulaylikni ta'minlovchi funksiyalar	5
Harakatlanish vaqtida	6
Favqulodda vaziyatlar	7
Texnik xizmat ko‘rsatish	8
Ilova	9
Mavzuga oid ko‘rsatkich	I



# 1. SO‘ZBOSHI

So‘zboshi .....	1-1
Qo‘llanmadan qanday foydalanish kera .....	1-4
Xavsizlik to‘g‘risida ma‘lumot .....	1-4
Yonilg‘iga qo‘yiladigan talablar.....	1-6
Avtomobil konstruksiyasiga o‘zgartirishlar kiritish .....	1-10
Avtomobilni chiniqtirish tartibi .....	1-11
Eski abtomobillarni qaytarish(Yevropa uchun).....	1-11

## SO'ZBOSHI

HYUNDAI avtomobilini tanlaganingiz bilan tabriklaymiz va minnatdorchilik bildiramiz. Sizni HYUNDAI kompaniyasining oshib boruvchi mijozlar qatorisida bo'lganingiz bilan tabriklashdan mamnunmiz. Biz har bir HYUNDAI avtomobilining ilg'or muhandislik echimlari va avtomobilini yig'isdagi yuqori sifati bilan faxrlanamiz.

Ekspluatatsiya qilish bo'yicha qo'llanma Sizni yangi HYUNDAI avtomobilingizning funksiyalari va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi. Sizning yangi HYUNDAI avtomobili bilan tanishish va uning imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish uchun uni ishlatishdan oldin ushbu qo'llanmani diqqat bilan o'qib chiqing.

Ushbu qo'llanmada avtomobilni boshqarish vositalari va avtomobilni xavfsiz ekspluatatsiyasi uchun xavfsizlikni ta'minlash funksiyalari bilan Sizni tanishtirish maqsadi bo'lgan xavfsizlik bo'yicha muhim ma'lumotlar va yo'riqnomalar mavjud.

Shuningdek, ushbu qo'llanmada avtomobilning xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun mo'ljallangan texnik xizmat ko'rsatishga oid axborot mavjud.

Avtomobilga HYUNDAI kompaniyasining vakolatli xizmat ko'rsatish markazida texnik xizmat ko'rsatish servisini bajarishni tavsiya qilamiz. HYUNDAI dilerlari sizga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish, texnik xizmat ko'rsatish va sizga kerak bo'ladigan boshqa yordam ko'rsatishga tayyor.

Ushbu qo'llanma avtomobil egasi uchun avtomobilning ajralmas qismi deb hisoblanishi va har doim foydalanish uchun avtomobilda saqlanishi kerak. Avtomobilni sotish vaqtida qo'llanma keyingi egasiga avtomobilning ishlashi, ta'mirlanishi va avtomobilga texnik xizmat ko'rsatilishi haqidagi muhim axborotni berish uchun avtomobilda qolishi kerak.

## HYUNDAI MOTORS KOMPANIYASI



### DIQQAT

**HYUNDAI kompaniyasining talablariga mos kelmaydigan sifatsiz yonilg'i va moylash materiallaridan foydalanish dvigatel va transmissiyaning jiddiy shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Har doim ushbu qo'llanmada 2-14-sahifasidagi "Avtomobilning texnik xarakteristikalari" bo'limida ko'rsatilgan talablarga mos keladigan yuqori sifatli yonilg'i-moylash materiallaridan foydalaning.**

HYUNDAI Motor kompaniyasining mualliflik huquqi 2020 y. Barcha huquqlar himoyalangan. Mazkur hujjatning hech bir qismi HYUNDAI Motors Company kompaniyasining yozma ruxsatnomasini oldindan olmasdan qayta ishlanishi, har qanday axborot-izlash tismiga kiritilishi yoki aloqa kanallari orqali har qanday shaklda yoki har qanday usulda uzatilishi mumkin emas.

## QO'LLANMADAN QANDAY FOYDALANISH KERAK

Biz sizga avtomobilni haydashdan maksimal darajada zavqlanishga yordam berishni xohlaymiz.

Ushbu ekspluatatsiya qilish bo'yicha qo'llanma sizga turli xil usullar bilan yordam berishi mumkin. Biz qo'llanmani to'liq o'qib chiqishinizni tavsiya etamiz. Buning uchun o'lim va shikastlanish ehtimolini kamaytirish uchun ushbu qo'llanmadagi DIQQAT va OGOHLANTIRISH bandlarni o'qib chiqishingiz kerak.

Rasmlar ushbu qo'llanmada berilgan tavsiflarni to'ldiradi, avtomobildan yanada yaxshiroq zavq olishga yordam beradi. Ushbu qo'llanmani o'qib bo'lgach, avtomobil egasi uning o'ziga xos xususiyatlari, har xil yo'l sharoitida uni ishlatish bo'yicha xavfsizlik togrisidagi ma'lumotlar va maslahatlar bilan tanishib chiqadi.

Qo'llanmaning umumiy strukturasi mundarijada keltirilgan. Avval mavzuga oid korsatkichdan tanishishni boshlash kerak, unda qo'llanmada mavjud bo'lgan barcha axborot ro'yxati alifbo tartibida keltirilgan.

Bo'limlar: Ushbu qo'llanmada sakkizta bob va lifbo tartibidagi ko'rsatkichlar mavjud. Har bir bo'lim qisqacha mazmundan boshlanadi, bu bo'limda zarur axborot mavjudligini tez bilib olish imkonini beradi.

## XAVFSIZLIK TO'G'RISIDA

Sizning va boshqa insonlarning xavfsizligi muhim ahamiyatga ega.

Ushbu ekspluatatsiya qilish bo'yicha qo'llanma ko'plab ehtiyot choralar va texnik ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi

Bu ma'lumot sizga yoki boshqalarga mumkin bo'lgan xavf va shuningdek potentsial zarar haqida ogohlantiradi.

Avtotransport vositalarining tablichkalaridagi va ushbu qo'llanmadagi ogohlantirish xabarlari barcha xavflarni, shuningdek, xavflarni kamaytirish uchun ehtiyotkorlik choralarni tavsiflaydi.

Ushbu qo'llanmadagi ogohlantirish xabarlari va yo'l-yo'riqlar sizning xavfsizligingizga qarailgan. Xavfsizlik texnikasi bo'yicha ogohlantirishlar va yo'l-yo'riqlarga rioya qilmaslik jiddiy shikastlanishga yoki o'limga olib kelishi mumkin.

Qo'llanmada XAVFLI, OGOHLANTIRISH, DIQQAT va ESLATMA, shuningdek xavf haqida ogohlantiruvchi BELGILANISHLAR dan foydalaniladi.



Bu xavf haqida ogohlantiruvchi belgi. Jismoniy jarohatlar olishning potentsial xavfi haqida ogohlantiradi.

Barcha ogohlantiruvchi xabarlariga rioya qiling, ushbu ogohlantiruvchi xabarlar potentsial shikastlanishlar yoki o'limning oldini oladi. Xavf haqida ogohlantiruvchi belgi XAVFLI, OGOHLANTIRISH va DIQQAT signalli so'zlar oldiga qo'yiladi.



### XAVFLI

XAVFLI xavfli vaziyatni bildiradi, agar uning oldini olish imkoni bo'lmasa, o'limga yoki jiddiy shikastlanishga olib keladi.



### EHTIYOT BO'LING

OGOHLANTIRISH xavfli vaziyatni bildiradi, agar uning oldini olish imkoni bo'lmasa, o'limga yoki jiddiy shikastlanishga olib kelishi mumkin.



### DIQQAT

OGOHLANTIRISH xavfli vaziyatni ko'rsatadi, agar unga e'tibor berilmasa, o'limga yoki jiddiy shikastlanishga olib kelishi mumkin.

### MA'LUMOT UCHUN

ESLATMA, agar vaziyatning oldini olish imkoni bo'lmasa, transport vositasining shikastlanishiga olib kelishi mumkinligini bildiradi.

## YONILG'I TALABLARI

### Benzinda harakatlanuvchi avtomobillar

#### **Etilsiz benzin**

##### Yevropada

Optimal ishlash uchun mashinaga tavsiya etilgan yonilg'i RON oktan raqamli etilsiz benzin (tadqiqot usuli bo'yicha oktan raqam) 95 / AKI (antidetonativ indeksi) 91 yoki undan yuqori. (Metanol aralashmalari bilan ishlatmang.) Siz etilsiz benzindan oktan RON 91 dan 94 gacha / AKI 87 dan 90 gacha foydalana olasiz, lekin avtomobil xarakteristikalarida kamchiliklarga olib kelishi mumkin. (Metanol aralashmalari bilan ishlatmang)

Yevropadan tashqarida, Rossiya uchun

Avtotransport vositalarining yaxshi ishlashi uchun biz etilsiz RON 91 / AKI 87 yoki undan yuqori turlarini ishlatishingizni tavsiya qilamiz. (Metanol aralashmalari bilan foydalanmang)

Avtomobil ETILSIZ BENZINDa haydalganda maksimal ishlashga erishish uchun mo'ljallangan.

Bu esa zararli moddalarning kamayishiga va o't oldirish svehalarining ifloslanishiga olib keladi.



### DIQQAT

**HECH QACHON ETIL YONILG'IDAN FOYDALANMANG.**

Etil yonilg'idan ekspluatatsiya qilish katalizatorga zarar yetkazadi va dvigatelni boshqarish tizimidagi kislorod sensori shikastlanadi, zararli moddalarning emissiyasini nazorat qilishda nuqson yuzaga keladi.

yonilg'i tizimiga hech qachon avtomobil ishlab chiqaruvchisi tomonidan tavsiya etilganlardan boshqa yonilg'i quyish moslamasini qo'shmang. (Qo'shimcha ma'lumot olish uchun vakolatli HYUNDAI dileri bilan bog'laning)



## EHTIYOT BO‘LING

- Yoqilg‘i quyish paytida yoqilg‘i quyish pistiletining avtomatik to‘xtamagandan keyin yoqilg‘i idishining og‘zining yuqori cheti bilan bakka yoqilg‘i quymang.
- Avtomobilga yoqilg‘i quyish tugagandan so‘ng yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lgan vaqtda yoqilg‘ining to‘kilib ketishining oldini olish uchun yoqilg‘i idishining qopqog‘i mahkam yopilganligiga ishonch hosil qiling.

### ***Etilenli benzin (mavjud bo‘lganda)***

Bir qancha mamlakatlarda ushbu modeldagi avtomobillar etilenli benzinni ishlatish uchun mo‘ljallangan. Agarda etilenli yoqilg‘isidan foydalanmoqchi bo‘lsangiz, HYUNDAI kompaniyasining vakolatli dileriga murojaat qilishingizni tavsiya qilamiz. Etilenli va etilen bolmagan benzinning oktan raqami bir xil.

### ***Etil va metil spirtli benzin***

Benzin va etanol aralashmali benzinli spirt (donli spirt nomi bilan ma‘lum bo‘lgan), va tarkibida metanol bo‘lgan benzin yoki benzin spirti (yog‘ochli spirt nomi bilan ma‘lum bo‘lgan) bugungi kunda bozorda bir vaqtning o‘zida etilenli yoki etilen bo‘lmagan benzin bilan birga yoki uning o‘rniga sotiladi. Tarkibida 10% dan ortiq etil spirti bo‘lgan benzinli spirtidan foydalanish va metil spirtining biron bir qismini o‘z ichiga olgan benzin yoki benzinli spirtidan foydalanish mumkin emas. Bu yoqilg‘ilarning barchasi avtomobilni boshqarishda muammolar keltirib chiqarishi va yoqilg‘i tizimiga zarar yetkazishi mumkin. Ushbu turdagi yoqilg‘ilar boshqarishda muammolarga va yoqilg‘i tizimining, dvigatelni boshqarish tizimining va chiqariladigan gazning zararliligini kamaytirish tizimining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Avtomobilning shikastnishi yoki uni boshqarish vaqtidagi muammolar, agar muammolar avval keltirilgan yoqilg'i turlaridan foydalanish bilan bogliq bo'lgan holatda ishlab chiqaruvchining kafolati bilan qoplanmasligi mumkin.

1. Tarkibida 10% dan ortiq etil spirti bo'lgan benzin spirti.
2. Tarkibida metil spirti bo'lgan benzin yoki benzin spirti.
3. Etilenli yoqilg'i yoki etilenli benzin.



### DIQQAT

**Tarkibida metanol bo'lgan benzin spirtidan hech qachon foydalanmang. Agar avtomobilning harakatlantiruvchi qismi yomonlashishiga olib keladigan har qanday benzin spirtidan foydalanishni to'xtating.**

### ***Boshqa turdagi yoqilg'ilar***

- Yoqilg'iga silikonli qo'shimcha preparat;
- tarkibida MMT (marganes, Mp) bo'lgan yoqilg'iga qo'shimcha preparat;
- tarkibida ferrotsen (temir asosli) bo'lgan yoqilg'iga qo'shimcha preparat;
- metall asosidagi boshqa yoqilg'iga qo'shimcha preparat kabi yoqilg'i qo'shimcha preparatining bunday turlaridan foydalanish o't oldirgichning o'tishiga, tezlanishning yomonlashuviga, dvigatelning to'xtashiga, katalitik neytralizatorning shikastlanishiga, yuqori darajadagi korroziyaga olib kelishi mumkin va kuchli agregatning ishlash muddatini qisqartiradigan dvigatelning shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

### **MA'LUMOT UCHUN**

Yoqilg'i tizimining shikastlanishi yoki bu yoqilg'idan foydalanish natijasida yuzaga keladigan muammolar sizning yangi avtomobil uchun cheklangan kafolatingizni qoplamasligi mumkin.



### **Metil terbutileter (MTBE) dan foydalanish**

Bu transport vositasida katta hajmli yoqilg'idan foydalanish tavsiya etilmaydi, metil terbutileter hajm fraksiyasi (MTBE) 15,0% dan oshadi (kislorodning og'irlik ulushi - 2,7%).

Metil terbutileter (MTBE) hajmli ulushi 15,0% dan yuqori bo'lgan kisloroddan foydalanish (kislorod og'irligi fraksiyasi 2,7%) avtomobilning ishlashini pasaytirishi va bug' siqilishi yoki ishga tushirish muammolariga olib kelishi mumkin.



### **DIQQAT**

**Ishlab chiqaruvchi tomonidan tasdiqlangan yangi avtomobilning cheklangan kafolati yoqilg'i tizimlarining shikastlanishi vayuqilg'idan foydalanish natijasida paydo bo'ladigan ish hajmining pasayishi sababli vujudga keluvchi zararni qoplamaydi, metil terbutileter (MTBE) 15,0% dan oshadi (kislorodning og'irlik ulushi - 2,7%).**

### **Metil spirtidan foydalanmang**

Ushbu transport vositasiga yoqilg'i quyish uchun tarkibida metanol (yog'och spirti) bo'lgan yoqilg'idan foydalanmang. Avtomobilingizda metanol (yog'och spirti) bo'lgan yoqilg'larni ishlatmang. Bu yoqilg'i transport vositasining ishlashini pasaytirishi vayoqilg'i tizimlari komponentlariga, dvigatellarni boshqarish tizimlari va chiqindilarni nazorat qilish tizimlariga shikast yetkazishi mumkin.

### **Yoqilg'i qo'shimchalari**

HYUNDAIRON 95 / AKI 91 yoki undan yuqori (yevropa uchun) yoki RON 91 / AKI 87 yoki undan yuqori (yevropadan tashqari) etilsiz benzindan foyanishni tavsiya etadi. Agar yuqori sifatli benzinni, shu jumladan qo'shimchalarni muntazam ishlatmaydigan xaridorda dvigatelning ishga tushishi yoki uzilishlari bilan bog'liq muammolar bo'lsa, xizmat ko'rsatish jadvaliga muvofiq yoqilg'i bakiga bir shisha qo'shimchani quyish tavsiya etiladi (8-bobga qarang "Ish paytida texnik xizmat ko'rsatish jadvali").

Qo'shimchalarni HYUNDAI vakolatli dileridan sotib olish mumkin. U yerda siz foydalanish bo'yicha tavsiyalar olishingiz mumkin. Turli xil qo'shimchalarni aralashtirmang.

### ***Chet elda avtomobildan foydalanish***

Ushbu mashina bilan boshqa mamlakatga sayohat qilishda siz quyidagilarni ta'minlashingiz zarur:

- Barcha ro'yxatga olish va sug'urta talablariga rioya qilish;
- Sotuvda kerakli sifatli yoqilg'ining mavjudligini aniqlash.

## **Avtomobil konstruksiyasiga o'zgarishlar kiritish**

- Ushbu transport vositasi konstruksiyasiga o'zgartirish kiritish taqiqlanadi. O'zgartirishlar avtomobilning ishlashiga, xavfsizligiga yoki xizmat muddatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ba'zi hollarda, ular hatto xavfsizlik va chiqindilarni nazorat qilish bo'yicha hukumat qoidalarini buzishi mumkin. Bundan tashqari, zarar yoki pasayish xususiyatlari, sabab bo'lgan har qanday dizayndagi o'zgarishlar tufayli kafolat berilmaydi.
- Ruxsatsiz elektron qurilmalardan foydalanish avtomobil boshqaruvining buzilishiga, simlarning shikastlanishiga, akkumlyatorning zaryadsizlanishiga va yong'inga olib kelishi mumkin. O'z xavfsizligingiz uchun tasdiqlanmagan elektron qurilmalardan foydalanmang.

## AVTOMOBILNI CHINIQTIRISH TARTIBI

Birinchi 100 km (600 mil) haydash paytida bir nechta oddiy ehtiyot choralariga rioya qilish avtomobilingizning ishlashiga, iqtisodiyotiga va uzoq muddat xizmat qilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Dvigatelni juda yuqori aylanishlarda ishlatmang.

- Haydash paytidavdigatel aylanish chastotasini (aylanish tezligi yoki daqiqada aylanish) 2000 dan 4000 gacha ushab turing.
- Uzoq vaqt davomida bir xil tezlikda (ham yuqori, ham past) yurmang. Dvigatel tezligini o'zgartirish uning to'g'ri ishlashi uchun zarurdir.
- Tormoz balatalarining to'g'ri aloqa qilishini ta'minlash uchun, favqulodda holatlardan tashqari og'ir tormozlashdan saqlaning.
- Avtotransport vositasidan birinchi 2000 km (1200 milya) uzoqlikda tirkama tortish taqiqlanadi.

## ESKI MASHINALARNI QAYTARISH (Yevropa uchun)

HYUNDAI muddati tugagan transport vositalarini qayta ishlashga sodiq va Yevropa Ittifoqi (EI) mashinalarning direktiviga muvofiq HYUNDAIga xizmat muddati tugagan avtomobilni qaytarishni taklif qiladi.


Ba'tafsil ma'lumot uchun mahalliy HYUNDAI veb-saytiga tashrif buyuring.

## 2. Transport vositasi haqida ma'lumot

Tashqi ko'rinishi (I).....	2-2
Tashqi ko'rinishi (II).....	2-3
Salon haqida umumiy ma'lumot.....	2-4
Ko'rsatkichlar panelining umumiy ko'rinishi.....	2-6
Dvigatel bo'linmasi.....	2-8
Gabarit o'lchamlar.....	2-9
Dvigatel spetsifikatsiyasi.....	2-9
Yoritish chirog'ining kuchi.....	2-10
Shinalar va g'ildiraklar.....	2-12
Konditsioner tizimi.....	2-13
Yuk ko'rsatkichlari va shinalar tezligi ko'rsatkichlari.....	2-14
Hajmi va massasi.....	2-14
Tavsiya etilgan moylash materiallari va foydalanish doirasi haqida ma'lumot.....	2-15
SAE tasnifi bo'yicha tavsiya etilgan yopishqoqlik darajasi.....	2-16
Avtomobil seriya raqami (VIN).....	2-18
Avtotransport vositasining sertifikatini.....	2-18
Texnik xususiyatlar jadvali / shinalar bosimi qiymatlari.....	2-19
Dvigatelning seriya raqami.....	2-19
Konditsioner kompressorining yorlig'i.....	2-20
Yoqilg'i belgisi.....	2-20
Muvofiqlik deklaratsiyasi.....	2-21

## Tashqi ko'rinish (I)

■ Old tomondan ko'rinish




Haqiqiy shakl ko'rsatilgan rasmdan farq qilishi mumkin.

ODN8019001L

1. Kapot.....	5-59
2. Old faralar lampasi.....	8-77
3. Shinalar va g'ildiraklar.....	8-51
4. Tashqi orqa tomonni ko'rsatuvchi yon oyna.....	5-41
5. Tom qismida joylashgan panoramali lyuk.....	5-52
6. Oyna tozalovchi cho'tkalar.....	8-41
7. Oyna.....	5-46

## Tashqi ko'rinish (II)

■ Orqa tomondan ko'rinish




**Haqiqiy shakl ko'rsatilgan rasmdan farq qilishi mumkin.**

ODN8019002L

8. Eshiklar .....	5-19
9. Yoqilg'i quyish qopqog'i .....	5-68
10. Kombinatsiyali orqa chiroq.....	8-80
11. Yukxona.....	5-60
12. Defroster (isitgich)/oynadagi antenna.....	5-139
13. Qo'shimcha tormoz chirog'i .....	8-82
14. Antenna .....	5-159
15. Orqa tomonni o'rish uchun kamera.....	5-104

## Salon haqida ma'lumot




Haqiqiy shakli rasmdan farq qilishi mumkin

ODN8019003L

1. Ichki eshik tutqichi.....	5-21
2. O'rindiqlarning joylashuvi xotirasi tizimi.....	5-32
3. Qatlanadigan tashqi yon oynalar kaliti.....	5-44
4. Ko'zguni boshqaruv kaliti.....	5-43
5. Oyna ko'targichni qulflash kaliti.....	5-22
6. Oyna ko'targich kalitlari.....	5-46
7. Elektr oyna ko'targichni qulflash tugmasi.....	5-26
Orqa eshikni qulflash moslamasi, elektr ko'targichni bolalardan himoya qilish uchunqulflash tugmasi	5-27
8. Rulni egish dastagi /rul g'idiragini cho'zish dastagi.....	5-37
9. Rul g'ildiragi.....	5-36
10. Faralarni tekislovchi moslama.....	5-85
11. Orqa yorug'lik boshqaruv paneli regulyatori.....	4-3
12. Yo'l xavfsizligi tugmasi.....	6-127
13. Yukxona eshigini bo'shatish dastagi.....	5-61
14. O'chirish tugmasiESC (elektron dinamik stabilizatsiya tizimi)	6-42
15. EPB kaliti (elektr to'xtash tormozi).....	6-30
16. Kapotni ochish dastagi.....	5-59




## ASBOBLAR PANELI HAQIDA MA'LUMOT




1. Asboblar kombinatsiyasi .....	4-2
2. Haydovchi uchun old havo yostiqchasi.....	3-57
3. Kalitsiz kontaktni qulflash / .....	6-8
Dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasi.....	6-12
4. Audio / video / navigatsiya tizimi .....	5-162
5. Xavf haqida ogohlantiruvchi chiroq .....	7-3
6. Qo'lda boshqariladigan mikroiklim boshqaruv tizimi / .....	5-111
Avtomatik mikroiklim boshqaruv tizimi .....	5-123
7. Old o'rindiq yo'lovchisi uchun havo yostiqchasi .....	3-57
8. Buyumlar qutisi.....	5-147
9. Uzatish qutisini o'zgartirish tugmasi .....	6-17
10. Avtoturargoh xavfsizligi tugmasi.....	5-100
11. Avtoturargoh / ko'rib chiqish tugmasi .....	5-105
12. Birlashtirilgan haydash rejimining boshqaruv tizimi tugmasi.....	6-50
13. Avtomatik ushlab turish tugmasi.....	6-35

## Dvigatel bo'limasi

### ■ 2,0 MPI



### ■ Smartstream G2,5



**Avtomobilning haqiqiy dvigatel bo'limasi rasmdagidan farq qilishi mumkin.**

ODN8089049L/ODN8089048L

1. Dvigatel suyuqligini sovutish ombori.....	8-30
2. Giravlik tormoz baki.....	8-34
3. Havo filtri .....	8-38
4. Dvigateldagi yog'lar darajasining ko'rsatkichi.....	8-28
5. Motor moyini to'ldirish qopqog'i .....	8-29
6. Old oynani yuvish uchun suyuqlik ombori.....	8-36
7. Saqlagich qutisi .....	8-62
8. Saqlagich qutisi .....	8-44

## GABARIT O'LCAMLAR

Parametr		mm (dyuym)
Umumiy uzunlik		4 900 (192,9)
Umumiy kenglik		1 860 (72,2)
Umumiy balandlik		1 445 (56,9)
Old g'ildirak izi	205/65 R16	1 633 (64,3)
	215/60 R16	1 627 (64,1)
	215/55 R17	1 623 (63,9)
	235/45 R18	1 618 (63,7)
Orqa g'ildirak izli	205/65 R16	1 640 (64,6)
	215/60 R16	1 634 (64,3)
	215/55 R17	1 630 (64,2)
	235/45 R18	1 625 (64,0)
G'ildirak asosi		2 840 (111,8)

## Dvigatel tasnifi

Detal	2.0 MPI	Smartstream
Hajm CM3(kub.dyum)	1 999 (121,98)	2 497 (152,37)
X diametri mm (dyum)	81 x 97 (3,18 x 3,82)	88,5 x 101,5 (3,47 x 4,00)
Silindrlarning tartibi	1-3-4-2	1-3-4-2
Silindrlarning miqdori	4. V-Тип	4. V-Тип

## YORITISH LAMPALARINING QUUVVATI

Chiroqlar		Kuch	Turi	
Old	Old faralar	Yaqinni yorituvchi/ Uzoqni yorituvchi (A turi)	NV3	60
	Old faralar	Yaqinni yorituvchi// Uzoqni yorituvch (B / C turi)	LED	LED
	Kunduzi ishlaydigan chiroqlar gabarit chiroqlari	A turi	P21/5W	21/5
		B / C turini kiriting	LED	LED
	Buriish Ko'rsatkichi	A turi	PY21W	21
		B / C turini kiriting	LED	LED
Orqaga harakatlanganlikni bildiruvchi chiroq (tumanda foydalaniladigan chiroq)		LED	LED	
Orqa	To'xtash signali		LED	LED
	Yon lampochka		LED	LED
	Buriish Ko'rsatkichi	A turi	PY21W	21
		B / C turini kiriting	LED	LED
	Orqaga harakatlanganlikni bildiruvchi chiroq (tumanda foy-gan chiroq)		W16W	16
	Tumanda ish-gan orqa chiroq Tumanda ish-gan orqa chiroq		LED	LED
	Tumanda ish-gan orqa chiroq (tumanda foy-gan chiroq)		LED	LED
	Yuqori to'xtash chirog'i		LED	LED
	Avtomobil raqami belgisi yoritgichi		W5W	5

Chiroqlar		Kuch	Chiroq turi	
Salon	Yo'naltiruvchi chiroq	A turi	WEDGE	
		B turi	LED turi	
	Alohida orqa yorug'lik chirog'i ( hozirda mavjud )		LED turi	LED turi
	Salon plafoni yoritgichi (hozirda mavjud)		FESTOON	10
	Aksessuar oyna chirog'i		FESTOON	5
	Yukxona chirog'i		FESTOON	5

## Shinalar va g'ildiraklar

Nomi	Shinalar hajmi	G'ildirak hajmi	Shinalar bosimi, bar (kPa, kv.dyum uchun ft)				G'ildirak o'qining tortish momenti kgf • m (lbf • ft, N • m) (funt-N•m)
			Nominal yuk *1		Maksimal yuk		
			Old	Orqa	Old	Orqa	
To'liq o'lcham dagi	205/65 R16	6,5J X 16	2,4 (240, 35)	2,4 (240, 35)	2,4 (240, 35)	2,4 (240, 35)	11~13 (79~94, 107~127)
	215/60 R16	6,5J X 16	2,4 (240, 35)	2,4 (240, 35)	2,4 (240, 35)	2,4 (240, 35)	
						2,9 (290, 42) (yevropa uchun)	
	215/55 R17	7,0J X 17	2,4 (240, 35)	2,4 (240, 35)	2,4 (240, 35)	2,4 (240, 35)	
						2,9 (290, 42) (yevropa uchun)	
	235/45 R18	7,5J X 18	2,4 (240, 35)	2,4 (240, 35)	2,4 (240, 35)	2,4 (240, 35)	
2,9 (290, 42) (yevropa uchun)							
Ixcham zaxira shinalar (hozirda)	T125/80 D16	4T X 16	4,2 (420, 60)	4,2 (420, 60)	4,2 (420, 60)	4,2 (420, 60)	

\*1:Normal yuk- 3 kishigacha

**Ma'lumot uchun**

• Agar tez kunda sovuq tushishi kutilsa, shinalardagi standart bosimga 3 ft / 2 dyum qo'shilishi mumkin.

Odatda, har 7 °C harorat pasayishi uchun bosim pasayishi 1 ft / 2 dyum (7 kPa) ni tashkil qiladi. Agar haroratning keskin o'zgarishi kutilsa, shinalar bosimini muntazam tekshirib turing, chunki ular to'g'ri shishirilishi zarur.

• Asosan, yuqori balandlikda haydashda bosim pasayadi. Shunday qilib, agar siz baland tog'larga sayohat qilishni rejalashtirmoqchi bo'lsangiz, shinalar bosimini oldindan tekshiring. Agar kerak bo'lsa, ularni kerakli darajaga ko'taring. (Dengiz sathidan balandlikka qarab havo qo'shilishi: + 10 kPa / 1 km

**DIQQAT**

Shina o'zgartirish uchun o'rnatilgan avtomobilning barcha shinalari asl o'lchamlari bilan bir xil bo'lishi kerak. Boshqa o'lchamdagi shinalarni ishlatish boshqa qismlarga zarar yetkazishi yoki noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.

**Konditsioner tizimi**

Pozitsiya	Massa yoki hajm	Tasniflash
Sovutgich g (uns)	600±25g (20±0,88) (A turi) 520±25g (18±0,88) (B turi)	R-134a (A turi) R-1234yf (B turi)
Kompressor moyi g (uns))	100±10g (3,4±0,3)	FD46XG

Ba'tafsil ma'lumot olish uchun HYUNDAI rasmiy dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi...



## Yuk ko'tarish va shinalar tezligining ko'rsatkichlari

Element	Shina o'lchami	Disk диска	ruxsat ber. yuk		ruxsat ber. tezlik	
			LI *1	kg	SS *2	km/h
To'liq o'lchamdagi shina	205/65 R16	6,5J X 16	95	690	H	210
	215/60 R16	6,5J X 16	95	690	H	210
	215/55 R17	7,0J X 17	94	670	V	240
	235/45 R18	7,5J X 18	94 yoki 98	670 yoki 750	V yoki Y	240 yoki 300
Ixcham zaxira shinalar(mavjud bo'lganda)	T125/80 D16	4T X 16	97	730	M	130

\*1 LI :Ruxsat berilgan yuk indeksi(Yuk Indeksi)

\*2SS:Tezlik belgisi

\*

## Hajm va vazn


Elementlar		2,0 MPI	Smartstream G2,5
		A/T	A/T
Avtomobil to'liq vazni kg (funt))	Yevropa uchun	1 960 (4 321) yil	1 980 (4 365)
	Yevropadan tashqari	1 960 (4 321) yil	1 980 (4 365)
Yukxona hajmi(VDA) l(kub...ft)		510 (18)	

AKPP: Avtomatik uzatish qutisi

## TAVSIYA ETILGAN MOYLASH MATERIALLARI VA HAJM HAQIDA MA'LUMOT

Dvigatel va transmissiyaning optimal ishlashiga erishish va xizmat muddatini uzaytirish uchun faqat yuqori sifatli moylash materiallaridan foydalaning. Yuqori sifatli moylash materiallari shuningdek, dvigatelning samaradorligiga ta'sir qiladi va yonilg'i sarfini kamaytiradi.

Avtomobilingizda quyidagi moylash materiallaridan foydalanish tavsiya etiladi:

Moy	Hajm	Tasnifi	
motor moyi *1 *2 (bo'shatish va qo'shish)	2,0 MPI	Yaqin Sharqdan tashqari	SAE 5W-20 / API SM yoki undan yuqori& ILSAC G F-4 yoki undan y.
		Yaqin Sharq uchun	SAE 5W-30 / ACEA A5/B5
 tavsia etiladi	Smartstream G2,5	Yaqin Sharqdan tashqari	SAE 0W-20/API SN PLUS/SP yoki ILSAC GF-6
		Yaqin Sharq uchun	SAE 5W-30 / ACEA A5/B5
Avtomatik uzatish qutisi uchun moy	2,0 MPI	6,7 l	MICHANG ATF SP-IV, SK ATF SP-IV, NOCA ATF SP-IV, original transmissiya suyuqligi HYUNDAI ATF SP-IV, S-OIL ATF SP-IV
	Smartstream G2,5		
Sovutish suyuqligi	2,0 MPI	5,5 l	Antifriz va distillangan suv aralashmasi(sovitish suvi alyuminiy radiator uchun etilen glikolga asoslangan)
	Smartstream G2,5	7,07 l	
Tormoz suyuqligi*3		0,7~0,8 l (0,74~0,85 amer.kvart)	DOT-4
Yaxshilash		60 l (63,4 amer.kvart)	"yonilg'i sifatiga talablar " 1 –bobni qarang.
motor moyi sarfi	Oddiy haydash shartlari	MAKS. 1 l/1500 km	-
	Murakkab haydash \ shartlari	MAKS. 1 l/1000 km	-

\*1 : Tavsiya etilgan SAE yopishqoqlik darajalari. 16-betga qarang.

\*2 : Energy Conserving Oil markali dvigatel moylari mavjud bo'lganda. Boshqa afzalliklarga qo'shimcha ravishda bu moylar dvigatelning ichki ishqalanishini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan yonilg'i miqdorini kamaytirish orqali yonilg'i sarfini kamaytirishga yordam beradi. Kundalik miqyosda bu yaxshilanishni hisoblash qiyin, lekin ular bir yil davomida yonilg'i sarfini sezilarli darajada kamaytiradi.

\*3 : Maksimal tormoz ishlashi va ABS, ESC tizimlarining optimal ishlashini ta'minlash uchun ma'lum bir original tormoz suyuqligidan foydalanish tavsiya etiladi (Standart:SAEJ1704 DOT-4 LV,1804925 CLASS-6 va FMVSS 118 DOT-4)

## Tavsiya etilgan SAE yopishqoqlik darajasi



### DIQQAT

**Moy darajasini tekshirish yoki o'zgartirishdan oldin, plomba qopqog'i, drenaj teshigi va o'lchagich atrofidagi joy toza ekanligiga ishonch hosil qiling.**


**Bu, ayniqsa, avtomobilni chang va iflos sharoitda ishlatganda va asfalt bo'lmagan yo'llarda harakatlanayotganda juda muhimdir. Qopqoqni va o'lchash moslamasini tozalash chang va qumning dvigatelga va boshqa mexanizmlarga kirishiga yo'l qo'ymaydi, bu esa shikastlanishni oldini oladi.**

Dvigatel moyining yopishqoqligi yonilg'i sarflanishiga va sovuq ob - havoda ishlashiga (dvigatelni ishga tushirish va moy bilan ta'minlash) ta'sir qiladi.

Past yopishqoqlikka ega motor moyi sovuq ob-havo sharoitida yonilg'i tejash va dvigatelning yaxshi ishlashini ta'minlaydi, yuqori haroratda esa dvigatelni to'g'ri moylash uchun yuqori yopishqoqlikka ega moy kerak. Tavsiya etilgan yopishqoqlik darajasidan boshqa moylarni ishlatish dvigatelning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Moy turini tanlayotganda keyingi moy almashinuvigacha avtomobilingiz qaysi haroratda ishlatilishini hisobga oling. Jadvalda tavsiya etilgan yopishqoqlik koeffitsienti qiymatlarini tanlang.

<b>Tavsiya etilgan SAE yopishqoqlik indeklari uchun harorat diapazoni</b>											
Harorat		°C	-30	-20	-10	0	10	20	30	40	50
		(°F)	-10	0	20	40	60	80	100	120	
Benzinda ishlaydigan dvigatellar uchun moy	2,0 MPI	Yevropa uchun	<b>0W-40, 5W-20, 5W-30, 5W-40</b>								
		Yaqin Sharq, Hindiston va Yevropadan tashqari	<b>20W-50</b>								
			<b>15W-40</b>								
			<b>10W-30</b>								
			<b>5W-20, 5W-30</b>								
		Yaqin Sharq va Hindiston uchun	<b>20W-50</b>								
	<b>15W-40</b>										
	Smartstream G2,5	Yaqin Sharqdan tashqari	<b>10W-30</b>								
			<b>0W20, 5W20, 0W30, 5W30</b>								
		Yaqin Sharq uchun	<b>0W-20</b>								
<b>5W-30</b>											


## Avtomobil seriya raqami (VIN)




Mashinaning seriya raqami - bu sizning avtotransport vositangizni ro'yxatdan o'tkazishda ishlatiladigan raqam va mashinaga egalik qilish bilan bog'liq barcha qonuniy holatlarda qo'llaniladi.

Raqam o'ng old o'rindiq ostiga muhrlangan. Raqamni tekshirish uchun qopqoqni ochish kerak.

## Avtomobil sertifikatlash taxtachasi




Avtotransport vositasini sertifikatlash taxtachasi (haydovchi yoki yo'lovchining yon tomonidagi o'tra ustunda joylashgan) avtomobil identifiatsiya raqami(VIN)ga ega.




Avtomobil identifikatsiya raqami (VIN) ham asboblari panelining yuqori qismidagi taxtachada joylashgan. Bu taxtachadagi raqam avtomobilning old oynasi orqali tashqi tomondan aniq ko'rinadi.

## TEXNIK XUSUSIYATLAR JADVALI/ SHINADAGI BOSIM BELGIARI




Avtomobilingizga o'rnatilgan shinalar boshqaruvchanlikni yaxshilash uchun tanlangan. Shinalarning texnik xususiyatlari jadvali haydovchi tomondagi o'rta ustunning tashqi tomonida joylashgan bo'lib, avtomobilingiz uchun tavsiya etilgan shinalar bosimi haqida ma'lumot beradi.

## DVIGATELNING SERIYA RAQAMI



Dvigatelning seriya raqami rasmda ko'rsatilgandek silindr blokiga muhrlangan.


## Konditsioner kompressori yorlig'i



Kompressor yorlig'ida model, yetkazib beruvchining qism raqami, seriya raqami, sovutgich turi (1) va sovutish moyining turi (2) ko'rsatilgan.

## Yonilg'i yorlig'i (mavjud bo'lganda)

Yonilg'i turini ko'rsatadigan yonilg'i quyish paneli qopqog'idagi yorliq.



A. Etilsiz benzinning oktanli reytingi

- 1) RON / ROZ: tadqiqot metodi bo'yicha benzinning oktan raqami
- 2) (R + M) / 2, AKI: Antidetonatsion indeks

B. Benzinli yonilg'i uchun identifikatorlar

x Bu belgi yonilg'idan foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. Boshqa har qanday yonilg'idan foydalanmang.

C. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun kirish qismidagi "yonilg'i uchun talablar" bo'limiga qarang.

**MUVOFIQLIK  
DEKLORATSIYASI  
(MAVJUD BO'LGANDA)**

CE CE 0678

CE0678

Avtomobilning radiachastotali  
komponentlari 1995/5 / EC  
ko'rsatmasining talablari va boshqa  
amaldagi qoidalariga mos keladi.  
Qo'shimcha ma'lumot, shu jumladan  
ishlab chiqaruvchining muvofiqlik  
deklaratsiyasi HYUNDAI veb-saytida  
mavjud:  
<http://service.hyundai-motor.com>



# 3. Xavfsizlik tizimi

Bu bobda haydovchi va yo'lovchilarni himoya qilish bo'yicha muhim ma'lumotlar mavjud.

Shuningdek, o'rindiqlar va xavfsizlik kamarlaridan to'g'ri foydalanish va xavfsizlik yostiqlashining ishlashi tushuntiriladi.

Bundan tashqari, ushbu bobda chaqaloqlar va bolalarni mashinada qanday qilib to'g'ri o'tirish kerakligi tushuntiriladi.

Muhim ehtiyot choralari.....	3-3
Har doim xavfsizlik kamarlaridan foydalanish kerak .....	3-3
Har doim bolalarni himoya qilish tizimidan foydalanish kerak .....	3-3
Xavfsizlik yostiqlashi bilan bog'liq xavflar .....	3-3
Haydovchining e'tiborini chalg'itish.....	3-4
Avtomobil tezligini nazorat qilish .....	3-4
Transport vositasini xavfsiz holatda saqlash.....	3-4
O'rindiqlar .....	3-5
Ehtiyot choralari .....	3-6
Old o'rindiq .....	3-7
Orqa o'rindiqlar .....	3-16
Boshqo'ygich .....	3-19
Isitadigan va ventilyatsiya qiladigan o'rindiqlar .....	3-23
Xavfsizlik kamarlari .....	3-28
Xavfsizlik kamarlardan foydalanganda ehtiyot choralari.....	3-28
Xavfsizlik kamari bilan bog'lanmagan ogohlantiruvchi chiroq.....	3-29
Xavfsizlik kamar tizimi.....	3-31
Xavfsizlik kamarini oldindan tortib mahkamlagich .....	3-34
Foydalanish uchun qo'shimcha ehtiyot choralari .....	3-37
Xavfsizlik kamarlarini yaxshi holatda saqlash.....	3-40
Bolalarni himoya qilish tizimi (CRS).....	3-41
Tavsiyamiz: Bolalar har doim orqa o'rindiqlarda bo'lishi kerak .....	3-41
Bolalarni himoya qilish tizimini tanlash (CRS) .....	3-42
Bolalarni himoya qilish tizimini o'rnatish (CRS).....	3-44

Xavfsizlik yostiqchasi - qo'shimcha xavfsizlik tizimi .....	3-55
Xavfsizlik yostiqchalarining joylashuvi.....	3-57
Xavfsizlik yostiqchasi tizimi qanday ishlaydi.....	3-62
Xavfsizlik yostiqchalari ochilgandan keyin nima bo'ladi .....	3-66
Old yo'lovchilar o'rindig'ida bolalarni xavfsizlik kamariga bog'lamang.....	3-67
Nega xavfsizlik yostiqchasi to'qnashuvda ishlamadi? .....	3-68
IXBga rioya qilish.....	3-74
Qo'shimcha ehtiyot choralari.....	3-75
Xavfsizlik yostiqchasi mavjudligi to'g'risida ogohlantirish yorliqlari.....	3-76

## MUHIM ehtiyot choralari

Ushbu bo'limda va ushbu yo'riqnomada ko'plab xavfsizlik choralari va eng yaxshi tavsiyalar bayon qilinadi. Bu bo'limda eng muhim xavfsizlik choralari keltirilgan.

### Har doim xavfsizlik kamarini taqing

Xavfsizlik kamaridan foydalangan holda baxtsiz hodisalarning barcha turlarida eng samarali himoya ta'minlanadi. Xavfsizlik yostiqlikchasi tizimi xavfsizlik kamarlarini to'ldirish va almashtirmaslik uchun mo'ljallangan. Shuning uchun, avtomobil xavfsizlik yostiqlikchasi tizimi bilan jihozlangan bo'lsa-da, haydovchi va yo'lovchilar HAR DOIM xavfsizlik kamarlaridan foydalanishlari zarur.

### Har doim bolalarni himoya qilish tizimidan foydalanish kerak

13 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar harakat paytida doimo orqa o'rindiqqa o'tirishlari kerak. Bunda ular xavfsizlik kamarlarida mahkamlanishi kerak. Chaqaloqlar va yosh bolalar uchun tegishli bolalarni himoya qilish tizimi qo'llanilishi lozim. Katta bolalar xavfsizlik kamarini yostiqlikchasi to'g'ri ishlata olmaguncha, xavfsizlik kamarining tizzasi va yelkasi bilan mustahkamlovchi yostiqlikchani ishlatishi kerak.

### Xavfsizlik yostiqlikchasi bilan bog'liq xavflar

Xavfsizlik yostiqlikchasi baxtsiz hodisada hayotni saqlab qolishi mumkin, lekin agar siz ularga juda yaqin o'tirsangiz yoki xavfsizlik kamaridan to'g'ri foydalanmasangiz, ular jiddiy shikastlanishga yoki o'limga olib kelishi mumkin. Xavfsizlik yostiqlikchasi ochilganda chaqaloqlar, yosh bolalar va bo'yi past odamlar xavf ostida qoladilar. Ushbu yo'riqnomada keltirilgan barcha ko'rsatmalar va ogohlantirishlarga rioya qilish zarur.

### Haydovchining e'tiborini chalg'itish

Haydovchining diqqatdan chalg'ishi jiddiy shikastlanishga va o'limga olib kelishi mumkin, ayniqsa tajribasiz haydovchilarda. Haydash paytida xavfsizlikka alohida e'tibor qaratish lozim. Haydovchilar turli xil chalg'ituvchi narsalar haqida, masalan, uyqu kelishi, biror narsa olishga harakat qilish, ovqatlanish, shaxsiy gigeyena, boshqa yo'lovchilar bilan gaplashish va telefondandan foydalanish kabi omillardan xabardor bo'lishlari kerak. (bu yerda bir necha omillar keltirildi, xolos).

Chalg'igan haydovchilar diqqatni jamlash uchun atrofni nazorat qilishni yo'qotishi yoki qo'lini ruldan tortib olishi mumkin. Chalg'itish va baxtsiz hodisa ehtimolini kamaytirish uchun:

- HAR DOIM avtomobil to'xtagan paytdagina mobil qurilmalarni (MP3 pleer, telefon, navigatsiya qutilari va boshqalar) o'rnatish zarur.
- Mobil qurilmalardan foydalanish FAQAT qonun va xavfsiz foydalanishga ruxsat beruvchi shartlarga mos tushsagina ruxsat beriladi. Haydash paytida elektron pochmani ochmang yoki xabar yubormang. Ko'pgina mamlakatlarda haydovchilarga qonun darajasida matn yozish taqiqlangan. Ba'zi mamlakatlar va shaharlarda haydovchilarga telefondan foydalanish ham taqiqlangan.

- Agar u haydashdan chalg'itsa, mobil qurilmalardan FOYDALANMANG. Haydovchi o'z yo'lovchilari va boshqa yo'l ishtirokchilari uchun javobgardir, shuning uchun siz mashinangizni xavfsiz tarzda boshqarishingiz kerak. Bunday holda, sizning qo'llaringiz rulda bo'lishi va yo'l holatini doimiy kuzatib borish lozim.


### Avtomobil tezligini nazorat qilish

Haddan tashqari tezlik baxtsiz hodisaning, shu jumladan o'lim holatining asosiy sababidir. Shunday qilib, tezlikni oshirib yuborish eng katta xavf hisoblanadi, lekin jiddiy shikastlanishlar past tezlikda ham sodir bo'lishi mumkin. Tezlik ruxsat etilgan tezlikdan past bo'lsa ham, sharoitga qarab harakatlanish kerak.

### Avtomobilning xavfsiz holatini saqlash zarur

Shinalar teshilishi yoki mexanik nosozliklar o'ta xavfli bo'lishi mumkin. Bunday muammolar ehtimolini kamaytirish uchun siz shinalardagi havo bosimini va ularning umumiy holatini muntazam tekshirib turishingiz kerak. Barcha rejalashtirilgan texnik xizmatlar o'z vaqtida bajarilishi kerak.

## O'RINDIQLAR



### Haydovchi o'rindig'i

- (1) Oldi va orqasi
- (2) O'rindiq suyanchig'ining egilish burchagi
- (3) O'rindiq yostiqlikining balandligi
- (4) O'rindiq yostiqlikining burchagi
- (5) Bel suyanchig'i

### Old yo'lovchi o'rindig'i

- (1) Oldi va orqasi
- (2) O'rindiq suyanchig'ining egilish burchagi
- (3) O'rindiq suyanchig'ining egilish burchagi
- (4) O'rindiq suyanchig'ining egilish burchagi
- (5) Oson foydalanish tugmasi

### Orqa o'rindiq

- (6) Tirsakqo'ygich
- (7) O'rindiqni orqaga egish

## Ehtiyot choralari

O'rindiq xavfsiz holda o'tirishga sozlangan bo'lishi zarur. Baxtsiz hodisada haydovchi va yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlashda qulay o'rindiq muhim rol o'ynaydi (xavfsizlik kamarlari va xavfsizlik yostiqchasi tizimlari bilan birga).



### EHTIYOT BO'LING

O'rindiq va yo'lovchi orasidagi ishqalanishni kamaytiradigan o'rindiq yostiqchasini ishlatmaslik kerak. Baxtsiz hodisa yoki to'satdan to'xtash paytida yo'lovchining sonlari kamar ostidan chiqib ketishi mumkin. Xavfsizlik kamari to'g'ri ishlamasligi mumkin va bu ichki organlarga jiddiy shikast yetkazishi yoki o'limga olib kelishi mumkin.

***Xavfsizlik yostiqchasi tizimi*** Agar xavfsizlik yostiqchasi ishdan chiqsa, shikastlanish xavfini kamaytirish uchun muayyan choralar ko'rish mumkin. Xavfsizlik yostiqchasiga juda yaqin o'tirish shikastlanish xavfini oshiradi.

Avtotransportni boshqarish paytida o'rindiqni old xavfsizlik yostiqchasidan iloji boricha uzoqroq joyga ko'chirish kerak.



### EHTIYOT BO'LING

**Yostiqcha ochilganda, shikastlanish xavfini kamaytirish uchun quyidagi choralarini ko'rish kerak:**

- **Avtomobilni boshqarishda haydovchi o'rindig'ini iloji boricha orqaga surib qo'yish.**
- **Old yo'lovchi o'rindig'ini iloji boricha orqaga siljitish.**
- **Rul g'ildiragini "9" va "3" soat yo'nalishi bo'yicha ushlab turish, bu qo'l jarohatlarini oldini oladi.**
- **Xavfsizlik yostiqchasi oldiga hech kimni yoki hech narsani qo'ymaslik.**
- **Oyoq jarohati xavfini kamaytirish uchun oldingi yo'lovchining old panelda oyoqlarini turishiga yo'l qo'ymaslik.**

### **Havfsizlik kamarlari**

Haydashdan oldin har doim xavfsizlik kamarini taqish lozim.

Yo'lovchilar har doim tik o'tirishlari va xavfsizlik kamarlaridan foydalanishlari kerak. Chaqaloqlar va yosh bolalar tegishli bolalarni himoya qilish tizimi bilan ta'minlanishi kerak. Qo'shimcha yostiqlikdan foydalanadigan bolalar va kattalar xavfsizlik kamarlaridan foydalanishlari shart.



### **EHTIYOT BO'LING**

**Xavfsizlik kamarlarni tartibga solishda quyidagi choralar ko'riladi:**

- Xavfsizlik kamari bilan bir nechta odamni taqmaslik.
- Har doim o'rindiqlik suyanchig'ini vertikal ravishda xavfsizlik kamarining bel qismi bilan o'ragan holda o'rnatish.
- Bolalar yoki chaqaloqlarning belbog'ini ishlatmaslik.
- Xavfsizlik kamarini bo'yindan, o'tkir qirralaridan yoki yelka belbog'ini tanadan tashqariga o'tkazib yuborish mumkin emas.
- Xavfsizlik kamari qismasligi kerak.

### **Old o'rindiqlik**

Old o'rindiqlik holatini o'rindiqlik yostiqlikchasi tashqi tomonida joylashgan boshqaruv dastagi yoki kalitlari yordamida sozlash mumkin. Harakatni boshlashdan oldin, o'rindiqlik boshqaruv panelida rulni, pedallarni va boshqaruv qismlarini boshqarish qulay bo'lishi uchun sozlash kerak.



### **EHTIYOT BO'LING**

O'rindiqlikni tartibga solishda quyidagi choralar ko'riladi:

- Avtomobil harakatlanayotganda o'rindiqlikni o'zgartirmang. Bu avtohalokatga olib kelishi mumkin bo'lgan boshqaruvni yo'qotishga olib kelishi mumkin.
- Old o'rindiqlik ostiga hech qanday narsalar qo'yib bo'lmaydi. Haydovchining oyoqlari atrofidagi yoyilib yotgan narsalar avtohalokatga olib kelishi mumkin.
- O'rindiqlikni normal holatiga qaytarishga hech narsa xalaqit bermasligi kerak.
- Zajigalkani oyoq ostida yoki o'rindiqlikda qoldirmang. O'rindiqlik joyini o'zgartirganda, gaz chiqib ketishi va yong'inga olib kelishi mumkin.

- O'rindiq ostidan yoki orasidan mayda marsalarni olib tashlashda ehtiyot bo'ling. O'rindiq mexanizmining o'tkir qirralari qo'ning kesilishiga yoki shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Old o'rindiqlarni sozlashda, orqa o'rindiqlarda o'tirganlarga ehtiyot bo'ling.
- Sozlamani bajarib bo'lgandan so'ng, mustahkamligiga ishonch hosil qiling. Agar bunday bo'lmasa, o'rindiq to'satdan bo'shab ketishi va baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin.




## DIQQAT

### Shikastlanishning oldini olish uchun:

- Xavfsizlik kamaridan foydalanib turib, o'rindiqni sozlash mumkin emas. O'rindiq yostiqtchasini oldinga siljitish qorin bo'shlig'iga qattiq bosim o'tkazishi mumkin.
- Qo'llaringizni yoki barmoqlaringizni o'rindiq mexanzmidan ehtiyot qiling.

### Qo'lda sozlash (mavjud bo'lganda)




### Uzunlama holatni sozlash

O'rindiqni oldinga yoki orqaga siljitish uchun:

1. Sozlash dastagini torting va ushlab turing.
2. O'rindiqni kerakli joyga o'tkazing.
3. Qo'lni bo'shating va o'rindiq yangi holatda qulflanganligiga ishonch hosil qiling. Qo'lni ishlatmasdan o'rindiqni oldinga va orqaga siljiting. Agar o'rindiq harakatlansa, u to'g'ri qulflanmagan.





### Suyanchiqni egish burchagi

O'rindiq suyanchig'ini egish burchagini sozlash uchun:

1. Bir oz oldinga egilib, suyanchiqni sozlash dastagini ko'taring.
2. Ehtiyotkorlik bilan orqaga suyanib, o'rindiq suyanchig'ini kerakli joyga qo'ying.
3. Sozlab bo'lgach mustahkamligiga Ishonch hosil qiling. (suyanchiq qulflagandan so'ng, dastak asl holatiga qaytishi kerak).

### O'rindiq suyanchig'ining otilishi

Suyanchiq oldinga otilganda avtotransportni boshqarish xavfli bo'lishi mumkin. Suyanchiq otilgan payt, hatto xavfsizlik kamari mahkamlanganda ham xavfsizlik tizimlari (xavfsizlik kamari va yostiqchasi) unchalik ish bermasligi mumkin.



### EHTIYOT BO'LING


**O'rindiq suyanchig'i oldinga otilganda avtotransportni haydash MUMKIN EMAS.**

**O'rindiq suyanchig'i oldinga otilgan holatda mashinani boshqarish paytida to'qnashuv yoki to'satdan tormozlanish natijasida jiddiy shikastlanish yoki o'limga olib kelishi mumkin.**

**Haydovchilar va yo'lovchilar har doim o'rindiqlarga to'g'ri o'tirishlari, xavfsizlik kamarlaridan foydalanishlari va suyanchiqlar tik holatda bo'lishi zarur.**

Xavfsizlik kamari sizning son va ko'kragingiz atrofida bo'lishi kerak, shunda ular to'g'ri ishlashi mumkin. Suyanchiq oldinga egilganda, yelka kamari o'z vazifasini bajara olmaydi, chunki u ko'kragiga mahkamlanmagan. Bundan tashqari, u old tomonda joylashgan. Baxtsiz hodisada xavfsizlik kamari qisishi oqibatida bo'yinga yoki boshqa organlarga jarohat olib kelishi mumkin.

Suyanchiq qancha ko'p oldinga siljisa, yo'lovchining soni kamar ostida qisilishi yoki yo'lovchining bo'yniga yelka kamari zarar yrtkazishi ehtimoli shuncha katta.



### O'rindiq yostiqchasi balandligi (haydovchi o'rindig'i uchun mavjud bo'lganda)

O'rindiq yostiqchasi balandligini o'zgartirish:

- O'rindiq yostiqchasini bir necha marta tushirish uchun dastani bosing.
- O'rindiq yostiqchasini ko'tarish uchun dastani bir necha marta yuqoriga torting.

### Elektron boshqaruvni sozlash (mavjud bo'lganda)


#### EHTIYOT BO'LING

Bolalarni mashinada qarovsiz qoldirmang. Bolalar tasodifan rostlagichni itarib yuborishi va u ishlayotganda qo'llar bilan o'rindiqli sozlash mexanizmiga tushib qolishi mumkin.

#### DIQQAT

O'rindiqlarning shikastlanishining oldini olish uchun:

- O'rindiq zaruriy holatga kelganda sozlashni to'xtating.
- Dvigatel to'xtab turganda, o'rindiqlarni kerak bo'lgandan ko'ra ko'proq vaqtga sozlamang. Bu batareyaning zaryadsizlanishiga olib kelishi mumkin.
- Bir vaqtning o'zida bir nechta o'rindiqli sozlash mumkin emas. Bu elektr tizimiga zarar yetkazishi mumkin




ODN8039005

### Uzunlama holatni sozlash

O'rindiqli oldinga yoki orqaga siljitish uchun:

1. Oldinga yoki orqaga boshqaruv tugmasini bosing.
2. O'rindiqli kerakli pozitsiyada bo'lganda tugmani qo'yib yuboring.



ODN8039006

### Suyanchiqni egish burchagi

O'rindiqli suyanchiqning egish burchagini sozlash uchun:

1. Oldinga yoki orqaga boshqaruv tugmasini bosing.
2. Suyanchiq kerakli pozitsiyada bo'lganda tugmani qo'yib yuboring.

### O'rindiqli suyanchiq'ini otilishi

Suyanchiq oldinga otilganda avtotransportni boshqarish xavfli bo'lishi mumkin. Suyanchiq otilgan payt, hatto xavfsizlik kamari mahkamlanganda ham xavfsizlik tizimlari (xavfsizlik kamari va yostiqchasi) unchalik ish bermasligi mumkin.v



### EHTIYOT BO'LING


O'rindiqli suyanchiq'l oldinga otilganda avtotransportni haydash MUMKIN EMAS.

O'rindiqli suyanchiq'l oldinga otilgan holatda mashinani boshqarish paytida to'qnashuv yoki to'satdan tormozlanish natijasida jiddiy shikastlanish yoki o'limga olib kelishi mumkin.

Haydovchilar va yo'lovchilar har doim o'rindiqlarga to'g'ri o'tirishlari, xavfsizlik kamarlaridan foydalanishlari va suyanchiqlar tik holatda bo'lishi zarur.

Xavfsizlik kamari sizning son va ko'kragingiz atrofida bo'lishi kerak, shunda ular to'g'ri ishlashi mumkin. Suyanchiq oldinga egilganda, yelka kamari o'z vazifasini bajara olmaydi, chunki u ko'kraginga mahkamlanmagan. Bundan tashqari, u old tomonda joylashgan. Baxtsiz hodisada xavfsizlik kamari qisishi oqibatida bo'yinga yoki boshqa organlarga jarohat olib kelishi mumkin.

Suyanchiq qancha ko'p oldinga siljisa, yo'lovchining soni kamar ostida qisilishi yoki yo'lovchining bo'yniga yelka kamari zarar yrtkazishi ehtimoli shuncha katta.



ODN8039007

### **O'rindiq yostiqchasini egish burchagini sozlash**

#### **(1, mavjud bo'lganda)**

Yostiqchanning old qism egish burchagini o'zgartirish uchun:

O'rindiq yostiqchasining old qismini ko'tarish, yuqoriga yoki pastga tushirish uchun sozlagichning old qismini ko'taring.


O'rindiq kerakli holatda bo'lishi bilan tugmani qo'yib yuboring.

### **O'rindiq yostiqchasining balandligini sozlash (2, mavjud bo'lganda)**

O'rindiq yostiqchasining balandligini sozlash:

O'rindiq yostiqchasini ko'tarish uchun sozlagichning orqa qismini yuqoriga yoki pastga siljiting.

O'rindiq kerakli holatda bo'lishi bilan tugmani qo'yib yuboring.



### Bel suyanchig'i (mavjud bo'lganda)

- Bel suyanchig'i mos keladigan sozlagich yordamida sozlanishi mumkin.
- Suyanchig'ni ko'tarish uchun sozlagichning old tomonini (1), tushirish uchun orqa qismini (2) bosing.


### Old yo'lovchi o'rindiqni boshqarish (mavjud bo'lganda)

Orqa o'rindiq yo'lovchisi old yo'lovchi o'rindig'ini sozlash uchun kalitlardan foydalanishi mumkin.

- Oldinga yoki orqaga siljitish:  
Old yo'lovchi o'rindig'i (1) tugmachasini bosib oldinga siljiydi.  
Old yo'lovchi o'rindig'i (2) tugmachasini bosib orqaga siljiydi.
- Burchakni sozlash:

Old yo'lovchi o'rindiq suyanchig'ini egish (3) tugmachasini bosib oldinga egiladi.

Old yo'lovchi o'rindiq suyanchig'ini egish (4) tugmachasini bosib orqaga buriladi.




**Dam olish o'rindig'i (yo'lovchilar o'rindig'i uchun mavjud bo'lganda)**

Dam olish o'rindig'i uzoq vaqt davomida bir pozitsiyada o'tirganda paydo bo'ladigan tananing ma'lum qismlaridan tushadigan yukni teng taqsimlaydi. O'rindiq o'tirishning maqbul holatini ta'minlab, charchoq va noqulaylikni kamaytiradi.



**⚠️ DIQQAT**

**Dam olish o'rindig'laridan foydalanishdagi ehtiyot choralari:**

- Avtomobil harakatlanayotganda dam olish o'rindig'idan foydalanish taqiqlanadi. Dam olish o'rindig'idan foydalanish to'qnashuv yoki to'satdan tormozlanish holatida jarohatlanish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi.
- Avtomobil harakatlanayotganda dam olish o'rindig'idan foydalanish taqiqlanadi. Yelka xavfsizlik kamari ko'krak qismini yetarlicha ushlamasligi mumkin.



- Dam olish o'rindig'ining ishlashi  
Agar (1) tugmasini bossangiz, o'rindiq avtomatik ravishda bo'shashish holatiga qaytadi.
  - O'rindiq yostiqchasi oldinga yoki orqaga siljiydi.
  - Yostiq burchagi va o'rindiq suyanchig'i sozlanadi.



[A]:bir vaqtda harakatlanuvchi

O'rindiqlarning joylashuvi (2) va (3) kalitlari yordamida qo'lda sozlanishi mumkin.


Kalitning yuqori qismini (2) bosish o'rindiqli dastlabki holatiga biroz siljitadi. Kalitning pastki qismini bosish (3) o'rindiq biroz bo'shashish holatiga qaytadi.

### MA'LUMOT UCHUN

**O'rindiq holatini sozlash uchun bir vaqtning o'zida bir necha kalitlarni bosmang. Bu o'rindiq tizimini ishdan chiqarishi mumkin.**

- Qaytish funksiyasi  
O'rindiq bo'shashgan holatda kalit (1) bosilganda, o'rindiq yo'lovchi pozitsiyasiga qaytadi.

### O'rindiq suyanchig'i cho'ntagi



Old o'rindiqlar orqasida cho'ntaklar mavjud.

### **DIQQAT**

O'rindiq cho'ntaklariga og'ir yoki o'tkir narsalarni qo'yish mumkin emas.  
Shunday bo'lgan taqdirda ular odamlarga shikast yetkazishi mumkin.

### Orqa o'rindiqlar

#### **Yig'iluvchan suyanchiqli orqa o'rindiq (mavjud bo'lganda)**


Orqa o'rindiqlarning suyanchiqlari uzun narsalarni tashish yoki avtomobilning yuk xonasi hajmini oshirish uchun buklanishi mumkin.



### **EHTIYOT BO'LING**

- Avtomobil harakatlanayotganda yo'lovchilar orqa o'rindiqlarning buklangan suyanchiq qismiga o'tirmasligi kerak. Bu holatda xavfsizlik kamari ishlatish mumkin emas.  
Bu baxtsiz hodisa yoki to'satdan to'xtab qolganda jiddiy shikastlanishga yoki o'limga olib kelishi mumkin.
- Orqa o'rindiqlarning o'ralgan suyanchiq qismiga qo'yilgan narsalar oldingi o'rindiqlarning orqa balandligidan oshmasligi kerak. To'satdan to'xtab qolganda, yuk oldinga siljiydi va shikastlanish yoki jarohatga olib kelishi mumkin.





ODN8039062L

Orqa o'rindiқ suyanちig'ini egish jarayoni:

1. Old o'rindiқning suyanちig'ini tik holatda joylashtiring va agar kerak bo'lsa, oldinga siljiting.
2. Bosh qo'ygichni eng past holatiga tushiring.



ODN8039064L

4. O'rindiқ suyanちig'ini oldinga buking.

5. Orqa o'rindiқdan foydalanish uchun suyanちiqni ko'tarish va orqaga tortish kerak. O'rindiқning orqa tarafidan tiqillash eshitilmaguncha torting. O'rindiқ qulflanganligiga ishonch hosil qiling.



ODN8039063L

3. Yukxona tomonda joylashgan o'rindiқ suyanちig'ini egish dastagini pastga torting.

### EHTIYOT BO'LING

Orqa o'rindiқ suyanちig'ini o'ralgan holatdan tik holatiga qaytarishda orqa o'rindiқni ushlab turing va sekin ko'taring. Suyanちiqni tepaga surish orqali tik holatda qulflanganligiga ishonch hosil qiling. Agar qulflanmagan bo'lsa, baxtsiz hodisa yoki to'satdan to'xtab qolganda yuk katta kuch bilan oldinga siljiydi va jiddiy shikastlanishga yoki o'limga olib kelishi mumkin.

### EHTIYOT BO'LING

Orqa o'rindiqqa narsalarni qo'ymang, chunki ularni mahkamlab bo'lmaydi. To'qnashuv sodir bo'lganda, ular jiddiy shikastlanishga yoki o'limga olib kelishi mumkin.v

### EHTIYOT BO'LING

Yukni tushirish yoki yuklashdan oldin, dvigatel o'chganligiga, uzatish qutisi "P" (to'xtash joyi) holatida ekanligiga ishonch hosil qiling.

Ushbu talablarga rioya qilmaslik, agar almashtirish tugmasi tasodifan boshqa joyga o'tkazilsa, avtomobil harakatlana boshlaydi.

### Tirsakqo'ygich



Tirsakqo'ygich orqa o'rindiqlarning o'rtasida joylashgan. Uni ishlatish uchun tirsakqo'ygichni o'rindiqlarning orqa qismidan pastga tushiring.

### *Uzun / ensiz yuklarni tashish (mavjud bo'lganda)*



Uzun / ensiz yuklarni (chang'ilar, taxtalar va boshqalar) yukxona yopilganda to'g'ri joylashtirib bo'lmaydi.

1. Tirsakqo'ygichni tushiring.
2. Dastakni bosing va qopqog'ini pastga suring.

### DIQQAT

- Avtomobil ichki qoplamasi shikastlanmasligi uchun yukni yo'lovchilarning orqa o'rindiqlaridan o'tkazishda ehtiyot bo'lish zarur.
- Yuk orqa yo'lovchilar o'rindiqlari orqali yuklanayotganda haydash paytida tasodifan harakatlanishining oldini olish uchun uni to'g'ri mahkamlash kerak.

### EHTIYOT BO'LING

To'qnashuvda avtomobil atrofida keskin harakatlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun yukni har doim nazorat qilib turing, aks holda bu transport vositasidagi odamlarga shikast yetkazishi mumkin.

Ayniqsa, orqa o'rindiqlarda joylashgan narsalarga ehtiyot bo'lish zarur, chunki ular oldingi o'rindiqlardagi odamlarni to'qnashuvda urishi mumkin.

### EHTIYOT BO'LING

Yukni tushirish yoki yuklashdan oldin, dvigatel o'chganligiga, uzatish qutisi "P" holatida (to'xtash) ekanligiga ishonch hosil qiling.

Ushbu talablarga rioya qilmaslik, agar almashtirish tugmasi tasodifan boshqa joyga o'tkazilsa, avtomobil harakatlana boshlaydi.


### Bosh qo'ygich

Avtotransportning old va orqa o'rindiqlar bosh qo'ygichlar bilan jihozlangan. Boshni ushlab turish yo'lovchilarga qulaylik yaratadi, lekin ularning asosiy maqsadi yo'lovchilarni baxtsiz hodisa paytida, ayniqsa to'qnashuvda (orqa tomondan) umurtqa yoki bo'yin shikastlanishlaridan himoya qilishdir.

### EHTIYOT BO'LING

Jiddiy shikastlanish yoki o'lim xavfini kamaytirish uchun (baxtsiz hodisa yuz berganda) bosh qo'ygichlarni sozlashda quyidagi ehtiyot choralariga rioya qilish kerak:

- Transportda sayohatni boshlashdan oldin barcha yo'lovchilar o'rindiqlaridagi bosh qo'ygichlarini sozlash.



Bosh qo'ygichlar ularning markaziy qismi ko'z balandligida bo'lgan holatda sozlash kerak.

- Haydash paytida haydovchi o'rindig'i bosh qo'ygichini sozlamang.
- Bosh qo'ygich yo'lovchining boshiga iloji boricha yaqinroq joylashtirilishi zarur. Agar tananing orqa qismi bilan moslik bo'lmasa yostiqlardan foydalanmang.
- Sozlash tugagach bosh qo'ygich kerakli holatda qulflanganligiga ishonch hosil qiling.

#### MA'LUMOT UCHUN


Shikastlanishni oldini olish uchun bosh qo'ygichni urmang yoki tortmang.



#### DIQQAT


Agar orqa o'rindiqlarda yo'lovchilar bo'lmasa bosh qo'ygichlar eng past darajaga tushirilishi kerak. Orqa o'rindiq bosh qo'ygichlari orqa tomonni ko'rishni cheklashi mumkin.

#### Old o'rindiq bosh qo'ygichlari



ODN8039068L

Xavfsizlik va qulaylik uchun old yo'lovchilar o'rindiqlari bosh qo'ygichlar bilan jihozlangan



ODN8H039011

#### Balandlikni yuqoriga va pastga sozlash


Bosh qo'ygichning balandligini oshirish:

1. Bosh qo'ygichni kerakli joyga ko'taring (1).



Bosh qo'ygichning balandligini pasaytirish:

1. Bosh qo'ygich tayanchidagi bo'shatish tugmachasini (2) bosib turing.

2. Bosh qo'ygichni kerakli joyga pastga siljiting (3).

**MA'LUMOT UCHUN**

Suyanchiq oldinga egilganda, agar o'rindiq yostiqlashi va bosh qo'ygich ko'tarilsa, bosh qo'ygich quyosh pardasi yoki transport vositasining boshqa elementlariga tegib ketishi mumkin.



**Olib tashlash / qayta o'rnatish**

Bosh qo'ygichni olib tashlash:

1. Suyanchiqni (2) dastak yoki suyanchiqni egish tugmasi (1) yordamida egib qo'ying.
2. Bosh qo'ygichni imkon qadar ko'taring.
3. Bosh qo'ygichni bo'shatish tugmachasini bosib (3) va bir vaqtning o'zida bosh qo'ygichni (4) yuqoriga torting.

**EHTIYOT BO'LING**

**HECH QACHON** hech kimga bosh qo'ygich yechilgan o'rindiqda haydashga ruxsat bermang.




Bosh qo'ygichni o'rnatish uchun:

1. Suyanchiqni eging.
2. Bosh qo'ygich tayanchlarini o'rnatib (2) va bir vaqtda bo'shatish tugmachasini (1) bosib.
3. Bosh qo'ygichni kerakli balandlikka o'rnatib.
4. Suyanchiqni (4) dastak yoki suyanchiqni egish tugmasi (3) yordamida egib qo'ying.


### EHTIYOT BO'LING

Har doim bosh qo'ygich qayta o'rnatilgandan va to'g'ri sozlanganidan keyin joyiga qulflanishiga ishonch hosil qiling.

## Orqa o'rindiqli bosh qo'ygichlari



Yo'lovchilarning qulayligi va xavfsizligini ta'minlash uchun orqa o'rindiqlar bosh qo'ygichlar bilan jihozlangan.



### Balandlikni yuqoriga va pastga sozlash

Bosh qo'ygichning balandligini oshirish:

1. Bosh qo'ygichni kerakli joyga ko'tarib (1).

Bosh qo'ygichning balandligini pasaytirish:

1. Bosh qo'ygich tayanchidagi bo'shatish tugmachasini (2) bosib turing.

2. Bosh qo'ygichni kerakli joyga pastga siljiting (3).

## Isituvchi va ventilyatsiya qiluvchi o'rindiqlar

### *O'rindiq isitgichlari (mavjud bo'lganda)*

O'rindiq isitgichlari sovuq havoda o'rindiqlarni isitish uchun mo'ljallangan



### EHTIYOT BO'LING

O'rindiq isitgichi past haroratlarda ham, ayniqsa, uzoq muddat ishlatilgandan so'ng, qattiq kuyishga olib kelishi mumkin.

Yo'lovchilar o'rindiq juda qizib ketganini sezishi va isitgichni o'z vaqtida o'chirishi kerak.

Harorat o'zgarishini yoki terining og'rig'ini aniqlay olmaydigan odamlar juda ehtiyot bo'lish kerak. Bu, ayniqsa, quyidagi turdagi yo'lovchilar uchun tegishli:

- Chaqaloqlar, bolalar, qariyalar yoki nogironlar va yaqinda kasalxonadan chiqqan bemorlar.
- Sezuvchan teriga ega odamlar.
- Charchagan odamlar.
- Mast odamlar.
- Uyqusiragan yoki uyqusizlikka tushirishi mumkin bo'lgan dorilar ta'sirida bo'lgan odamlar.






### EHTIYOT BO'LING

O'rindiqqa isitgichdan issiqlik o'tkazishga xalaqit beradigan narsalarni qo'ymang (masalan, adyol yoki yostiq). Bunday holda, isitgich haddan tashqari qizib ketishi va kuyish yoki o'rindiqlarning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

### MA'LUMOT UCHUN

O'rindiqlarning isitish tizimlarini shikastlanishini oldini olish uchun quyidagilarga rioya qilish kerak:

- O'rindiqlarni tozalash uchun turli xildagi erituvchilar, masalan, bo'yoq suyultirgich, benzol, spirt va benzin kabilardan foydalanish taqiqlanadi.
- Isituvchi o'rindiqqa og'ir yoki o'tkir narsalarni qo'ymang.
- O'rindiq g'ilofini almashtirmaslik kerak. Bu o'rindiq isitgichi yoki o'rindiq shamollatish tizimiga zarar yetkazishi mumkin.




Dvigatel ishlayotganda, haydovchi yoki yo'lovchi o'rindig'ining isitgichini yoqing.


Agar ob -havo iliq bo'lsa yoki o'rindiqni isitish funksiyasi talab qilinmasa, kalitlarni "o'chirilgan" holatiga qo'yish kerak.

- Haroratni qo'l rejimida sozlash  
Har bir bosilgan kalit orqali o'rindiq harorati sozlamalari quyidagicha o'zgartiriladi:

- Old o'rindiq (A turi)



- Old o'rindiq (B / C turi)




- Orqa o'rindiq






- Avtomatik rejimda haroratni sozlash uchun ON tugmasini qo'lda faollashtirilgandan so'ng, o'rindiqliq isitgich past harorat kuyishining oldini olish uchun o'rindiqlarning haroratini avtomatik nazorat qiladi. V

- Old o'rindiqliq



- Orqa o'rindiqliq



Haroratni qo'lda o'zgartirish mumkin. Biroq, u tez orada avtomatik rejimga qaytadi.

- Agar isitgich ishlayotgan bo'lsa V tugmani 1,5 soniyagacha bosib turilsa isitgich o'chadi.
- Standart bo'yicha o't oldirish qurilmasi yoqilganda isitgich "yoqilgan" holatida bo'ladi. Lekin komfortni avtomatik boshqarish funksiyasi yoqilgan bo'lsa, haydovchi o'rindig'ining isitgichi atrof -muhit haroratiga qarab yonadi va o'chadi.

- Komfortni avtomatik boshqarish (haydovchi o'rindig'i uchun mavjud bo'lganda)


Dvigatel ishlayotganda, isitgich atrofndagi havo haroratga qarab avtomatik ravishda haroratni sozlaydi.

Isitgichni o'chirish tugmachasini bosish bilan boshqaruv qo'l rejimiga o'tadi.

Bu funksiyadan foydalanish uchun uni tizimning AVN ekranidagi Sozlamalar menyusida faollashtirish kerak.

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun avtomobil tizimida alohida mavjud bo'lgan ma'lumot yo'riqnomasiga qarang.

## Ventilyatsiyali old o'rindiq (mavjud bo'lganda)




O'rindiqlarni ventilyatsiya tizimi old o'rindiqlarni sovuq holda ushlab turadi va o'rindiq yostiqchasi hamda suyanchiq orqa yuzasi kichik tirqishlari orqali havo yetkazib beradi.


O'rindiqlarni shamollatish tizimi talab qilinmasa, kalitlar ochiq bo'lishi kerak. Dvigatel ishlayotganda haydovchi yoki oldingi yo'lovchi o'rindig'ini sovutish uchun kalitni bosib.

- Har safar kalit bosilganda havo oqimi quyidagicha o'zgaradi:

- A turi



- B turi



- Agar o'rindiqning shamollatish tizimi ishlayotgan bo'lsa, tugmani 1,5 soniyadan ko'proq vaqt davomida bosib turing va tizim o'chadi.VV
- O'rindiq ventilyatsiyasi o't oldirish qurilmasi yoqilganda standart bo'yicha o'chiq bo'ladi. Biroq, agar komfortni avtomatik boshqaruv funksiyasi yoqiq bo'lsa, o'rindiq ventilyatsiyasi atrof-muhit haroratiga qarab yoqiladi va o'chadi.

- Komfortni avtomatik boshqarish (haydovchi o'rindig'i uchun mavjud bo'lganda)

Dvigatel ishlayotganda, isitgich atrofdagi havo haroratga qarab avtomatik ravishda haroratni sozlaydi. Isitgichni o'chirish tugmachasini bosish bilan boshqaruv qo'l rejimiga o'tadi.

Bu funksiyadan foydalanish uchun uni tizimning AVN ekranidagi Sozlamalar menyusida faollashtirish kerak.

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun avtomobil tizimida alohida mavjud bo'lgan ma'lumot yo'riqnomasiga qarang.

### **MA'LUMOT UCHUN**

Ventilyatsiya tizimlarini shikastlanishi oldini olish uchun:

- Ventilyatsiya tizimidan **FAQAT** iqlim nazorati tizimi yoqilgandagina foydalaning. Iqlim nazorati tizimi o'chirilgan holatda ventilyatsiya tizimidan uzoq muddat foydalanish ventilyatsiyasi tizimining ishlamay qolishiga olib kelishi mumkin.

- O'rindiqlarni tozalash uchun bo'yoq suyiltiruvchi, benzol, spirt va benzin kabi erituvchilar ishlatish taqiqlanadi.
- Old o'rindiqlarga suyuqlik tushmasligi zarur, chunki bu shamollatish teshiklari tiqilib qolishi va to'g'ri ishlamasligiga olib keladi.
- O'rindiq ostiga gazetalar yoki plastik idishlar qo'yib bo'lmaydi. Ular havo oqimini to'sib qo'yishi va oqibatda shamollatish tizimi to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- O'rindiqlarning g'ilofi o'zgartirilmasligi kerak. Bu o'rindiqlarning shamollatish tizimiga zarar yetkazishi mumkin.
- Agar shamollatish tizimi to'g'ri ishlamasa, o't oldirish qurilmasini o'chiring va qayta yoqing. Agar bu yordam bermasa, HYUNDAI vakolatli dileri orqali tizimni tekshirtirish tavsiya etiladi.

## XAVFSIZLIK KAMARLARI

Ushbu bo'limda xavfsizlik kamarlaridan to'g'ri foydalanish bayon qilingan. Xavfsizlik kamarlaridan foydalanishda ba'zi noo'rin amaliyotlar ham ko'rsatilgan.

### Xavfsizlik kamarlaridan foydalanishda xavfsizlik choralari

Harakatni boshlashdan oldin har doim xavfsizlik kamarini taqib va barcha yo'lovchilar xavfsizlik kamarini taqib olganligiga ishonch hosil qiling. Xavfsizlik yostiqlik tizimi (mavjud bo'lganda) qo'shimcha ravishda xavfsizlik kamarlarining qo'shimcha qismi hisoblanadi va xavfsizlik kamarlarini o'rnini bosa olmaydi. Ko'pgina davlatlar transport vositasidagi barcha yo'lovchilardan xavfsizlik kamarini taqib yurishni talab qiladi.



### EHTIYOT BO'LING

Avtomobil harakatlanayotganda, **HAMMA** yo'lovchilar xavfsizlik kamarini taqishlari shart. Xavfsizlik kamari mahkamlashda quyidagi xavfsizlik choralari ko'rish kerak:

- Har doim 13 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun orqa o'rindiqlarga mos keladigan xavfsizlik tizimidan foydalaning

- Avtomobil harakatlanayotganda bolalarni yo'lovchilarning old o'rindig'iga qo'ymang. Agar 13 yoshdan oshgan bola old o'rindiqqa o'tirishi kerak bo'lsa, o'rindiqni iloji boricha orqaga surish va bolani xavfsizlik kamari bilan bog'lash kerak.
- Bolalar yoki chaqaloqlar uchun yo'lovchi o'rindig'ining kamarini ishlatmang.
- O'rindiqni pastga egilgan holda haydab ketmang. Bolalarni bitta o'rindiqqa qo'yish yoki ularni bitta kamar bilan mahkamlash mumkin emas.
- Yelka kamarini qo'l osti yoki orqadan o'tkazish mumkin emas.
- Xavfsizlik kamarini mo'rt buyumlar ustiga qo'yib bo'lmaydi. To'satdan tormozlanish yoki to'qnashuv sodir bo'lganda, ular shikastlanishi mumkin.
- Eshilgan kamarlardan foydalanish mumkin emas. Eshilgan xavfsizlik kamari baxtsiz hodisa yuz berganda mashina ichidagilarni himoya qila olmaydi.v
- Buzilgan kamardan foydalanish mumkin emas.
- Xavfsizlik kamarining to'kasini boshqa o'rindiqning to'kasiga mahkamlash mumkin emas.

- Haydash paytida xavfsizlik kamarini yechmang. Bu avtomobil boshqaruvini yo'qotishga va baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin.v
- Xavfsizlik kamarining to'kasini mahkamlashda hech narsa to'sqinlik qilmasligiga ishonch hosil qiling. Bu qulfdagi to'kaning to'g'ri mahkamlanishiga xalaqit berishi mumkin.v
- Avtomobil egasi konstruksiyaga o'zgartirish qo'shimchalar kiritishi mumkin emas chunki bu xavfsizlik kamarlari bo'shshishini bartaraf qilish uchun kamar tortgichlarining normal ishlashiga yoki shu maqsadda kamar tarangligini sozlashda xalaqit beradi.



## EHTIYOT BO'LING

Buzilgan kamarlar xavfsizlik va kuchlanish mexanizmlari to'g'ri ishlamaydi. Har doim:

- Eskirgan, iflos yoki shikastlangan tarmoqli.
- Buzilgan qismlar.
- Baxtsiz hodisadan so'ng, ko'rinadigan shikastlanish bo'lmasa ham, xavfsizlik kamarining butun tizimini almashtirish kerak.

## Ogohlantiruvchi chiroq bilan bog'lanmagan xavfsizlik kamari

### Xavfsizlik kamari haqida ogohlantirish



### Xavfsizlik kamarini taqmagani haqida ogohlantirish chiroqchasi

Haydovchiga eslatma sifatida xavfsizlik kamarining mahkamlanishidan qat'i nazar, har safar o't oldirish qurilmasi yoqilganda ogohlantiruvchi chiroq taxminan 6 soniya yonib turadi va zummer signali eshitaladi. Agar xavfsizlik kamari taqilmagan bo'lsa, 6 soniya davomida ovozli signal eshitaladi. Dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasi yoqilgan yoki ishga tushirilgandan keyin xavfsizlik kamari bog'lanmagan bo'lsa yoki dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasi ON yoki START holatida bo'lgandan keyin ochilmagan bo'lsa, xavfsizlik kamarining ogohlantirish chiroqchasi kamar mahkamlanmaguncha yonib turadi.

Agar siz xavfsizlik kamarini taqmay soatiga 20 kmdan past tezlikda haydashni boshlasangiz, xavfsizlik kamari taqilmaguncha chiroq yonib turadi.

Agar siz xavfsizlik kamarini taqmay soatiga 20 kmdan yuqori tezlikda haydashni davom ettirsangiz taxminan 100 soniya davomida signal chalinadi va tegishli ogohlantirish chirog'i yonadi.

**Old yo'lovchi xavfsizlik kamarining ogohlantirish chiroqchasi (Yaqin Sharq uchun) (mavjud bo'lganda)**

Old yo'lovchiga eslatma sifatida xavfsizlik kamarining mahkamlanganligidan qat'i nazar, dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasi ON yoki START holatiga o'tkazilganda old yo'lovchi xavfsizlik kamarining ogohlantiruvchi chirog'i taxminan 6 soniya yonadi. Dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasi yoqilgan yoki ishga tushirilgandan keyin xavfsizlik kamari bog'lanmagan bo'lsa yoki dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasi ON yoki START holatida bo'lgandan keyin ochilmagan bo'lsa, xavfsizlik kamarining ogohlantirish chiroqchasi kamar taqilmaguncha yonib turadi.

Agar siz xavfsizlik kamarini taqmay soatiga 20 kmdan past tezlikda haydashni boshlasangiz, xavfsizlik kamari taqilmaguncha chiroq yonib turadi.


Agar siz xavfsizlik kamarini taqmay soatiga 20 kmdan yuqori tezlikda haydashni davom ettirsangiz taxminan 100 soniya davomida signal chalinadi va tegishli ogohlantirish chirog'i yonadi.

### **Ma'lumot**

- **Birinchi qator yo'lovchining o'rindig'i bo'sh bo'lsa-da, xavfsizlik kamarining ogohlantirish chirog'i 6 soniya yonadi.**
- **Xavfsizlik kamarini taqish haqida ogohlantirish garchi o'rindiqqa yuk joylashtirilsa ham berilishi mumkin**


## Xavfsizlik kamar tizimi

### Xavfsizlik kamarining bel va yelka qismi



#### Xavfsizlik kamarini mahkamlash uchun:

Kamarni tortgichdan tortib oling va metall tilchani (1) to'kaga (2) joylashtiring. Tilcha to'kaga qulflanganda, taqillash eshitalishi kerak.



Kamarni pastki qismi (1)sonni, yuqori qismi (2) ko'krakni ushlab turishi kerak.

Bel kamarini qo'lda sozlashdan so'ng, xavfsizlik kamarining uzunligi avtomatik ravishda o'rnatiladi. Sekin oldinga egilish bo'lsa, shunga mos ravishda kamar uzunligini oshiradi. To'satdan tormozlanish yoki to'qnashuv sodir bo'lganda, kamar hozirgi holatida qulflanadi. Agar juda oldinga egilinsa, kamar ham qulflanadi.

#### MA'LUMOT UCHUN

Agar kamarni rekraktordan yetarlicha tortib ololmasangiz, kamarni mahkam torting va qo'yib yuboring. Bo'shatgandan so'ng, siz kamarni kerakli uzunlikka silliq tortishingiz mumkin.



#### EHTIYOT BO'LING




Xavfsizlik kamarining noto'g'ri sozlanishi baxtsiz hodisa paytida jiddiy shikastlanishga sabab bo'lishi mumkin. Xavfsizlik kamarlarini sozlashda quyidagi choralarni ko'rish kerak:

- Qulaylik uchun xavfsizlik kamarining bel qismini bel qismiga emas, iloji boricha pastroq qilib qo'ying. Bu kuchli tos suyaklari to'qnashuv holatida zarba kuchini o'zlashtirishi va ichki jarohatlar ehtimolini kamayishiga imkon beradi.
- Rasmda ko'rsatilganidek bir qo'lni yelka kamarining ostiga, ikkinchisini esa ustiga qo'ying.
- Yelka kamari biriktirgichi kerakli balandlikda mahkamlanishi kerak.
- Bo'yin yoki yuz bo'ylab yelka kamarni o'tkazish mumkin emas.


### Balandlikni sozlash

Maksimal qulaylik va xavfsizlik uchun yelka kamarning balandligi to'rtta pozitsiyadan biriga sozlanishi mumkin. Yelka kamari eshik tomondan ko'krak va yelka o'rtasi orqali o'tishi kerak, bo'yin atrofidan emas.



Xavfsizlik kamarini mahkamlash balandligini sozlash uchun balandlik sozlagichini kerakli joyga o'tkazing. Balandlikni oshirish uchun balandlik sozlagichini yuqoriga siljitish kerak (1). Balandlikni pasaytirish uchun balandlikni sozlash tugmachasini (2) bosish orqali uni pastga siljitish kerak (3). Kerakli joyga o'rnagach tugmani qo'yib yuboring. To'g'ri mosligini tekshirish uchun balandlik sozlagichini siljitishga harakat qiling.






### Xavfsizlik kamarini yechish uchun:

Xavfsizlik kamaridagi to'kani (1) yechish tugmasini bosing. Yechib bo'lingach xavfsizlik kamari avtomatik ravishda tortilishi kerak. Agar bunday bo'lmasa, eshilgan joylar bor-yo'qligini tekshiring.

### Orqa markaziy xavfsizlik kamari



Orqa o'rindiqdagi yo'lovchilar xavfsizlik kamaridan foydalanganda CENTER deb belgilangan to'kadan foydalanishlari kerak.

### **i** Ma'lumot

Agar xavfsizlik kamari tortgichdan chiqmasa, qulfni bo'shatish uchun xavfsizlik kamarini mahkam torting. Chiqarilgach, kamarni silliq torta olasiz.

## Xavfsizlik kamarlarining oldindan tortish moslamasi



Transport vositasi haydovchi va old yo'lovchilar xavfsizlik kamarlari uchun oldindan tortish moslamalari bilan jihozlangan.

Oldindan tortish moslamasi kamarni tortish va haydovchi yoki yo'lovchining tanasini to'qnashuvda ushlab turish uchun mo'ljallangan. Old tomondan jiddiy to'qnashuvlarda xavfsizlik kamarlarining old qisish asboblari xavfsizlik yostiqlari bilan bir vaqtda ishga tushirilishi mumkin.

Agar siz tormozni qattiq bossangiz yoki keskin harakat bilan oldinga egilishga harakat qilsangiz, xavfsizlik kamarining tortgichi hozirgi holatida qulflanadi. Muayyan to'qnashuvlarda oldinga tortish moslamasi ishga tushiriladi va xavfsizlik kamarini haydovchi yoki yo'lovchisi tanasi bilan yaqin aloqa qilmaguncha tortib oladi.

## EHTIYOT BO'LING

- Har doim xavfsizlik kamarini taqish va o'rindiqqa to'g'ri o'tirish zarur.
- Eshilgan yoki bo'shashgan xavfsizlik kamaridan foydalanish mumkin emas. Eshilgan yoki bo'shashgan xavfsizlik kamari baxtsiz hodisa yuz berganda yetarli darajada himoya qila olmaydi.
- Xavfsizlik kamarining to'kchasining yoniga biror narsa qo'yish mumkin emas. Bunday holatda to'ka ishlashi cheklanib qolishi mumkin.
- Ishga tushgandan keyin yoki baxtsiz hodisa yuz berganda, oldingi tortish moslamalari almashtirilishi kerak.
- Oldindan tortish moslamalarini tekshirish, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash yoki almashtirish faqat ixtisoslashtirilgan ustaxonalarda amalga oshiriladi. Oldindan tortgichlarni tekshirish, xizmat ko'rsatish, ta'mirlash yoki almashtirish uchun HYUNDAI vakolatli dileriga murojaat qilishingizni tavsiya qilamiz.
- Xavfsizlik kamarining mexanizm qismiga urmang.



### EHTIYOT BO'LING

O'rnatilganidan so'ng xavfsizlik kamarining oldinga tortgichlariga bir necha daqiqa tegmang. To'qnashuv natijasida kamarni tortish mexanizmi kuchli qizib ketadi va kuyishga olib kelishi mumkin.




### DIQQAT

Avtomobil old qismidagi kuzov ishlari kamarni oldindan tortish tizimlarini shikastlashi mumkin.

(1) DSB xavfsizlik yostiqchasini nazorat qilish lampasi

Shuning uchun tizimga xizmat ko'rsatishda

HYUNDAI vakolatli dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.



Oldinga tortgich moslamasi odatda quyidagi komponentlardan iborat. Ularning joylashuvi quyidagi rasmda ko'rsatilgan:

- (1) DSB xavfsizlik yostiqchasini nazorat qilish lampasi
- (2) Oldinga tortish moslamasi
- (3) DPB boshqaruv bloki

### MA'LUMOT UCHUN

SRS havo yostiqlarini harakatga keltiruvchi sensori oldindan tortish moslamasiga ulangan. O't oldirish qurilmasi yoqilganda asboblarning panelidagi SRS xavfsizlik yostiqlari ogohlantirish chirog'i taxminan 6 soniya yonadi va keyin o'chadi. Oldindan tortish moslamasida ishlamay qolganda DRS xavfsizlik yostiqlari yaxshi holatda bo'lsa ham ogohlantiruvchi chiroq yonadi. Agar ogohlantiruvchi chiroq yonmasa, o'chmasa yoki yonayotgan bo'lsa, avtomobil harakatlanayotganda xavfsizlik kamarlari va / yoki DCB xavfsizlik yostiqlarining oldindan tortgichlarini HYUNDAI vakolatli dilerida iloji boricha tezroq tekshirtirish tavsiya etiladi.

### MA'LUMOT UCHUN

- Xavfsizlik kamarining oldinga tortgichlari old yoki yon tomondan to'qnashuvda yoki ag'darilishda (agar burilish sensori o'rnatilgan bo'lsa) qo'zg'alishi mumkin.
- Qachonki xavfsizlik kamarini oldindan tortish moslamasi ishga tushirilsa, baland ovoz eshitiladi va yo'lovchilar bo'linmasida mayda chang va tutun paydo bo'lishi mumkin. Bu normal deb hisoblanadi va xavfli emas.
- Garchi bu chang zaharli bo'lmasa-da, u teriga yopishganda tirnash xususiyatini keltirib chiqaradi va undan uzoq vaqt nafas olish mumkin emas. Xavfsizlik kamarining oldindan tortgichlarini faollashtiradigan baxtsiz hodisadan so'ng chang tushgan terini yaxshilab yuvish lozim.

## Xavfsizlik kamarlaridan foydalanishda qo'shimcha ehtiyot choralari

### **Homiladorlik paytida xavfsizlik kamarlaridan foydalanish**

Homiladorlik paytida xavfsizlik kamarini har doim taqish kerak.

Tug'ilmagan bolangizni himoya qilishning eng yaxshi usuli - xavfsizlik kamarini taqib, o'zingizni himoya qilishdir. Homilador ayollar doimo xavfsizlik kamarining bel va yelka qismlaridan foydalanishlari kerak. Buning uchun yelka kamarni ko'kraklar orasidan iloji boricha bo'yindan uzoqroq holatda o'tkazish zarur. Bel kamarini qorinning ostiga qo'ying, shunda u qorin ostida sonlar va tos suyagini himoya qiladi.



### **EHTIYOT BO'LING**

Baxtsiz hodisada tug'ilmagan bolaning jiddiy shikastlanishi yoki o'lishi xavfini kamaytirish uchun homilador ayollar qorin yuqorisi va qorin qismidan o'tuvchi bel kamarini taqmasligi kerak.

### **Bolalarni himoyalash uchun xavfsizlik kamaridan foydalanish**

#### **Chaqaloq va kichkina bola**

Ko'pgina mamlakatlarda bolalar uchun himoya vositalari va yostiqchalardan foydalanish qonun bilan talab qilinadi. Har bir mamlakatda xavfsizlik kamarlaridan foydalanish mumkin bo'lgan yosh har xil bo'lishi mumkin, shuning uchun siz o'z mamlakatingizga qo'yiladigan talablarni bilishingiz kerak. Chaqaloqlarni himoya qilish tizimi orqa o'rindiqqa to'g'ri o'rnatilgan bo'lishi kerak. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun "Bolalarni himoyalash tizimi " bo'limiga qarang.



### **EHTIYOT BO'LING**

Kichkintoylar va yosh bolalar uchun vazn guruhlari qurilmalariga mos keladigan himoyalovchi vositalardan foydalanish zarur. Bolalar va boshqalarga jiddiy shikast yetish xavfini kamaytirish uchun bolani yo'lovchining tizzasiga qo'yishga RUXSAT BERILMAYDI. Baxtsiz hodisada bola qo'ldan sirg'alib chiqib, avtomobilning ichki qismiga qattiq urilishi mumkin.

Bolalarni ushlab turish tizimi yordamida orqa o'rindiqla mahkam o'rnatilganda, baxtsiz hodisa yuz berganda mamlakatlar xavfsizlik standartlariga muvofiq yosh bolalar shikastlanishdan eng yaxshi himoyalangan bo'ladi. Bolalarni himoya qilish tizimini sotib olishdan oldin, u ishlatiladigan mamlakatning xavfsizlik standartlariga muvofiq sertifikatlanganligiga ishonch hosil qiling. Tizim bolaning bo'yi va vazniga mos bo'lishi kerak. Bu ma'lumotni tizimdagi yorliqda topish mumkin. "Bolalarni himoyalash tizimi" bo'limiga qarang.

### Katta bolalar

Qo'shimcha yostiqchalarni ishlatishga juda kattalik qiladigan 13 yoshgacha bo'lgan bolalar har doim orqa o'rindiqlarni egallashi va xavfsizlik kamarining standart tizza va yelka qismlarini ishlatishi kerak. Bolaning tanasini to'g'ri ushlab turish uchun Kamarlar sonning yuqori qismini, yelkasini va ko'kragini yopishi kerak. Kamarining mosligini vaqti-vaqti bilan tekshirish kerak. Bola harakat qilganda kamar harakatlanishi mumkin. Baxtsiz hodisa sodir bo'lgan taqdirda bolalar orqa o'rindiqla tegishli xavfsizlik tizimi va kamarlaridan foydalanib o'zlari uchun eng katta xavfsizlikni ta'minlashadi.

Agar 13 yoshdan katta bola old o'rindiqla o'tirsa, u xavfsizlik kamarining standart bel va yelka qismlari bilan mahkam bog'langan bo'lishi va o'rindiq eng orqa tomonga joylashtirilishi kerak.

Agar yelka kamari bolaning bo'yniga yoki yuziga tegsa, bolani transport vositasining o'rtasiga yaqinroq joylashtirishga harakat qiling. Agar yelkama kamari shunda ham yuz yoki bo'yinga tegsa, qo'shimcha yostiqchadan foydalanish zarur.



### EHTIYOT BO'LING

- **Har doim katta bolalar uchun xavfsizlik kamarining mahkamlanganligini va to'g'ri sozlanganligini tekshiring.**
- **Yelka tasmasi bolaning bo'yniga yoki yuziga tegmasligi kerak.**
- **Bir nechta bolalarni jam qilib xavfsizlik kamarini taqish mumkin emas.**

### **Shikastlangan insonlarning xavfsizlik kamaridan foydalanishi**

Shikastlangan odamni mashinaga olinganda xavfsizlik kamari bilan mahkamlash zarur.

Maxsus tavsiyalar uchun shifokor bilan maslahatlashish kerak.

### **Bir kishiga bitta kamar**

Ikki kishining (shu jumladan bolalar ham) bitta kamar bilan mahkamlanishi mumkin emas. Bu baxtsiz hodisa yuz berganda jiddiy shikastlanish ehtimolini oshiradi.

### **Yotish mumkin emas**

Suyanchiqni eggan hola haydash xavfli bo'lishi mumkin. Orqa o'rindiqqa o'tirganda xavfsizlik kamarlari mahkamlangan taqdirda ham xavfsizlik tizimining (xavfsizlik kamarlari va xavfsizlik yostiqchalari) samaradorligi sezilarli darajaa kamayadi.

Xavfsizlik kamari ko'krak va son atrofida bo'lishi kerak, shunda ular to'g'ri ishlashi mumkin.

Baxtsiz hodisada xavfsizlik kamari qattiq urilib, bo'yinga yoki boshqa organlar jarohatiga olib kelishi mumkin.

Suyanchiq qancha ko'p egilsa, yo'lovchining soni bel kamari ostiga siljishi yoki yo'lovchining bo'ynini yelka kamari urishi ehtimoli katta.



### **EHTIYOT BO'LING**

- O'rindiqni pastga eggan holda haydab ketmang.
- O'rindiqni orqaga burish bilan haydash jiddiy yoki o'limga olib keladigan shikastlanish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi.
- Haydovchilar va yo'lovchilar har doim o'rindiqlarga to'g'ri o'tirishlari, xavfsizlik kamarlaridan foydalanishlari va orqa o'rindiqlar tik holatida bo'lishi zarur.

## **Xavfsizlik kamarlarini yaxshi holatda saqlash**

Xavfsizlik kamarlari tizimini demontaj qilish yoki o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Xavfsizlik kamarlari va ularning qismlari, eshiklar va h.klar shikastlanmasligi uchun ehtiyot choralarni ko'rish kerak.

### ***Vaqti -vaqti bilan tekshirish***

Vaqti-vaqti bilan barcha xavfsizlik kamarlarining eskirishi yoki shikastlanishi tekshirilishi kerak. Zarar yetkazilgan qismlarni imkon qadar tezroq almashtirish kerak.

### ***Kamarlar toza va quruq bo'lishi kerak***

Xavfsizlik kamarlari toza va quruq holda saqlanishi kerak. Agar iflos bo'lsa, kamarlarni yumshoq sovunli eritma va iliq suv bilan tozalash kerak. Oqartirgich, bo'yoq, kuchli yuvish vositalari yoki abraziv vositalar ishlatilmaslik kerak, chunki ular matoga zarar yetkazishi va zaiflashi mumkin.

### ***Xavfsizlik kamarlarini almashtirish***

Xavfsiz kamari butun tizimlarini baxtsiz hodisa voqea sodir bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi. Hech qanday zarar bo'lmasa ham almashtirish mumkin. Maslahat uchun HYUNDAI vakolatli dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.



## BOLALARNI HIMOYALASH TIZIMI (BHT)

**Tavsiyamiz: Bolalar har doim orqa o'rindiqlarda bo'lishi kerak**



### EHTIYOT BO'LING

**Old yo'lovchilar o'rindig'i yostiqchasi o'chirilmasa, bolalar har doim avtomobilning orqa o'rindiqlariga o'tirishi zarur.**

**Barcha yoshdagi bolalar orqa o'rindiqlarda xavfsizroq bo'ladi.**

**Old yo'lovchi o'rindig'i yostiqchasi ochilganda old o'rindiqdagi bolalar qattiq shikastlanishi mumkin, qolaversa bu jiddiy jarohat yoki o'limga olib kelishi mumkin.**

13 yoshgacha bo'lgan bolalar har doim orqa o'rindiqda o'tirishlari va kamarlarini to'g'ri taqishlari kerak. Baxtsiz hodisalar statistikasi shuni ko'rsatadiki, bolalar oldingi o'rindiqqa qaraganda, orqa o'rindiqqa bog'langanida xavfsizroq bo'lishadi.

Agar bola bolalarni ushlab turish tizimidan foydalana olmaydigan darajada katta bo'lsa, xavfsizlik kamarlaridan foydalanishi kerak. Ko'plab mamlakatlar ma'qullangan bolalarni himoyalash tizimlaridan foydalanishmoqda.

Bolalarni ushlab turish tizimi orqa o'rindiqqa to'g'ri o'rnatilgan bo'lishi kerak. Sotuvda mavjud, standartlarga mos keladigan bolalarni ushlab turish tizimidan foydalanish kerak. Har bir mamlakatda xavfsizlik kamarlaridan foydalanish mumkin bo'lgan qonun bo'yicha belgilangan yosh yoki vazn / bo'y turlicha bo'lishi mumkin, shuning

uchun siz o'zingizning mamlakatingizga g talablar xos bilishingiz kerak.. ni

Bolalarni himoya qilish tizimlari odatda avtomobil kamariga uch nuqtada yuqori va / yoki ISOFIX kamarlari orqali birlashtiriladi.

### ***Bolalarni himoya qilish tizimi har doim orqa o'rindiqlarga o'rnatiladi***

Chaqaloqlar va yosh bolalarni orqa yoki old tomonga qaragan tegishli BHTga bog'lab qo'yish kerak, ular avvalo transport vositasining orqa o'rindig'iga mahkamlanishi kerak. Bolalarni himoyalash tizimidan foydalanish uchun ishlab chiqaruvchining o'rnatish va ishlatish bo'yicha ko'rsatmalari o'qib chiqingv



### **EHTIYOT BO'LING**

- O'rnatish va foydalanishda har doim ishlab chiqaruvchi tomonidan berilgan ko'rsatmalarga rioya qilish zarur.
- Bolani himoyalash tizimi yordamida mahkamlash kerak.
- O'rindiqning orqa tomonida olinadigan bolalar o'rindig'i yoki bolalar xavfsizlik o'rindig'i ishlatilmasligi kerak, chunki ular baxtsiz hodisa yuz berganda yetarli darajada himoyalamaydi.v
- Baxtsiz hodisa yuz berganda, HYUNDAI dileriga bolalarni himoyalash tizimi, xavfsizlik kamarlari, mahkamlagichlar va ISOFIX mahkamlagichlarini tekshirtirish tavsiya etiladi.


### **Bolalarni himoya qilish tizimini tanlash (BHT)**

Farzandingiz uchun BHTni tanlashda quyidagilarga e'tibor bering.

- BHT ishlatilayotgan mamlakatda xavfsizlik standartlariga muvofiqligini tasitqlovchi sertifikat yolg'iga ega bo'lishi zarur.
- Bolalarni himoya qilish tizimini tanlash bolaning balandligi va vazniga bog'liq bo'lishi kerak. Bu ma'lumot odatda kerakli yorliqlarda va foydalanish yo'riqnomasida ko'rsatiladi.
- Tanlangan bolalarni himoyalash tizimi avtomobilning o'rindiqlariga mos bo'lishi kerak.
- Bolalarni himoya qilish tizimini o'rnatish ta'minlangan ko'rsatmalar va ogohlantirishlarga muvofiq bo'lishi kerak.

### ***Bolalarni himoya qilish tizimlarining turlari***

Bolalarni himoyalash tizimining uchta asosiy turi mavjud: oldinga qaragan o'rindiqlar, orqaga qaragan o'rindiqlar va qo'shimcha yostiqchalar. Ular bolaning yoshi, bo'yi va vazni bo'yicha tasniflanadi.



### **Harakatlanishga qarama-qarshi holatdagi bolalarni himoyalash tizimi**

Bolalarni himoyalash tizimi orqaga qaranan holda bolaning orqa qismi suyanib turadigan sirt yordamida ushlab turishni ta'minlaydi. Kamarlar tizimi bolani joyida ushlab turadi va baxtsiz hodisa sodir bo'lganda uni bolalarni himoyalash tizimida ushlab turadi, mo'rt bo'yin va umurtqa pog'onasidagi stressni kamaytiradi.

Bir yoshga to'lmagan bolalar faqat orqa o'rindiqli bolalarni himoyalash tizimida bo'lishi kerak. Orqa tomonga qaranan bolalarni himoya qilish tizimlarining ko'p turlari mavjud. Chaqaloqlarni himoy qilish tizimlari faqat harakatning teskari tomoniga joylashtirilishi kerak. Konvertatsiya qilinadigan bolalarni himoyalash va 3 tasi 1 da tizimlari odatda bolalarni orqa tomonga qaranan tizimlarda uzoq vaqt tashishga imkon beradigan balandlik va vazn chegaralarini belgilaydi.

Bolalar ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan balandlik va vazn chegaralarig mos kelmaguncha BHTdan foydalanishni davom ettiring.



### **Oldinga qaranan bolalarni himoyalash tizimi**

Oldinga qaranan bolalarni himoyalash tizimi bolaning tanasini ushlab turishni kamarlar yordamida ta'minlanadi. Bolani oldinga qarab ushlab turuvchi qo'lتيqcha bolaning ishlab chiqaruvchi talabidagi balandlik va vazn chegaralariga yetguncha bo'ishi zarur. Shundan so'ng, buning uchun qo'shimcha yostiqchadan foydalanish kerak.

### Qo'shimcha yostiqchalar

Qo'shimcha yostiqcha - bu xavfsizlik kamarlari bilan foydalanish uchun himoya vositasi tizimidir.

Qo'shimcha yostiqchadan foydalanish xavfsizlik kamarini bola tanasining eng kuchli qismlarga to'g'ri keladigan tarzda yo'naltirishga imkon beradi. Qo'shimcha chaqaloq yostiqchasini kamarlardan foydalanmasdan ishlatish zarur.

Xavfsizlik kamarini to'g'ri mahkamlash uchun kamar qorinda emas, yuqori son qismida bo'lishi kerak. Yelka kamari yelka va ko'krakdan o'tishi kerak. Baxtsiz hodisa, to'satdan to'xtash yoki to'satdan qayrilish natijasida shikastlanish xavfini kamaytirish uchun 13 yoshgacha bo'lgan bolalarga xavfsizlik kamarini taqish shart.

## Bolalarni himoya qilish tizimini o'rnatish (BHT)



### EHTIYOT BO'ING

**BHTni o'rnatishdan oldin:**

**Ishlab chiqaruvchi tomonidan berilgan ko'rsatmalarni o'qing va ularga amal qiling.**

**Ko'rsatmalar va ogohlantirishlarga rioya qilmaslik og'ir jarohat yoki o'limga olib kelishi mumkin.**



### EHTIYOT BO'ING

**Agar mashinaning bosh qo'ygichi bolalar o'rindig'ini to'g'ri o'rnatishga imkon bermasa, tegishli o'rindiqning bosh qo'ygichini to'g'rilash yoki butunlay olib tashlash kerak.**

Bolalarni himoyalash tizimini to'g'ri tanlaganingizdan va uni sizning mashinangizga mos kelishini tasdiqlaganingizdan so'ng, ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga muvofiq tizimni o'rnatishni davom ettirishingiz mumkin. BHTni to'g'ri o'rnatish uchun uchta asosiy qadam mavjud:

- **Bolalarni himoyalash tizimini** avtomobilga to'g'ri mahkamlash. Barcha bolalarni himoya qilish tizimlari avtomobilga bel yoki yelka kamarlari, 3-nuqtali biriktirgichlar, ISOFIX yuqori mahkamlagichlar va / yoki ISOFIX mahkamlagichlari yordamida mahkamlanadi.
- **BHT to'g'ri o'rnatilganiga ishonch hosil qiling.** Bolalarni himoya qilish tizimini o'rnatganingizdan so'ng, uning mahkam o'rnatilganligini tekshirish uchun uni oldinga va yonga egishga harakat qiling. Tizim xavfsizlik kamariga imkon qadar mahkam bog'langan bo'lishi kerak. Biroq, ba'zi yonma-yon harakatlar bo'lishi mumkin. O'rnatish paytida o'rindiqli (yuqoriga / pastga, oldinga / orqaga) eging, shunda bola bu tizimga qulay joylashadi.

- **Bolani BHT mahkamlang.**

Bolani ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga binoan tizimga bog'langanligiga ishonch hosil qiling.



## DIQQAT


**Yopiq mashinada bolalarni himoyalash tizimi juda qizib ketadi. Kuyishning oldini olish uchun bolangizni tizimga joylashtirishdan oldin o'rindiqli yuzasi va to'kalarni tekshiring.**

### ***Bolalar uchun pastki ISOFIX mahkamlash va yuqori bog'ichli trosalar (mahkamlash tizimi ISOFIX)***

ISOFIX tizimi bolani harakat paytida va baxtsiz hodisa yuz berganda ushlab turadi. Tizim o'rnatish jarayonini iloji boricha soddalashtirish va noto'g'ri o'rnatish ehtimolini kamaytirish uchun yaratilgan. ISOFIX tizimi avtomobilda o'rnatilgan bolalarni himoya qilish tizimidan foydalanadi. ISOFIX orqa o'rindiqlardagi bolalarni himoyalash tizimida xavfsizlik kamarlaridan foydalanishni cheklaydi. ISOFIX mahkamlagichlari avtomobilga o'rnatilgan metal tayoqlardir. Har bir ISOFIX o'rnatish joyi uchun BHTning pastki biriktiruvchi qismlari uchun ikkita pastki biriktirma mavjud.

ISOFIX tizimidan foydalanish uchun ISOFIX biriktiruvchi qismlari bo'lgan bolalarni himoya qilish tizimini sotib olish kerak. (ISOFIX bolalarni himoya qilish tizimi, agar u ECE-R44 yoki ECE-R129 ga muvofiq, universal foydalanish uchun yoki tegishli avtomobilda foydalanish uchun tasdiqlangan bo'lsa, o'rnatilishi mumkin.)

Bolalarni himoyalash tizimini ishlab chiqaruvchisi tizimni ISOFIX mahkamlagichlariga ulash bo'yicha ko'rsatmalar berishi kerak.



ISOFIX mahkamlagichlari chap va o'ng orqa o'rindiqlarga o'rnatilgan


Ular joylashuvi rasmda ko'rsatilgan. O'rta orqa o'rindiq uchun ISOFIX pastki bog'lamlari yo'q.



### **EHTIYOT BO'LING**

**Orqa o'rindiqning markaziy qismiga bolalarni himoyalash tizimini ISOFIX mahkamlagichi yordamida o'rnatmang. Bu o'rindiq ISOFIX mahkamlagichlari bilan jihozlanmagan.**

**Orqa chet tomondagi o'rindiq mahkamlagichdan BHTni o'rta o'rindiqqa o'rnatish uchun foydalanish mahkamlagichga zarar yetkazishi mumkin.**



[A] :ISOFIX amahkamlagichi joylashuvini ko'rsatkichi,  
[B] : ISOFIX mahkamlagichlari

ISOFIX mahkamlagichi joylashuvi orqa o'rindiqlarning chap va o'ng yostiqlarida belgilanadi (rasmdagi ko'rsatkichga qarang).

Chetdagi orqa o'rindiqlarning ikkalasi ham ISOFIX mahkamlagichlari bilan jihozlangan, shuningdek, orqa o'rindiq suyanchig'ining orqa tomonlariga mos keladigan yuqori mahkamlagich tasmalar bilan jihozlangan.

(ECE-R44 yoki ECE-R 129 bo'yicha butun dunyo bo'ylab tasdiqlangan bolalarni himoyalash tizimlari orqa o'rindiq suyanchiqlarining orqa tomoniga ulangan qo'shimcha mahkamlagich bilan mahkamlanishi kerak.)

ISOFIX mahkamlagichlari orqa chet tomondagi o'ng va chap o'rindiqlarning suyanchiq hamda yostiqlalari o'rtasida joylashgan.

ISOFIX mahkamlagichlarini ishlatish uchun ISOFIX qopqog'ining yuqori qismini bosing.

### **Bolalarni himoyalash tizimini "ISOFIX mahkamlash tizimi" yordamida mahkamlash**

Orqa o'rindiqlardan biriga ISOFIX mos keluvchi bolalarni himoyalash tizimini o'rnatish:

1. Tarmoq to'kchasini ISOFIX mahkamlagichidan uzoqlashtiring.v
- 2 ISOFIX mahkamlagichiga BHT biriktirilishiga xalaqit beradigan narsalarni olib tashlang.v
3. BHTni avtomobil o'rindig'iga o'rnating, so'ngra xavfsizlik tizimini ishlab chiqaruvchisi ko'rsatmalariga muvofiq o'rindiqni ISOFIX mahkamlagichlariga ulang.
3. BHT tizimidagi ISOFIX mahkamlagichlarini ISOFIX mahkamlagichlariga o'rnatish va ulash uchun ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga rioya qiling.

## EHTIYOT BO'LING


ISOFIX tizimidan foydalanganda quyidagi choralarni ko'rish kerak:

- BHTni o'rnatish bo'yicha ko'rsatmalarni o'qish.
- Bola xavfsizlik kamarlarini ushlab olishi mumkin, shuning uchun ishlatilmaydigan kamarlarni bog'lab, bolaning orqasidagi kamarlarni tortib oling.

Agar yelka kamari bo'yinga o'ralgan bo'lsa, xavfsizlik kamari qisilib bola bo'g'ilib qolishi mumkin.

- Bitta mahkamlagichga bir nechta bolalarni ushlab turish tizimini biriktirmang. Bu mahkamlagich yoki aksessuarining bo'shashishiga yoki sinishiga olib kelishi mumkin.
- Baxtsiz hodisadan so'ng ISOFIX tizimi diler tomonidan tekshirilishi kerak. Baxtsiz hodisa natijasida ISOFIX tizimi ishdan chiqqan bo'lishi mumkin.

## *Bolalarni himoya qilish tizimini yuqori mahkamlagich kamari bilan bog'lash*



Bolalar o'rindig'ining ilgak ushlagichlari yuk bo'limining tokchasida joylashgan.



1. Bolalar o'rindig'ining mahkamlagichini orqa o'rindiqdan o'tkazing.

Sozlanishi mumkin bo'lgan bosh qo'ygichlar bilan jihozlangan avtotransport vositalari uchun bolalar o'rindig'ining mahkamlagichini bosh qo'ygich ostiga yoki ostidan yo bo'lmasa o'rindiq orqasidan o'tkazing.



2. Yuqori mahkamlagich kamarini unga mos keladigan mahkamlagichga mahkamlang va ishlab chiqaruvchi ko'rsatmalariga muvofiq tizimni o'rindiqqa mahkamlash uchun uni torting.

- **BHTni mahkamlagichlari faqat BHT to'g'ri ulanganda yuzaga keladigan bosimlarga bardosh berishga mo'ljallangan. Hech qanday holatda ular oddiy xavfsizlik kamarlarini, narsalarni yoki transport vositalarini ulash uchun ishlatilmasligi kerak.**



### **EHTIYOT BO'LING**


Yuqori trosni bog'lashda quyidagi choralarni ko'rish kerak:

- **BHTni o'rnatish bo'yicha ko'rsatmalarni o'qish.**
- **Bir-biriga bog'lab qo'yadigan bir nechta BHTni bitta trosga biriktirmang.**  
Bu mahkamlagich yoki aksessuarining bo'shashishiga yoki sinishiga olib kelishi mumkin.
- **Yuqori mahkamlagich kamarini ushbu kamar uchun mos keladigan mahkamlagichdan boshqasiga bog'lash taqiqlanadi. Aks holda to'g'ri ishlash kafolatlanmaydi.**

**Har bir o'rindiqning BMT reglamentiga muvofiq ISOFIX mahkamlagichi va kattalar uchun xavfsizlik kamaridan foydalangan holda bolalarni himoyalash tizimlari uchun mosligi.**

(Avtomobil egalari va BHT ishlab chiqaruvchilari uchun ma'lumot – bolalarni himoyalash tizimlari)

O'rindiq raqami	Mashinadagi joylashuvi
1	Old chapda
2	Old markazda
3	Old o'ngda
4	2 -qator chapda
5	2 –qator markazda
6	2 –qator o'ngda



- Ha: belgilangan BHT toifasiga o'rnatish uchun mos keladi
- Yo'q: belgilangan BHT toifasiga o'rnatish uchun mos emas
- "-": qo'llab bo'lmaydi
- Jadval chapdan boshqariladigan mashinaga asoslangan. Old yo'lovchi o'rindig'idan tashqari, bu jadval barcha o'ngdan boshqariladigan transport vositalari uchun amal qiladi. O'ng rulda boshqariladigan transport vositalari uchun oldingi yo'lovchilar o'rindig'ining joylashuvi №3 haqidagi ma'lumotni ko'ring.

BHT toifalari		O'rindiq holati						Eslatma
		1	2	3	4	5	6	
BHT universal toifasi								
BHT i-Size	BHT ISOFIX: 1 F2, F2X, R1, R2		Yo'q	Ha F,R	Ha <sup>1)</sup> F,R	Ha F,R	Yo'q	
Bolalar belanchagi (BHT ISOFIX, avtomobil b'ylama o'qiga perpendikulyar tarzda o'rnatiladi)	BHT ISOFIX: L1, L2		Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q	
Chaqaloqlar uchun BHT ISOFIX (*:BHT ISOFIX bolalar uchun)	BHT ISOFIX:R1		Yo'q	Ha R	Yo'q	Ha R	Yo'q	F: oldinga qaratilgan R: orqaga qaratilgan
ISOFIX bolalar uchun Yasi yoshidagi bolalar uchun ISOFIX kichik o'lcham	BHT ISOFIX: F2, F2X, R2, R2X		Yo'q	Ha F,R	Yo'q	Ha F,R	Yo'q	
Yasi yoshidagi bolalar Uchun BHT ISOFIX katta o'lcham (*:qo'shimcha yostiqlarsiz)	1BHT ISOFIX : F3, R3		Yo'q	Ha <sup>2)</sup> F,R	Yo'q	Ha <sup>2)</sup> F,R	Yo'q	
Qo'shimcha yostiq kenglikni qisqartiradi	I BHT ISO:82		Yo'q	Ha	Yo'q	Ha	Yo'q	
Qo'shimcha yostiq kenglikni qisqartiradi	BHT ISO :83		Yo'q	Ha	Yo'q	Ha	Yo'q	

Eslatma 1: o'rindiq (№5 ) tayanch ustunli bolalarni himoya qilish tizimini o'rnatish uchun mos emas

Eslatma 2: ISOFIX bolalarni himoyalash tizimini o'rnatish uchun

-Haydovchi o'rindig'i: haydovchi o'rindig'ini o'rta holatga o'tkazish va uni eng yuqori holatiga ko'tarish kerak

- Old yo'lovchi o'rindig'i: yo'lovchi o'rindig'ini eng oldinga sijitish kerak  
odinga pozitsiya

\* Old yo'lovchilar o'rindig'ida agar xavfsizlik yostiqlachasi o'chirilmagan bo'lsa BHTni orqaga qaratib qo'ymang


\* Yarim universal BHT uchun va maxsus transport vositalari uchun mo'ljallangan (ISOFIX yoki mahkamlovchi kamarlar), BHT yo'riqnomasidagi avtomobillar ro'yxatiga qarang.

**Bolani ushlab turuvchi tizimni yelka kamari yoki 3 nuqtali kamarlar bilan mahkamlash**

ISOFIX ishlatilmaganda, har qanday bolani himoya qilish tizimini avtomobilning orqa o'rindig'iga uch nuqtali kamar bilan mahkamlash kerak.

**i Ma'lumot**


Orqa markaziy o'rindiq xavfsizlik kamaridan foydalanganda "Orqa markaziy xavfsizlik kamari" bo'limidan olingan ma'lumotlarni ham hisobga olish zarur.



**3 nuqtali kamarlar yordamida bolalarni himoya qilish tizimini o'rnatish**

Orqa o'rindiqlarga bolalar ushlab turish tizimini o'rnatish uchun quyidagilarni bajarishi kerak:

1. Orqa o'rindiqqa bolalarni ushlab turish tizimini uch nuqtali xavfsizlik kamarini uning orasidan (yoki atrofidan) o'tkazib o'rnatish tizimni ishlab chiqaruvchisi ko'rsatmalariga muvofiq bo'ladi.



2. Bel / yelka kamarining tilchasini to'kaga soling. Taqillash aniq eshivilishi kerak.

### **i** Ma`lumot

**Kamar to'kchasi favqulodda vaziyatda oson kirish uchun joylashtirilishi kerak.**




3. BHTni pastga tushirib, yelka kamarini orqaga tortib iloji boricha kamarini bo'shashgan joyini olib tashlang.
4. Bolalarni himoyalash tizimi xavfsizlik kamariga mahkam bog'langanligiga ishonch hosil qilish uchun uni turli yo'nalishlarda siljitishga harakat qiling.

Agar BHT ishlab chiqaruvchisi yuqori xavfsizlik mahkamlagichlari uchun 3 nuqtali kamarlardan foydalanishni so'rasa yoki tavsiya qilsa, 3-51-betga qarang.

Bolalar xavfsizlik tizimini olib tashlash uchun kamar tokchasidagi tugmani bosish, mahkamlagichdan bel/yelka kamarini yechib olish zarur va shundan so'ng to'liq tortib olish mumkin.

## XAVFSIZLIK YOSTIQCHASI - QO'SHIMCHA XAVFSIZLIK TIZIMI



ODN8039032L

1. Haydovchining old xavfsizlik yostiqchasi
2. Old yo'lovchi yostiqchasi \*
3. Yon xavfsizlik yostiqchasi \*
4. Xavfsizlik pardasi \*

\* : mavjud bo'lganda

Transport vositalari haydovchi va old yo'lovchilar uchun passiv xavfsizlik yostiqchasi tizimi bilan jihozlangan.

Old xavfsizlik yostiqchalari uchun nuqtali xavfsizlik kamarlarini to'ldirish uchun mo'ljallangan. Bu xavfsizlik yostiqchalari uchun xavfsizlik kamarlari har doim yetarli darajada himoyalaniishi uchun mahkamlanishi kerak.

Xavfsizlik kamarini mahkamlamaslik baxtsiz hodisada jiddiy shikastlanish va o'limga olib kelishi mumkin. Xavfsizlik yostiqchasi tizimi xavfsizlik kamarlarini to'ldirish uchun mo'ljallangan, ularni o'rnini bosa olmaydi.

Bundan tashqari, xavfsizlik yostiqchalari har bir to'qnashuv uchun o'rnatilmaydi.

Ba'zi baxtsiz hodisalarda faqat xavfsizlik kamarlari himoya tizimi hisoblanadi.

## EHTIYOT BO'LING

### XAVFSIZLIK YOSTIQCHALARI UCHUN EHTIYOT CHORALARI

Har doim xavfsizlik kamarlaridan va bolalarni himoyalash tizimidan foydalanish kerak. To'qnashuv payt xavfsizlik yostiqchasi bo'la turib xavfsizlik kamarlaridan noto'g'ri foydalanish jiddiy jarohat va o'limga sabab bo'lishi mumkin.

Bolani hech qachon har qanday bolalarni ushlab turish tizimi yoki yostiqchasid old yo'lovchilar o'rindig'iga qo'ymaslik kerak. Agar xavfsizlik yostiqchasi ochilsa chaqaloqqa yoki bolaga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

- Avtomatik komfort boshqaruv (haydovchi o'rindig'i uchun, mavjud bo'lganda) Dvigatel ishlayotganda, rulni isitish harorati atrof-muhit haroratiga qarab avtomatik ravishda tartibga solinadi. Kalit bosilganda, rulni isitish qo'lda boshqariladi. Bu funksiyadan foydalanish uchun uni axborot-ko'ngilochar tizim ekranidagi Sozlamalar menyusida faollashtirish kerak.


**Batafsil ma'lumoy uchun tegishli avtomobil uchun berilgan yo'riqnomaga qarang.**

### **i** Ma'lumot

**Isitiladigan rul yoqilgandan taxminan 30 minut o'tgach avtomatik ravishda o'chadi.**

**MA'LUMOT UCHUN**

Rul g'ildiragiga qopqoqlarni yoki qo'shimcha uskunalarni o'rnatish mumkin emas. Bu rulni isitish tizimiga zarar yetkazishi mumkin.

**Ovozli signal**

Ovozli signalni yoqish uchun rulda joylashgan tegishli belgi bilan belgilangan joyni bosib, (rasmga qarang). Ovozli signal faqat shu joyni bosganingizda ishlaydi.

**MA'LUMOT UCHUN**

Ovoz signalini kuchli zarbalar bilan yoqmang, mushtingiz bilan ovozli signal yoqiladigan joyga urmang. Buning uchun o'tkir narsalarni ishlatmang.

## Ko'zgu

### Ichki orqa tomonni ko'rsatuvchi ko'zgu

Avtotransportni boshqarishdan oldin, ko'zguni orqa oynaning ko'rinishi markazlashtirilgan bo'lishi uchun sozlash kerak.

#### EHTIYOT BO'LING

Ko'rish o'qi bo'ylab hech qanday to'siq yo'qligiga ishonch hosil qiling. Agar sizning orqa oynadan ko'rinishingizni yomonlashtirsa orqa o'rindiqlarga, yukxonaga yoki orqa o'rindiqlar bosh qo'ygichlariga hech narsa qo'ymang.

#### EHTIYOT BO'LING

Baxtsiz hodisa yuz berganda yoki xavfsizlik yostiqchasi ochilganda jiddiy shikastlanishni oldini olish uchun orqa tomonni ko'rsatuvchi ko'zguni o'zgartirish yoki panoramik ko'zgu o'rnatish mumkin emas.

#### EHTIYOT BO'LING

Haydash paytida ko'zguni sozlash taqiqlanadi. Bu nazoratni yo'qotishga va baxtsiz hodisaga sabab bo'lishi mumkin.

#### MA'LUMOT UCHUN

Ko'zguni tozalash uchun namlangan oyna tozalovchi vositalardan, qog'oz sochiq yoki shunga o'xshash materiallardan foydalaning. Oyna tozalagichni to'g'ridan-to'g'ri ko'zguna sepmang, chunki bu uning ichki qismiga suyuqlik kirishiga olib kelishi mumkin.

#### *Orqa tomonni ko'rsatuvchi ko'zguning kunduzgi va tungi ishlash rejimi (mavjud bo'lganda)*




[A] : Kun, [B] : Tun

Orqa tomonni ko'rsatuvchi ko'zguni sozlash haydashdan oldin va kunduzgi / tungi rejimi kunduzgi rejimda bo'lganda amalga oshirilishi kerak.

Tunda haydash paytida orqadan kelayotgan mashinalarning faralaridagi yorug'likni kamaytirish uchun richagni o'zingizga torting.

*Eslab tutingki, ko'zguning tungi rejimida tasvir ravshanligi yo'qoladi.*

### **Elektroxrom ko'zgu (mavjud bo'lganda)**



©DN8059023L

Kechasi yoki yetarli yorug'lik bo'lmagan sharoitda yoritish orqa tomonni ko'rsatuvchi elektr ko'zgu avtomatik ravishda orqa tomondan kelayotgan transport vositalarining faralaridan keladigan yorqin nurni nazorat qiladi.

Dvigatel ishlayotganida yorug'lik ko'zguga o'rnatilgan datchik yordamida nazorat qilinadi. Datchik avtomobil atrofidagi yorug'lik darajasini aniqlaydi va uning orqasida turgan keyingi avtomobil yorug'ligiga qarab avtomatik sozlashni amalga oshiradi.

Selektor "R" (orqaga) holatiga o'tkazilganda ko'zgu avtomatik ravishda eng yorqin sozlamaga o'tadi va haydovchiga orqa tomondan optimal ko'rish imkoniyatini beradi.

### **Tashqi orqa tomonni ko'rsatuvchi ko'zgu**



©DN8059024

Haydashdan oldin oynaning burchagini sozlang. Tashqi orqa tomonni ko'rsatuvchi oynalar avtomobilning har ikki tomoniga o'rnatilgan. Oynani masofadan boshqarish mumkin. Avtomatik tozalash paytida yoki tor ko'chalarda haydash paytida shikastlanmaslik uchun oyna korpusini buklab qo'yish mumkin.

Agar avtomobil tezligi soatiga 15 km dan yuqori bo'lsa, tashqi orqa tomonni ko'rsatuvchi oyna buklanmaydi.



### EHTIYOT BO'LING

- O'ng orqa tomonni ko'rsatuvchi oyna qavariq yuzaga ega.  
Ba'zi mamlakatlar uchun chap orqa tomonni ko'rsatuvchi oyna ham qavariq holatda ishlab chiqariladi.  
Bunday oynadagi obyektlar aslidan ko'ra uzoqroq bo'lib ko'rinadi.
- Yo'lni o'zgartirishdan oldin orqa oynaga qarang yoki orqangizdagi keyingi mashinaga masofani taxmin qilish uchun boshingizni buring.




### EHTIYOT BO'LING

Avtomobil harakatlanayotganda eshik oynalarini sozlamang va buklamang. Bu nazoratni yo'qotishga va baxtsiz hodisaga sabab bo'lishi mumkin.

### MA'LUMOT UCHUN

- Muzni oynadan olmang, chunki bu uning yuzasiga zarar yetkazishi mumkin.
- Agar oyna muzlab qolgan bo'lsa, uni kuch bilan tushirishga urinmang. Muzdan tushirish uchun muzdan tushirish spreyni (sovutish tizimi uchun antifriz emas) va issiq suv bilan namlangan yumshoq matoni ishlatish tavsiya etiladi. Shuningdek, mashinani issiq xonaga qo'yish mumkin.

### Orqa tomonni ko'rsatuvchi oynalarini sozlash




1. O'zgartirish uchun oynani tanlash uchun L (chap) yoki R (o'ng) tugmachasini (1) bosib.
2. Oynani yuqoriga, pastga, chapga yoki o'ngga siljitish sozlagichidan foydalaning (2).
3. Sozlashdan so'ng, oynalarning bexosdan harakatlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun neytral (markaziy) holatini o'rnatib.


### MA'LUMOT UCHUN

- Oxirgi holatga yetganda oyna harakatini to'xtatadi lekin tugmachani bosib turganda elektr uzatgich ishlashda davom etadi. Kalitni kerak bo'lgandan uzoqroq ushlab turmang, chunki bu dvigatelga zarar yetkazishi mumkin.
- Tashqi oynalarining o'rnini qo'lda sozlash mumkin emas, bu elektr dvigatelga zarar yetkazishi mumkin.

### Tashqi tomondan bukilib



Orqani ko'rsatuvchi oyna qo'lda bukilib oyna Tashqi oynani burish uchun orqa tomondan uning korpusini ushlab va orqaga torting.



### Elektron turi

Tashqi oynani tugmani bosish orqali buklash yoki ochish mumkin. Agar avtomobil tezligi soatiga 15 km dan yuqori bo'lsa, tashqi oyna tugma bosilganda ham buklanmaydi. Biroq, tashqi oynani ochish tugmasi bosilganda ochiladi.

- LCD displeydagi sozlamalarda “Convenience (Komfort)”, “Welcome mirror/light (Salomlashuvchi chiroq/Aqlli ko'zgu)”, “On door unlock (Eshik ochiq bo'lganda)”, “On driver approach (Haydovchi yaqinlashmoqda)” parametrlari tanlanganda

orqa tomonni ko'rsatuvchi oynalar avtomatik ravishda quyidagicha ochiladi va bukiladi:

- Elektron kalit yordamida ehiklar qulflanganda yoki qulfdan chiqarilganda oynalar buklanadi va ochiladi.
- Eshik yopilganda yoki tashqi eshik tutqichidagi tugma bilan ochilganda oyna buraladi yoki asl holatiga qaytadi.

- LCD displeydagi sozlamalarda “Convenience (Komfort)”, “Welcome mirror/light (Salomlashuvchi chiroq/Aqlli ko'zgu)”, “On door unlock (Eshik ochiq bo'lganda)” va “Convenience (Komfort)”, “Welcome mirror/light (Salomlashuvchi chiroq/Aqlli ko'zgu)”, “On driver approach (Haydovchi yaqinlashmoqda)” parametrlari tanlanganda, (eshiklar yopiq va qulflangan holatda) orqa tomonni ko'rsatuvchi oynalar haydovchi yonida elektron kalit bo'lsa avtomatik ravishda ochiladi.

**Agar mashina navigatsiya tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, avtomobilning axborot-ko'ngilochar tizimi uchun tasdiqlangan alohida yo'riqnomani o'qib chiqing.**


### **MA'LUMOT UCHUN**

Tashqi elektr oynani hatto o't oldirish qurilmasi o'chirilgan bo'lsa ham boshqarish mumkin. Biroq, batareyaning keraksiz zaryadsizlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun, oynani dvigatel o'chirilgan vaqtdan kerak bo'lgandan ko'ra uzoqroq vaqtga sozlamang.

### **MA'LUMOT UCHUN**

Oynalarni qo'lda buklash mumkin emas. Bu haydash mexanizmiga zarar yetkazishi mumkin.

## Orqa tomondan parkovka qilishga yordamlashuvchi funksiya (mavjud bo'lganda)



"R" (orqaga) tugmachasini bosish orqaga burilish paytida yordam berish uchun tashqi oynalarni pastga egadi.

Tashqi oyna kalitining (1) holati oynalarning harakatlanishini aniqlaydi:

Agar chap yoki o'ng holati tanlangan (bo'lsa, ikkilasi ham harakatlanadi.

Neytral: agar o'rta holat tanlangan bo'lsa, oynalar qimirlamaydi.


Tashqi oynalar quyidagi holatlarning har birida avtomatik ravishda asl holatiga qaytadi:

- O't oldirish qurilmasi kaliti LOSC / OFF yoki ACC ga o'rnatilganda.
- Selektor "R" dan boshqa har qanday holatda bo'lganda.
- Tashqi oynani masofadan boshqarish tugmasi bosilmaganda.



## OYNALAR

### Elektr oyna ko'targichlar (mavjud bo'lganda)



- (1) Haydovchi eshigining elektr oyna ko'targich tugmasi
- (2) Yo'lovchi eshigining elektr oyna ko'targich tugmasi
- (3) Chap orqa eshikning elektr oyna ko'targich tugmasi
- (4) O'ng orqa eshikning elektr oyna ko'targich tugmasi

- (5) Oynani ochish va yopish
- (6) Avtomatik elektr oyna ko'targichlar \*
- (7) Oyna ko'targichlarni blokirovka tugmasi

\*: mavjud bo'lganda

Oyna ko'targichlar faqat o't oldirish qurilmasi yoqilgan bo'lsa ishlaydi. Har bir eshikka alohida elektr oyna ko'targich o'rnatilgan. Haydovchi uchun yo'lovchilar eshigi oyna ko'targichlarini blokirovka qiluvchi tugma ham o'rnatilgan.

O't oldirish qurilmasini ACC yoki OFF holatiga o'tkazgandan so'ng, oyna ko'targichlar taxminan yana 10 daqiqa ishlashi mumkin. Biroq, agar old eshiklardan birini ochilsa, oyna ko'targichlar bu 10 daqiqa davomida ham ishlamaydi.



### EHTIYOT BO'LING


Jiddiy shikastlanish yoki o'limning oldini olish uchun mashinani boshqarayotganda boshingizni, qo'llaringizni yoki tanangizni oynadan tashqariga chiqarmang.



### Ma'lumot

- Sovuq va nam iqlim sharoitlarida elektr oyna ko'targichlar muzlash tufayli yomon ishlashi mumkin.
- Haydash paytida orqa oynalar yoki lyuk (mavjud bo'lganda) ochiq bo'lganda salonga havo oqimlari kirishi yoki uzilib-uzilib keluvchi tovushlar paydo bo'lishi mumkin. Bu tovushlar odatiy hisoblanadi. Ularni yo'qotish yoki quyidagi sanab o'tilgan choralarni ko'rish orqali kamaytirish mumkin. Agar bir yoki ikkala orqa oynalar ochilganda tovushlar eshitilsa, ikkala oldingi oynani taxminan 25 mm pastga tushiring. Lyuk ochilganda ovoz eshitilsa, lyukni yopiladigan tomonga o'zgina harakatlantiring.

## Oynani ochish va yopish



Ochish:

Oyna ko'targich tugmasini birinchi o'rnatilgan holatiga qaytguncha bosing(5). Kerakli balandlikka yetganda tugmani qo'yib yuboring.

Yopish:

Oyna ko'targich tugmasini birinchi o'rnatilgan holatiga qaytguncha yuqoriga ko'taring(5). Kerakli balandlikka yetganda tugmani qo'yib yuboring

### **Avtomatik yopish / ochish (mavjud bo'lganda)**

Oyna ko'targich tugmasini ikkinchi o'rnatilgan holatiga kelguncha (6) qisqa muddat bosishyoki ko'tarish tugma qo'yib yuborilganda ham oynani to'liq tushirilishiga yoki ko'tarilishiga olib keladi. Oynani ma'lum bir holatda to'xtatish uchun, oyna ochilganda yoki yopilganda, tugmani bosing yoki torting, so'ng qo'yib yuboring.

## **Quvvat oynasini boshqarish tizimini qayta o'rnatish**

Agar elektr oyna ko'targichlar to'g'ri ishlamasa avtomatik boshqaruv tizimi qayta ishga tushirilishi kerak. Buning uchun quyidagi amallarni bajarish zarur:

1. O't oldirish qurilmasini yoqish.
2. Oynani yopish va elektr oyna ko'targich tugmasini kamida 1 soniya davomida tortish.

Agar qayta ishga tushirilgandan so'ng, elektr oyna ko'targichlar hali ham to'g'ri ishlamasa, tizimni tekshirtirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.



## **EHTIYOT BO'LING**

**Elektr oyna ko'targichlarni boshqarish tizimini qayta ishga tushirish paytida avtomatik qaytarish funksiyasi ishlamaydi. Oynalarni yopishdan oldin, tana qismlari yoki narsalarga to'sqinlik qilmasligiga ishonch hosil qiling. Aks holda, jarohatga sabab bo'lishi yoki transport vositasining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.**

### **Avtomatik qaytarish (mavjud bo'lganda)**



Agar oynani avtomatik ravishda yopish paytida to'siq aniqlansa, oyna ko'tarilishdan to'xtaydi va taxminan 30 sm (12 dyum) pastga tushadi, bu obyektни olib tashlashga imkon beradi.

Agar qarshilik otna ko'targich tugmasini uzoq bosish bilan qayd etilgan bo'lsa, oyna ko'tarilishdan to'xtaydi va keyin taxminan 2,5 sm ga pasayadi.

Va agar oynani avtomatik qayta tushirgandan keyin 5 soniya ichida oynani ko'targichni boshqarish tugmasi doimiy ravishda bosib turilsa avtomatik qaytarish funksiyasi bajarilmaydi.

### **i Ma'lumot**

Oynani avtomatik qaytarish funksiyasi faqat tugmani ikkinchi holatga qaytguncha ko'tarishni aktivlashtirib, avtomatik ko'tarish funksiyasidan foydalanilganda ishga tushadi.

### **⚠ EHTIYOT BO'LING**

Oynani yopishdan oldin, tana qismlari yoki narsalarga to'sqinlik qilmasligiga ishonch hosil qiling. Aks holda jarohatlanish yoki transport vositasining shikastlanishi ehtimoli yuzaga keladi. Diametri 4 mm (0,16 dyum) dan kichik bo'lgan buyumlar qisilishga qarshi tizim tomonidan aniqlanmay qolishi mumkin va bunda oyna yopilishdan to'xtamaydi.

### **MA'LUMOT UCHUN**

Oynalarga qo'shimcha aksessuarlar o'rnatmang. Avtomatik qaytarish funksiyasi ishlamasligi mumkin.

### **Avtomatik oyna ko'targichni qulflash tugmasi**



Haydovchi oyna ko'targichlarni qulflash tugmasi yordamida orqa eshik oyna ko'targichlarni qulflashi mumkin.

Oyna ko'targichni qulflash tugmasi qulflangan holatda bo'lganda:

- Haydovchi barcha oyna ko'targichlarni boshqara oladi
- Old yo'lovchi yo'lovchi tomondan old eshik oyna ko'targichlarini boshqara oladi.
- Orqa o'rindiq yo'lovchilari orqa eshik oyna ko'targichlarini boshqara olishmaydi.

\* Oyna ko'targichni qulflash tugmasi bosilganda (indikator yonadi) orqa o'rindiq yo'lovchilari orqa eshiklarni ocholmaydilar (bolalarni himoyalash uchun elektron qulflash tizimi mavjud bo'lganda).

**Qo'shimcha ma'lumot olish uchun ushbu bobdagi "bolalarni himoyalash uchun elektron qulflash tizimi" bo'limiga qarang.**

#### **MA'LUMOT UCHUN**

- **Oyna ko'targich tizimining shikastlanishini oldini olish uchun bir vaqtning o'zida ikkita oynani ochmang yoki yopmang. Bu shuningdek eruvchan saqlagichning ham uzoq muddat xizmat qilishini ta'minlaydi.**
- **Haydovchi o'rindig'li oyna ko'targichlarining bir vaqtning ham ochish ham yopish tugmalarini bosmang. Bunday holatda, oyna ko'tarilish yoki tushishdan to'xtaydi va uning keyingi harakati imkonsiz bo'ladi.**



## EHTIYOT BO'LING

- Dvigatel ishlayotgan paytda hech qachon bolalar qarovsiz qolgan mashinada kalitlarni qoldirmang.
- Hech qachon bolalarni mashina ichida qarovsiz qoldirmang. Hatto juda yosh bolalar ham beixtiyor transport vositasini boshqarishi, oynaga qisilib qolishi, o'zlariga yoki boshqalarga zarar yetkazishi mumkin.
- Oynani yopishdan oldin tananing barcha qismlari (kaftlar, qo'llar, bosh) va boshqa to'siqlar yo'qligiga ishonch hosil qiling.
- Bolalarni oyna ko'targichlarni o'ynashiga yo'l qo'ymang. Haydovchi eshigida joylashgan oyna ko'targichni qulflash tugmasi qulflangan holatda bo'lishi kerak. Oyna ko'targichning tasodifan ishga tushishi bolalarning jiddiy shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Haydash paytida boshingizni, qo'llaringizni yoki tananing boshqa qismlarini oynadan tashqariga chiqarish taqiqlanadi.

## Panoramali lyuk (mavjud bo'lganda)



Agar mashina lyuk bilan jihozlangan bo'lsa uning ochilishi va yopilishi tepa qismdagi konsol tugmasi yordamida amalga oshiriladi

Lyukni faqat o't oldirish qurilmasi yoqilgan holatda ishlatish mumkin.

O't oldirish qurilmasini yoqish tugmasi ACC yoki OFF holatida bo'lsa, lyukni yana 30 soniya davomida ishlatish mumkin.

Ammo agar old eshik ochilsa, bu 30 soniya davomida lyukni ishlatib bo'lmaydi.

### **i** Ma'lumot

- Sovuq va nam iqlim sharoitida muzlash tufayli lyuk yaxshi ishlamasligi mumkin.
- Mashinani yuvgandan yoki yomg'irdan keyin lyuk o'rnini o'zgartirishdan oldin uni quriting.

### **⚠** EHTIYOT BO'LING

Panoramali lyuk shishadan yasalgan, shuning uchun u yo'l-transport hodisasi sodir bo'lganida sinishi mumkin.

Agar siz xavfsizlik kamarini taqmagun bo'lsangiz, oynaning singan joyiga tegib ketishingiz mumkin, bu shikastlanish yoki o'limga olib kelishi mumkin. Barcha yo'lovchilar xavfsizligi uchun barcha himoya funksiyalarini faollashtirish kerak (masalan: xavfsizlik kamari, CRS va boshqalar).

### **⚠** EHTIYOT BO'LING

- Hech qachon boshqaruv paytida lyuk va quyoshdan saqlovchi pardaning joylashuvini sozlamang. Bu boshqaruvni yo'qotishga va yo'l-transport hodisalariga olib keladi.
- Lyukdan foydalanganda, u boshingizga, tananing boshqa qismlariga yoki narsalariga tegmasligiga ishonch hosil qiling.

- Dvigateli ishlayotgan, bolalar qarovsiz qoldirilgan transport vositasida elektron kalitni qoldirmang.  
Nazorat qilinmagan bolalar yuqori lyukni ishlatishi va bu jiddiy shikastlanishga olib kelishi mumkin.
- Panoramali lyuk shishadan yasalgan, shuning uchun u yo'l-transport hodisasi sodir bo'lganida sinishi mumkin. Tegishli xavfsizlik vositalari bilan himoyalangan (masalan, xavfsizlik kamarlari, CRS va boshqalar) yo'lovchilarga singan shisha bo'laklari uchib, jiddiy shikastlanishga yoki hatto o'limga olib kelishi mumkin.
- Avtomobilning tepasida o'tirmang. Bu jarohatlanish yoki transport vositasining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

#### MA'LUMOT UCHUN

- Lyukni to'liq yopish, ochish yoki egishdan keyin lyukni boshqarish dastagi bilan harakatni davom ettirmang. Aks holda elektr uzatgich yoki tizimning boshqa komponentlariga zarar yetishi mumkin.
- Avtotransportni qarovsiz qoldirganda lyukning mahkam yopilganligiga ishonch hosil qiling. Agar lyuk ochiq bo'lsa, yomg'ir yoki qor tushganda yo'lovchilar xonasi namlanib qolishi shuningdek, o'g'irlik xavfi yuzaga kelishi mumkin.

#### Lyuk ochiqligi haqida ogohlantirish (mavjud bo'lganda)

- Agar haydovchi lyukni to'liq yopmasdan dvigatelni o'chirib qo'ysa, taxminan 3 soniya davomida ogohlantirish ovozi eshitiladi va LCD displeyda ogohlantirish xabari ko'rsatiladi.
- Agar haydovchi dvigatelni o'chirib lyukni to'liq yopmasdan eshikni ochsa, LCD displeyda eshik yopilguncha yoki lyuk to'liq yopilmaguncha lyuk ochiqligi haqida ogohlantirish yozuvi paydo bo'ladi.

Lyukni doimo mahkam yoping.



## Quyoshdan himoyalovchi parda



- Pardani ochish uchun lyukni boshqarish dastagini (1) birinchi o'rnatilgan holatiga qaytaring.
- Oyna yopilish holatida pardani yopish uchun lyukni boshqarish dastagini (1) birinchi o'rnatilgan holatiga siljiting.

Har qanday vaqtda harakatni to'xtatish uchun pardani boshqarish tugmasini qisqa vaqt davomida bosish kerak.

## Lyukning og'ishi

### Quyoshdan himoyalovchi parda yopilganda



Lyukni boshqarish dastagi (1) orqaga tortilsa parda to'liq ochilish holatiga o'tadi, so'ngra lyuk oynasi ham to'liq ochiladi. Lyuk harakatini to'xtatish uchun dastakni ko'p marta orqaldira tortish zarur.


### Quyoshdan himoyalovchi parda ochiq bo'lganda

Lyukni boshqarish dastagi (1) orqaga tortilsa lyuk oynasi to'liq ochilish holatiga o'tadi. Lyuk harakatini to'xtatish uchun dastakni ko'p marta orqa-oldira tortish zarur.

## **i** Ma'lumot

**Panoramali lyukning faqat old oynasi ochilib-yopiladi.**

## Lyukning og'ishi



### ***Quyoshdan himoyalovchi parda yopiq bo'lganda***

Lyukni boshqarish dastagini yuqoriga siljitish quyosh pardasini ochadi, so'ngra oyna egiladi.


Lyukni harakatdan istalgan vaqtda to'xtatish uchun lyukni boshqarish dastagini oldinga yoki orqaga harakatlantiring.

### ***Quyoshdan himoyalovchi parda ochiq bo'lganda***

Agar lyukni boshqarish dastagini yuqoriga ko'tarsangiz, lyuk oynasi egiladi.

Lyukni harakatdan istalgan vaqtda to'xtatish uchun lyukni boshqarish dastagini oldinga yoki orqaga harakatlantiring.

## Lyukning yopilishi



### ***Faqat lyuk oynasining yopilishi***

Lyukni boshqarish dastagini (1) birinchi o'rnatilgan holatga kelguncha oldinga suring.


### ***Lyuk oynasini quyoshdan himoyalovchi parda bilan yopish***

Lyukni boshqarish dastagini (1) birinchi o'rnatilgan holatga kelguncha oldinga suring.

Bu holatda dastlab lyuk oynasi yopiladi, so'ngra avtomatik ravishda parda ham yopiladi.

Lyukni harakatdan istalgan vaqtda to'xtatish uchun lyukni boshqarish dastagini (1) oldinga yoki orqaga harakatlantiring.

### Lyukning avtomatik qaytishi



©DH043039

Agar avtomatik yopish jarayonida lyuk begona jism yoki inson tanasining bir qismi bilan to'qnashsa, u biroz teskari yo'nalishda harakat qiladi va shu holatda to'xtaydi.

Lyuk ochilishida kichik narsa xalaqit qilganida bu funksiya ishlamaydi. Lyukni yopishdan oldin uning ochilishida begona narsalar xalaqit bermasligiga ishonch hosil qiling.



### EHTIYOT BO'LING

Diametri 4 mm (0,16 dyum) dan kichik obyektlar lyuk oynasi bilan ustki qism o'rtasida qolib ketganini qisilishga qarshi tizim aniqlay olmaydi va oyna tushirilmaydi.



### EHTIYOT BO'LING

- Yuqori lyukni yopishdan oldin, hech qanday tana qismlari yoki narsalarga to'sqinlik qilmasligiga ishonch hosil qiling. Aks holda transport vositasi shikastlanishi yoki jarohat olish mumkin.
- Harakatlanish paytida jiddiy shikastlanish yoki o'lim xavfini oldini olish boshni, qo'llarni yoki tananing yuqori qismini lyukdan chiqarib olish mumkin emas.
- Lyukni to'g'ri ishlatmaslik, ayniqsa, bolalarda baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin. Hech qachon bolalarni mashinada qarovsiz qoldirmang.
- Avtomobilning tepasida o'tirmang. Bu jarohatlanish yoki transport vositasining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

**MA'LUMOT UCHUN**

- Lyuk va lyuk paneli o'rtasidagi yig'ilish joyida to'plangan kirni vaqti-vaqti bilan tozalab tashlang, aks holda lyuk yopilganda shovqin eshitilishi mumkin.
- Lyukni past haroratlarda yoki qor yoki muz bilan qoplangan paytda ochish mumkin emas, bu elektrdvigatel shikastlanishiga olib keladi.  
Sovuq va nam iqlim sharoitida lyuk ishlamay qolishi ehtimoli bor.

**i Ma'lumot**

Mashinani yuvgandan yoki yomg'irdan keyin lyuk o'rnini o'zgartirishdan oldin uni quriting.

**Lyuk boshqaruv tizimini qayta o'rnatish**

Quyidagi shartlar yuzaga kelganda lyuk sozlamalarini qayta o'rnatish talab qilinadi:

- Batareya zaryadsizlangan yoki uzilgan, lyuk saqlagichi almashtirilgan yoki uzilgan bo'lsa.
- Lyuk boshqaruv dastagi to'g'ri ishlamasa.

Lyuk sozlamalarini qayta tiklash uchun quyidagi amallarni bajaring:

1. O't oldirish qurilmasini yoqing yoki dvigatelni ishga tushiring. Tizimni qayta ishga tushirishni dvigatel ishlayotganda bajarish tavsiya etiladi.
2. Lyuk boshqarish dastagini (1) oldinga suring. Lyuk hozirgi holatiga qarab to'liq yopiladi yoki egiladi.
3. Lyuk harakatini to'xtatganda, boshqaruv dastagini qo'yib yuboring.

4. Boshqaruv dastagini oldinga siljiting va taxminan 10 soniya ushlab turing.

- Agar lyuk yopiq holatda bo'lsa:

Oyna egilib, biroz yuqoriga va pastga siljiydi.

- Agar lyuk ogilgan holatda bo'lsa: Oyna biroz yuqoriga va pastga siljiydi.

Agar operatsiya paytida kalitni qo'yib yuborgan bo'lsangiz, jarayonni 2 - bosqichdan takrorlang.

5. Lyuk quyidagi ketma-ketlikni bajarmaguncha boshqaruv tugmachasini oldinga bosing va 3 soniya ushlab turing:

Pastga egilish → Siljib  
ochilish → siljib yopilish

Jarayon tugagunga qadar dastakni qo'yib yubormang.

Agar operatsiya paytida kalitni qo'yib yuborgan bo'lsangiz, jarayonni 2 - bosqichdan takrorlang.

6. Barcha operatsiyalar tugagach, boshqaruv dastagini qo'yib yuboring. (lyuk sozlamalari qayta o'rnatildi.)


### **i** Ma'lumot

- Agar tizimni qayta ishga tushirish avtomobil akkumulyatorini o'chirish yoki zaryadsizlantirishdan so'ng, shuningdek, tegishli saqlagich qizib ketishidan keyin amalga oshirilmagan bo'lsa lyuk normal tarzda ishlamasligi mumkin.
- Batafsil ma'lumot uchun HYUNDAI vakolatli dileriga murojaat qilishingizni tavsiya qilamiz.

## TASHQI FUNKSIYALAR


### Kapot

#### Kapotni ochish



ODN8059040

1. Mashinani to'xtating va to'xtash tormozini bosing.
2. Kapot qulfini ochish uchun kapotni bo'shatish dastagini torting. Qopqoq biroz ochilishi kerak.



ODN8059041

3. Mashinaga old tomondan yaqinlashib kapotni biroz ko'taring, kapot ostidagi markazda joylashgan qo'shimcha lo'kidonni (1) bosing va kapotni ko'taring (2). Ko'targandan so'ng, kapotni yarmigacha qo'yib yuboring, shunda u o'z -o'zidan ko'tariladi.

#### Kapotni yopish

1. Kapotni yopishdan oldin quyidagilarga rioya qilish zarur:
  - Dvigatel bo'linmasini to'ldirish uchun barcha qopqoqlarni to'g'ri o'rnatish kerak.
  - Qo'lqop, latta va boshqa yonuvchan materiallar dvigatel bo'linmasidan olib tashlanishi kerak.
2. Kapotni yarmigacha tushiring (yopiq joydan taxminan 30 sm ko'targanda) va uni yopish uchun pastga suring. Keyin kapotning mahkam joylashtirilganligini ikki marta tekshiring.

Agar kapotni biroz ko'tarish mumkin bo'lsa, demak u to'g'ri qulflanmagan. Uni yana oching va kuch bilan yoping.




## EHTIYOT BO'LING

- Kapotni yopishdan oldin unga hech nima xalaqit qilmayotganiga ishonch hosil qiling.
- Harakatlanishdan oldin kapotni yaxshi yopilganligini ikki marta tekshiring. Asboblar kombinatsiyasidagi ko'rsatkich chiroqchasi yonmaganligiga va kapot ochiqligi haqidagi xabar ko'rsatilmaganligiga ishonch hosil qiling. Kapotni ochiq holda haydash kuzatuvning to'liq yo'qolishiga va baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin.
- Avtotransport vositasini kapoti baland holda boshqarmang. Yo'lni ko'rmaslik yo'l-transport hodisasiga olib kelishi va shuningdek, kapot qulashi yoki shikastlanishi mumkin.

## Yukxona

### Yukxonani ochish


1. Uzatish qutisi holati P (parkovka) holatida ekanligiga ishonch hosil qiling va to'xtash tormozini yoqing.



2. So'ngra quyidagilardan birini bajaring:
  - Yukxonani masofadan yoki elektr kalit bilan qulfdan chiqarish tugmasini 1 soniyadan ko'proq bosib turing.
  - Shuningdek, elektr kalitlar jihozlangan transport vositalari uchun:
    - Eshiklar ochiq, elektron kalit bo'lmagan holatda, kapotni ochish uchun kapotda joylashgan belgi ichidagi tugmani bosing.
    - Agar hamma yoki hech bo'lmaganda bitta eshik qulflangan bo'lsa, yoningizda elektr kalit bo'lsagina tugmani kapotni ochish uchun ishlatish mumkin.

**MA'LUMOT UCHUN**

**Yukxona qopqog'i tugmasi** rezinadan yasalgan. Uni kalit, otvyorka yoki parma kabi o'tkir narsalar bilan bosmang.



- Yukxonani ochish tugmasidan foydalaning.

3. Yukxona qopqog'ini yuqoriga ko'taring.

**Yukxonani yopish** Yukxona qopqog'ini pastga tushiring va qulf mahkamlanmaguncha uni bosing. Yukxona qopqog'i mahkam yopilganligiga ishonch hosil qilish uchun uni ochishga harakat qilib ko'ring.

**EHTIYOT BO'LING**

Avtomobil harakatlanayotganda yukxona qopqog'i har doim qulflangan bo'lishi kerak. Agar ochiq qoldirilsa yoki chala qulflansa, uglerod oksidi (CO) bo'lgan zaharli chiqindi gazlar yo'lovchi kabinasiga kirishi mumkin, bu jiddiy kasallik yoki o'limga olib kelishi mumkin.

**Ma'lumot**

Yukxona qopqog'ining silindrlari va mahkamlagichlarini shikastlanishini oldini olish uchun har doim harakatlanishdan oldin yukxonani yoping.

**MA'LUMOT UCHUN**

Sovuq va nam havo sharoitlarida yukxona mexanizmlari va qulfida muzlash bilan bog'liq nosozliklar bo'lishi mumkin.

**EHTIYOT BO'LING**

- Yukxonada joylashish taqiqlangan. Agar yukxona yopilsa va odam tashqariga chiqa olmasa, u havo yetishmasligi, chiqindi gazlar yoki haddan tashqari harorat ta'sirida jiddiy shikastlanishi yoki o'lishi mumkin.


Agar yukxona yopilsa va odam tashqariga chiqa olmasa, u havo yetishmasligi, chiqindi gazlar yoki haddan tashqari harorat ta'sirida jiddiy shikastlanishi yoki o'lishi mumkin.

- Mashinangiz qulflangan va kalitlari bolalar qo'li etmaydigan joyda saqlanishi kerak. Ota - onalar farzandlariga yukxonada bo'lish xavfi haqida tushuntirish berishlari kerak.



## Favqulodda yukxona qopqog'ini ochish

### Yukxona bo'limi ichida




Yukxona ichida yukxona qopqog'ini favqulodda bo'shatish dastagi mavjud. Agar kimdir tasodifan yukxonaga qamalib qolgan bo'lsa, dastakni o'q yo'nalishi bo'yicha siljitish va yukxona qopqog'ini bosish orqali qopqoqni ochish mumkin.

## EHTIYOT BO'LING

- Xavfsiz tomonda bo'lish uchun siz va yo'lovchilaringiz tasodifan yukxona bo'limida qulflangan holatda qolganda favqulodda yukxonani ochish joyini va uni ochish tartibini yaxshi bilishingiz kerak.
- Yukxonada joylashish taqiqlangan. Agar yukxona yopilsa va odam tashqariga chiqa olmasa, u havo yetishmasligi, chiqindi gazlar yoki haddan tashqari harorat ta'sirida jiddiy shikastlanishi yoki o'lishi mumkin.  
Yukxona bu avtomobilning deformatsiya hududi hisoblanadi va baxtsiz hodisa sodir bo'lgan taqdirda uning ichida bo'lish juda xavflidir.
- Mashinangiz qulflangan va kalitlari bolalar qo'li etmaydigan joyda saqlanishi kerak. Ota - onalar farzandlariga yukxonada bo'lish xavfi haqida tushuntirish berishlari kerak.
- Dastakdan faqat favqulodda holatlarda foydalaning.


### **Avtomobil ichida**

Agar batareya quvvati kamligi yoki boshqa sabablarga ko'ra yukxonaning qulfini ocholmasangiz, uni avtomobil ichidan ochishingiz mumkin.



Mexanik kalit yordamida orqa o'rindiq ostidagi sim qopqog'ini (1) oching va yukxona qulfini ochish uchun kabelni torting (2). Kabel qattiq mahkamlangan va uni tortib olish qiyin bo'lishi mumkin. Shuning uchun, bu jarayonni soddalashtirish uchun, masalan, otvyorka kabi yordamchi qurilmanni halqaga kiritish zarur.

### **Avtomatik ochiladigan aqlli yukxona (mavjud bo'lganda)**



Elektr kalitlar bilan jihozlangan transport vositalarida yukxonani ochishning aqlli tizimi yordamida ochish mumkin.

### **Avtomatik ochiladigan aqlli yukxona tizimidan foydalanish**

Quyidagi shartlarning barchasi bajarilgan taqdirda, yukxonani tegmasdan ochish mumkin.

- Barcha eshiklar yopilgan va qulflanganidan 15 soniya o'tishi.
- Aniqlanish zonasida 3 soniyadan ko'proq turish.


## **i** Ma'lumot

Avtomatik ochiladigan aqlli yukxona tizimi quyidagi hollarda ishlamaydi:

- eshiklarni yopib, qulflaganidan keyin 15 soniyadan ko'p bo'lmagan vaqt ichida elektr kalitni davomiy aniqlash;
- eshiklarni tutqichlardan 1,5 m masofada yopib, qulflaganidan keyin 15 soniyadan oshmagan vaqt ichida elektr kalit aniqlansa (salomlashuv signallari bilan jihozlangan mashinlar uchun);
- eshik qulflanmagan yoki yopilmagan bo'lsa.
- elektr kalit mashinada bo'lsa.

1. Tizimni faollashtirish uchun LCD displeyda "User settings (Sozlamalar) rejimida Smart Trunk with Auto Open (Avtomatik ochish) funksiyasini tanlang.

**Qo'shimcha ma'lumot olish uchun ushbu bobda "LCD displey" bo'limiga qarang. Agar avtomobil navigatsiya tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, mashina axborot-ko'ngilochar tizimi uchun alohida taqdim etilgan yo'riqnomani o'qib chiqing.**




## 2. Aniqlash va ogohlantirish

Aniqlash joyida (avtomobil orqasida 50 ~ 100 sm (20 ~ 40 dyum) ) elektr kalit bilan turilsa, elektr kalit aniqlangani to'g'risida ogohlantirish chiroqlari yonadi va ovozli signal eshitiladi, yukxona ochiladi.

## **i** Ma'lumot

Yukxonani ochmoqchi bo'lmasangiz, aniqlash joyidan uzoqroq turing. Agar siz bexosdan aniqlash zonasida bo'lsangiz, ogohlantirish chiroqlari yonadi va signal chalinadi, elektr kalit bilan joyini tark eting. Yukxona qopqog'i yopiq qoladi.



©DN8059048L

- Elektr kalit bolalar qo'li yetmaydigan joyda saqlanishi kerak. Mashinaning orqasida o'ynayotgan bolalar tasodifan avtomatik ochiladigan aqlli yukxonani ochib yuborishi mumkin.

### 3. Avtomatik ochilish

Ogohlantirish chiroqlari yonadi, signal 6 marta eshitaladi va yukxona ochiladi.



### EHTIYOT BO'LING

- Harakatlanishdan oldin albatta yukxonani yoping.
- Yukxonani ochishdan yoki yopishdan oldin, qopqoq odamlarga yoki qandaydir predmetlarga tegmasligiga ishonch hosil qiling.
- Yukxona bo'linmasini yuqoriga ochayotganda undan hech narsa tushmasligiga ishonch hosil qiling. Bu jiddiy shikastlanishga olib kelishi mumkin.
- Avtomobilni yuvishdan oldin avtomatik ochiladigan aqlli yukxona tizimini o'chiring. Aks holda yukxona tasodifan ochilishi mumkin.

### **Elektron kalit yordamida avtomatik ochiladigan tizimli aqlli yukxonani o'chirish tartibi**



1. Eshiklarni qulflash
2. Eshiklarni qulfdan chiqarish
3. Yukxonani ochish

Agar ogohlantirish va aniqlash hududida elektron kalitdagi har qanday tugma bosilsa, avtomatik ochiladigan aqlli yukxona tizimi o'chadi.

Avtomatik ochiladigan aqlli yukxona tizimining o'chirish tartibini eslab qoling. Bu favqulodda vaziyatlarda yordam berishi mumkin.

### **i Ma'lumot**

- Eshik qulfini ochish tugmasi (2) bosilganda, avtomatik ochiladigan aqlli yukxona tizimi vaqtincha o'chiriladi. Ammo, agar eshiklar 30 soniya ichida ochilmasa, tizim qayta ishga tushadi.
- Agar yukxonani ochish tugmachasini (3) 1 soniyadan ko'proq bosib tursangiz, yukxona ochiladi.
- Eshikni qulflash (1) yoki yukxonani ochish tugmasi bosilganda avtomatik ochiladigan aqlli yukxona tizimi ogohlantirish yoki aniqlash hududida bo'lmasa tizim ishga tushmaydi.
- Tizim o'chirilgandan so'ng, elektron kalit tugmasi va eshik ochilishi bilan avtomatik ochiladigan aqlli yukxona tizimi barcha eshiklarni yopish va ochish orqali yana ishga tushirilishi mumkin.

## Aniqlash maydoni




- Avtomatik ochiladigan aqlli yukxona tizimi yukxonadan 50-100 sm masofada elektron kalit aniqlanganda, salomlashuv signali bilan ishlaydi.
- Elektron kalitni aniqlash zonasidan olib tashlangandan so'ng aniqlash va ogohlantirish bosqichida signal darhol to'xtaydi.

## **i** Ma'lumot


- Avtomatik ochiladigan aqlli yukxona tizimi quyidagi holatlarning hech birida ishlamaydi:
  - elektron kalit radio uzatgich yonida, masalan, uzatgich ishiga xalaqit beradigan radiostansiya yoki aeroport yonida joylashgan bo'lsa.
  - elektron kalit ikki tomonlama mobil stansiya yoki mobil telefon yonida joylashgan bo'lsa.
  - avtomobil yonida boshqa avtomobilning elektron kaliti ishlatganda.
- Quyidagi hollarda aniqlash maydoni kichrayishi yoki kattalashishi mumkin:
  - g'ildirakni almashtirish yoki tekshirish uchun avtomobilning bir tomoni ko'tarilganda.
  - Mashina qiya yoki tuproq yo'lda qoldirilganda.

## Yonilg'i quyish qopqog'i

### Yonilg'i quyish qopqog'ini ochish



1. Dvigatelni to'xtatish.
2. Haydovchi eshigi qulflanganligiga ishonch hosil qilish.
3. Yonilg'i quyish qopqog'ini "3 soat" holatida bosish.



4. Yonilg'i quyish qopqog'ini (1) to'liq ochilguncha torting.
5. Yonilg'i bakining qopqog'ini (2) soat yo'nalishiga teskari holatda o'girib burab oling. Bakdagi bosim tenglashtirilganda, shivirlash ovozi eshivilishi mumkin.
6. Tiqinni yonilg'i quyish tuynugiga joylashtiring.

## **i** Ma'lumot

Agar yonilg'i quyish qopqog'i muzlab qolgan bo'lsa va ochilmasa muzdan tushirish uchun uni sekin urish yoki qopqog'ini bosish kerak, shundan keyin qopqog'ini ochilishi zarur. Dastak bilan ochishga urinmang. Agar kerak bo'lsa, qopqog' chetiga tasdiqlangan muzdan tushirish vositasini seping (sovutish tizimi uchun antifriz ishlatmang) yoki transport vositasini muz erishi uchun joyini o'zgartiring.

### Yonilg'i quyish qopqog'ini yopish

1. yonilg'i quyish qopqog'ini o'rnatish uchun uni soat yo'nalishi bo'yicha tiriqlash eshiltilmaguncha aylantiring.
2. yonilg'i quyish qopqog'ini mahkam o'rnatishguncha yoping.



## EHTIYOT BO'LING

Avtomobil benzini yong'in-portlovchi moddalar sirasiga kiradi. Quyidagi ko'rsatmalarni bajarmaslik JIDDIY JAROHAT yoki O'LIMga olib kelishi mumkin.

- yonilg'i quyish stansiyasining barcha ogohlantirishlari o'qilishi va bajarilishi kerak.
- yonilg'i quyishdan oldin yonilg'i quyish kolonkasining favqulodda to'xtatish tugmachasini (mavjud bo'lganda) toping.
- Statik elektr ta'sirining oldini olish uchun tarqatish klapaniga tegishdan oldin yonilg'i quyish bakining og'zidan yoki yonilg'i bug'ining boshqa manbasidan xavfsiz masofada qo'l bilan avtomobilning metall qismiga tegining. yonilg'i quyish shaxobchasida mobil telefonlardan foydalanish taqiqlanadi. Mobil telefonlarning elektr toki va / yoki radio shovqinlari yonilg'i bug'lari yonishiga sabab bo'lishi mumkin.
- yonilg'i quyish shoxobchasida mobil telefonlardan foydalanmang. Mobil telefonlarning elektr toki va / yoki radio shovqinlari yonilg'i bug'larini yoqib yuborishi mumkin.
- yonilg'i quyishni boshlagandan so'ng, mashinaga qaytmang. Statik elektr har qanday narsaga yoki qoplamali matoga tegish, ishqalanish yoki siljish natijasida paydo bo'ladi. Statik elektr yonilg'i bug'ini yoqib yuborishi mumkin.
- Avtomobilga qaytgan taqdirda statik elektrni elektrsizlantirish uchun yonilg'i quyish bakining og'zidan yoki yonilg'i bug'ining boshqa manbasidan xavfsiz masofada qo'l bilan avtomobilning metall qismiga teginish zarur.
- Har doim yonilg'i quyishdan oldin selektorni "P" holatiga qo'yish, to'xtash tormozini yoqish va o't oldirish qurilmasini o'chirish zarur. Elektr komponentlarining uchqunlari yonilg'i bug'larini yoqib yuborishi mumkin.
- Agar kanistr ishlatilsa, yonilg'i quyishdan oldin uni yerga qo'yish kerak. Kanistrdan statik elektr energiyasi tushishi yonilg'i bug'ini yoqib yuborishi mumkin. yonilg'i quyish boshlangandan keyin yonilg'i quyish tugagunga qadar transport vositasi bilan qo'lda o't oldirish qurilmasini saqlash lozim.



- Benzinni saqlash uchun maxsus mo'ljallangan plastik idishlardan foydalanish zarur.
- yonilg'i quyish shoxobchasida chekish, ochiq olovdan foydalanish yoki mashinada tutatilgan sigaretalarni qoldirish, ayniqsa yonilg'i quyish paytida taqiqlanadi.
- Bakni to'liq to'ldirmang, chunki bu benzin to'kilishiga olib kelishi mumkin.
- Agar yonilg'i quyish paytida yong'in chiqsa, mashinani darhol tark eting, operatorga xabar bering va mahalliy o't o'chirish bo'limiga qo'ng'iroq qiling. Ularning barcha ko'rsatmalari va buyruqlariga rioya qilish lozim.
- Agar yonilg'i bosim ostida sochilsa, teri va kiyimga tegishi mumkin. Yong'in sodir bo'lganda, bu jiddiy kuyishga olib kelishi mumkin. yonilg'i quyish qopqog'l tiqinini ehtiyotkorlik bilan olish zarur. Agar yonilg'i bug'lari tiqin ostidan chiqsa yoki shivirlash ovozi eshitilsa, tiqinni to'liq chiqarib olishdan oldin, bu hodisa to'xtaguncha kutish kerak.
- yonilg'i quyilgandan so'ng, baxtsiz hodisa yuz berganda yonilg'i to'kilishini oldini olish uchun tiqinni to'g'ri qayta o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.

### Ma'lumot

Har doim “Kirish” bobining “yonilg'i talablari” bo'limidagi ko'rsatmalarga muvofiq avtomobilga yonilg'i quyuing.

**MA'LUMOT UCHUN**

- Yonilg'i transport vositasining tashqarisiga to'kilmaligi uchun ehtiyot bo'ling. Bo'yalgan sirtlarga har qanday yonilg'ining to'kilishi bo'yoqqa zarar yetkazishi mumkin.
- Agar yonilg'i quyish tiqinini almashtirish kerak bo'lsa, faqat asl HYUNDAI nusxasini ishlatib yoki unga tenglashtirilgan avtomobil uchun maxsus ishlab chiqilgan tiqindan foydalaning. Mos bo'lmagan mahsulotdan foyalanish yonilg'i tizimining yoki chiqindi gazni boshqarish tizimining jiddiy shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

## Proyeksiyon displey (HUD) (mavjud bo'lganda)



Asboblarni kombinatsiyasi va navigatsiya tizimidan ba'zi ma'lumotlar shaffof old oynada ko'rsatiladi.

### **Old oynadagi proyeksiyon displeydan foydalanish bo'yicha ehtiyot choralari**

Quyidagi holatlarda old oynadagi proyeksiyon displeydan ma'lumotlarni o'qish qiyin bo'lishi mumkin.

- Haydovchi o'rindiqda to'g'ri o'tirmagan bo'lsa.
- Haydovchi polarizatsiyalangan filtrlari quyoshdan himoyalovchi ko'zoynak taqib olgan bo'lsa.
- Proyeksiyon displey qopqog'ida obyekt mavjud bo'lsa.
- Mashina nam yo'lda ketayotgan bo'lsa.
- Avtomobil ichki bo'linmasiga o'rnatilgan yoritish moslamalariga yoki avtomobil tashqarisidagi tashqi manbadan keluvchi yoritgichlarga ruxsatsiz tegilsa.
- Haydovchi ko'zoynak taqqan bo'lsa.

- Haydovchi o't oldirish qurilmasi linzalarni taqadi.

Agar old oynadagi proyeksiyon displeydan ma'lumotni o'qish qiyin bo'lsa, proyeksiyon displeyning burchagini yoki uning yorqinlik darajasini sozlang. Batafsil ma'lumot uchun 4-bobdagi "LCD displey" bo'limiga qarang.



### **EHTIYOT BO'LING**

- **Old oynani qoraytirmang yoki boshqa metall qoplamalarni qo'ymang. Aks holda, proyeksiyalangan tasvir ko'rinmasligi mumkin.**
- **Old panelga hech qanday narsalarni qo'ymang yoki old oynaga narsalarni biriktirmang.**
- **Proyeksiyon displeydagi to'g'ridan-to'g'ri to'qnashuv haqida ogohlantirish (BCW) faqat yordamchi xabar xolos. Bu ma'lumotga faqat yo'lakni o'zgartirganda tayanmang. Yo'lakni o'zgartirishdan oldin har doim atrofga nazar tashlang.**

## DIQQAT

Oynani old oynaga axborot proyeksiyalash tizimi bilan jihozlangan mashinalarda old oynani almashtirganda, uni ma'lumotni proyeksiyalash uchun mos oynaga almashtirish kerak. Aks holda, old oynada ikkita tasvir paydo bo'ladi.


### Old oynadagi ma'lumotlarni aks ettirishni yoqish / o'chirish



Old oynaning proyeksiyon displeyini yoqish uchun asboblarni kombinatsiyasidagi LCD displeyning "Sozlamalar" bo'limida "Enable Head-Up Display (Proyeksiyon displeyni yoqish)" ni tanlang.

Agar "Head-Up Display (Proyeksiyon displey)" tanlanmagan bo'lsa, old oynaning proyeksiyasi o'chadi. Agar mashina navigatsiya tizimi bilan jihozlangan bo'lsa avtomobilning axborot-ko'ngilochar tizimi uchun alohida taqdim etilgan yo'riqnomani o'qib chiqing.

### Old oynada aks ettirilgan ma'lumotlar



1. Burilishlar yo'nalishi haqida ketma-ket ogohlantirish ma'lumotlari (TWT)
2. Yo'l harakati haqida ma'lumot
3. Spidometr
4. Harakat nazorati belgilagan tezlik
5. Aqlli harakat nazorati (SCC) haqida ma'lumot.
6. Yo'lda harakatlanish bo'yicha (LFA)
7. Avtomobilni yo'lakdan chiqib ketmasligini ta'minlovchi tizim haqida ma'lumot (LKA)
8. Ko'rinmas hududdagi obyekt bilan ehtimoliy to'qnashuv haqida ogohlantiruvchi tizim haqida ma'lumot (BCW)

Taqdim etilgan ma'lumotlar funksiyalarning ma'lum bir avtomobil uchun qo'llanilishiga qarab farq qilishi mumkin.

## **i** Ma'lumot

Agar old oynada aks ettirilgan TBT (Nabvatma-navbat) navigatsiya ma'lumotlari tanlansa, TBT ma'lumotlari LCD displeyda ko'rsatilmaydi.

### **Old oynadagi ma'lumotlarning proyeksiyasini sozlash**

LCD displeydan foydalanib old oynadagi proyeksiya parametrlarini quyidagicha o'zgartirishingiz mumkin.

- Enable Head-up display [Proyeksion displeyni yoqish]
- Display Height [Ko'rsatish balandligi]
- Rotation [Aylanish]
- Brightness [Yorqinlik]
- Content Selection [Ma'lumotlarni tanlash]
- Speed Size [Spidometr belgilari o'lchami]
- Speed Color [Spidometr rangi]

**Batafsil ma'lumot uchun 4-bobdagi "LCD displey" bo'limiga qarang. Agar sizning avtomobilingiz navigatsiya tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, unda mashinaning axborot-ko'ngilochar tizimi uchun alohida taqdim etilgan yo'riqnomani o'qib chiqing.**

## Yoritish moslamalari

### Tashqi yoritish moslamalari


### Yorug'likni boshqarish



ODN8059200

Faralarni ishlatish uchun dastakning oxiridagi tugmani quyidagi holatlardan biriga aylantiring:

- (1) O'chirish (O)
- (2) Yoritish moslamalarini avtomatik ravishda yoqish (mavjud bo'lganda)
- (3) Yon chiroqlarning joylashuvi
- (4) Faralar.



ODN8059201

### Chiroqlarni avtomatik yoqish holati (ixtiyoriy)

Chiroq kaliti AVTO holatida bo'lganda, faralar va yon chiroqlar yo'lining yoritilishiga qarab avtomatik ravishda yonadi va o'chadi.

Tizimdan foydalanib kechasi, tuman ichida, tunnel yoki yopiq to'xtash joylari kabi yorug'lik kam bo'lgan joylarga kirayotganda, chiroqni qo'lda yoqish tavsiya etiladi.

### MA'LUMOT UCHUN

- Boshqaruv panelidagi datchikni biror narsa bilan yopish yoki unga suyuqlik to'kish mumkin emas (1).
- Datchikni oyna tozalagich bilan tozalash mumkin emas, chunki bu datchik ustida plyonka hosil qilishi mumkin, bu esa uning normal ishlashiga xalaqit beradi.
- Agar mashina old oynasi qoraytirilgan yoki boshqa turdagi metallashtirilgan qoplama qoplangan bo'lsa, avtomatik yoritish tizimi normal ishlamasligi mumkin.



### Yon chiroqlarning joylashuvi (⌘)

Yon tugmalar, chiroqlar, davlat raqami, asboblari paneli yoritgichlari yonadi.



### Faraning holati (⌘)

Faralar, yon chiroqlar, davlat raqami va asboblari paneli chiroqlari yonadi.

## **i** Ma'lumot

Faralarni yoqish uchun o't oldirish qurilmasi yoqilgan bo'lishi kerak.

## **Uzoqni yorituvchi faralarni boshqarish**



Uzoqni yorituvchi farani yoqish uchun dastakni o'zingizdan oldinga suring. Dastak asl holatiga qaytadi.

Uzoqni yorituvchi fara yoqilganda asboblarning kombinatsiyasidagi uzoqni yorituvchi fara ko'rsatkich chiroqchasi yonadi.


Uzoqni yorituvchi farani o'chirish uchun dastakni o'zingizga torting. Yaqinni yorituvchi fara yonadi.



## **EHTIYOT BO'LING**


Old tomondan mashina yaqinlashayotganda uzoqni yorituvchi faralardan foydalanish mumkin emas. Uzoqni yorituvchi faralar boshqa haydovchilarning harakatlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.





Uzoqni yorituvchi faralarni miltillatish uchun dastakni o'zingizga torting va qo'yib yuboring. Dastak qo'yib yuborilmasa uzoqni yorituvchi fara yoniq holatda qoladi.

### **Uzoqni yorituvchi faralarni avtomatik boshqarish tizimi (HBA) (mavjud bo'lganda)**



Uzoqni yorituvchi faralarni avtomatik boshqarish tizimi (HBA) uzoqni va yaqinni yorituvchi faralarni yaqinlashib kelayotgan transport vositalarining faralari yorqinligiga va yo'l sharoitlariga qarab avtomatik ravishda o'zgartiradi.

**Tizim sozlamalari** Haydovchi o't oldirish qurilmasini yoqish va quyidagilarni tanlash orqali HBAni faollashtirishi mumkin:


"User Settings → Lights → High Beam Assist (HBA)". Agar bu parametr o'chirilgan bo'lsa, HBA ishlamaydi.

Dvigatelni to'xtatish va ishga tushirish paytida HBA sozlamalari saqlanadi.

### **Ishlash shartlari**

1. Tashqi yoritish o'zgartirgichini AUTO (Avtomatik) holatida sozlash.
2. Dastakni o'zingizdan uzoqlashtirib, uzoqni yorituvchi farani yoqish.
3. (HBA) (☰☒) Uzoqni yorituvchi faralarni avtomatik boshqarish tizimi ko'rsatkichi yonadi.
4. Uzoqni yorituvchi faralarni avtomatik boshqarish tizimi mashina soatiga 40 km (25 mil) tezlikka chiqqanda faollashadi.
  - a. Agar uzoqni yorituvchi faralarni avtomatik boshqarish tizimini yoqishda o'zgartirgichni o'zingizdan uzoqlashtirsangiz, tizim o'chadi va uzoqni yorituvchi fara (HBA) doimo yonadi.

- 2) Agar o'zgartirgichni uzoqni yorituvchi fara o'chiq holatida o'chirsangiz, uzoqni yorituvchi fara yonadi, lekin uzoqni yorituvchi faralarni avtomatik boshqarish tizimi (HBA) ishlamay qoladi. O'zgartirgich qo'yib yuborilganda
- 3) Agar o'zgartirgichni uzoqni yorituvchi faralarni avtomatik boshqarish tizimi (HVA) yoqiq holatida o'chirilsa, yaqinni yorituvchi fara yonadi, uzoqni yorituvchi faralarni avtomatik boshqarish tizimi (HBA) o'chadi.
- 4) Agar o'zgartirgich faralarni yoqish holatiga ( $\text{E0}$ ) sozlangan bo'lsa, uzoqni yorituvchi faralarni avtomatik boshqarish tizimi (HBA) o'chadi va yaqinni yorituvchi fara doimiy yonib turadi.
- Uzoqni yorituvchi faralarni avtomatik boshqarish tizimi (HBA) ishlash paytida uzoqni yorituvchi fara quyidagi holatlarda avtomatik ravishda o'chiriladi.
- Qarama -qarshi yo'nalishdagi mashinaning faralari aniqlanganda.
  - Oldinda harakatlanayotgan mashinaning orqa farasi aniqlanganda.
  - Fara nuri yoki velosiped, mototsikl chiroqlari aniqlanganda.
  - Uzoqni yorituvchi fara kerak bo'lmaydigan darajada yo'lning yaxshi yoritilishi.
  - Ko'cha chiroqlari yoki boshqa yorug'lik manbalaridan yorug'lik aniqlanganda.
  - Tashi yoritish o'zgartirgichi AVTO holatida bo'lmaganda.
  - Uzoqni yorituvchi faralarni avtomatik boshqarish tizimi (HBA) o'chirilganda.
  - Transport vositasi tezligi soatiga 30 km (19 mil) dan past bo'lganda.



### Check High Beam Assist (HBA) system (Signal chirog'i va xabari)

Agar yorituvchi boshqarish ishlamas, davomida ko'rsatiladi. yo'qolganda, chirog'i ( ) yonadi.

uzoqni avtomatik to'g'ri soniya xabari Xabar ogohlantirish ogohlantirish

Tizimni tekshirtirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.



### DIQQAT

Tizimning normal ishlashi quyidagi holatlarning birida kafolatlanmaydi: hech

#### 1) Agar yaqinlashib kelayotgan

yoki oldinda turgan mashinadan kelayotgan yorug'lik xira bo'lsa. Bu quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- Yaqinlashib kelayotgan avtomobil oldidagi chiroqlar yoki avtomobilning orqa chiroqlari kir, qor yoki suv qatlami bilan qoplangan bo'lsa.

- Yaqinlashib kelayotgan transport vositasi faralari o'chiq, lekin tumanga qarshi faralar yoniq bo'lsa
- 2) Uzoqni yorituvchi faralarni avtomatik boshqarish tizimi (HBA) kamerasiga tashqi muhit ta'sir o'tkazsa. Bu quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:
  - Mashinaning faralari shikastlanganda yoki to'g'ri ta'mirlanmaganda
  - Mashinaning faralari to'g'ri sozlanmaganida
  - Avtomobil tor, burilishli yo'lda yoki notekis yo'lda boshqarilganda
  - Avtomobil yuqoriga yoki pastga harakatlanayotganda
  - Chorrahada yoki burilishli yo'lda haydashvaqtida oldindagi mashinaning bir qismigina ko'ringanda.
  - Yaqin atrofda svetofor, nur qaytaruvchi yoki miltillovchi yo'l belgisi yoki ko'zgu bo'lsa.
  - Yo'l sharoitining yomonligi, masalan, nam yoki qor bilan qoplangan yo'l qoplamalari
  - To'satdan burilishda avtomobil paydo bo'lganda
  - Avtotransport shina tushib qolishi yoki siltanish sababli egilib qolganda.

- Avtomobilni yo'lakda bo'lishini ta'minlovchi tizim ogohlantiruvchi chirog'i yoqilganda (LKA)
  - Gazlar, tutun, tuman, qor va boshqalar tufayli yaqinlashayotgan yoki o'tayotgan transport vositasining nuri aniqlanmasa.
  - Old oyna kir, muz, qirov bilan qoplangan yoki shikastlangan bo'lsa.
- 3) Avtomobil oldini ko'rish qiyin bo'lganda. Bu quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin.
- Qachon yaqinlashib kelayotgan avtomobil yoki transport vositasining faralari ko'rish qiyin bo'lganligi (tutun, tuman, kuchli yomg'ir, qor va boshqalar) tufayli aniqlanmaganda
  - Agar avtomobil oldida ko'rish qiyin bo'lsa.




### EHTIYOT BO'LING

- Dvigatel ishga tushirilgandan yoki old tomondan ko'rish kameralari tizimini qayta yuklangandan keyin taxminan 15 soniya ishlamasligi mumkin.
  - Old kuzatuv kamerasini vakolatli HYUNDAI dileri texnik mutaxassisi yoki texnik xizmat ko'rsatuvchi malakali mexanik yordamisiz demontaj qilishga urinmang.
- Agar biron sababga ko'ra old kuzatuv kamerasi olib tashlangan bo'lsa, tizimni qayta kalibrlash talab qilinishi mumkin. Tizimni tekshirtirish uchun HYUNDAI vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qilish tavsiya etiladi.
- Agar mashinangizning old oynasi almashtirilsa, katta ehtimol bilan orqa kamerani qayta sozlash talab qilinadi. Agar shunday holat sodir bo'lsa HYUNDAI rasmiy dileri qayta sozlash uchun murojaat qiling.
  - Uzoqni yorituvchi faralarni avtomatik boshqarish tizimi (HBA) qurilmasiga suv tushishidan, uni qismlarga ajratishdan yoki shikastlanishdan saqlang.
  - Ko'zgu, oq qog'oz va boshqa nur qaytaruvchi narsalarni asboblarni kombinatsiyasiga qo'ymang, chunki quyosh nuri aks etishi tizimning normal ishlashiga xalaqit beradi.
  - Ba'zan Uzoqni yorituvchi faralarni avtomatik boshqarish tizimi (HBA) to'g'ri ishlamasligi mumkin. Bu tizim faqat haydovchining qulayligi uchun yaratilgan. Haydash xavfsizligi va yo'l sharoitlarini o'z vaqtida tekshirish haydovchi majburiyatidir.

- Agar tizim to'g'ri ishlamasa uzoqni / yaqinni yorituvchi farani qo'lda yoqing.

### **Burilish va qayta sozlash ko'rsatkichlari**



Dastakni pastki "A" holatiga o'tkazilganda chapga burilish ko'rsatkichi, "A" yuqori holatiga o'tkazilganda - o'ngga burilish ko'rsatkichi yoqiladi. Yo'lakni o'zgartirish signalini faollashtirish uchun burilish ko'rsatkichini o'zgartirish dastagini biroz siljitish va "B" holatida ushlab turish kerak. Burilish tugagach, dastak avtomatik ravishda "o'chirilgan" holatiga qaytadi.

Agar indikator doimiy ravishda yonib tursa yoki yonmasa, yoki u g'ayrioddiy tarzda yonib tursa, u yonib ketishi mumkin va bu holatda elektr burilish signal lampalaridan birini almashtirish kerak bo'ladi.

### **Bir tegish bilan burilish signalini yoqish funksiyasi**

Bir tegish bilan burilish signalini yoqish uchun burilish ko'rsatkichi dastagini biroz siljiting va keyin qo'yib yuboring. Yo'lakni o'zgartirish signali 3, 5 yoki 7 marta yonadi.

LLCD displeyidagi "User Settings Mode (Foydlanuvchi sozlamalari rejimi)" menyusi orqali siz bir marta bosish orqali signalni yoqishingiz yoki o'chirishingiz va miltillash sonini (3, 5 yoki 7) tanlashingiz mumkin.

**LCD displeyidagi "Foydlanuvchi sozlamalari rejimi" menyusi orqali siz bir marta bosish orqali signalni yoqishingiz yoki o'chirishingiz va miltillash sonini (3, 5 yoki 7) tanlashingiz mumkin. mashinaning axborot-ko'ngilochar tizimi uchun alohida taqdim etilgan yo'riqnomani o'qib chiqing.**

### **Tuman payti ishlatiladigan orqa chiroqlar (mavjud bo'lganda)**



Tuman payti ishlatiladigan orqa chiroqlarni yoqish:

Chiroq kalitini (1) avval fara holatiga, keyin tuman payti ishlatiladigan orqa chiroq holatiga o'rnatish.

Tuman payti ishlatiladigan orqa chiroqni o'chirish uchun quyidagilardan birini bajaring:

- Fara o'zgartirgichni o'chiring.
- Chiroq tugmachasini yana tuman payti ishlatiladigan orqa chiroq holatiga o'tkazing.

### **Batareyani tejash funksiyasi**

Bu funksiya batareyaning zaryadsizlanishini oldini olish uchun mo'ljallangan.

Dvigatel to'xtatilganda va haydovchi eshigi ochilganda tizim avtomatik ravishda yon chiroqlarni o'chiradi.

Bu funksiya bilan yon chiroqlar yo'l chetida tunda to'xtalganda avtomatik ravishda o'chadi.

Agar dvigatel ishlamayotgan payt chiroq yonishini xohlasangiz, quyidagilarni bajaring:

- 1) Haydovchi eshigini oching.
- 2) Rul kolonkasi chirog'I bilan yon chiroqlarni o'chiring va yoqing.

### **Faralarni o'chirishni kechiktirish funksiyasi (mavjud bo'lganda)**

Agar faralar yoqilganda o't oldirish qurilmasini kalitini ACC yoki OFF holatiga o'tkazsangiz, faralar (va / yoki yon chiroqlar) taxminan 5 daqiqa ko'proq yonadi.

Haydovchi eshigi dvigatel to'xtaganda ochilsa va yopilsa, faralar (va / yoki yon chiroqlar) 15 soniyadan keyin o'chadi.

Faralarni (va / yoki yon chiroqlarni) masofadan boshqarish pultidagi yoki elektron kalitning qulflash tugmachasini ikki marta bosish yoki chiroqni o'chirgichni O'CHIRISH yoki AVTO holatiga o'tkazish orqali o'chirish mumkin. Shunga qaramasdan, agar chiroq kalitini qorong'uda AVTO holatiga o'tkazilsa faralar o'chmaydi.

Faralarni o'chirishni kechiktirish funksiyasini faollashtirish yoki o'chirish LCD displeyidagi foydalanuvchi sozlarida amalga oshirish mumkin.

LCD displeyda "Faralarni o'chirishni kechiktirish" funksiyasini o'chirib qo'yishingiz mumkin.

**Batafsil ma'lumot uchun 4-bobdagi "LCD displey" bo'limiga qarang.** Agar transport vositasi navigatsiya tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, mashinaning axborot-ko'ngilochar tizimi uchun alohida taqdim etilgan yo'riqnomani o'qib chiqing.

### **MA'LUMOT UCHUN**

**Agar haydovchi haydovchining eshigidan boshqa eshikdan chiqsa, batareyani tejash funksiyasi ishlamaydi, faralarning kechikish tizimi avtomatik ravishda o'chmaydi.**

**Bu batareyaning zaryadsizlanishiga olib kelishi mumkin. Batareya zaryadsizlanishining oldini olish uchun mashinadan tushishdan oldin faralarni qo'lda o'chiring.**


### **Kunduzi ishlaydigan chiroqlar (DRL) (mavjud bo'lganda)**

Kunduzi ishlaydigan chiroqlar (DRL) dan foydalanish boshqa haydovchilarga, ayniqsa, quyosh botganidan keyin yoki quyosh chiqishidan oldin, avtomobilning old qismini yaxshiroq ko'rish imkonini beradi.

Kunduzgi chiroqlar quyidagi hollarda o'chiriladi:

1. To'xtash tormozi ishlatilganda
2. Dvigatel to'xtatildi

## Faralarni egilish burchagini sozlash moslamasi



### Qo'lda boshqariladigan turi (mavjud bo'lganda)

Yo'lovchilar soniga va yukxonadagi yukning og'irligiga qarab faralar egilish burchagini sozlash uchun faralar egilish burchagini boshqarish tugmachasini aylantiring.

Sozlagich shkalasidagi raqam qanchalik baland bo'lsa, faralar pastroq yo'naltiriladi. Boshqa haydovchilarni ko'zini qamash tirmaslik uchun har doim faralarni avtomobil yuklamasiga to'g'ri burchak ostida ushlab turing.

Quyida regulyatorni to'g'ri o'rnatish misollari keltirilgan. Quyida turli yuklamalar uchun mos keladigan kalit sozlamalari misollari keltirilgan. Ko'rsatilganlardan boshqa yuklash shartlari uchun kalit o'rni eng yaqin holatga moslang.

Avtomobil yuklanish	Regulyator регулятор
Faqat haydovchi	0
Haydovchi + oldingi yo'lovchi	0
Barcha yo'lovchilar (shu jumladan haydovchi)	1
Barcha yo'lovchilar (shu jumladan haydovchi) + Maksimal ruxsat etilgan	2
Haydovchi + ruxsat etilgan maksimal vazn	3

### Avtomatik turi (mavjud bo'lganda)

Yo'lovchilar soniga va yukxonadagi yukning og'irligiga qarab faralar egilish burchagini avtomatik ravishda sozlaydi.

Shuningdek, u faralar egilish darajasini har xil holatlarga moslab sozlaydi.



### EHTIYOT BO'LING

Agar funksiya to'g'ri ishlamasa, vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi. O'zingiz tekshirish yoki almashtirishga urinmang.



## Salomlashish tizimi (mavjud bo'lganda)

### Salomlashish chiroqlari



#### Eshik tutqichi chirog'i

Agar barcha eshiklar (va yukxona qopqog'i) yopiq va qulflangan holda bo'lsa, eshik tutqichining chirog'i quyidagi holarda taxminan 15 soniya yonadi:

- Masofadan boshqarish yoki elektron kalit yordamida eshik qulflarini ochish tugmasi bosilganda.
- tashqi eshik tutqichidagi tugma bosilganda.
- elektron kalit bilan avtomobilga yaqinlashilganda.

#### Faralar

Agar faralar (faraning chirog'i yoqilgan yoki AVTO holatida) yoqilgan bo'lsa va barcha eshiklar (va yukxona) yopiq va qulflangan bo'lsa va quyidagi shartlar bajarilsa, faralar 15 soniya yonadi:

- Masofadan boshqarish yoki elektron kalit yordamida eshik qulflarini ochish tugmasi bosilganda.

Agar siz shu vaqtda eshik qulfini bloklash yoki qulfini ochish tugmachasini bossangiz, faralar darhol o'chadi.

Agar siz shu vaqtda eshik qulfini bloklash yoki qulfini ochish tugmachasini bossangiz, faralar darhol o'chadi.

**Batafsil ma'lumot uchun 4-bobdagi "LCD displey" bo'limiga qarang. Agar transport vositasi navigatsiya tizimi bilan jihozlangan bo'lsa avtomobilning axborot-ko'ngilochar tizimi uchun alohida taqdim etilgan qo'llanmani o'qib chiqing.**

### **Salon chirog'i**

Salonni yoritish tugmasi DOOR holatida bo'lsa va barcha eshiklar (va yukxona) yopiq va qulflangan bo'lsa, quyidagi shartlardan biri bajarilsa, salon chirog'i 30 soniya yonadi:

- Masofadan boshqarish yoki elektron kalit yordamida eshik qulflarini ochish tugmasi bosilganda.
- tashqi eshik tutqichidagi tugma bosilganda.

Agar bu bosqichda eshikni qulflash yoki ochish tugmachasini bosilsa, u holda salon chirog'i darhol o'chadi.

### **Ichki yoritish**


#### **MA'LUMOT UCHUN**

**Salon chirog'ini uzoq vaqt yoqiq qoldirmaslik kerak chunki bu batareya quvvatini tugatishi mumkin.**

#### ***Ichki yoritishni avtomatik o'chirish***

Dvigatelni to'xtatgandan va barcha eshiklarni yopgandan taxminan 20 minut o'tgach ichki lampalar avtomatik ravishda o'chadi. Eshik ochilgan taqdirda, dvigatel to'xtaganidan 40 minut o'tgach lampalar o'chadi. Eshiklar masofadan boshqarish pulti yoki elektron kalit yordamida qulflanganidan 5 soniya o'tgach lampalar o'chadi va o'g'irlikka qarshi signalizatsiya tizimini faollashtiriladi.

## Old tomonni yoritish



- (1) Old tomonni yoritish lampasi
- (2) Old eshik chirog'i
- (3) Salonn yorituvchi old chiroq ON / OFF

### Old tomonni yoritish lampasi

Lampani yoqish va o'chirish uchun siz ushbu chiroqlardan birini bosishingiz kerak. Bu chiroq kechasi yo'naltiruvchi chiroq sifatida yoki haydovchi va old yo'lovchining shaxsiy yoritgichi sifatida qulay foydalanish uchun yo'naltiruvchi yorug'lik nurini beradi.

### Old eshik chiroqchasi ( ):


Dvigatel ishlayotgan yoki ishlamayotganligidan qat'iy nazar, old yoki orqa eshiklar ochilganda salonn yorituvchi old va orqa lampalar yonadi. Eshiklar masofadan boshqarish pulti yoki elektron kalit yordamida qulfdan chiqarilganda, old va orqa chiroqlar har qanday eshik ochilmaguncha taxminan 30 soniya yonadi. Old va orqa chiroqlar eshik yopilgandan taxminan 30 soniyadan so'ng muammosiz o'chadi. Biroq, o't oldirish qurilmasi yoqilganda yoki barcha eshiklar qulflanganda, old va orqa ichki chiroqlar darhol o'chadi. Agar eshik ochilsa, o't oldirish qurilmasi ACC yoki OFF holatida bo'lsa, old va orqa ichki lampalar taxminan 20 daqiqa yonadi.


### Salonn yorituvchi old chiroq

-  :

Old / orqa o'rindiqlar yorug'lik chiroqlarini yoqish va o'chirish uchun tugmani bosing.

## Orqa chiroqlar




Salonni yorituvchi orqa chiroq tugmasi (  ):

Salon chiroqlarini yoqish yoki o'chirish uchun ushbu tugmani bosing.

### MA'LUMOT UCHUN

Dvigatel o'chirilganda chiroqlarni uzoq vaqt yoqiq qoldirmang.

## Yukxonani yoritish



Yukxona ochilganda yukxonani yoritish lampasi yonadi.

### MA'LUMOT UCHUN

Yukxona qopqog'i ochiq bo'lganda, yukxona yoritgichi yonadi. Batareya quvvatsilanishini oldini olish uchun yukxona qopqog'i ishlatilgandan keyin mahkam yopilishi kerak.

### **Aksessuar oynali lampalar (mavjud bo'lganda)**






Chiroqni yoqish yoki o'chirish uchun bu tugmani bosing.

- ☀ : Bu tugma bosilganda chiroq yonadi.
- ○ : Bu tugma bosilganda chiroq o'chadi.

#### **MA'LUMOT UCHUN**

Orqa tomonni ko'rsatuvchi ko'zgu chirog'i ishlatilmaganda kalit har doim "o'chirilgan" holatida bo'lishi kerak. Agar quyoshdan himoyalovchi soyabonni chiroqni o'chirmasdan yopib qo'yilsa, batareyani quvvatsizlantirishi yoki soyabonni shikastlashi mumkin.

## Oyna tozalagichlar va oyna yuvgichlar



### A : Oyna tozalagich ishi tezligini boshqarish

- MIST/1x Old oyna tozalagichning pauza bilan ishlash rejimi yoqilgan (qayd etilgan holat emas)
- OFF / O – old oyna tozalagichi o'chiq
- INT / --- – Old oyna tozalagichning pauza bilan ishlash rejimi yoqilgan (qayd etilgan holat)
- AUTO\* – old oyna tozalagichining avtomatik rejimi (mavjud bo'lganda)
- LO / 1 – old oyna tozalagichining past tezligi yoqilgan
- HI / 2 – old oyna tozalagichining yuqori tezligi yoqilgan

\* : mavjud bo'lganda

### B : Oyna tozalagichlarning pauza faollashishini sozlash / oyna tozalagichni avtomatik boshqarish vaqtini sozlash \*

### C : Qisqa muddatli tozalash bilan oynani yuvish

## Oyna tozalagichlar

O't oldirish qurilmasi yoqilganda, old oyna tozalagich quyida tasvirlanganidek ishlaydi.

MIST (1x): Oyna tozalagich bir marta chiqib tushishi uchun dastakni yuqoriga ko'tarish va qo'yib yuborish kerak. Dastakni ushbu holatda ushlab turganda old oyna tozalagich uzluksiz ishlaydi.

OFF (O) : old oyna tozalagich o'chirilgan.

INT (---) : Oyna tozalagichi pauza bilan yoqiladi. Ishlash tezligini o'zgartirish uchun boshqaruv kalitini burish lozim (B).

AUTO : old oynaning yuqori chetidagi yomg'ir datchigi yomg'ir miqdorini aniqlaydi va oldingi oyna tozalagichini o'chiradi va yoqadi hamda uning tezligini rostlaydi. Yomg'ir qanchalik kuchli bo'lsa, tozalagich shuncha tez ishlaydi. Yomg'ir tugagandan so'ng tozalagich ham ishlashdan to'xtaydi. Oyna tozalagich ishlash tezligini boshqarish kalit yordamida (B) amalga oshiriladi.

LO (1) : old oyna tozalagich past tezlikda ishlaydi

HI (2) : old oyna tozalagich yuqori tezlikda ishlaydi

## Ma'lumot

Agar old oynada qalin qor yoki muz qatlami bo'lsa oyna tozalagichlarni normal ishlashini ta'minlash uchun isitgichni taxminan 10 daqiqa yoki qor va / yoki muz erimaguncha yoqib qo'ying. Agar bunday qilinmasa oyna tozalagich va oyna yuvgich tizimlariga zarar yetishi mumkin.

### **AUTO (avtomatik boshqarish) (mavjud bo'lganda)**

Old oynaning yuqori qismida joylashgan yomg'ir datchigi yog'ingarchilikni aniqlaydi va tozalagichlarning tezligini nazorat qiladi. Yomg'ir qanchalik kuchli bo'lsa, ular shunchalik tez ishlaydi.

Yomg'ir to'xtaganda, tozalagichlar ham to'xtaydi. Tozalagich tezligini o'zgartirish uchun tugmani (1) aylantiring.

Agar old oyna tozalagich tugmasi AUTO holatiga o'rnatilgan bo'lsa, old oyna tozalagich o'zini-o'zi tekshirish tizimida bir marta chiqib tushadi. Agar tozalagich ishlatilmasa, tugma OFF holatida bo'lishi kerak.



### **EHTIYOT BO'LING**

Old oyna tozalagich tugmasi avtomatik ishlash holatiga o'tkazilganda, dvigatel ishlayotganda tozalagich zarar yetkazishini oldini olish uchun:

- Yomg'ir datchiki o'rnatilgan old oynaning yuqori qismiga tegmang.
- Old oynaning yuqori qismini nam yoki ho'l mato bilan artmang.
- Old oynaga bosim o'tkazmang.

### **MA'LUMOT UCHUN**

- Avtomobilni yuvayotganda, tozalagichning avtomatik rejimini to'xtatish uchun tozalagich tugmasini o'chirish holatiga qo'ying. Oyna tozalagichlar avtomobil yuvish paytida AVTO holatida ishlab ketishi va shikastlanishi mumkin.
- Old oynaning yuqori qismida joylashgan datchik qopqog'ini olib tashlamang. Bu kafolatlanmagan tizim elementlarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.



## Oyna yuvgich



Old oynaga suyuqlik berish uchun dastakni OFF (O) holatiga qo'yib, ozgina torting va tozalagichlarni 1-3 siklda harakatlantiring.

Yuvgich va tozalagich dastakni qo'yib yubormaguningizcha ishlashda davom etadi. Agar yuvgich ishlamasa, yuvgich idishidagi yuvish vositasi miqdorini to'ldirish zarur bo'lishi mumkin.

## ⚠️ DIQQAT


- Tozalagichlar yoki old oynaning shikastlanishini oldini olish uchun old oyna quruq bo'lganda tozalagichlarni yoqmang.
- Yuvgich nasosining ehtimoliy mumkin shikastlanishini oldini olish uchun suyuqlik omborida suyuqlik yetishmasligi kuzatilsa yuvgichni yoqmang.
- Tozalagich dastaklari va boshqa elementlarning shikastlanishini oldini olish uchun tozalagichni qo'lda siljitishga urinmang.
- Qishda va sovuq havoda tozalash va yuvish tizimlarining ehtimoliy shikastlanishini oldini olish uchun muzlamaydigan suyuqlikdan foydalaning.

## ⚠️ EHTIYOT BO'LING

Sovuq haroratda yuvgich suyuqligi muzlab qolmasligi uchun **HAR DOIM** old oynani isitish uchun muzdan tushirish moslamasidan foydalaning, aks holda bu ko'rish qobiliyatini yomonlashtirishi va jiddiy shikastlanish yoki o'lim bilan tugovchi baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin.

## Avtomobil to'xtash joyi haqida ogohlantirish ORQAGA YURISHDA (PDW) (mavjud bo'lganda)

### To'xtash joyi yaqinligi haqida ogohlantirish (orqaga yurishda) (mavjud bo'lganda)



[B]: Datchik

Orqaga yurishda to'xtash joyi yaqinligi haqidagi ogohlantirish avtomobil orqasidan 120 sm (47 dyum) gacha masofadagi obyekt aniqlanganda ishga tushadi.

Bu yordamchi tizim faqat datchiklar doirasidagi obyektlarni ro'yxatga oladi va datchiklar o'rnatilmagan joylardagi obyektlarni aniqlay olmaydi.

### EHTIYOT BO'LING

- To'qnashuvni oldini olish uchun haydashdan oldin **ALBATT**A avtomobil atrofida hech qanday narsa yo'qligiga ishonch hosil qiling.
- Obyektlar va piyodalarni, ayniqsa bolalarni yonidan o'tayotganda alohida ehtiyot bo'ling.




- Ba'zi turdagi obyektlar ekranda aks ettirilmasligi va datchiklar tomonidan aniqlanmasligi mumkin. Bu obyektning materialiga yoki hajmiga, shuningdek, ungacha bo'lgan masofaga bog'liq. Yuqoridagi barcha omillar datchiklarning ishlashiga ta'sir qiladi.

### Orqaga yurishda to'xtash joyi yaqinligi haqida ogohlantirish qanday ishlaydi

#### *Ishlash sharoitlari*

- O't oldirish qurilmasi yoqilib orqaga yurilganda tizim faollashadi. Agar transport vositasi tezligi 5 km / soat (3 mil / soat) dan yuqori bo'lsa, tizim elementlarni ro'yxatdan o'tkaza olmaydi.
- Agar avtomobil tezligi 10 km / soat (6 mil / soat) dan yuqori bo'lsa, tizim obyektlar ro'yxatga olgan bo'lsa ham ogohlantirish signallarini bermaydi.
- Bir vaqtning o'zida ikkitadan ortiq obyektни ro'yxatga olishda birinchi navbatda eng yaqin obyekt hisobga olinadi.


### Ogohlantiruvchi ovozli signallar va indikatorlarning turlari

Ogohlantiruvchi ovozli signallarining turlari	Ko'rsatkich
Agar obyekt orqa bamperdan 120-60 sm (47-24 dyum) masofada bo'lsa: Zummer pauza bilan signal beradi.	
Agar obyekt orqa bamperdan 60-30 sm (24-12 dyum) masofada bo'lsa: Zummer pauza bilan tez-tez signal beradi	
Agar obyekt orqa bamperdan 60-30 sm (24-12 dyum) masofada bo'lsa: Zummer pauza bilan tez-tez signal beradi	

#### MA'LUMOT UCHUN

- Datchiklarning indikator, obyektlari va holati vaziyatga qarab rasmda ko'rsatilganidan farq qilishi mumkin. Agar indikator yonib-o'chib tursa, avtomobilingizni HYUNDAI vakolatli dileriga tekshirtirish tavsiya etiladi.
- Agar ovozli ogohlantirishlar bo'lmasa yoki uzatish qutisi orqaga (R) o'tkazilgandan so'ng darhol ovozli signal eshitilsa, bu orqaga yurishda to'xtash joyi yaqinligi haqidagi ogohlantirish ishlamay qolganligini ko'rsatishi mumkin. Bunday holatda transport vositasini imkon qadar tezroq vakolatli HYUNDAI dileriga tekshirtirish tavsiya etiladi.

## Orqaga yurishda to'xtash joyi yaqinligi haqida ogohlantirishni o'chirish (mavjud bo'lganda)



Orqaga yurishda to'xtash joyi yaqinligi haqidagi ogohlantirishni o'chirish uchun to'xtash jarayonida xavfsizlik tugmasini bosing. Tugmadagi ko'rsatkich chiroq o'chadi.

## Orqaga yurishda to'xtash joyi yaqinligi haqida ogohlantirish ishlamaydigan holatlar

orqaga yurishda to'xtash joyi yaqinligi haqidagi ogohlantirish quyidagi hollarda to'g'ri ishlamasligi mumkin:

- Datchik muzlashi.
- Datchik qopqog'i qor, suv yoki boshqa narsalar bilan qoplanishi.

### **Quyidagi holatlarda orqaga yurishda to'xtash joyi yaqinligi haqidagi ogohlantirish ishlamasligi mumkin:**

- Asfalt bo'lmagan yo'llar yoki shag'al, burmalar va qiyaliklar kabi tepaliklar ustida harakatlanayotganda.
- Agar yaqin atrofda kuchli ovoz manbalari, masalan, avtomobil sirenalari, baland ovoz chiqaruvchi mototsikl dvigatellari, yuk avtomobillarining pnevmatik tormozlarini ishga tushishi kabilar tizim datchiklariga xalaqit beradi. Kuchli yomg'ir yoki suv sachraganda.
- Yaqin atrofda radio uzatgichlar yoki mobil telefonlar mavjud bo'lganda.
- Datchik qor bilan qoplanganda.
- Avtomobil bampere balandligini o'zgartiruvchi yoki datchik o'rnatuvchi uskunalar bilan jihozlangan bo'lsa.

***Aniqlanish diapazoni masofasini kamaytirish mumkin bo'lgan shartlar:***

- Tashqi havo harorati juda yuqori yoki juda pastligi.
- Diametri 14 sm (6 dyum) dan kichik va uzunligi 1 m (40 dyum) dan kam bo'lgan jismlar.

***Datchiklar tomonidan aniqlanmaydigan obyektlar:***

- Kabellar, zanjirlar yoki kichik ustunlar kabi o'tkir yoki ingichka narsalar.
- Datchik nurlarini yutuvchi obyektlar, masalan, kiyim, g'alvirak material yoki qor.





**EHTIYOT BO'LING**

**Yangi avtotransport vositalarining kafolati transport vositasining shikastlanishi yoki shikastlanishiga olib keladigan baxtsiz hodisalarni o'z ichiga olmaydi, agar ular orqaga yurishda to'xtash joyi yaqinligi haqidagi ogohlantirishning ishlashi bilan bog'liq bo'lsa. Har doim ehtiyotkorlik bilan va xavfsiz harakatlaning.**

**Orqaga yurishda to'xtash joyi yaqinligi haqidagi ogohlantirishdan foydalanish ehtiyot choralari**

- Orqaga yurishda to'xtash joyi yaqinligi haqidagi ogohlantirish signallari aniqlangan narsalarning tezligi va shakliga qarab pauza bilan berilishi mumkin.
- Bamber balandligi yoki datchik holatining o'zgartirish yoki ularning shikastlanishi orqaga yurishda to'xtash joyi yaqinligi haqidagi ogohlantirish ishlamasligiga olib kelishi mumkin. Datchiklarning xususiyatlariga har qanday qo'shimcha uskunaning o'rnatilishi ham ta'sir qilishi mumkin.
- Datchik o'zidan 30 sm (11 dyum) dan yaqin masofada joylashgan narsalarni aniqlay olmasligi yoki ular bilan oraliqdagi masofani belgilay olmasligi mumkin. Ehtiyot bo'ling.
- Datchikni qor, kir yoki suv bilan qoplanishi yoki muzlash datchikning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Funkzionallikni tiklash uchun datchikni yumshoq mato bilan arting.
- Datchikni qattiq narsalar bilan bosishdan, chizishdan yoki urishdan saqlaning chunki bu uning yuzasiga zarar yetkazadi. Bunday harakatlar datchikni ishdan chiqarishi mumkin.
- Datchikka yoki uning atrofiga yuqori bosimli suv oqimini yo'naltirmang. Bosimli suv oqimi qurilmalarga zarar yetkazishi mumkin.

## To'xtash joyi yaqinligi haqida ogohlantirish tizimi (orqaga / oldinga yurishda)



[A] : Old datchik, [B] : Orqa datchik

Obyektlar old tomondan 100 sm (39 dyum) gacha masofada va orqa tomondan 120 sm (47 dyum) gacha masofada aniqlanganda, orqaga / oldinga yurishda to'xtash joyi yaqinligi haqida ogohlantirish signali eshitaladi.

Obyektlar old tomondan 100 sm (39 dyum) gacha masofada va orqa tomondan 120 sm (47 dyum) gacha masofada aniqlanganda, orqaga / oldinga yurishda to'xtash joyi yaqinligi haqida ogohlantirish signali eshitaladi.

### EHTIYOT BO'LING

- Haydashdan oldin **ALBATT**A to'qnashuvdan saqlanish uchun avtomobil atrofida qandaydir narsalar bor-yo'qligini tekshiring.
- Obyektlar va piyodalarni, ayniqsa, bolalarni yonidan o'tayotganda haydashda alohida ehtiyot bo'lish kerak.
- Ba'zi turdagi obyektlar ekranda aks ettirilmasligi va datchiklar tomonidan aniqlanmasligi mumkin. Bu obyektning materialiga yoki hajmiga, shuningdek, ungacha bo'lgan masofaga bog'liq. Yuqoridagi barcha omillar datchiklarning samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.
- Davlat raqami o'lchami yoki joylashuvini o'zgartirish taqiqlanadi.







## To'xtash joyi yaqinligi haqida ogohlantirish tizimi qanday ishlaydi (orqaga / oldinga yurishda)

### Ishlash sharoitlari



- Dvigatel ishlash jarayonida agar to'xtash joyi xavfsizlik tugmasi bosilsa, tizim faollashadi.
- Uzatish qutisi R (orqaga) holatiga o'tkazilganda to'xtash joyi xavfsizligi tugmasi avtomatik ravishda yoqiladi va oldinga / orqaga yurishda to'xtash joyi yaqinligi haqida ogohlantirish signali yoqiladi. Shunga qaramasdan, agar avtomobil tezligi soatiga 10 km tezlikdan oshsa, obyektlar aniqlangan bo'lsa ham, tizim ogohlantirish bermaydi. Agar avtomobil tezligi soatiga 20 km dan oshsa, tizim avtomatik ravishda o'chadi. Tizimni yoqish uchun to'xtash joyi xavfsizlik tugmachasini bosishingiz kerak.
- Bir vaqtning o'zida ikkitadan ortiq obyektни ro'yxatga olishda birinchi navbatda eng yaqin obyekt hisobga olinadi.

## Ogohlantiruvchi ovozli signallar va indikatorlari

Obyektgacha bo'lgan masofa		Ogohlantirish indikatorlari		Ogohlantiruvchi ovozli signal
		Oldinga harakatlanish	Orqaga harakatlanish	
61 ~ 100 (24 ~ 39)	Oldindan		-	Zummer pauza bilan ishlaydi
61 ~ 120 (24 ~ 47)	Orqadan	-		Zummer pauza bilan ishlaydi
31 ~ 60 (12 ~ 24)	Oldindan			Zummer tez -tez signal beradi
	Orqadan	-		Zummer tez -tez signal beradi
30 (12)	Oldindan			Zummer doimiy ravishda signal beradi
	Orqadan	-		Zummer doimiy ravishda signal beradi

**MA'LUMOT UCHUN**

- Datchiklarning ko'rsatkichi, obyektlari va holati vaziyatga qarab rasmda ko'rsatilganidan farq qilishi mumkin. Agar indikator yonib-o'chib tursa, tizimni tekshirtirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.
- Agar ovozli ogohlantirishlar bo'lmasa yoki uzatish qutisi (R) holatiga o'tkazilgandan so'ng darhol ovozli signal eshitilsa, bu oldinga / orqaga yurishda to'xtash joyi yaqinligi to'g'risida ogohlantirishning ishlamay qolganligini anglatishi mumkin. Bunday holatda, transport vositasini imkon qadar tezroq vakolatli HYUNDAI dileriga tekshirtirish tavsiya etiladi.



### **To'xtash joyi yaqinligi haqida ogohlantirish tizimi (orqaga / oldinga yurishda) ishlaydigan holatlar**

#### **To'xtash joyi yaqinligi haqida ogohlantirish tizimi (orqaga / oldinga yurishda) quyidagi sharoitlarda to'g'ri ishlamasligi mumkin:**

- Datchik muzlaganda.
- Datchik qopqog'ini qor, suv yoki boshqa narsalar qoplaganda.

#### **Quyidagi sharoitlarda to'xtash joyi yaqinligi haqida ogohlantirish tizimi ishlaymay qolishi mumkin (orqaga / oldinga yurishda):**

- Asfalt bo'lmagan yo'llar yoki shag'al, burmalar va qiyaliklar kabi tepaliklar ustida harakatlanayotganda.
- Agar yaqin atrofda kuchli ovoz manbalari, masalan, avtomobil sirenalari, baland ovoz chiqaruvchi mototsikl dvigatellari, yuk avtomobillarining pnevmatik tormozlarini ishga tushishi kabilar tizim datchiklariga xalaqit beradi.
- Kuchli yomg'ir yoki suv sachraganda.
- Yaqin atrofda radio uzatgichlar yoki mobil telefonlar mavjud bo'lganda.
- Datchik qor bilan qoplanganda.
- Avtomobil bampere balandligini o'zgartiruvchi yoki datchik o'rnatuvchi uskunalar bilan jihozlangan bo'lsa.

#### **Aniqlanish diapazoni masofasini kamaytirish mumkin bo'lgan shartlar:**

- Tashqi havo harorati juda yuqori yoki juda pastligi.
- Diametri 14 sm (6 dyum) dan kichik va uzunligi 1 m (40 dyum) dan kam bo'lgan jismlar.

#### **Datchiklar tomonidan aniqlanmaydigan obyektlar:**

- Kabellar, zanjirlar yoki kichik ustunlar kabi o'tkir yoki ingichka narsalar.
- Datchik nurlarini yutuvchi obyektlar, masalan, kiyim, g'alvirak material yoki qor.



### **EHTIYOT BO'LING**

**Yangi avtotransport vositalarining kafolati transport vositasining shikastlanishi yoki shikastlanishiga olib keladigan baxtsiz hodisalarni o'z ichiga olmaydi, agar ular orqaga yurishda to'xtash joyi yaqinligi haqidagi ogohlantirishning ishlashi bilan bog'liq bo'lsa. Har doim ehtiyotkorlik bilan va xavfsiz harakatlaning.**

## **Orqaga / oldinga yurishda to'xtash joyi yaqinligi haqida ogohlantirishdan foydalanish ehtiyot choralarini**

- Orqaga / oldinga yurishda to'xtash joyi yaqinligi haqidagi ogohlantirish signallari aniqlangan narsalarning tezligi va shakliga qarab pauza bilan berilishi mumkin.
- Bamper balandligi yoki datchik holatining o'zgartirish yoki ularning shikastlanishi orqaga / oldinga yurishda to'xtash joyi yaqinligi haqidagi ogohlantirish ishlamasligiga olib kelishi mumkin. Datchiklarning xususiyatlariga har qanday qo'shimcha uskunaning o'rnatilishi ham ta'sir qilishi mumkin.
- Datchik o'zidan 30 sm (12 dyum) dan yaqin masofada joylashgan narsalarni aniqlay olmasligi yoki ular bilan oraliqdagi masofani belgilay olmasligi mumkin. Ehtiyot bo'ling.
- Datchikni qor, kir yoki suv bilan qoplanishi yoki muzlash datchikning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Funktsionallikni tiklash uchun datchikni yumshoq mato bilan arting.
- Datchikni qattiq narsalar bilan bosishdan, chizishdan yoki urishdan saqlaning chunki bu uning yuzasiga zarar yetkazadi. Bunday harakatlar datchikni ishdan chiqarishi mumkin.

## Orqa tomon kuzatuv monitori (mavjud bo'lganda)

Orqa tomon kuzatuv monitori tizimi yordamchi tizib bo'lib, avtomobilning orqasidagi hududni axborot-ko'ngilochar displeyda ko'rsatish orqali to'xtash yoki haydashda yordam berish uchun mo'ljallangan.

### To'xtashga yordamlashuvchi tizimga ega orqa kuzatuv monitori



- To'xtashga yordamlashuvchi tizimga ega orqa tomon kuzatuv monitori dvigatel ishlayotganda va uzatish qutisi "R" holatida bo'lganda yoqiladi.
- To'xtashga yordam berish uchun avtotransport tezligi 1 km / soat (6 mil / soat) dan past bo'lganida, uzatish qutisi "R" dan "D" holatiga o'zgartirilgandan so'ng, displeyda orqa tomon ko'rsatiladi (to'xtash joyidagi yo'l chiziqlari yo'qoladi).

## Uzatish qutisi “D” yoki “N” holatiga o'tkazilganda orqa tomon kuzatuv monitori



©DN8059060



©DN8H059061

- Tizim quyidagi shartlardan biri bajarilsa ishlashdan to'xtaydi:
    - To'xtash / Kuzatish tugmasi (1) yana bosilsa.
    - Axborot-ko'ngiochar tizimining tugmachalaridan (2) biri bosilsa
  - Avtomobil orqaga harakatlanayotganda display to'xtashga yordamlashuvchi rejimiga o'tadi.
  - Quyidagi hollarda displayda signal paydo bo'ladi:
    - yukxona ochiq bo'lsa;
    - yoki haydovchining eshigi ochiq bo'lsa.
- Quyidagi shartlar bajarilganda tizim faollashadi.
    - To'xtash / kuzatish (1) tugmasi bosilganda
    - Uzatish qutisi (harakatlanish), "N" (neytral) yoki "R" (orqaga) holatida bo'lganda

## Orqa tomon kuzatuv monitori - Yuqoridan ko'rinish



Belgi (1) bosilganda displeyda orqa tomonning yuqoridan ko'rinishi va orqadagi avtomobilgacha bo'lgan masofa ko'rsatiladi. Belgi (1) qayta bosilsa displeyda old tomon ko'rinishi tiklanadi.



### EHTIYOT BO'LING

Orqa tomon kuzatuv monitori xavfsizlikni ta'minlovchi vosita hisoblanmaydi. Bu faqat haydovchi uchun orqadagi obyektlarni aniqlashga yordamlashuvchi vosita xolos. Kamera avtomobil orqasidagi barcha hududni to'liq **KO'RSATMAYDI**.




### EHTIYOT BO'LING

- Orqaga yurayotganda, faqat orqa tomon kuzatuv monitoriga tayanmang.
- Yurishdan oldin **ALBATTA** avtomobil atrofini tekshirish lozim.
- Obyektlar va piyodalarni, ayniqsa, bolalarni yonidan o'tayotganda alohida ehtiyot bo'lish kerak.

### MA'LUMOT UCHUN

- Yuqori bosimli suv oqimi kameraga yoki uning atrofiga qaratmang. Bosimli suv oqimi qurilmalarga zarar yetkazishi mumkin.
- Obyektivni tozalash uchun kislotali yoki ishqorli yuvish vositalarini o'z ichiga olgan tozalash vositalaridan foydalanmang. Faqat yumshoq sovun yoki neytral yuvish vositasidan foydalaning hamda yaxshilab suv bilan yuvib tashlang.
- Kamera obyektivi toza holatda bo'lishi kerak. Kir, suv yoki qor bilan ifloslangan taqdirda kamera to'g'ri ishlamasligi mumkin.

## ATROFNI KUZATISH MONITORI (SVM) (mavjud bo'lganda)



ODN8059265

360 darajali kuzatuv monitorida avtomobilning atrofidagi joy haqida umumiy ma'lumot beriladi, bu avtomobillar to'xtash vaqtida yordam beradi.

### **Batafsil ma'lumot uchun tegishli avtomobil uchun alohida berilgan yo'riqnomaga qarang**

- Tizim quyidagi shartlar bajarilganda faollashadi.
  - To'xtash / Kuzatish tugmasi (indikator yoqilgan) bosilganda.
  - Uzatish qutisi "D" (harakatlanish), "N" (neytral) yoki "R" (orqaga) va avtomobil tezligi soatiga 15 km (10 mil / soat) dan kam bo'lganda.
- Quyidagi shartlardan biri bajarilganda tizim o'chiriladi.
  - To'xtash / Kuzatish tugmasi (1, indikator o'chirilgan) yana bosilsa.
  - Avtomobil tezligi soatiga 15 km dan kam bo'lsa
- Avtomobil tezligi soatiga 15 km oshganda, tizim o'chiriladi.
 

Tezlik soatiga 15 km dan past bo'lsa ham, tizim avtomatik ravishda qayta yoqilmaydi. Tizimni yoqish uchun tugmani yana bosing (1, indikator yonadi).
- Orqaga yurilganda avtomobil tezligi va tugma holatidan qat'iy nazar tizim avtomatik ravishda yoqiladi. Biroq, oldinga harakatlanish paytida avtomobil tezligi soatiga 15 km dan oshganda, atrofni kuzatish monitori o'chadi.
- Quyidagi hollarda displeyda signal paydo bo'ladi:
  - yukxona ochiq bo'lsa;
  - haydovchining eshigi ochiq bo'lsa;
  - yo'lovchining eshigi ochiq bo'lsa;
  - tashqi oynalar bukilgan holatda bo'lsa.

- Agar siz "Foydalanuvchi sozlamalari" menyusidan "Surround View Monitor Auto On (Atrofni kuzatish monitorini avtomatik yoqish)" funksiyasini tanlasangiz, to'xtash joyi yordamchi tizimi signal berganida monitor avtomatik ravishda yoqiladi.
- Agar tizim to'g'ri ishlamasa, uni vakolatli HYUNDAI xizmat ko'rsatish markazida tekshirtirish kerak.


### DIQQAT






- 1) Old kamera
- 2) chap / o'ng kamera
- 3) Orqa kamera

Atrofni kuzatuv tizimi bu faqat yordamchi funksiya hisoblanadi. Haydashdan oldin har doim avtomobil atrofida hech qanday to'siq yo'qligiga ishonch hosil qiling.

### Orqa tomon kuzatuv monitori



- Avtomobil tezligi soatiga 15 km (10 mil) dan oshadi va siz To'xtash / Kuzatish tugmasini bosasiz (1, indikator yonadi).
- Avtomobil tezligi 15 km / soat dan oshadi va haydovchi atrofni kuzatish monitori tugmachasini bosadi (1, indikator yonadi)
- Avtomobil tezligi 15 km / soat (1 mil / soat) dan past va displeyda  (2) belgisi bosiladi. Haydash paytida orqa tomon ko'rsatilganda, displeyning o'ng yuqori burchagida  (3) belgisi paydo bo'ladi.

- Tizim quyidagi shartlardan birini bajarilganda o'chad:
  - To'xtash / Kuzatish tugmasi (1, indikator o'chirilgan) yana bosilsa.
  - SVM tizimi displeyida boshqa tanlanganda.
  - Axborot–ko'ngilochar tizimining tugmalaridan (3) biri bosilganda.
- Orqa tomon ko'rinishi displeyda oshsa
  - Orqa tomon ko'rinishi displeyda qolganda, avtomobilning orqasidagi vaziyat ko'rsatiladi.
  - Displeyda boshqa SVM rejimlari mavjud bo'lganda, boshqa rejimlarning displeyi (yuqori ko'rinish, keng burchakli old ko'rinish, old o'ng va old chap ko'rinish) o'chadi va asosiy axborot-ko'ngilochar tizimi displeyiga qaytadi.
- Agar SVM yoqilgan bo'lsa va avtomobil tezligi 15 km / soat (10 mil / soat) dan past bo'lsa
  - Orqa tomon ko'rinishi displeyda qolganda, avtomobilning orqasidagi vaziyat ko'rsatiladi.
  -  (2) belgisi bosilganda, displeyda SVM rejimini tanlash uchun qalqib chiquvchi oyna paydo bo'ladi (yuqori ko'rinish, keng burchakli old ko'rinish, old o'ng va old chap ko'rinish).



- Orqaga yurilganda avtomobil avtomobil tezligidan yoki to'xtash / kuzatish tugmasining (1) holatidan qat'iy nazar, displeyda avtomatik ravishda orqa tomon tasviri paydo bo'ladi.
  - Agar orqa tomon ko'rinishi yoniq bo'lsa, displey avtomobilni to'xtatish rejimiga o'tadi.
  - Agar boshqa SVM rejimlarining displeyi yoniq bo'lsa (yuqori ko'rinish, keng burchakli old ko'rinish, old o'ng va old chap ko'rinish) orqa tomon ko'rinishining asl tasvir rejimi paydo bo'ladi.
  - Uzatish qutisi "R" dan (orqaga) "D" (harakatlanish) ga o'tkazilsa, displey oldingi rejimga qaytadi.
- Quyidagi hollarda displeyda signal paydo bo'ladi:
  - yukxona ochiq bo'lsa;
  - maydovchi yoki yo'lovchining eshigi ochiq bo'lsa;
  - tashqi oynalar buklangan holatda bo'lsa.



## EHTIYOT BO'LING

**Orqa tomon kuzatuv monitori - bu yordamchi tizim hisoblanadi. Xavfsizlik uchun albatta avtomobil ortidagi vaziyat tekshirish lozim. Displey tasviri real vaziyatdan ko'ra boshqacha bo'lishi mumkin.**

## MA'LUMOT UCHUN

**Kamera obyektivi har doim toza holatda bo'lishi kerak. Agar obyektiv iflos bo'lsa, kamera to'g'ri ishlamasligi mumkin.**

## Qo'lda boshqariladigan mikroiklimni nazorat qilish tizimi (mavjud bo'lganda)

### ■ A turi



### ■ B turi





ODN8059100L / ODN8059101L

- |   |  |
|---|--|
| <ul style="list-style-type: none"> <li>1. Ventilyator tezligi regulyatori</li> <li>2. Harorat regulyatori</li> <li>3. Harorat regulyatori potokov</li> <li>4. Old oyna isitgichi tugmasi</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>5. Orqa oyna isitgichi tugmasi</li> <li>6. Konditsionerni yoqish tugmasi (A / C)</li> <li>7. Toza havo kirishini nazorat qilish tugmasi</li> <li>8. Konditsionerning maksimal ishlash rejimini tanlash tugmasi</li> </ul> |
|---|--|

## Havoni isitish va sovutish


1. Dvigatelni ishga tushiring.
2. Ishlash rejimini tanlash tugmachasini istagan holatingizga o'rnatish.

Isitish va sovutish samaradorligini oshirish uchun:


- Isitish: 
- Sovutish: 

3. Havo haroratini boshqarish tugmachasini istagan holatingizga o'rnatish.
4. "Fresh" (toza havo) rejimida havo olishni nazorat qilish regulyatorini o'rnatish.
5. Ventilyator aylanish tezligini xohishingizga ko'ra sozlash.
6. Agar kerak bo'lsa konditsionerni yoqish.

## Ishlash rejimini tanlash



ODN8059107



ODN8059106

Ventilyatsiya tizimida havo oqimini o'zgartirish uchun havo oqimini tarqatish tugmasidan foydalaniladi.



**Old panel ventilyatsion tirqishlaridan havo yetkazib berish (B, D, F)**

Havo oqimi inson tanasining yuqori qismiga va yuziga yo'naltiriladi. Bundan tashqari, har bir tirqish o'rnini u orqali yetkazib beriladigan havo oqimini yo'naltirish uchun sozlash mumkin.



**Old panel ventilyatsion tirqishlaridan salon pastki qismiga havo yetkazib berish (B, C, D, E, F)**

Havo oqimi insonning yuziga va salonning pastki qismiga yo'naltiriladi.



**Salonning pastki qismiga havo yetkazib berish (A, C, D, E)**

Havo asosan salonning pastki qismiga va uning oz qismi oyna muzlab qolmasligi uchun old oynaga hamda yon konus naychalarga yo'naltiriladi.




**Salonning pastki qismiga va old oynaga havo yetkazib berish (A, C, D, E)**

Havo asosan salonning pastki qismiga va old oynaga, uning oz qismi oyna muzlab qolmasligi uchun yon konus naychalarga yo'naltiriladi.




**Old oynaga havo yetkazib berish (A, D)**

Havo asosan old oynaga, uning oz qismi oyna muzlab qolmasligi uchun konus naychalarga yo'naltiriladi



### Havoni maksimal sovutish (B, D, F)

MAX A / C rejimi saloni tez sovutish uchun ishlatiladi. Havo oqimi yuz va tananing yuqori qismiga yo'naltiriladi. Ushbu rejimda havo aylanishi va sovutilishi avtomatik ravishda tanlanadi.




### Asboblar kombinatsiyasidagi ventilyatsion tirqishlar

Asboblar kombinatsiyasidagi konus naycha dastagini chapga-o'ngga shuningdek, yuqoriga-pastga siljitish orqali havo oqimining yo'nalishini mos ravishda gorizontal yoki vertikal tekislikda o'zgartirishingiz mumkin.

Ventilyatsion tirqishni yopish uchun regulyatorni tashqi tomonga oxirigacha burab qo'ying. Ochish uchun esa regulyatorni ichki tomonga burang.


### Haroratni nazorat qilish



Haroratni ko'tarish tugmani o'ngga burish orqali amalga oshiriladi.

Pasaytirish esa tugmani chapga burish orqali amalga oshiriladi.

## Havo yetkazib berish rejimini o'zgartirish



Havo kirishini boshqarish tugmasi "Fresh" (toza havo yetkazib berish) yoki "Resirkulyatsiya" (salonda havo aylanishi) rejimini tanlash uchun ishlatiladi.

## Havo yetkazib berish rejimi



Havoni qayta aylantirish rejimi tanlanganida, havo salon ichida aylanadi va tanlangan funktsiyaga muvofiq isiydi yoki soviydi.

## Toza havo yetkazib berish rejimi

■ A turi



Toza havo yetkazib berish rejimi tanlanganida, havo tashqaridan avtomobilga kiradi va tanlangan funktsiyaga qarab isitiladi yoki sovutiladi.

■ B turi



## Ma'lumot

Toza havo yetkazib berish rejimida tizimdan ko'proq foydalanish tavsiya etiladi. Havoni qayta aylantirish rejimini faqat kerak bo'lganda ishlatish lozim.

Havoni aylantirish rejimida isitgichni konditsioner yoqilmagan holda uzoq muddat ishlatish old oynaning bug'lanishiga olib kelishi mumkin.


Bundan tashqari, havoni aylantirish rejimida konditsionerning uzoq muddat ishlashi haddan tashqari quruqlikka, salondagi havoning suvsizlanishiga olib kelishi mumkin va havoning turg'unligi tufayli ventilyatsion tirqishlardan chirindi hidi chiqishiga olib kelishi mumkin.



## EHTIYOT BO'LING

- Havoni aylantirish rejimida iqlimni nazorat qilish tizimidan doimiy foydalanish salonda yo'lovchilarning uyquchanligiga olib kelishi mumkin. Bu nazoratni yo'qotishga va baxtsiz hodisaga sabab bo'lishi mumkin.
- Havoni aylantirish rejimida iqlimni nazorat qilish tizimidan konditsioner yoqiq holatda doimiy foydalanish salondagi namlikni oshirishi mumkin.  
Bu old oynada bug' to'planishiga va ko'rishni pasayishiga olib kelishi mumkin.
- Oynalari yopiq, isitgich yoki konditsioner tizimi yoqilgan holatdagi to'xtab turgan avtomobilda uxlamang yoki uzoq vaqt turmang. Bu salonda karbonat angidrid gazi miqdorining o'sishiga va jiddiy shikastlanish yoki o'limga olib kelishi mumkin.

## Ventilyator tezligini sozlash




Ventilyator va havo oqimi tezligini oshirish uchun tugmani o'ngga burang. Pasaytirish uchun esa tugmani chapga burang.

Ventilyator tezligi regulyatorini "O" holatiga o'tkazilganda ventilyator o'chadi.

## MA'LUMOT UCHUN

O't oldirish qurilmasi yoqilganda holatda ventilyatorni ishlatish batareyani quvvatsizlanishiga olib kelishi mumkin. Dvigatel ishlayotgandagina ventilyatorni yoqish kerak.

## Konditsioner tizimi




ODN8059114


Konditsioner tizimini yoqish uchun A/C tugmasini bosing (undagi indikator chiroq yonadi). Bu tugmani qayta bosish konditsioner tizimini o'chiradi.

## Tizimning ishlashi



### Ventilyatsiya

1. Face level (yuz darajasi)  rejimini tanlang.
2. "Fresh" (toza havo) rejimida havo yetkazib berishni nazorat qilish regulyatorini sozlang.
3. Ventilyator tezligi regulyatorini kerakli holatga sozlang.
4. Ventilyator tezligi regulyatorini o'zingizga kerakli holatga sozlang.

### Isitish

1. Floor level  (pol darajasi) rejimini tanlang.
2. "Fresh" (toza havo) rejimida havo yetkazib berishni nazorat qilish regulyatorini sozlang.

3. Harorat regulyatorini o'zingizga kerakli holatga sozlang.
4. Ventilyator tezligi regulyatorini o'zingizga kerakli holatga sozlang.
5. Xohlasangiz, salondagi havodan namlikni olib tashlash uchun harorat regulyatori yordamida isitish uchun konditsioner tizimini yoqing.

Agar old oynada bug' paydo bo'lsa, "Bug'ni tozalash"  yoki "old oynani bug'dan tozalash"  rejimlaridan birini tanlang.


### Foydalanish bo'yicha maslahatlar

- Ventilyatsiya tizimi orqali yoqimsiz gazlar avtomobil ichki qismiga kirmasligi uchun havo yetkazib berish tugmachasini vaqtincha havo aylanishi rejimiga o'tkazing. Havo yetarlicha toza bo'lganda, boshqaruvni toza havo rejimiga qaytarishni unutmang. Bu haydovchiga qulaylik va hushyorlik olib keladi.
- Old oynaning bug'lanishiga yo'l qo'ymaslik uchun havo yetkazib berish regulyatorini toza havo rejimiga qo'ying, ventilyator tezligini kerakli holatga qo'ying, konditsioner tizimini yoqing va haroratni sozlang.



### Konditsioner tizimi


HYUNDAI konditsioner tizimlarida R-134a yoki R-1234yf sovutgichidan foydalaniladi.

1. Dvigatelni ishga tushiring.
2. Havoni konditsionerlash tugmasini bosib.
3. Face level (yuz darajasi) rejimini  tanlang.
4. Salonni tez sovutish uchun havo aylantirish rejimida havoni yetkazib berish boshqaruvini vaqtincha sozlang. Istalgan haroratga erishilgandan so'ng, havo yetkazib berish boshqaruvini "Fresh" (toza havo) ga qaytaring.
5. Yanada qulay holatni ta'minlash uchun ventilyator va harorat tezligini sozlang.

### MA'LUMOT UCHUN

- Sovutish sxemasining to'g'ri va xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun unga faqat maxsus o'qitilgan va sertifikatga ega mutaxassislar xizmat ko'rsatishi kerak.
- Sovutish sxemasi ishlari yaxshi shamollatilgan joyda amalga oshirilishi zarur.
- Konditsioner bug'latgichi (sovutish burama naychasi)ni ta'mirlash yoki almashtirish uchun boshqa yoki baxtsiz hodisaga uchragan avtomobildan olingan bug'latgichdan foydalanmang. Yangi MAS bug'latgichlari SAE J2842 standarti talablariga javob beradigan etiketkaga ega bo'lishi va sertifikatlangan bo'lishi zarur.

### Ma'lumot




Avtotransport vositasi yetkazib berilgan mamlakatda ishlab chiqarilgan paytdagi amaldagi qoidalarga muvofiq konditsioner R-134a yoki R-1234yf sovutgichi bilan qvvatlanadi. Avtomobil konditsionerining sovutgichi markasi dvigatel bo'linmasi old tomonidagi stikerda ko'rsatilgan.

### Ma'lumot

- Issiq havoda avtomobilni konditsioner tizimi yoqiq holatda tog'da yoki katta tirbandlikda haydayotganda dvigatel harorati indikatoriga e'tibor qilib yuring. Konditsioner tizimining ishlashi dvigatelning haddan tashqari qizib ketishiga olib kelishi mumkin. Agar harorat indikatorini dvigatel qizib ketganini ko'rsatsa ventilyatorni yoqiq holatda qoldirib konditsioner tizimini o'chiring.


- **Konditsioner tizimining oynalar ocig holatida va yuqori namlik bilan ishlashi avtomobil ichida namlik paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Haddan tashqari namlik elektr uzilishiga olib kelishi mumkinligi sababli konditsioner tizimidan faqat oynalar yopilgan holatda foydalanishga ruxsat etiladi.**
- Konditsioner tizimini optimal ishlash xususiyatini saqlash uchun har oyda bir marta, kamida bir necha daqiqaga ishga tushiring.
- Konditsioner tizimi ishlayotganda, yo'lovchi tomonida toza suv tomchilayotganini (yoki hatto to'kilayotganini) ko'rishingiz mumkin. Bu normal holat.

### **Konditsioner tizimidan foydalanish bo'yicha maslahatlar**

- Agar avtomobil issiq havoda to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri ostida qolgan bo'lsa, issiq havo salondan chiqib ketishi uchun avtomobil oynalarini qisqa muddatga oching.
- Yetarli sovutishdan so'ng, havoni aylantirish rejimidan tashqi havoni yetkazib berish rejimiga o'ting.
- Yomg'irli yoki namlik yuqori bo'lgan kunlarda oynaning ichki yuzalarida namlikni kamaytirish uchun oynalar va lyuk yopilgan holatda konditsioner tizimidan foydalaning.
- Konditsioner tizimining ishlashi paytida konditsioner tizimining kompressorini yoqish yoki o'chirishga qarab dvigatel aylanish chastotasida sezilmas o'zgarishni payqash mumkin. Bu normal holat.
- Konditsionerdan ko'p miqdorda foydalanganda, tashqi va old oynalar havosi orasidagi harorat farqi ko'rishga xalaqit beradigan old oynaning tashqi yuzasida namlik to'planishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatda rejim tanlash tugmasini (  ) holatiga sozlash va ventilyator aylanish tezligini ko'paytirish lozim.

## Tizimga texnik xizmat ko'rsatish

### Iqlim nazorati tizimi uchun havo filtri



[A] : Tashqi havo

[B] : Qayta aylanadigan havo

[C] : Iqlim nazorati havo filtri

[D] : Ventilator

[E] : Bug'latgich yadrosi

[F] : Isitgich yadrosi

Ushbu filtr salon qutisi orqasiga o'rnatiladi. U isitish va konditsioner tizimlari orqali avtomobilga kiradigan chang va boshqa ifloslantiruvchi moddalarni filtrlaydi.

Xizmat ko'rsatish grafigiga muvofiq havo filtrini almashtirish uchun HYUNDAI vakolatli dileri bilan bog'lanish tavsiya etiladi.

Avtomobilni changli, notekis yo'llar kabi og'ir sharoitlarda haydalganda, iqlim nazorati tizimi havo filtrini tez-tez tekshirish va almashtirish talab qilinadi.

Havo sarfi keskin kamayib ketganda, tizimni vakolatli HYUNDAI dileriga tekshirish tavsiya etiladi.

## **i** Ma'lumot

- Havo filtrini almashtirish texnik xizmat ko'rsatish grafigiga muvofiq amalga oshiriladi.

Avtomobildan qiyin sharoitlarda (masalan, chang va notekis yo'llar) foydalanganda iqlim nazorati havo filtri tez-tez tekshirilishi va almashtirilishi kerak.

- Havo sarfi keskin pasayganda, tizimni tekshirtirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qilishni maslahat beramiz.

### **Konditsioner tizimidagi sovutgich va moy miqdorini tekshirish**

Sovutgichning past darajada bo'lsa, konditsioner tizimi samaradorligi kamayadi. Haddan tashqari yuqori bo'lishi ham konditsioner tizimi uchun salbiy hisoblanadi. Shuning uchun, agarda nosozlik kuzatilsa tizimni tekshirtirish uchun HYUNDAI vakolatli dileri bilan bog'lanish tavsiya etiladi.

**MA'LUMOT UCHUN**

Moy va sovutgichning kerakli tur va miqdorini ishlatish zarur. Aks holda kompressorning shikastlanishiga va tizimning noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin. Shikastlanishni oldini olish uchun konditsioner tizimiga xizmat ko'rsatish faqat malakali va sertifikatga ega texniklar tomonidan amalga oshirilishi zarur.

**EHTIYOT BO'LING**

R-134a sovutgichli transport vositalari



Sovutgich juda yuqori bosimda ishlagani uchun konditsioner tizimiga xizmat ko'rsatish faqat malakali va sertifikatga ega texniklar tomonidan amalga oshirilishi zarur.

Barcha sovutgichlardan faqat mos uskunalar bilan foydalanish kerak.

Sovutgichni to'g'ridan-to'g'ri tashqariga bo'shatish atrofdagi odamlarning sog'lig'i va atrof -muhit uchun xavflidir. Keltirilgan ma'lumotlarga rioya qilmaslik jiddiy shikastlanishga olib kelishi mumkin.

**EHTIYOT BO'LING**

R-1234yf sovutgichli avtomobillar




Sovutgich biroz issiq bo'lgani va juda yuqori bosimda ishlagani uchun konditsioner tizimiga xizmat ko'rsatish faqat malakali va sertifikatga ega texniklar tomonidan amalga oshirilishi zarur.



Barcha sovutgichlardan faqat mos uskunalar bilan foydalanish kerak.

Sovutgichni to'g'ridan-to'g'ri tashqariga bo'shatish atrofdagi odamlarning sog'lig'i va atrof -muhit uchun xavflidir. Keltirilgan ma'lumotlarga rioya qilmaslik jiddiy shikastlanishga olib kelishi mumkin.


## Konditsioner tizimi sovutgichi haqidagi ma'lumot yorlig'i



Avtomobilingizning konditsioneri uchun sovutgich markasi dvigatel bo'linmasining old qismidagi stikerda ko'rsatilgan.

### ■ Namuna

· A turi



OHYK059004

· B turi



OHYK059001

Quyida sovutgich haqidagi ma'lumot yorlig'idagi belgilar va spetsifikatsiyalarning ma'nosi keltirilgan:

1. Sovutgichlarning tasnifi
2. Sovutgichning hajmi
3. Kompressor moyi klassifikatsiyasi
4. Ogohlantirish
5. Yonuvchan sovutgich
6. Konditsioner tizimiga xizmat ko'rsatish uchun texnik xodim ro'yxatdan o'tgan bo'lishi zarur.
7. Xizmat ko'rsatish bo'yicha yo'riqnomaga

## Avtomatik boshqaruv tizimi MIKROIQLIM (mavjud bo'lganda)



ODN8059102L


1. Haydovchi tomon harorat regulyatori
2. Yo'lovchi tomon harorat regulyatori
3. AVTO tugmasi (avtomatik boshqaruv)
4. SYNC tugmasi (sinxronizatsiya)
5. O'chirish tugmasi (OFF)
6. Old oyna isitgichi tugmasi
7. Konditsioner tugmasi
8. Toza havo oqimini boshqarish tugmasi
9. Orqa oyna isitgichi tugmasi
10. Ventilyator tezligini boshqarish tugmasi
11. Rejim tanlash tugmasi
12. Iqlimni sozlash bo'yicha ma'lumot displayi

## Havoni isitish va konditsionerlashni avtomatik boshqarish





1. AUTO tugmasini bosib (avtomatik rejim yoqiladi)

Ishlash rejimlari, ventilyator tezligi, havo ta'minoti va konditsionerining ishlashi avtomatik ravishda belgilangan haroratga muvofiq boshqariladi.



Tizimning avtomatik rejimidagi havo oqimi tezligini "AUTO" (avtomatik) tugmasini bosish orqali uch darajaga o'rnatish mumkin.

- "HIGH" (yuqori): havo oqimining maksimal tezligida tez isitish va sovutish ta'minlanadi
- "MEDIUM" (o'rta): havo oqimining o'rtacha tezligida isitish va sovutish ta'minlanadi
- "LOW" (past): past havo oqimini afzal ko'radigan haydovchilar uchun mos.
- Harorat regulyatorini avtomatik rejimda "HI" (yuqori) yoki "LO" (past) ga o'rnatish havo oqimi tezligini "YUQORI" ga o'zgartiradi.



### **i** Ma'lumot

**Isitish va sovutish tizimini yaxshi boshqaruvini ta'minlash uchun datchik yaqiniga hech narsa qo'ymang.**



2. Kerakli qiymatni tanlash uchun harorat regulyatori tugmasini aylantiring. Harorat minimal (Lo) ga o'rnatilganda, konditsioner tizimi uzluksiz ishlaydi.
- Avtomatik boshqaruvni o'chrish uchun quyidagi kalit va tugmalardan birini ishga tushiring
  - Rejimni o'zgartirish tugmasi
  - Old oynani muzdan tushirish tugmasi
 (Isitish funksiyasini bekor qilish uchun tugmani bir necha marta bosing. Ma'lumot displeyida AUTO belgisi yana paydo bo'ladi.)
  - Ventilyator tezligini boshqarish kaliti
  - Tanlangan funktsiya qo'lda boshqariladi, qolgani esa avtomatik ravishda.
- Konditsioner boshqaruvi qulayligi va samaradorligi uchun AUTO tugmasidan foydalanish va haroratni 23 ° C (73 ° F) ga o'rnatish tavsiya etiladi.




## Havoni isitish va konditsionerlashni qo'lda boshqarish


Isitish va konditsionerlashni qo'lda boshqarish rejimiga AUTO tugmasidan boshqa tugmalarni bosish orqali o'tish mumkin. Bunday holatda tizim tanlangan rejimlarni ketma-ketlikda almashtiradi.

Avtomatik rejimda AUTO tugmasidan boshqa har qanday tugma bosilsa, qo'lda boshqarish uchun tanlanmagan funksiyalar avtomatik ravishda boshqariladi.

1. Dvigatelni ishga tushiring
2. Rejimni boshqarish tugmachasini xohlagan holatingizga o'rnating.  
Isitish yoki sovutish samaradorligini oshirish uchun quyidagi shartlarga muvofiq rejimni tanlang:
  - Isitish: 
  - Sovutish: 
3. Havo haroratini boshqarish tugmachasini xohlagan holatingizga o'rnating.
4. "Fresh" (toza havo) rejimida havo yetkazib berishni nazorat qilish regulyatorini o'rnating.
5. Ventilyator tezligini o'zingizning xohishingizga ko'ra sozlang.
6. Agar kerak bo'lsa, konditsionerni yoqing.
7. Avtomatik boshqarish rejimiga qaytish uchun AUTO tugmasini bosing.

## Ish rejimini tanlash







Rejim tanlash tugmalari ventilyatsion tizimidan kelayotgan havo oqim yo'nalishlarini o'zgartiradi.

Havo quyidagi tirqishlar orqali yetkazib beriladi:




 **Old panel ventilyatsion tirqishlaridan havo yetkazib berish (B, D, F)**


Havo oqimi inson tanasining yuqori qismiga va yuziga yo'naltiriladi. Bundan tashqari, har bir tirqish o'rnini u orqali yetkazib beriladigan havo oqimini yo'naltirish uchun sozlash mumkin.

 **Old panel ventilyatsion tirqishlaridan salon pastki qimiga havo yetkazib berish (B, C, D, E, F)**


Havo oqimi insonning yuziga va salonning pastki qismiga yo'naltiriladi.

 **Salonning pastki qismiga va old oynaga havo yetkazib berish (A, C, D, E)**

Havo asosan salonning pastki qismiga va old oynaga, qolgan oz qismi esa oyna muzlab qolmasligi uchun yon konus naychalarga yo'naltiriladi


 **Salonning pastki qismiga havo yetkazib berish (A, C, D, E)**

Havo asosan salonning pastki qismiga va uning oz qismi oyna muzlab qolmasligi uchun old oynaga hamda yon konus naychalarga yo'naltiriladi.



**Old oynaga havo yetkazib berish (A, D)**

Havo asosan old oynaga, uning oz qismi oyna muzlab qolmasligi uchun konus naychalarga yo'naltiriladi.




### Asboblar kombinatsiyasidagi ventilyatsion tirqishlar

Asboblar kombinatsiyasidagi konus naycha dastagini chapga-o'ngga shuningdek, yuqoriga-pastga siljitish orqali havo oqimining yo'nalishini mos ravishda gorizontaal yoki vertikal tekislikda o'zgartirishingiz mumkin.

Ventilyatsion tirqishni yopish uchun regulyatorni tashqi tomonga oxirigacha burab qo'ying. Ochish uchun esa regulyatorni ichki tomonga burang.


### Haroratni nazorat qilish



Haroratni ko'tarish tugmani o'ngga burish orqali amalga oshiriladi.

Pasaytirish esa tugmani chapga burish orqali amalga oshiriladi.

Regulyator o'rnini o'zgartirganda, harorat 5°C (1°F) daraja bilan ortadi yoki kamayadi. Harorat minimal darajaga tushirilganda, konditsioner uzluksiz ishlaydi.



### Haydovchi va yo'lovchi tomon haroratini bir maromda nazorat qilish

- Haydovchi va yo'lovchi tomon bir haroratini bir maromda nazorat qilish uchun SYNC tugmasini bosing.

Yo'lovchi tomonidagi harorat haydovchi tomonidagi harorat bilan bir xil bo'ladi.

- Haydovchi tomonidagi harorat regulyatori tugmachasini aylantiring. Ham haydovchi tomonidagi ham yo'lovchi tomonidagi harorat bir vaqtda sozlanadi.
- Agar yo'lovchi tomonidan harorat regulyatori tugmachasi aylantirilsa, SYNC (sinxronizatsiya) tugmasi o'chiriladi va yo'lovchi tomonidagi havo harorati alohida sozlanishi mumkin.

### **Haydovchi va yo'lovchi tomon haroratini alohida nazorat qilish**

Haydovchi va yo'lovchi tomon bir haroratini alohida nazorat qilish uchun SYNC tugmasini yana bir marta bosing. Tugma indikatoriyonadi.

### **Harorat konvertatsiyasi**

Agar batareya quvvatsizlangan yoki uzilgan bo'lsa, haroratni ko'rsatish rejimi Selsiyga o'tkaziladi.

Harorat o'lchov birliklarini °Cdan °Fga va °Fdan °Cga o'zgartirish:

- Iqlimni nazorat qilish tizimini avtomatik sozlash  
Bir vaqtda o'chirish tugmasini bosgan holda AVTO tugmasini 3 soniya bosib turing.
- Asboblarni kombinatsiyasi  
["Sozlamalar" rejimi ] →  
Other ["Qo'shimcha funksiyalar"]  
→ Temperature Unit ["Harorat o'lchov birliklari"].]

Bu asboblarni kombinatsiyasining LCD displeyidagi va iqlimni sozlash ekranidagi harorat birliklarini o'zgartiradi.

### **Havo kirishini nazorat qilish**

Bu boshqaruv elementi tashqi (toza) havo yetkazib berish yoki havoni qayta aylantirish rejimlaridan birini tanlash uchun ishlatiladi.

Havo kirish rejimini o'zgartirish uchun boshqaruv tugmasini bosning.

### **Havoni qayta aylantirish holatida havo yetkazib berish regulyatori**



Havoni qayta aylantirish rejimi yoqilganda salondan chiqarilgan havo isitish tizimidan o'tadi va tanlangan rejimga qarab isitiladi yoki sovutiladi.

### **Toza havo holatida havo regulyatori**



Toza havo yetkazib berish rejimi tanlanganda, avtomobilga tashqaridan toza havo kiradi va tangangan funksiyaga qarab isitiladi yoki sovutiladi.

### **i Ma'lumot**

Toza havo yetkazib berish rejimida tizimdan ko'proq foydalanish tavsiya etiladi. Havoni qayta aylantirish rejimini faqat kerak bo'lganda ishlatish lozim.

Havoni aylantirish rejimida isitgichni konditsioner yoqilmagan holda uzoq muddat ishlatish old oynaning bug'lanishiga olib kelishi mumkin.


Bundan tashqari, havoni aylantirish rejimida konditsionerning uzoq muddat ishlashi haddan tashqari quruqlikka, salondagi havoning suvsizlanishiga olib kelishi mumkin va havoning turg'unligi tufayli ventilyatsion tirqishlardan chirindi hidi chiqishiga olib kelishi mumkin.

### **⚠ EHTIYOT BO'LING**

- Havoni aylantirish rejimida iqlimni nazorat qilish tizimidan doimiy foydalanish salonda yo'lovchilarning uyquchanligiga olib kelishi mumkin. Bu nazoratni yo'qotishga va baxtsiz hodisaga sabab bo'lishi mumkin.
- Havoni aylantirish rejimida iqlimni nazorat qilish tizimidan konditsioner yoqiq holatda doimiy foydalanish salondagi namlikni oshirishi mumkin. Bu old oynada bug' to'planishiga va ko'rishni pasayishiga olib kelishi mumkin.

- Oynalari yopiq, isitgich yoki konditsioner tizimi yoqilgan holatdagi to'xtab turgan avtomobilda uxlamang yoki uzoq vaqt turmang. Bu salonda karbonat angidrid gazi miqdorining o'sishiga va jiddiy shikastlanish yoki o'limga olib kelishi mumkin.

### Ventilyator aylanish chastotasini sozlash



ODN8H059319

Ventilyator tezligi ventilyator aylanish chastotasi kaliti bilan boshqariladi.

Ventilyator tezligi qanchalik baland bo'lsa, shuncha ko'p havo kiradi. OFF tugmasini bosish ventilyatorni o'chiradi.

### MA'LUMOT UCHUN

**O't oldirish qurilmasi yoqilganda holatda ventilyatorni ishlatish batareyani quvvatsizlanishiga olib kelishi mumkin. Dvigatel ishlayotgandagina ventilyatorni yoqish kerak.**

### Konditsioner tizimi



ODN8059121

Konditsioner tizimini yoqish uchun A/C tugmasini bosing (undagi indikator chiroq yonadi). Bu tugmani qayta bosish konditsioner tizimini o'chiradi.

### O'chirish rejimi




ODN8059123

Iqlimni nazorat qilish tizimini o'chirish uchun oldingi OFF tugmasini bosing. Shunga qaramay, o't oldirish qurilmasi yoqilganda rejimni tanlash va havo yetkazib berish tugmachalarini ishlatish mumkin bo'ladi.

## Tizimning ishlashi

### Ventilyatsiya

1. Face level (yuz darajasi) rejimini  tanlang.
2. "Fresh" (toza havo) rejimida havo yetkazib berishni nazorat qilish regulyatorini sozlang.
3. Harorat regulyatorini o'zingizga kerakli holatga sozlang.
4. Ventilyator tezligi regulyatorini o'zingizga kerakli holatga sozlang.

### Isitish

1. Floor level (pol darajasi)  rejimini tanlang.
2. "Fresh" (toza havo) rejimida havo yetkazib berishni nazorat qilish regulyatorini sozlang.
3. Harorat regulyatorini o'zingizga kerakli holatga sozlang.
4. Ventilyator tezligi regulyatorini o'zingizga kerakli holatga sozlang.
5. Xohlasangiz, salondagi havodan namlikni olib tashlash uchun harorat regulyatori yordamida isitish uchun konditsioner tizimini yoqing.


Agar old oynada bug' paydo bo'lsa, "Floor and Defrost (Bug'ni tozalash)" yoki "Front Defrost (old oynani bug'dan tozalash)" rejimlaridan birini tanlang.

## Foydalanish bo'yicha maslahatlar

- Ventilyatsiya tizimi orqali yoqimsiz gazlar avtomobil ichki qismiga kirmasligi uchun havo yetkazib berish tugmachasini vaqtincha havo aylanishi rejimiga o'tkazing. Havo yetarlicha toza bo'lganda, boshqaruvni toza havo rejimiga qaytarishni unutmang. Bu haydovchiga qulaylik va hushyorlik olib keladi.
- Old oynaning bug'lanishiga yo'l qo'ymaslik uchun havo yetkazib berish regulyatorini toza havo rejimiga qo'ying, ventilyator tezligini kerakli holatga qo'ying, konditsioner tizimini yoqing va haroratni sozlang.

### Konditsioner tizimi

HYUNDAI konditsioner tizimlarida R-134a yoki R-1234yf sovutgichidan foydalaniladi.

1. Dvigatelni ishga tushiring.
2. Havoni konditsionerlash tugmasini bosing.
3. Face level (yuz darajasi) rejimini  tanlang.
4. Salonni tez sovutish uchun havo aylantirish rejimida havoni yetkazib berish boshqaruvini vaqtincha sozlang. Istalgan haroratga erishilgandan so'ng, havo yetkazib berish boshqaruvini "Fresh" (toza havo) ga qaytaring.
5. Yanada qulay holatni ta'minlash uchun ventilyator va harorat tezligini sozlang.



## **i** Ma'lumot



Avtotransport vositasi yetkazib berilgan mamlakatda ishlab chiqarilgan paytdagi amaldagi qoidalarga muvofiq konditsioner R-134a yoki R-1234yf suvutgichi bilan quvvatlanadi. Avtomobil konditsionerining sovutgichi markasi dvigatel bo'linmasi old tomonidagi stikerda ko'rsatilgan.

### **MA'LUMOT UCHUN**


- Sovutish sxemasining to'g'ri va xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun unga faqat maxsus o'qitilgan va sertifikatga ega mutaxassislar xizmat ko'rsatishi kerak.
- Sovutish sxemasi ishlari yaxshi shamollatilgan joyda amalga oshirilishi zarur

- Konditsioner bug'latgichi (sovutish burama naychasi)ni ta'mirlash yoki almashtirish uchun boshqa yoki baxtsiz hodisaga uchragan avtomobildan olingan bug'latgichdan foydalanmang. Yangi MAS bug'latgichlari SAE J2842 standarti talablariga javob beradigan etiketkaga ega bo'lishi va sertifikatlangan bo'lishi zarur.

## **i** Ma'lumot


- Issiq havoda avtomobilni konditsioner tizimi yoqiq holatda tog'da yoki katta tirbandlikda haydayotganda dvigatel harorati indikatoriga e'tibor qilib yuring. Konditsioner tizimining ishlashi dvigatelning haddan tashqari qizib ketishiga olib kelishi mumkin. Agar harorat indikatorini dvigatel qizib ketganini ko'rsatsa ventilyatorni yoqiq holatda qoldirib konditsioner tizimini o'chiring.
- Konditsioner tizimining oynalar ochiq holatida va yuqori namlik bilan ishlashi avtomobil ichida namlik paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Haddan tashqari namlik elektr uzilishiga olib kelishi mumkinligi sababli konditsioner tizimidan faqat oynalar yopilgan holatda foydalanishga ruxsat etiladi.

### Konditsioner tizimidan foydalanish bo'yicha maslahatlar

- Agar avtomobil issiq havoda to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri ostida qolgan bo'lsa, issiq havo salondan chiqib ketishi uchun avtomobil oynalarini qisqa muddatga oching.
- Yetarli sovutishdan so'ng, havoni aylantirish rejimidan tashqi havoni yetkazib berish rejimiga o'ting.
- Yomg'irli yoki namlik yuqori bo'lgan kunlarda oynaning ichki yuzalarida namlikni kamaytirish uchun oynalar va lyuk yopilgan holatda konditsioner tizimidan foydalaning.
- Konditsioner tizimining ishlashi paytida konditsioner tizimining kompressorini yoqish yoki o'chirishga qarab dvigatel aylanish chastotasida sezilmas o'zgarishni payqash mumkin. Bu normal holat.
- Konditsioner tizimini optimal ishlash xususiyatini saqlash uchun har oyda bir marta, kamida bir necha daqiqaga ishga tushiring.
- Konditsioner tizimi ishlayotganda, yo'lovchi tomonida toza suv tomchilayotganini (yoki hatto to'kilayotganini) ko'rishingiz mumkin. Bu normal holat.
- Konditsionerdan ko'p miqdorda foydalanganda, tashqi va old oynalar havosi orasidagi harorat farqi ko'rishga xalaqit beradigan old oynaning tashqi yuzasida namlik to'planishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatda rejim tanlash tugmasini (  ) holatiga sozlash va ventilyator aylanish tezligini ko'paytirish lozim.

## Tizimga texnik xizmat ko'rsatish

### Iqlim nazorati tizimi uchun havo filtri



[A] : Tashqi havo

[B] : Qayta aylanadigan havo

[C] : Iqlim nazorati havo filtri

[D] : Ventilyator

[E] : Bug'latgich yadrosi

[F] : Bug'latgich yadrosi

Ushbu filtr salon qutisi orqasiga o'rnatiladi. U isitish va konditsioner tizimlari orqali avtomobilga kiradigan chang va boshqa ifloslantiruvchi moddalarni filtrlaydi.

Xizmat ko'rsatish grafigiga muvofiq havo filtrini almashtirish uchun HYUNDAI vakolatli dileri bilan bog'lanish tavsiya etiladi.

Avtomobilni changli, notekis yo'llar kabi og'ir sharoitlarda haydalganda, iqlim nazorati tizimi havo filtrini tez-tez tekshirish va almashtirish talab qilinadi.

Havo sarfi keskin kamayib ketganda, tizimni vakolatli HYUNDAI dileriga tekshirtirish tavsiya etiladi.

## **i** Ma'lumot

- Havo filtrini almashtirish texnik xizmat ko'rsatish grafigiga muvofiq amalga oshiriladi.

Avtomobildan qiyin sharoitlarda (masalan, chang va notekis yo'llar) foydalanganda iqlim nazorati havo filtri tez-tez tekshirilishi va almashtirilishi kerak.

- Havo sarfi keskin pasayganda, tizimni tekshirtirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qilishni maslahat beramiz.

## **Konditsioner tizimidagi sovutgich va moy miqdorini tekshirish**

Sovutgichning past darajada bo'lsa, konditsioner tizimi samaradorligi kamayadi. Haddan tashqari yuqori bo'lishi ham konditsioner tizimi uchun salbiy hisoblanadi. Shuning uchun, agarda nosozlik kuzatilsa tizimni tekshirtirish uchun HYUNDAI vakolatli dileri bilan bog'lanish tavsiya etiladi.

**MA'LUMOT UCHUN**

Moy va sovutgichning kerakli tur va miqdorini ishlatish zarur. Aks holda kompressorning shikastlanishiga va tizimning noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin. Shikastlanishni oldini olish uchun konditsioner tizimiga xizmat ko'rsatish faqat malakali va sertifikatga ega texniklar tomonidan amalga oshirilishi zarur.

**⚠ EHTIYOT BO'LING**

R-134a sovutgichli transport vositalari



Sovutgich juda yuqori bosimda ishlagani uchun konditsioner tizimiga xizmat ko'rsatish faqat malakali va sertifikatga ega texniklar tomonidan amalga oshirilishi zarur.

Barcha sovutgichlardan faqat mos uskunalar bilan foydalanish kerak.

Sovutgichni to'g'ridan-to'g'ri tashqariga bo'shatish atrofdagi odamlarning sog'lig'i va atrof - muhit uchun xavflidir. Keltirilgan ma'lumotlarga rioya qilmaslik jiddiy shikastlanishga olib kelishi mumkin.

**⚠ EHTIYOT BO'LING**

R-1234yf sovutgichli avtomobillar



TSovutgich biroz issiq bo'lgani va juda yuqori bosimda ishlagani uchun konditsioner tizimiga xizmat ko'rsatish faqat malakali va sertifikatga ega texniklar tomonidan amalga oshirilishi zarur.



Barcha sovutgichlardan faqat mos uskunalar bilan foydalanish kerak.

Sovutgichni to'g'ridan-to'g'ri tashqariga bo'shatish atrofdagi odamlarning sog'lig'i va atrof - muhit uchun xavflidir. Keltirilgan ma'lumotlarga rioya qilmaslik jiddiy shikastlanishga olib kelishi mumkin.

## Konditsioner tizimi sovutgichi haqidagi ma'lumot yorlig'i



Avtomobilingizning konditsioneri uchun sovutgich markasi dvigatel bo'linmasining old qismidagi stikerda ko'rsatilgan.

### ■ Namuna

· A turi



OHYK059004

· B turi



OHYK059001

Quyida sovutgich haqidagi ma'lumot yorlig'idagi belgilar va spetsifikatsiyalarning ma'nosi keltirilgan:


1. Sovutgichlarning tasnifi
2. Sovutgichning hajmi
3. Kompresor moyi klassifikatsiyasi
4. Ogohlantirish
5. Yonuvchan sovutgich
6. Konditsioner tizimiga xizmat ko'rsatish uchun texnik xodim ro'yxatdan o'tgan bo'lishi zarur.
7. Xizmat ko'rsatish bo'yicha yo'riqnom

## Old oynadagi bug' va qirovni yo'qotish

### EHTIYOT BO'LING

Old oynani isitish.


Tashqi havo namligi yuqori bo'lgan payt sovutish rejimida  yoki  holatidan foydalanmang.

Tashqi havo harorati va old oyna harorati o'rtasidagi farq old oynaning tashqi yuzasida bug' paydo bo'lishiga sabab bo'ladi, natijada ko'rish imkoniyatini yo'qolishiga olib keladi. Bunday holatda, rejimni tanlash tugmachasini yoki kalitini  holatiga, ventilyator aylanish chastotasini sozlash tugmachasini yoki kalitini past aylanish holatiga o'rnatish.

- Old oyna isitilishining maksimal samaradorligiga erishish uchun haroratni boshqarish regulyatorini maksimal harorat holatiga (o'ng tomonga oxiragacha buragan holda) sozlang va ventilyatorning maksimal ishlash tezligini tanlang.
- Agar oynadan bug'ni yoki qirovni olib tashlanganda, salonning pastki qismiga havo yetkazib berish zarur bo'lsa, salonning pastki qismiga va old oynaga havo yetkazib berish rejimini o'rnatish.
- Haydashdan oldin old oynadan, orqa oynadan, tashqi orqa tomonga ko'rsatuvchi oynalardan va barcha yon oynalardan qor va muzni butunlay olib tashlang.
- Ichki isitgich va muzdan tushirish mexanizmining samaradorligini oshirish va old oyna ichki qismida bug' paydo bo'lish ehtimolini kamaytirish uchun kapot va havo qabul qilish panjarasidan qor va muzni butunlay olib tashlang.

## Qo'lda boshqariladigan mikroiklim nazorati tizimi

### Old oyna ichki tomonidagi bug'ni yo'qotish uchun




[A] : A turi, [B] : B turi

1. Ventilyator aylanish chastotasini "0" holatidan tashqari har qanday holatga o'rning.
2. Kerakli harorat qiymatini tanlang.
3. yoki holatini tanlang.
4. Toza havo yetkazib berish rejimi avtomatik ravishda tanlanadi. Bundan tashqari, konditsioner (mavjud bo'lganda) regulyator holatiga o'rnatilganda avtomatik ravishda yonadi.

Agar konditsioner va toza havo yetkazib berish rejimi avtomatik ravishda yoqilmasa, tegishli tugmani qo'lda bosing.

### Old oyna tashqi tomonidagi qirovni yo'qotish uchun





[A] : A turi, [B] : B turi

1. Ventilyator tezligini maksimal qiymatiga sozlang (regulyatorni o'ng tomonga oxirigacha buragan holda).
2. Harorat regulyatorini haroratning eng yuqori holatiga sozlang.
3. holatini tanlang.
4. Toza havo yetkazib berish rejimi va konditsioner (mavjud bo'lganda) avtomatik ravishda tanlanadi.

## Avtomatik boshqariladigan mikroiklimni nazorat qilish tizimi


### Old oynaning ichki tomonidagi bug'ni yo'qotish uchun





1. Ventilyator aylanish chastotasining kerakli qiymatini tanlang.
2. Kerakli harorat qiymatini tanlang.
3. yoki  holatini tanlang.
4. Konditsionerlash oldindan o'rnatilgan havo harorati bo'yicha boshlanadi va avtomatik ravishda toza havo yetkazib berish holatini tanlaydi va ventilyator tezligini oshiradi.

Agar konditsioner, toza havo yetkazib berish va ventilyator yuqori aylanish chastotasi rejimi avtomatik ravishda yoqilmasa, tegishli tugmani qo'lda bosing.

### Old oynaning tashqi tomonidagi qirovni yo'qotish uchun



1. Ventilyator aylanish chastotasini maksimal qiymatiga sozlang (regulyatorni o'ng tomonga oxiragacha buragan holda).
2. Haroratni eng yuqori holatiga sozlang (HI).
3. Oyna isitgichni yoqish tugmachasini bosing ()
4. Konditsionerlash oldindan o'rnatilgan havo harorati bo'yicha boshlanadi va toza havo yetkazib berish holati avtomatik ravishda tanlanadi.

 holatini tanlashda ventilyator aylanish chastotasi pastdan yuqoriga o'zgartiriladi.



## Bug'ni yo'qotish tizimining ishlash algoritmi (mavjud bo'lganda)

Old oyna ichki tomonining bug'lanish ehtimolini kamaytirish uchun avtomatik havo yetkazib berish rejimini va konditsioner tizimining ishlashini va holatlari kabi muayyan shartlarga muvofiq nazorat qilish talab qilinadi.

Bug'ni tozalash algoritmini bekor qilish yoki uni dastlabki holatiga qaytarish uchun quyidagi amallarni bajaring.

### Qo'lda boshqariladigan mikroiklim nazorati tizimi

1. O't oldirish qurilmasi kalitini ON holatiga o'tkazing.
2. Ishlash rejimini tanlash tugmachasini old oynaga havo yetkazib berish holatiga aylantiring. Havo kirish rejimini o'zgartirish tugmachasini 3 soniyada kamida 5 marta bosing. Jarayon muzdan tushirish rejimi tanlangandan so'ng 10 soniya ichida bajarilishi kerak.
3. Havo yetkazib berish tugmachasidagi LED indikator 3 marta yonib-o'chib turadi, bu esa old oyna isitgichi o'chirilganligini ko'rsatadi.

Old oyna isitgichini qayta yoqish uchun bosqichlarni takrorlang.

Akkumlyator batareyasi quvvatsizlangan yoki o'chirilganda bug'ni yo'qotish tizimi ishlash algoritmi dastlabki holatiga qaytadi.

### Avtomatik boshqariladigan mikroiklimni nazorat qilish tizimi


1. O't oldirish qurilmasi kalitidagi kalitni ON holatiga o'tkazing.
2. Tegishli tugmani bosish orqali old oynaga havo yetkazib berish rejimini tanlang.
3. Konditsionerni yoqish (A/C) tugmasini bosib turgan holda 3 soniya ichida havo yetkazib berish rejimini o'zgartirish tugmasini kamida 5 marta bosing.

Iqlimni avtomatik nazorat qilish tizimi ma'lumot oynasi isitgich o'chirilganligini ko'rsatish uchun 3 marta yonib-o'chib turadi.

Old oyna isitgichini qayta yoqish uchun bosqichlarni takrorlang.

Akkumlyator batareyasi quvvatsizlangan yoki o'chirilganda bug'ni yo'qotish tizimi ishlash algoritmi dastlabki holatiga qaytadi.

## Bug'ni oldini olishning avtomatik tizimi (Faqat mkroiqlimni avtomatik nazorat qilish tizimi uchun, mavjud bo'lganda)



Bug'ni oldini olishning avtomatik tizimi old oyna ichki tomonida bug' paydo bo'lish ehtimolini kamaytiradi. Bug' bilan qoplangan oynani avtomatik tozalash tizimi isitgich yoki konditsioner yoqilganda ishlaydi.



Old oynani avtomatik isitish tizimi ishlashi paytida indikator yonadi.

Avtomobilida namlikning yuqori darajasi aniqlanganda old oynani isitish tizimi avtomatik ravishda yoqiladi.

Quyidagi bosqichlar avtomatik ravishda bajariladi:

1-bosqich) konditsioner tugmasi yoqiladi.

2-bosqich) tashqi havo harorati past bo'lganda, havoni yetkazib berishni boshqarish rejimi "Fresh" (toza havo ta'minoti) ga o'zgaradi.

3-bosqich) havo oqimini old oynaga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirish uchun "Defrost" (old oynani muzdan tushirish) rejimiga o'tiladi.

4 -bosqich) ventilyator tezligi oshadi.

### Old oynani avtomatik isitish tizimini o'chirish

O't oldirish qurilmasi yoqilgan holatda old oyna isitgichi tugmasini 3 soniya bosib turing.

Old oynani avtomatik isitish tizimi yoqiq bo'lganda old oyna isitgichi tugmasi 3 marta yonib-o'chadi.

Old oynani avtomatik isitish tizimi qayta o'rnatilganda old oyna isitgichi tugmachasidagi indikator signalsiz 6 marta yonib-o'chadi.

### **i** Ma'lumot

- Agar konditsioner bug'lanishni oldini olishning avtomatik tizimi faollashishi orqali yoqilgan bo'lsa, konditsioner tizimi yoqilganda indikator 3 marta yonadi va konditsioner o'chmaydi.
- Old oynani muzdan tushirishning avtomatik tizimining samaradorligini ta'minlash uchun, tizim ishlayotganda, resirkulyatsiya rejimini tanlamang.
- Old oynani muzdan tushirishning avtomatik tizimi ishlayotganda ventilyator tezligi, harorat regulyatorlari va havo yetkazib berishni boshqarish tugmasi o'chiriladi.

### MA'LUMOT UCHUN

**Orqa oynaning isitish tolalariga zarar yetkazmaslik uchun (oynaning ichki yuzasiga yopishtirilgan), uni tozalashda o'tkir asboblari yoki oynani yuvish uchun abraziv materiallarni o'z ichiga olgan vositalardan foydalanmang.**

### Defroster

### MA'LUMOT UCHUN

Haydovchi old oynasining yuqori qismida joylashgan datchik qopqog'ini olib tashlamang. Bu tizim komponentlarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin, bu esa kafolatlanmaydi.

### **i** Ma'lumot

Old oynani muzdan tushirish va bug'dan tozalash haqida ma'lumot olish uchun, ushbu bobning "old oynani muzdan tushirish va bug'dan tozalash" bo'limiga qarang.

## Orqa oyna isitgichi



ODN8059284L



ODN8059283L

Dvigatel ishlayotganda, isitgich orqa oynani ichki va tashqi tomondan isitadi, qirov, bug' va muz qatlamlarini yo'q qiladi.

- Orqa oyna isitgichini yoqish uchun old markaziy panelidagi tegishli tugmani bosing. Orqa oyna isitgichi yoqilganda, tugmachadagi indikator yonadi.
- Isitgichni o'chirish uchun tugmani yana bosing.

## **i** Ma'lumot

- Agar orqa oyna qalin qor qatlami bilan qoplangan bo'lsa isitgichni yoqishdan oldin qorni tozalang.
- Isitgich taxminan 20 daqiqadan so'ng yoki o't oldirish qurilmasi qulflangan / o'chirilgandan so'ng avtomatik ravishda o'chadi.

## **Orqa tomonni ko'rsatuvchi tashqi oynalar isitgichi (mavjud bo'lganda)**

Agar avtomobilda orqa tomonni ko'rsatuvchi tashqi oynalar isitgichi mavjud bo'lsa, u bir vaqtning o'zida orqa oyna isitgichi yoqilganda ishlaydi.

## **IQLIMIYNI NAZORAT QILISH TIZIMINING QO'SHIMCHA FUNKSIYALARI**

### **Toza havo yetkazib berish tizimi (mavjud bo'lganda)**

O't oldirish qurilmasi yoqilganda, havoni tozalash funksiyasi avtomatik ravishda ishga tushadi.

Bundan tashqari, o't oldirish qurilmasini o'chirilganda, havoni tozalash funksiyasi avtomatik ravishda o'chadi.

### **Avtomatik ventilyatsiya (mavjud bo'lganda)**

Iqlimni nazorat qilish tizimi ma'lum vaqt davomida (taxminan 30 daqiqa) past haroratda va resirkulatsiya rejimi yoqiq holatda ishlayotgan bo'lsa, tizim toza havo olish rejimini avtomatik ravishda faollashtiradi.

### **Lyuk ochilganda havo yetkazib berish rejimini o'zgartirish (mavjud bo'lganda)**

Lyuk ochilganda, resirkulyatsiya klapani avtomatik ravishda salonga toza havo yetkazib berish holatiga o'rnatiladi. Agar bu vaqtda resirkulyatsiya klapanini boshqarish tugmasi bosilsa, klapan resirkulyatsiya holatiga o'tadi, lekin 3 daqiqadan so'ng saloniga toza havo yetkazib berish holatiga qaytadi. Lyuk yopilganda, klapan ilgari tanlangan joyga o'rnatiladi.

## Buyumlarni saqlash bo'limlari

### EHTIYOT BO'LING

Transport vositasida yondirgich propan ballonlar yoki boshqa yonuvchan, portlovchi moddalar saqlash mumkin emas. Agar avtomobil uzoq vaqt davomida yuqori harorat ta'sirida qolsa, ular yonishi va / yoki portlashi mumkin.

### EHTIYOT BO'LING

Haydash paytida buyumlar qutisining barcha qopqoqlari doimo yopiq bo'lishi kerak.

Avtomobilida joylashgan buyumlar yerga nisbatan avtomobil tezligida harakatlanadi.

Qattiq tormozlash yoki burilish, baxtsiz hodisa sodir bo'lgan taqdirda, narsa-buyumlar qutildan uchib chiqib haydovchi va yo'lovchilarga jiddiy shikast yetkazishi mumkin.

### MA'LUMOT UCHUN

Ehtimoliy o'g'irliklarning oldini olish uchun qimmatbaho buyumlarni saqlash bo'limlarida qoldirmang.


### Markaziy konsoldagi bo'lim



Ochilishi:

Tirsak qo'ygich lo'kidonini ushlab turgan holda qopqoqni ko'taring.

### Salon qutisi



Ochilishi:

dastakni torting (1).


### EHTIYOT BO'LING

Foydalanilgandan so'ng buyumlar qutisi eshikchasi HAR DOIM yopiq holatda bo'lishi kerak.

Baxtsiz hodisa yuz berganda, buyumlar qutisining ochiqligi yo'lovchiga, hatto xavfsizlik kamari taqilgan bo'lsa ham, jiddiy shikast yetkazishi mumkin.

## Ichki elementlar

### Kuldon (mavjud bo'lganda)



Kuldondan foydalanish uchun qopqoqni ochish zarur.

Kuldonni tozalash:

Kuldon lotogi olib tashlanishi kerak. Buning uchun qopqog'ini soat yo'nalishi teskari holatda burab olib tashlang va lotokni yuqoriga ko'taring.



### EHTIYOT BO'LING

#### Kuldondan foydalanish


Yonayotgan sigaret yoki gugurtni kuldonga boshqa yonuvchi materiallar bilan birga qo'yish yong'inga olib kelishi mumkin.

### Ichimlik ushlagichi (mavjud bo'lganda)

#### Old tomon



#### Orqa tomon



Chashkalar yoki kichik bankalar ichimlik ushlagichiga o'rnatilishi mumkin.

**EHTIYOT BO'LING**

- Ichimlik idishi ushlagichga o'rnatilganda ichimlik to'kilmaligi uchun to'satdan tezlashmang va sekinlashmang. Issiq suyuqlik to'kilishi kuyishga olib kelishi mumkin. Bunday holat kuzatilsa, haydovchi transport vositasini boshqaruvini yo'qotishi va avariya uchirishi mumkin.
- Avtomobil harakatlanayotganda ichimlik ushlagichiga issiq suyuqlik solingan ochiq stakan, chashka, banka va boshqalarni qo'yish kerak emas. Bunday holatda baxtsiz hodisa yoki to'satdan tormozlanish oqibatida shikastlanish yuzaga kelishi mumkin.
- Ichimlik ushlagichiga qo'yish uchun faqat yumshoq idishlardan foydalaning. Baxtsiz hodisa sodir bo'lgan taqdirda qattiq narsalar shikast yetkazishi mumkin.

**MA'LUMOT UCHUN**


- Ichimliklar to'kilmaligi uchun yopiq qadoqda bo'lishi kerak. Agar to'kilgan bo'lsa, ular transport vositasining elektr yoki elektron tizimlariga zarar yetkazishi mumkin.
- To'kilgan suyuqliklarni artayotganda, ichimlik ushlagichining yuqori haroratda qurishiga yo'l qo'ymang. Bu ichimlik ushlagichiga shikast yetkazishi mumkin.

**EHTIYOT BO'LING**

Idish va butilkalarni quyosh nuri tushmaydigan joyda saqlang va ularni avtomobil salonidagi harorat ko'tarilishi mumkin qismida qoldirmang. Ular portlashi mumkin.



## Quyoshdan himoyalovchi soyabon



Quyoshdan himoyalovchi soyabonni ishlatish uchun pastga torting.

Yon oyna uchun soyabonni ishlatishda uni ushlagichidan yechib, pastga tushirish (1) va yon oynaga qarab tortish (2) lozim.

Quyoshdan himoyalovchi soyabon ko'zgusidan foydalanish uchun, soyabonni pastga tushiring va ko'zgu qopqog'ini ko'taring (3).

Zarur bo'lganda Quyoshdan himoyalovchi soyabonni oldinga yoki orqaga siljitish mumkin. (mavjud bo'lganda 4).

Kvitansiyalarni saqlash uchun ushbu ajratilgan ushlagichdan foydalaning (5).

## EHTIYOT BO'LING

O'zingizning xavfsizligingiz uchun quyoshdan himoyalovchi soyabondan foydalanayotganda ko'rishga to'sqinlik qilmasligiga e'tibor qiling.

### MA'LUMOT UCHUN

Ichimlik to'kilmaligining oldini olish uchun ushlagichga bir vaqtning o'zida bir nechta qog'oz qo'ymang.

Bu qog'oz ushlagichiga zarar yetkazishi mumkin.

## Elektr rozetkasi (mavjud bo'lganda)



Elektr rozetkasi avtomobilning elektr tizimidan foydalangan holda mobil telefonlar yoki boshqa qurilmalarni quvvatlantirish uchun mo'ljallangan.

Dvigatel ishlayotgan paytda qurilmalar 180 Vt (vatt) dan yuqori kuchlanishda foydalanilmasligi kerak.



### EHTIYOT BO'LING

Elektr toki urishidan ehtiyot bo'ling. Barmoqlar yoki boshqa narsalar (masalan, qalamlar)ni rozetkaga kiritmaslik yoki rozetkaga nam qo'llar bilan tegmaslik zarur.

### MA'LUMOT UCHUN

Elektr rozetkasining shikastlanishini oldini olish uchun:

- Elektr asboblarni faqat dvigatel ishlayotganda ishlatish kerak; Foydalangandan so'ng ularni tarmoqdan uzish lozim. Dvigatel o'chirilgan yordamchi qurilmalarni quvvatlantirish uchun rozetkadan uzoq vaqt foydalanish batareyani zaryadsizlanishiga olib kelishi mumkin.
- Faqat quvvati 180 Vt (vatt) dan kam bo'lgan 12 V kuchlanishli elektr qurilmalarini ulang.
- Rozetkadan foydalanish jarayonida konditsioner yoki isitish tizimining minimal ishlash rejimini o'rnatish.
- Rozetkadan foydalanilmaganda qopqog'ini yopib qo'ying.
- Bir qancha elektron qurilmalar avtomobilning elektr manbayiga ulanganida shovqin keltirib chiqarishi mumkin. Ular audio tizimda ortiqcha shovqin va boshqa elektron tizimlar yoki qurilmalarning nostandart ishlashiga olib kelishi mumkin.

- **Vilka rozetkaga iloji boricha oxirigacha kirgizish kerak. Agar o't oldirish qurilmasi yomon bo'lsa, vilka haddan tashqari qizib ketishi yoki o'rnatilgan issiqlik saqlagich ishga tushib ketishi mumkin.**
- **Batareya vilkasi elektr yoki elektron qaytaruvchi himoyaga ega. Batareyadan qaytuvchi quvvat elektr zanjirlari yoki avtomobil elektron tizimlari orqali o'tishi hamda ularga zarar yetkazishi mumkin.**

### USB zaryadlovchi moslamasi (mavjud bo'lganda)




USB zaryadlovchi moslamasi haydovchi va yo'lovchilar old o'rindiqlari orasidagi boshqaruv konsoli qutisi ichida joylashgan.

USB zaryadlovchi moslamasini USB portiga ulang va smartfon yoki planshetni quvvatlantiring.

- Zaryad holati / zaryad tugaganligi haqidagi xabar smartfon yoki planshet kompyuter ekranida ko'rsatiladi.
- Zaryad olayotganda smartfon yoki planshet qizib ketishi mumkin. Bu zaryadlash tizimidagi nosozlikni anglatmaydi.

- Boshqacha zaryadlash usuliga ega smartfon yoki planshet kompyuterlar to'g'ri zaryad olmasligi mumkin. Bunday holatda tegishli qurilma uchun mos bo'lgan zaryadlovchi moslamadan foydalanish zarur.
- Zaryadlash qulog'i faqat qurilmani zaryad qilish uchun mo'ljallangan. Ovoz tizimini yoqish yoki AVNda media kontentini ijro etish uchun zaryadlash qulog'idan foydalanmang.

### Smartfonlarni simsiz zaryadlash tizimi (mavjud bo'lganda)



[A] : Indikator, [B] : Zaryadlash qurilmasi qoplamasi

Mobil telefonlarni simsiz zaryadlash qurilmasi old konsolda joylashgan.

Tizimdan barcha eshiklar yopilgan holatda va o't oldirish kaliti ACC / ON holatida bo'lganda foydalanish mumkin.

### **Mobil telefonni zaryadlash**

Mobil telefonlarni simsiz zaryadlash tizimi telefonlarni faqat Qi texnologiya bo'yicha induktiv zaryadlash orqali quvvatlantiradi. Mobil telefoningiz Qi

Qi texnologiyasini qo'llab - quvvatlashini tekshirish uchun mobil telefon qopqog'idagi yorliqni o'qing yoki mobil telefoningiz ishlab chiqaruvchisining veb-saytga tashrif buyuring.

Simsiz zaryadlash jarayoni Qi mobil telefonini simsiz zaryadlash moduliga qo'yganingizda boshlanadi.

1. Simsiz zaryadlash modulidan ortiqcha narsalarni, shu jumladan elektron kalitni olib tashlang. Aks holda simsiz zaryadlash jarayoni uzilishi mumkin. Mobil telefoningizni zaryadlash qurilmasining markaziga qo'ying.
2. Mobil telefon zaryad olayotgan vaqtda indikator to'q sariq rangda yonadi. Telefon zaryad olib bo'lgach indikator yashil rangga aylanadi.
3. Siz asboblarni kombinatsiyasidagi foydalanuvchi sozlamalari rejimida simsiz zaryadlash funksiyasini yoqishingiz yoki o'chirishingiz mumkin. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun ushbu bo'limdagi "LCD rejimlari" ni o'qib chiqing.

Agar mobil telefon zaryad olmasa:

- Telefonni zaryadlash qurilmasi qoplamasiga o'tkazishga urinib ko'ring.
- Indikator to'q sariq rangda ekanligiga ishonch hosil qiling.

Simsiz zaryadlash tizimida muammo bo'lsa, indikator 10 soniya davomida to'q sariq rangda yonib-o'chadi.

Bunday holatda simsiz zaryad jarayonini vaqtincha to'xtatib turing va keyin mobil telefonni qayta zaryadlashga urinib ko'ring.

Agar dvigatel o'chirilganda old eshik ochilsa va bu holatda simsiz zaryadlash qurilmasida mobil telefon bo'lsa, LCD displeyda ogohlantirish xabari paydo bo'ladi.

Ba'zi mobil telefonlar uchun, telefon simsiz zaryadlash qurilmasida qolsa ham tizim ogohlantirish bermasligi mumkin. Bu mobil telefon xususiyatlari bilan bog'liq va simsiz zaryadlash tizimining nosozligini bildirmaydi.

#### MA'LUMOT UCHUN

- Mobil telefonlarni zaryadlash simsiz zaryadlash tizimi Qi tekshiruvi bo'lmagan ba'zi telefonlarni qo'llab-quvvatlamasligi mumkin.
- Optimal zaryadlash uchun telefoningizni taglikning o'rtasiga qo'ying. Agar mobil telefon yon tomonga bo'lsa, zaryadlash tezligi sekinroq bo'lishi mumkin va ba'zi hollarda mobil telefon odatdagidan qizib ketishi mumkin.
- Ba'zi hollarda avtomobil dvigatelini ishga tushirish, eshiklarni qulflash va ochish jarayonida elektron kalit yoki masofadan boshqarish pulti ishlatilganda simsiz zaryadlash vaqtincha o'chirib qo'yilishi mumkin.
- Ba'zi mobil telefonlar zaryad olayotganda hatto mobil telefon to'liq zaryadlangan bo'lsa ham indikator yashil rangga aylanmasligi mumkin.
- Agar simsiz zaryadlash tizimning ichki qismidagi harorat ko'tarilib ketgan bo'lsa, simsiz zaryadlash vaqtincha to'xtashi mumkin. Harorat normal darajaga tushganda simsiz zaryadlash qayta boshlanadi.

- Agar mobil telefon va simsiz zaryadlash tizimi o'rtasida tanga kabi metall buyum bo'lsa, simsiz zaryadlash jarayoni vaqtincha to'xtashi mumkin.
- Ba'zi uyali telefonlar simsiz zaryadlash qurilmasidan o'zini himoya qilish funksiyasi bilan zaryad olayotganda zaryadlash sekinroq bo'lishi yoki umuman bo'lmasligi mumkin.
- Agar telefoningizda qalin himoya korpusi bo'lsa, simsiz zaryadlash qurilmasi ishlamasligi mumkin.
- Agar mobil telefon zaryadlash qurilmasi tagligi bilan to'liq aloqa qilmasa, simsiz zaryadlash to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Ba'zi magnitli narsalar (kredit kartalari, telefon kartalari, identifikatsion kartalar va chiptalar) simsiz zaryadlash qurilmasiga joylashtirilsa, shikastlanishi mumkin.
- Agar simsiz zaryadlashni qo'llab-quvvatlamaydigan mobil telefonni yoki metall buyumni zaryadlash qurilmasiga joylashtirilsa, past shovqin eshitiishi mumkin. Bu past shovqin avtomobil zaryadlash qurilmasiga nomuvofiq obyekt qo'yilganini anglatadi. Bu avtomobil yoki mobil telefonning ishlashiga ta'sir qilmaydi.



#### Ma'lumot

O't oldirish qurilmasi LOCK / OFF holatiga o'tkazilganda zaryadlash ham to'xtaydi.

## Soat

### EHTIYOT BO'LING

Avtomobil harakatlanayotganda soatni sozlamang. Bu holatda boshqaruvni yo'qotish va natijada jiddiy shikastlanish yoki avtohalokat yuzaga kelishi mumkin.

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun yo'riqnomani o'qib chiqing.

### Kiyim ilgagi (mavjud bo'lganda)



Bu ilgaklar katta yoki og'ir narsalar uchun mo'ljallanmagan.

### EHTIYOT BO'LING



Ilgich yoki boshqa qattiq narsalarni osmang. Faqat kiyim osishga ruxsat berilgan. Bundan tashqari, mato cho'ntaklariga og'ir, o'tkir yoki mo'rt narsalarni qo'ymang. Yo'l -transport hodisasi sodir bo'lgan taqdirda, xavfsizlik yostiqchalari ochilgan payt ular transport vositasining shikastlanishiga va insonlarning jarohatlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

## Gilamcha fiksatorlari (mavjud bo'lganda)

Old gilamchalar HAR DOIM avtomobilga maxsus mahkamlagichlar bilan mahkamlanishi kerak. Old gilamcha fiksatorlari gilamchalarni oldinga siljishini oldini oladi.



### EHTIYOT BO'LING

Avtomobilingizga har qanday gilamcha qo'yishdan oldin quyidagilarga e'tibor bering.

- Gilamchani qo'yishdan oldin gilamchadagi himoya plyonkasini olib tashlang. Aks holda gilamcha himoya plyonkasi ustida erkin siljishi, bu esa tormoz yoki gaz pedalini bilmasdan bosilishiga olib kelishi mumkin.
- Haydashdan oldin mahkamlagichlar gilamchalarga mahkam bog'langanligiga ishonch hosil qiling.
- Bu mahkamlagichlarga mos bo'lmagan pol gilamchalarini ishlatmang.

- Gilamchalarni bir-birining ustiga qo'ymang (masalan, turli ob-havo sharoitlariga mos bo'lgan rezina gilamchani boshqa bir ) gilamcha usiga). Har bir joyga faqat bitta pol gilamcha qo'yilishi kerak.

**MUHIM** - mashinangizda gilamchani ishonchli ushlab turish uchun mahkamlagichlar haydovchining yon tomoniga o'rnatilgan. Pedallarga xalaqit bermaslik uchun, **HYUNDAI** tomonidan ayna ushbu avtomobil uchun maxsus ishlab chiqarilgan gilamchalardan foydalanish tavsiya etiladi.



## Orqa parda (mavjud bo'lganda)



Orqa pardani yig'ish uchun tugmani bosib. Yozish uchun tugmani yana bosib.


Uzatish qutisi "R" (orqaga) holatiga o'rnatilganda orqa parda avtomatik ravishda tushadi va uzatish qutisi "R" (orqaga) holatidan "P" (parkovka) holatiga o'tkazilganda avtomatik ravishda ko'tariladi.

"R" (orqaga) holatida orqa oyna pardasi tushirilgandan so'ng, uzatish qutisini "D" holatiga o'tkazib tezlik soatiga 20 km dan oshirilganda orqa oyna pardasi avtomatik ravishda ko'tariladi.

### MA'LUMOT UCHUN

Orqa pardani qo'lda tortmang yoki yig'mang. Bu elektrdvigatelga zarar yetkazishi mumkin.

## Yon parda (mavjud bo'lganda)



Yon pardadan foydalanish:

1. Ilgakdan foydalanib pardani ko'taring (1).
2. Pardani ilgakning har ikki tomoniga osib qo'ying (2).

### MA'LUMOT UCHUN

- **Pardalar har ikki tomonning ilgaklari bilan ushlab turilishi kerak. Agar parda faqat bir tomondan mahkamlangan bo'lsa, shikastlanishi mumkin.**
- **Avtomobil va yon pardaning orasiga ortiqcha materiallar qo'yish mumkin emas. Bunday holatda yon pardani ko'tarib bo'lmaydi.**

## AXBOROT-KO'NGILOCHAR TIZIMI

### **i** Ma'lumot

- Agar gaz chiqaruvchi faralar konstruktiv bo'lmagan tarzda o'rnatilsa, avtomobilning audio tizimi va elektron qurilmalari ishlamay qolishi mumkin.
- Parfyumeriya, kosmetika moyi, quyoshdan saqlovchi krem, qo'l tozalagich va havo spreyi kabi kimyoviy moddalarni ichkariga to'kib tashlamang, chunki ular yuzaga zarar yetkazishi yoki yuza rangini yo'qotishi mumkin.

### USB-yo'q




USB qurilmalarini ulash uchun USB portidan foydalanishingiz mumkin.

### **i** Ma'lumot

Portativ audio qurilmalar ijro etish paytida quvvat manbaiga ulanganda shovqin paydo bo'lishi mumkin. Bunday holatda portativ audio qurilmaning quvvat manbasidan foydalaning.

### Antenna



#### **“Akula qanoti” antennasi (1) (mavjud bo'lganda)**

Akula qanoti antennasi uzatilgan ma'lumotlarni qabul qiladi. (masalan: GPS va DAB signallari)



#### **Oynadagi antenna (2)**

Tom qismdagi antenna AM va FM signallarini qabul qilish uchun ishlatiladi.

- Orqa oynadagi antannaning shikastlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun oynani tozalash uchun o'tkir asboblardan foydalanishdan vositalaridan foydalanmang. Orqa oynaning ichki qismini yumshoq mato bilan tozalash kerak.
- Orqa oynaning ichki yuzasiga stikerlar qo'yayotganda orqa oynadagi antennani shikastlamaslik uchun ehtiyot bo'ling.

- Metall qoplamalarni (nikel, kadmiy va boshqalar) qo'llashdan saqlaning. Ular AM va FM to'lqinlarini qabul qilishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- Orqa oyna antenasi yaqinida o'tkir asbob ishlatmang.
- Orqa oynani qoraytirish antenaning to'g'ri ishlashiga xalaqit berishi mumkin.

### Rul g'ildiragidagi audio tizimni boshqarish (mavjud bo'lganda)



Sizga qulaylik yaratish uchun rul g'ildiragida audio tizim boshqaruvi kalitlari o'rnatilgan.

### **MA'LUMOT UCHUN**

Audio tizimni masofadan turib boshqarish tugmalarining bir nechtasini bir vaqtning o'zida bosmang.

**OVOZ BALANDLIGI (VOL+/-)(1)**

- VOLUME + ovoz balandligini oshirish uchun.
- VOLUME - Pasaytirish uchun.

**“SEEK / PRESET (/ \ / ^ \ V)” (QIDIRISH / DASTLABKI SOZLASH) tugmasi (2)**

SEEK / PRESET (qidirish / dastlabki sozlash) tugmasi yuqoriga siljatilganda va 0,8 soniya yoki undan ko'proq ushlab turilganda, quyidagi rejimlar ishlatiladi.

**RADIO rejimi**

"AVTO SEEK" (Avtomatik qidirish)

Tanlov tugmasi kabi ishlaydi.

Qidiruv tugma qo'yib

yuborilmaguncha davom etadi.

**MEDIA rejimi**

"FF / REW" (OLD VA ORQAGA O'TKAZISH) tugmasi kabi ishlaydi. "SEEK / PRESET" (dastlabki sozlash) tugmasini yuqoriga yoki pastga siljitganda quyidagi rejimlar ishlatiladi.

**RADIO rejimi**

"PRESET STATION UP / DOWN"

(oldindan o'rnatilgan stansiya, yuqoriga / pastga) tugmasi kabi ishlaydi.

**MEDIA rejimi**

"TRACK UP / DOWN" (keyingi / oldingi yozuv) tugmasi kabi ishlaydi.

**MODE (REJIM) (○)(3)** Radio, XM, AUX (yordamchi manba) ni tanlash uchun MODE tugmasini bosing.

**MUTE (OVOZSIZ) (4) 🔇**

- Ovozni o'chirish uchun tugmani bosing.
- Ovozni yoqish uchun tugmani qayta bosing.


**Ma'lumot**

Audio tizimning boshqaruv tugmalari haqida batafsil ma'lumot ushbu bobning keyingi bo'limlarida berilgan.

**Audio, video va navigatsiya tizimi (mavjud bo'lganda)**

Navigatsiya tizimi uchun batafsil ma'lumot ekspluatatsiya bo'yicha alohida taqdim etilgan ko'rsatmalarda berilgan.

## Bluetooth® Simsiz aloqa texnologiyasi to'plami (mavjud bo'lganda)



©DN8059230



©DN8059231L

Siz Bluetooth® simsiz aloqa texnologiyasini qo'llagan holda telefoningizni simsiz ishlatishingiz mumkin.

(1) Qo'ng'iroq qilish va qabul qilish tugmasi


(2) "Qo'ng'iroqni tugatish" tugmasi

(3) Mikrofon

- Audio tizim: Batafsil ma'lumot uchun ushbu bobdagi "Audio tizim" bo'limiga qarang.
- Navigatsiya: Bluetooth® orqali baland ovozda aloqa o'rnatish haqida batafsil ma'lumot olish uchun alohida berilgan yo'riqnomani ko'ring.

## Avtomobil audio tizimi qanday ishlaydi?

### FM radiosignallarini qabul qilish




AM va FM radio signallari shahar atrofida joylashgan balandlikdagi radio uzatgichlardan uzatiladi. Ularni mashinangiz radio antennasi qabul qiladi. Keyin bu signal radio orqali avtomobil dinamiklariga uzatiladi. Kuchli radio signal avtomobilga yetib kelganida, audio tizimning yuqori aniqlikdagi konstruksiyasi eng yaxshi ijro sifatini ta'minlaydi.

Biroq ba'zi hollarda avtomobilga yetib kelgan signal kuchsiz va tushunarsiz bo'lishi mumkin.


Bunga radiostansiyaga masofa, signal manbasi kuchli bo'lgan boshqa radiostansiyalarning yaqinligi yoki signal qabul qilish hududida binolar, ko'priklar yoki boshqa yirik inshootlarning mavjudligi kabi omillar sabab bo'lishi mumkin.

### AM diapazonida qabul qilish (o'rta to'lqin, uzun to'lqin)





AM signali FM signaliga qaraganda ancha uzoq masofaga uzatiladi. Buning sababi AM diapazonidagi radio to'lqinlar past chastotalarda uzatiladi. Bu uzun, past chastotali to'lqinlar atmosferaga to'g'ri chiziq bo'ylab tarqalishdan ko'ra Yer atrofida yoyilishi mumkin. Bundan tashqari, ular to'siqlardan qochadi va shuning uchun signalni yaxshiroq qamrab oladi.

### FM radio stantsiyasi



FM signal yuqori chastotalarda uzatiladi va Yer yuzasi bo'ylab harakatlanayotganda egilmaydi. Shuning uchun, odatda, FM signali radio uzatish stantsiyasidan qisqa masofada so'na boshlaydi. Bundan tashqari, FM signallari binolar, tog'lar va boshqa to'siqlar orqali osonlikcha to'siladi. Bu ovozni ijro etish paytida ma'lum shartlarga olib kelishi mumkin va bu radio ishlamay qolgandek tuyulishi mumkin. Quyidagi shartlar normal va radio bilan bog'liq muammolarni ko'rsatmaydi.



- Signalning pasayishi - avtomobil radio uzatish stantsiyasidan uzoqlashganda, signal va ovoz o'chadi. Bunday hollarda biz boshqa kuchliroq stantsiyani tanlashni taklif qilamiz.
- Buzilish / to'siq - Zaif FM signallari yoki uzatgich va radio o'rtasida katta to'siqlar signalga xalaqit berishi mumkin, bu shovqinli to'siq yoki buzilishlarga olib kelishi mumkin. Shovqin darajasini pasaytirish orqali buzilishlar bartaraf etilmaguncha bu ta'sirni kamaytirish mumkin.
- Stansiya o'zgarishi - FM signali zaiflashganda, boshqa kuchliroq signal o'rnatilganiga eng yaqin chastotada o'ynay boshlaydi. Buning sababi, radio eng kuchli signalni ushlab uchun mo'ljallangan. Agar shunday hodisa sodir bo'lsa, signal kuchliroq bo'lgan boshqa stantsiyani tanlang.
- Radio signalni bir nechta yo'nalishlardan o'zaro bekor qilish bir necha yo'nalishlardan qabul qilinadi, bu tovushning buzilishi yoki titrashiga olib kelishi mumkin. Bunga bir stansiyadan to'g'ridan - to'g'ri va aks ettirilgan signal yoki yaqin chastotali ikkita stansiyadan signal qabul qilish sabab bo'lishi mumkin. Agar bu sodir bo'lsa, ko'rsatilgan holat o'chirilmaguncha boshqa stantsiyani tanlang.

### ***Mobil telefon yoki radiodan foydalanish***

Avtomobil ichida mobil telefondan foydalanish audio tizimga xalaqit berishi mumkin. Bu audio tizimdagi nosozlikni anglatmaydi. Bunday holatda mobil telefoningizni audio qurilmadan iloji boricha uzoqroqda ishlatting.

#### **MA'LUMOT UCHUN**

Avtotransport vositasida mobil telefon yoki ratsiya kabi aloqa tizimlaridan foydalanganda alohida tashqi antennani o'rnatish kerak. Agar mobil telefon yoki ratsiya faqat ichki antenna bilan ishlatilsa, bu avtomobilning elektr tizimining normal ishlashiga xalaqit berishi mumkin.



#### **EHTIYOT BO'LING**

Haydash paytida mobil telefondan foydalanish mumkin emas. Mobil telefondan foydalanish uchun siz mashinani xavfsiz joyda to'xtatishingiz kerak.



## Audio tizim

### Tizim elementlarining joylashuvi - boshqaruv panelia



(Bluetooth® simsiz texnologiyasi bilan)

#### (1) AUDIO tugmasi

- Multimediya yoki radio rejimini tanlash oynasini ko'rsatish uchun bosing.
- Tanlash oynasi ko'rsatilgandan so'ng, kerakli rejimni tanlash uchun **[TUNE]** tugmachasini aylantiring va keyin tugmani bosing.
- Agar **[MENU / CLOCK]** ► Mode popup rejimida qalqib chiquvchi rejim tanlanmagan bo'lsa, rejimni o'zgartirish uchun boshqaruv panelidagi **[AUDIO]** tugmasini bosing. Boshqaruv panelida har bir bosilgan **[AUDIO]** tugma multimediya va radio rejimlarini ketma-ket almashtiradi.

#### (2) PHONE tugmasi

- Bluetooth yordamida mobil telefonni ulash uchun bosing.
- Telefonga Bluetooth orqali ulanganda, telefonda Bluetooth menyusini ochish uchun tugmani bosing

#### (3) FAV tugmasi

- Radio tinglanayotganda sozlangan stansiyalar ro'yxati bilan keyingi sahifaga o'tish uchun bosing.


#### (4) POWER tugmasi va VOL ruchkasi

- Tizimni yoqish yoki o'chirish uchun bosing.
- Tizim tovushini o'zgartirish uchun chapga yoki o'ngga aylantiring.

#### (5) SEEK / TRACK tugmasi

- Stansiyani, trekni yoki faylni o'zgartirish.
- Radio eshitayotganda, stansiyani qidirish uchun bosib turing.
- Multimediya fayllarni tinglash jarayonida tez orqaga yoki oldinga o'tkazish uchun bosib turing (Bluetooth ovozi rejimdan tashqari).

\* Haqiqiy ko'rinish rasmda ko'rsatilgandan farq qilishi mumkin.



(Bluetooth® simsiz texnologiyasi bilan)

### (6) MENU yoki CLOCK tugmasi

- Joriy rejimning menyu ekraniga o'tish uchun bosing.
- Vaqtni sozlash ekraniga o'tish uchun bosib turing.

### (7) TUNE ruchkasi, FILE va ENTER tugmalari

- Chastotani sozlash uchun radio tinglayotganingizda buring.
- Multimedia ijro etilayotganda trek yoki faylni qidirish uchun aylantiring (Bluetooth ovozli rejimdan tashqari).
- Tugmani aylantirish orqali qidirishda joriy trek yoki faylni tanlash uchun tugmani bosish kerak.

### (8) Raqamlangan tugmalar (1RPT - 4 BACK)

- Radio tinglanayotganda saqlangan radiostansiyani yoqish uchun bosing.
- Radio tinglayotganda oldindan o'rnatilgan joriy radio stansiyalarni saqlash uchun bosib turing.
- USB yoki Bluetooth ovoz rejimida takroriy ijro rejimini o'zgartirish uchun [1 RPT] tugmasini bosing. Tasodifiy tartibda ijro etishni o'zgartirish uchun [2 SHFL] tugmasini bosing.
- Oldingi ekranga qaytish uchun [4 BACK] tugmasini bosing (sozlangan stansiyalar ro'yxatidan tashqari).

We hereby declare, that the product above is in compliance with the essential requirements of the Directive 2014/53/EU by application of <sup>[5]</sup>

##### Applied Standards <sup>[6]</sup>

**Article** <sup>[7]</sup> **3.2** ETSI EN 300 328 V.2.1.1 / ETSI EN 303 345 V1.1.7 (final draft)  
**Radio** <sup>[8]</sup>

**Article** <sup>[7]</sup> **3.1b** ETSI EN 301 489-1 v2.2.0 (draft) / ETSI EN 301 489-17 V3.2.0(draft)  
**EMC** <sup>[9]</sup> / EN 55032:2015 / EN 55035:2017

**Article** <sup>[7]</sup> **3.1a** EN 60065:2014 + A11:2017 / EN 62311:2008  
**Safety** <sup>[10], **Health**</sup> <sup>[11]</sup>

##### Manufacturer <sup>[12]</sup>

Hyundai MOBIS Co., Ltd.

203, Teheran-ro, Gangnam-gu,

Seoul, 06141, Korea

Tel: +82-31-260-2707

##### Representative in the EU <sup>[13]</sup>

MOBIS Parts Europe N.V.

Wilhelm-Fay-Strabe 51,

Frankfurt Main, 65936, Germany

Tel: +49-69-85096-5011

##### Notified Body <sup>[14]</sup>

TUV SUD BABT / TUV SUD Group

Octagon House, Concorde Way, Fareham

Hampshire, PO15 5RL, United Kingdom

Notified Body Identification <sup>[15]</sup> 0168

The Certificate No.: BABT-RED001314 i01

##### Signed By <sup>[17]</sup>

March 13, 2019

This declaration of conformity is issued under the sole responsibility of the manufacturer. <sup>[16]</sup>



Seunghoon Choe

Representative

Hyundai MOBIS Co., Ltd.

##### Additional information <sup>[18]</sup>

HW: DN8.EUR.AUDIO4.OV.001

SW: DN8.EUR\_C.SOP.001

# 6. Harakatlanish paytida

Harakatlanishdan oldin.....	6-6
Harakatlanishdan oldin.....	6-6
Dvigatelni ishga tushirishdan oldin.....	6-6
O't oldirish qulfi.....	6-8
Kalit bilan kontaktni qulflash .....	6-8
Dvigatelni ishga tushirish va to'xtatish tugmasi .....	6-12
Avtomatik uzatish qutisi .....	6-17
Avtomatik uzatish qutisi bilan ishlash.....	6-17
Parkovka.....	6-22
LCD displeydagi xabar .....	6-23
Xavfsiz haydash texnikasi .....	6-25
Tormoz tizimi.....	6-27
Tormoz kuchaytirgichi .....	6-27
Disk tormozining yeyilish indikatorini .....	6-28
To'xtash tormozi (oyoqda bosiladigan turi).....	6-28
Elektr to'xtash tormozi (EPB).....	6-30
Avtomatik ushlab turish.....	6-35
Qulflashga qarshi tormoz tizimi (ABS).....	6-40
Elektron dinamik barqarorlikni boshqarish (ESC) .....	6-42
Avtomobil barqarorligini nazorat qilish tizimi .....	6-46
Qiyalikda yordam tizimi (NAS).....	6-47
Favqulodda to'xtatish signallari (ESS).....	6-48
Xavfsiz tormozlash texnikasi.....	6-49
O'rnatilgan haydash rejimini boshqarish tizimi .....	6-50
Haydash rejimi.....	6-50
Harakatlanish kompyuteri	
Yordamida aqlli o'tkazish .....	6-55



Old tomondan to'qnashuvni oldini olish tizimi (FCA) - kombinatsion datchik— (Markaziy Osiyodan tashqari) (mavjud bo'lganda) .....	6-57
Tizimni sozlash va faollashtirish .....	6-58
FCA ogohlantirish xabari va tizim boshqaruvi .....	6-61
FCA datchiki (old radar / old kuzatuv kamerasi) .....	6-64
Tizimning nosozligi .....	6-67
Tizim cheklovlari .....	6-69
Old tomondan to'qnashuvlarning oldini olish tizimi (FCA) - chorrahada burilish (mavjud bo'lganda).....	6-76
Ogohlantirish tizim (BCW).....	6-81
Tizim tavsifi .....	6-81
Tizimni sozlash va boshqarish.....	6-82
Ogohlantirish xabari va tizimni boshqarish .....	6-84
Aniqlash datchiki .....	6-86
Tizim cheklovlari .....	6-88
Ko'rinmas hududda to'qnashuvning oldini olish tizimi (BCW) / Ko'rinmas hududda to'qnashuvlarning oldini olish tizimi	
(ICA) (mavjud bo'lganda) .....	6-92
Tizim tavsifi .....	6-92
Tizimni sozlash va faollashtirish .....	6-94
Ogohlantirish xabari va tizimni boshqarish .....	6-96
Aniqlash datchiki (Old kamera va orqa burchakdagi radar) .....	6-99
Tizim cheklovlari .....	6-102
Muvofiqlik deklaratsiyasi .....	6-106
Radio chastotali komponentlar (orqa burchakdagi radar) .....	6-106

## 6. Harakatlanish paytida

Orqa tarafdagi harakatlanish haqida ogohlantirish tizimi (RCCW) / Orqa tarafdagi harakatlanishda to'qnashuvni oldini olish (RCCA).....	6-110
Tizim tavsifi .....	6-110
Tizimno sozlash va faollashtirish .....	6-111
Ogohlantirish xabari va tizimni boshqarish.....	6-114
Aniqlash datchiki .....	6-117
Tizim cheklovlari .....	6-120
Yo'lakdan chiqib ketmaslikni ta'minlashga yordamchi tizimi (LKA).....	6-125
LKA tizimining ishlashi .....	6-127
LKA funksiyasini o'zgartirish .....	6-127
Nazorat chirog'i va xabari .....	6-130
Tizim cheklovlari .....	6-132
Yo'lakdan chiqib ketmaslikni kuzatish tizimi (LFA).....	6-134
LFA tizimining ishlashi .....	6-136
Ogohlantirish xabari.....	6-137
Tizim cheklovlari.....	6-139
Haydovchi diqqatini nazorat qilish tizimi (DAW).....	6-141
Tizimni sozlash va boshqarish .....	6-141
Tizim ma'lumotlarini qayta tiklash .....	6-143
Tizimning kutish rejimi .....	6-144
Tizimning nosozligi .....	6-144
Avtotransportni tark etganlik to'g'risida bildirishnoma .....	6-147
Tizimni sozlash va ishlash shartlari .....	6-147
Tizimni sozlash va ishlash shartlari.....	6-149
Harakatlanish nazorati (CC).....	6-150
Harakatlanish nazorati tizimining ishlashi.....	6-150

Stop & go funksiyasiga ega aqlli harakatlanish nazorati (SCC) (mavjud bo'lganda).....	6-155
Aqlli harakatlanish nazorati tizimi kaliti .....	6-156
Aqlli harakatlanish nazorati tizimi tezligini boshqarish .....	6-156
Aqlli harakatlanish nazorati tizimi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan transport vositalari orasidagi ma'lum masofa .....	6-163
Oldindagi avtomobilgacha bo'lgan masoventilyatori kuzatish datchigi Harakatlanish nazorati rejimiga o'tish.....	6-166
Tizim cheklovlari .....	6-169
Muvofiqlik deklaratsiyasi .....	6-169
Muvofiqlik deklaratsiyasi .....	6-17
Radio chastotali komponentlar (old radar): .....	6-175
Maxsus haydash shartlari .....	6-176
Xavfli haydash sharoitlari .....	6-176
Avtomobil siltanishi .....	6-176
Ohistalik bilan burilish .....	6-177
Kechasi haydash .....	6-177
Yomg'irda haydash.....	6-178
Suv bosgan joylarda avtomobil haydash .....	6-178
Avtomagistrallarda haydash .....	6-179
Qish sharoitida haydash .....	6-180
Qor va muzda haydash .....	6-180
Qishki ehtiyot chorolari .....	6-183
Tirkama tortish .....	6-185
Tirkama tortilganda .....	6-186
Tirkama tortish uskunalari .....	6-190
Tirkama bilan haydash .....	6-192
Tirkama tortilganda texnik xizmat ko'rsatish .....	6-196
Avtomobil og'irligi .....	6-197
Ortiqcha ortilgan yuk .....	6-198



## EHTIYOT BO'LING

**Uglerod oksidi (CO) zaharli hisoblanadi. Nafas olish hushdan ketishga va o'limga olib kelishi mumkin.**

Ishlangan gazlar rangsiz va hidsiz karbonat anhidridni o'z ichiga oladi.

### **Ishlangan gazlardan nafas olmang.**

Agar salondan ishlangan bug' hidi kelsa, darhol oynani oching. Uglerod oksididan nafas olish hushdan ketishga va bo'g'ilish natijasida o'limga olib kelishi mumkin.

### **Chiqarish tizimida gaz chiqmayotganligiga ishonch hosil qiling.**

Moy almashtirish va boshqa maqsadlar uchun har safar avtomobil ko'tarilganda chiqarish tizimi tekshirilishi kerak. Agar chiqarish tizimining ovozi o'zgarsa yoki avtomobilning pastki qismidan biror narsa urilsa, chiqarish tizimini HYUNDAI vakolatli dileriga imkon qadar tezroq tekshirtirish tavsiya etiladi.

### **Dvigatelni yopiq joyda ishlashiga yo'l qo'ymang.**

Garajda dvigatelning salt yurishi garaj eshigi ochiq bo'lsa ham xavflidir. Dvigatelni ishga tushirgandan so'ng, darhol garajni tark etish kerak.

### **Avtotransport vositasida odamlar bo'lganida dvigatelning uzoq vaqt salt yurishidan saqlaning.**

Avtomobilida odamlar bo'lganida, dvigatelning majburiy salt yurishiga faqat yopiq joylardan tashqarida ruxsat beriladi. Bunday holda, salonga toza havo yetkazib berilishini ta'minlash uchun havo qabul qilish regulyatorini toza havo yetkazib berish holatiga, ventilyator regulyatorini esa maksimal quvvatga o'rnatish kerak.

### **Havo kiruvchi tirqishlarni ifloslanishiga yo'l qo'ymang.**

Shamollatish tizimining normal ishlashini ta'minlash uchun old oynaning old qismidagi havo kiruvchi tirqishlar qor, muz va hokazo bilan yopilmaganligiga ishonch hosil qiling.

### **Agar yukxonani ochiq holda haydash zarur bo'lsa:**

Barcha oynalarni yoping.

Boshqaruv paneli havo qopqog'ini oching.

Havo oqimini boshqarish moslamasini toza havo holatiga, havo oqimini "Pol" yoki "Yuz" holatiga va ventilyator boshqaruvini maksimal quvvatga o'rning.

## HARAKATLANISHDAN OLDIN

- Barcha derazalar, tashqi oynalar va tashqi chiroqlar toza va to'siqsiz bo'lishi kerak.
- Qirov, qor yoki muzni olib tashlang.
- Shinalarni eskirmaganligi va shikastlanmaganligini tekshiring.
- Avtomobil tagida sizish belgilari yo'qligiga ishonch hosil qiling.
- Orqaga yurishdan oldin, avtomobil orqasida hech qanday to'siq yo'qligiga ishonch hosil qiling.

## Dvigatelni ishga tushirishdan oldin

- Kapot, yukxona va eshiklar mahkam yopilganligiga ishonch hosil qiling.
- O'rindiq va rulning holatini tekshiring.
- Salon ko'zgusi va tashqi orqa tomonni ko'rsatuvchi oynalarni sozlang.
- Tashqi chiroqlarning ishlashini tekshiring.
- Xavfsizlik kamaringizni mahkamlang. Barcha yo'lovchilar xavfsizlik kamarlarini taqqanligiga ishonch hosil qiling.
- O't oldirish qurilmasini "ON" holatiga o'tkazing va asboblar kombinatsiyasidagi ko'rsatkich va indikatorlarni va asboblar kombinatsiyasi displeyidagi xabarlarini tekshiring.
- Barcha yuklar xavfsiz tarzda joylashtirilgan yoki himoyalanganligiga ishonch hosil qiling.

## EHTIYOT BO'LING

**Jiddiy shikastlanish yoki o'lim xavfini kamaytirish uchun quyidagi ehtiyot choralariga rioya qiling:**

- **HAR DOIM xavfsizlik kamaridan foydalaning.** Haydash paytida barcha yo'lovchilar xavfsizlik kamarlaridan foydalanishlari shart. Batafsil ma'lumot uchun 3-bobdagi "Xavfsizlik kamarlari" bo'limiga qarang.
- Haydash paytida hech qachon e'tiboringizni yo'qotmang. Boshqa yo'l ishtirokchilari yoki piyodalarning xato qilish ehtimoli borligi haqida o'ylang.
- Haydash paytida doimo diqqatni yo'lda jamlang. Haydovchining chalg'ishi baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin.
- Oldinda turgan transport vositalaridan xavfsiz masofani saqlang.



## EHTIYOT BO'LING

**Avtomobilni spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalar ta'sirida haydash taqiqlangan.**

**Bunday holatda avtomobilni haydash OG'IR JAROHAT yoki O'LIMGA olib kelishi mumkin.**

**Har yili yo'l-transport hodisasida sodir bo'lgan o'limning birinchi sababi mast holatda haydashdir, hatto oz miqdordagi alkogol ham reflekslaringizga, reaksiyangizning keskinligiga va qaror qabul qilish tezligiga ta'sir qiladi. Spirtli ichimlikning oz miqdori ham vaziyatning o'zgarishiga va kutilmagan holatlarga bo'lgan reaksiyangizni pasaytirishi mumkin. Alkogolning har bir yangi miqdori bilan reaksiya vaqti oshadi.**

**Mast holatda haydash ham xuddi shunday balki undan ham xavfliroqdir.**

**Agar siz ichgan yoki giyohvand moddalarni iste'mol qilgan holda avtomobil haydasangiz, jiddiy baxtsiz hodisa ehtimoli sezilarli darajada oshadi. Bunday holatda avtomobilni boshqarmang. Spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalarni iste'mol qilgan haydovchi bilan avtomobilga o'tirmang.**

**Mas'uliyatli haydovchiga murojaat qiling yoki taksi chaqiring.**

## O'T OLDIRISH QULFI

### EHTIYOT BO'LING

Jiddiy shikastlanish yoki o'lim xavfini kamaytirish uchun quyidagi ehtiyot choralariga rioya qiling.


- Hech qachon bolalarga yoki haydovchisiz odamlarga o't oldirish qurilmasiga yoki avtomobilni ishga tushirish moslamasiga tegishiga yo'l qo'ymang.

Asks holda bu avtotransport vositasining kutilmaganda harakatlanishiga olib kelishi mumkin

- O't oldirish qurilmasini yoqish yoki boshqa boshqaruv elementlariga yetib borish uchun hech qachon mashinani boshqarayotganda qo'lingizni rul orqali o'tkazmang.

Bunday qilish avtomobil boshqaruvini yo'qotishga va baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin.

## Kalit bilan o't oldirish qurilmasini qulflash



Agar old eshik ochiq bo'lsa, o't oldirish qurilmasini agar u ON holatida bo'lmasa yonadi. O't oldirish qurilmasi yoqilgach yoki eshik yopilgandan 30 soniya o'tgach chiroq darhol o'chadi (mavjud bo'lganda).



## EHTIYOT BO'LING

- Haydash paytida hech qachon o't oldirish qurilmasi kalitini LOCK yoki ACC holatiga burmang. Bu dvigatel, rul boshqaruvi va tormoz kuchaytirgichini o'chiradi. Bu boshqaruv va tormoz funksiyasining ishdan chiqishiga, bu esa baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin.
- Avtomobilni tark etishdan oldin uzatish qutisini "P" (parkovka) holatiga qo'ying, to'xtash tormozini bosing va o't oldirish qurilmasi kalitini LOCK holatiga qo'ying.  
Agar yuqoridagi ehtiyot choralari ko'rilmasa, transport vositasi o'z-o'zidan harakatlanishi mumkin.

### **MA'LUMOT UCHUN**

O't oldirish qurilmasi uchun yot qopqoqdan foydalanmang. Bu aloqa uzilishi tufayli ishga tushirish xatosiga olib kelishi mumkin.



**O't oldirish qurilmasi holatlari**

O't oldirish qurilma pozitsiyhasi holati	Tavsif	izoh
<b>LOCK</b> (Qulflangan)	O't oldirish qurilmasi kalti faqat LOCK holatida olinishi mumkin. Rul g'ildiragi avtomobilni o'g'irlikdan himoya qilish uchun qulflanadi (mavjud bo'lganda).	
<b>ACC</b> (Yordamchi qurilma)	Ba'zi elektr aksessuarlardan foydalanish mumkin. Rul g'ildiragi qulfdan chiqariladi.	Agar siz o't oldirish qurilmasini kalitini ACC holatiga bura olmasangiz, kuchlanishni bartaraf etish uchun rulni o'ngga yoki chapga burang. va kalitni aylantiring.
<b>ON</b> (Yoqilgan)	Bu dvigatel ishga tushiradigan kalitning normal ishlash holati. Bu holatda hamma asosiy va yordamchi avtomobil tizimlari ishga tushadi. O't oldirish qurilmasi kaliti ACC holatidan ON holatiga o'tkazilganda barcha ogohlantirish chiroqlarini tekshirish mumkin.	Batareya zaryadsizlanishining oldini olish uchun o't oldirish qurilmasi kalitini dvigatel o'chirilgan holatda ON holatida qoldirmang.
<b>START</b> (Ishga tushirish)	Dvigatelni ishga tushirish uchun o't oldirish qurilmasini kalitini START holatiga o'tkazing. Bo'sh holatda kalitning o'zi ON holatiga qaytadi.	Dvigatel kalitni qo'yib yubormaguningizcha aylanadi.

## Dvigatelni ishga tushirish



### EHTIYOT BO'LING

- Haydash paytida mos poyabzal kiying. Baland poshnali, chang'i poyabzali, sandal yoki plyaj shippagi va boshqalar bilan avtomobil haydamang. Bunday poyabzallar bilan tormoz va gaz pedallarini bosish noqulay.
  - Gaz pedali bosilgan holatda dvigatelni ishga tushirish mumkin emas. Bunda avtomobil harakatga kelishi, bu esa baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin.
  - Dvigatel normal aylanish chastotasiga yetguncha kutib turing. Dvigatel aylanish chastotasi yuqori bo'lsa, tormoz pedali qo'yib yuborilganda avtomobil harakatlana boshlaydi.
1. Qo'l tormozi yoqilgan bo'lishi kerak.
  2. Uzatish qutisi "P" (parkovka) holatida ekanligiga ishonch hosil qiling.
  3. Tormoz pedalini bosing.
  4. O't oldirish qurilmasi kalitini START holatiga o'tkazing. Dvigatel ishga tushguncha kalitni (10 sekunddan otiq emas) ushlab turing, keyin qo'yib yuboring.



### Ma'lumot

- Avtomobil to'xtab turganda, dvigatelning qizishini kutmang. Dvigatelning o'rtacha tezligida haydashni boshlang. (Birdaniga tezlashuv va sekinlashuvdan saqlanish kerak.)
- Ishga tushirish gaz pedalini bosmasdan amalga oshirilishi kerak. Dvigatelni ishga tushirganda gaz pedalini bosmang. Dvigatel qizib ketganda uni tezlashtirmang.

### MA'LUMOT UCHUN

Avtomobil tizimiga zarar bermaslik uchun:

- O't oldirish qurilmasi kalitini START holatida 10 soniyadan ko'proq ushlab turmang. Dvigatelni qayta ishga tushirishdan oldin 5 soniyadan 10 soniyagacha kuting.
- Dvigatel ishlayotgan vaqtda o't oldirish qurilmasi kalitini START holatiga burish mumkin emas. Bu starterga zarar yetkazishi mumkin.
- Agar yo'l harakati va yo'l sharoitlari qoidalariga muvofiq kelsa, avtomobil harakatlanayotganda uzatish qutisini "N" (neytral) holatiga qo'ying va dvigatelni qayta ishga tushirish uchun dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasini bosing.
- Dvigatelni tortish yoki itarish bilan ishga tushirishga urinmang.

## Dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasi (mavjud bo'lganda)



Old eshik ochilganda, dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasi yonadi. Eshik yopilgandan so'ng, u yana 30 soniya yonadi. (mavjud bo'lganda)

### EHTIYOT BO'LING

Favqulodda vaziyatda dvigatelni o'chirish uchun:

Dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmachasini ikki soniyadan ko'proq ushlab turing yoki bu tugmani uch marta (uch soniya ichida) bosib turing.

Agar avtomobil harakatni davom ettirsa, dvigatelni tormoz pedalini bosmasdan uzatish qutisi dastagini "N" (neytral) holatiga o'tkazib, dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasini bosish mumkin.

### EHTIYOT BO'LING

- Favqulodda holatlardan tashqari, avtomobil harakatlanayotganda dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasini hech qachon bosmang. Bu dvigatel, rul boshqaruvi va tormoz kuchaytirgichini o'chiradi. Bu boshqaruv va tormoz funksiyasining ishdan chiqishiga, bu esa baxtsiz hodidsaga olib kelishi mumkin.
- Avtomobilni tark etishdan oldin uzatish qutisini "P" (parkovka) holatiga qo'ying, to'xtash tormozini bosing, dvigatelni o'chirish uchun dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmachasini bosing va elektron kalitni o'zingiz bilan olib keting.

Agar yuqiridagi ehtiyot choralari ko'rilmasa, transport vositasining o'z-o'zidan harakatlanishi mumkin.

## Dvigatelni ishga tushirish va to'xtatish tugmaclari

### - Avtomatik uzatish qutili avtomobil

Tugma holati	tavsif	izoh
<p><b>OFF</b> (O'chirilgan)</p>	<p>Dvigatelni to'xtatish uchun uzatish qutisini "P" (parkovka) holatiga qo'ying va dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasini bosing. Avtomobilni o'g'irlikdan himoya qilish uchun rul qulflanadi. (mavjud bo'lganda)</p>	<p>Agar rul to'g'ri qulflanmagan bo'lsa, haydovchi eshigi ochilganda ogohlantirish signali eshitaladi.</p>
<p><b>ACC</b> (yordamchi qurilma)</p>	<p>Dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmachasini ulovchi pedalni bosmasdan OFF holatiga o'tkazing. Ba'zi elektr aksessuarlardan foydalanish mumkin. Rul qulfdan chiqariladi.</p>	<p>Agar dvigatelni ishga tushirish va to'xtatish tugmachasini ACC holatida qoldirsangiz, uning zaryadsizlanishining oldini olish uchun batareyadan quvvat 1 soatdan keyin avtomatik ravishda uziladi. Agar rul qulfdan to'g'ri chiqarilmagan bo'lsa, dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasi ishlamaydi. Kuchlanishni yo'qotish uchun rulni chapga va o'ngga burib dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasini bosing.</p>

Tugma holati	tavsif	izoh
<p><b>ON</b> (yoqilgan)</p>	<p>Dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmachasini ACC holatiga tormoz pedalini bosmasdan o'tkazing. Dvigatelni ishga tushirishdan oldin ogohlantirish lampalarini tekshirish mumkin.</p>	<p>Dvigatel ishlamayotgan paytda batareya zaryadsizlanishining oldini olish uchun dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmachasini ON holatida qoldirmang.</p>
<p><b>START</b> (Ishga tushirish)</p>	<p>Dvigatelni ishga tushirish uchun uzatish qutisi "P" (parkovka) yoki "N" (neytral) holatida bo'lganda, tormoz pedalini va dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasini bosish kerak. Xavfsizlik nuqtai nazaridan, dvigatelni "P" holatida ishga tushirish kerak.</p>	<p>Dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmachasini tormoz pedalini bosmasdan bosish dvigatelni ishga tushirmaydi. Bu holda dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasi quyidagicha ishlaydi: OFF → ACC → ON → OFF yoki ACC</p>

## Dvigatel ishga tushishi




### EHTIYOT BO'LING

- Haydash paytida mos poyabzal kiying. Baland poshnali, chang'i poyabzali, sandal yoki plyaj shippagi va boshqalar bilan avtomobil haydamang. Bunday poyabzallar bilan tormoz va gaz pedallarini bosish noqulay.
- Gaz pedali bosilgan holatda dvigatelni ishga tushirish mumkin emas. Bunda avtomobil harakatga kelishi, bu esa baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin.
- Dvigatel normal aylanish  
Dvigatel normal aylanish chastotasiga yetguncha kutib turing. Dvigatel aylanish chastotasi yuqori bo'lsa, tormoz pedali qo'yib yuborilganda avtomobil harakatlana boshlaydi.



### Ma'lumot

- Dvigatelni ishga tushirish va to'xtatish tugmachasi bosilganda, dvigatel faqat elektron kalit avtomobilda bo'lsa ishga tushadi.
- Agar elektron kalit avtomobilda, lekin haydovchidan uzoqda bo'lsa, dvigatel ishga tushmasligi mumkin.

- Dvigatelni ishga tushirish va to'xtatish tugmachasini har qanday eshik ochiq holatida ACC yoki ON holatiga o'tkazilganda tizim tomonidan elektron kalit qidirish boshlanadi. Agar elektron kalit avtomobilda bo'lmasa, demak indikator  miltillay boshlaydi "Kalit avtomobilda emas" xabari paydo bo'ladi. Agar bir vaqtning o'zida hamma eshiklar yopilganda, 5 soniya davomida ovozli signal eshitiladi. Elektr jihozlar (ACC bilan) yoqilgan yoki dvigatel ishga tushgan bo'lsa kalit avtomobil ichida bo'lishi mumkin.

1. Har doim elektron kalitni yoningizda saqlang.
2. To'xtash tormozi yoqilgan bo'lishi kerak.
3. Uzatish qutisi "P" (parkovka) c= holatida ekanligiga ishonch hosil qiling.
4. Tormoz pedalini bosing
5. Dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasini bosing.



### Ma'lumot

- Avtomobil to'xtab turganda, dvigatelning qizishini kutmang.  
Dvigatelning o'rtacha tezligida haydashni boshlang. (Birdaniga tezlashuv va sekinlashuvdan saqlanish kerak.)
- Ishga tushirish gaz pedalini bosmasdan amalga oshirilishi kerak. Dvigatelni ishga tushirganda gaz pedalini bosmang. Dvigatel qizib ketganda uni tezlashtirmang.

### MA'LUMOT UCHUN

Avtomobil tizimiga zarar bermaslik uchun:

- Agar haydash paytida dvigatel to'xtab qolsa, uzatish qutisini "P" (parkovka) holatiga o'tkazmang.

Agar yo'l harakati va yo'l sharoitlari qoidalariga muvofiq kelsa, avtomobil harakatlanayotganda uzatish qutisini "N" (neytral) holatiga qo'ying va dvigatelni qayta ishga tushirish uchun dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasini bosing.

- Dvigatelni tortish yoki itarish bilan ishga tushirishga urinmang.

### MA'LUMOT UCHUN

Avtomobil tizimiga zarar bermaslik uchun:

Agar saqlagich stop-signali o'chmasa, dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmachasini 10 soniya dan ortiq bosib turmang.

Agar tormoz kaliti saqlagichi o'chgan bo'lsa, dvigatelni normal holatda ishga tushirish mumkin emas. Saqlagichni almashtiring. Agar uni almashtirish imkoni bo'lmasa, dvigatelni ishga tushirish va to'xtatish tugmachasini ACC holatida 10 soniya bosib ushlab turish mumkin.

Har qanday holatda xavfsizlik sababli dvigatelni ishga tushirganda tormoz pedalini albatta bosing.



### **i** Ma`lumot

Agar batareya quvvati tugasa yoki elektron kalit normal ishlamasa, dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmachasini bosib, elektron kalitni yuqoridagi rasmda ko'rsatilgan tomonga burish orqali ishga tushirish mumkin.

## AVTOMATIK UZATISH QUTISI



ODN8069005

### Avtomatik uzatish qutisining ishlashi

Avtomatik uzatish qutisi oltita oldinga (agar mavjud bo'lsa, sakkizta oldinga) va bitta orqaga uzatishga ega. D holatidagi tezlikni tanlash (oldinga harakatlanish) avtomatik ravishda amalga oshadi. O't oldirilganda asboblar kombinatsiyasidagi indikator uzatishni o'zgartirish tugmasi holatini ko'rsatadi.



### EHTIYOT BO'LING

Agar avtomobil ochiq joyda qoldirilsa, avtomatik uzatishni o'zgartirish tugmasi yoki salon va salon elementlari juda qizib ketishi mumkin. Avtomobil juda issiq bo'lsa, ehtiyot bo'lish kerak.





## EHTIYOT BO'LING

Jiddiy shikastlanish yoki o'lim xavfini kamaytirish choralarini:

- Uzatish qutisini D (oldinga) yoki R (orqaga) ga o'tkazishdan oldin har doim transport vositasi yaqinida odamlar ayniqsa bolalar yo'qligiga ishonch hosil qiling.
- Avtomobilni tark etishdan oldin uzatish qutisini "P" (parkovka) holatiga qo'ying, to'xtash tormozini yoqing va o't oldirish qurilmasini o'chiring. Agar ushbu ehtiyot choralariga rioya qilinmasa, avtomobil kutilmaganda harakatlana boshlaydi.
- Sirpanchiq yo'llarda dvigatelning birdaniga tormozlanishidan (pastga siljitish) saqlanib. Bu avtomobilning sirg'alib ketishiga va natijada baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin.

### **P (parkovka)**

"P" (parkovka) rejimiga o'tish faqat avtomobil to'liq to'xtaganidan keyin amalga oshiriladi.

"P" (parkovka) holatini o'zgartirishdan oldin, tormoz pedalini qattiq bosish kerak. Gaz pedalini bir vaqtning o'zida bosmang.

Dvigatelni to'xtatishdan oldin uzatish qutisi "P" holatida bo'lishi kerak.



## EHTIYOT BO'LING

- Haydash paytida "P" (parkovka) holatiga o'tish avtomobil boshqaruvini yo'qotishga olib kelishi mumkin.
- Avtomobilni to'xtatgandan so'ng, uzatish qutisini "P" (parkovka) holatiga qo'ying, to'xtash tormozini bosib va dvigatelni to'xtating.
- Qiyalikda to'xtab turganda avtomobil pastga siljishiga yo'l qo'ymaslik uchun g'ildiraklarni to'sib qo'ying.
- Qo'l tormozi o'rniga "P" (parkovka) holatidan foydalanmang.

### **R (orqaga)**

Avtomobilni orqaga haydash uchun ushbu uzatishdan foydalaning.

### **MA'LUMOT UCHUN**

Uzatish qutisini R (orqaga) siljitishdan oldin avtomobil to'liq harakatsiz bo'lishi kerak; Haydash paytida dastakni R (orqaga) holatiga o'tkazish uzatish qutisiga zarar yetkazishi mumkin. Agar avtomobil "R" (orqaga) holatida to'xtatilsa, u holda haydovchining eshigi ochilganda va xavfsizlik kamarini yechilganda, u avtomatik ravishda "P" (parkovka) holatiga o'tadi.

Ammo, agar avtotransport uzatish qutisi "R" (orqaga) holatida harakatlanishda davom etsa, haydovchi eshigi ochilganda va xavfsizlik kamarini yechib qo'yilganda, avtomatik uzatish qutisini himoyalash maqsadida uzatish qutisini avtomatik "P" "(parkovka) holatiga o'tkazish sodir bo'lmasligi mumkin.

### **N (neytral)**

G'ildiraklar va uzatish qutisi ajratilgan.

Neytral "N" holati to'xtab qolgan dvigatelni qayta ishga tushirish yoki dvigatel ishlayotganda to'xtash uchun ishlatilishi mumkin. Mashinadan chiqib ketayotganda "P" holatini yoqing.

Neytral ("N") holatidan boshqa holatga o'tayotganda, ulovchi pedalni bosganingizga ishonch hosil qiling.

### **EHTIYOT BO'LING**

**Tormoz pedalini to'liq bosmasdan uzatishni ishlatmang. Dvigatelning yuqori aylanish chastotasida boshqa uzatishga o'tish avtomobilning birdaniga silkinishiga olib kelishi mumkin. Bu avtomobil boshqaruvini yo'qotishga olib kelishi mumkin. Natijada odamlarga yoki har qanday boshqa obyektlarga urilish mumkin.**

### **D (oldinga harakatlanish)**

Bu oldinga harakatlanishning odatiy holati. yonilg'i va quvvatni tejash uchun uzatish qutisi avtomatik ravishda ketma-ket olti (yoki sakkiz) uzatish o'rtasida almashadi.

Avtotransportni oldinga harakatlanishini boshlash uchun dvigatel ishlayotganda tormoz pedalini bosgan holda "D" (harakatlanish) ruchkasini bosish kerak. So'ngra gaz pedali sekin bosiladi.

Boshqa avtomashinani quvib o'tayotganda yoki tepalikka chiqishda qo'shimcha kuchga ega bo'lish uchun gaz pedalini qattiq bosing. Uzatish qutisi avtomatik ravishda bitta (yoki ko'proq, kerak bo'lganda) uzatishni pasaytiradi.

Agar transport vositasi "D" holatida (harakatlanish) to'xtatilgan bo'lsa, u holda haydovchi eshigi ochilganda va xavfsizlik kamari bo'shatilganda avtomatik ravishda "P" holatiga o'tadi.

Ammo, agar avtomobil "D" holatida harakatlanishda davom etsa, avtomat uzatishni himoya qilish uchun haydovchining eshigi ochilganda va xavfsizlik kamarini yechilgan paytda "P" holatiga avtomatik o'tish kuzatilmasligi mumkin.

DRIVE MODE tugmasi uzatish konsolida joylashgan. Uning yordami bilan haydovchi NORMAL (normal) yoki COMFORT (qulay) rejimidan SPORT (sport) yoki ECO (tejamkor) rejimiga o'tishi mumkin. (mavjud bo'lganda).

**Batafsil ma'lumot uchun ushbu bobdagi "O'rnatilgan haydash rejimini boshqarish tizimi" bo'limiga qarang.**

### **Uzatish qutisini qulflash tizimi**

Xavfsizlik nuqtai nazaridan, avtomatik uzatish qutisi tormoz pedalini bosmasdan P (parkovka) yoki N (neytral) dan R (orqaga) yoki D (harakatlanish) ga o'tishni oldini oluvchi qulflash tizimi bilan jihozlangan.

Uzatishni P (parkovka) dan R (orqaga) ga o'tkazish uchun:

1. Tormoz pedalini bosing.
2. Dvigatelni ishga tushiring yoki uzatish qutisi qurilmasi kalitini "ON" holatiga o'tkazing.
3. Tormoz pedalini va "R" ruchkasini bosing.

### **Dvigatel o'chirilgan holatda dastakni N (neytral) holatiga o'tkazing**



#### ■ A turi



#### ■ B turi



Agar siz avtomobilni to'xtatgandan so'ng N (neytral) rejimini faol qoldirmoqchi bo'lsangiz, quyidagi amallarni bajaring:

1. AUTO HOLD funksiyasini o'chiring va o't oldirish qurilmasini yoqilgan holatda to'xtash tormozini o'chiring.

2. Tormoz pedalini bosib turganda "N" (neytral) ruchkasini bosing. Agar boshqaruv paneli LCD displeyida "Avtomobil o'chirilgan paytda neytral holatda qolish uchun OK tugmachasini bosib ushlab turing" degan xabar paydo bo'lsa, ruldagi OK tugmasini 1 soniyadan ko'proq ushlab turing.
3. Xabar paydo bo'lgandan keyin dvigatelni to'xtating. "Avtomobil (N) holatida qoladi. Bekor qilish uchun boshqaruv panelidagi selektorni boshqa rejimga o'tkazing.

Bu vaziyatda, agar haydovchi xavfsizlik kamari yechilgan bo'lsa va haydovchi eshigi 3 minut ichida ochilsa, uzatish qutisi "P" holatiga o'tkaziladi va o't oldirish qurilmasi o'chadi.

### **Agar batareya zaryadsizlangan bo'lsa:**

Batareya zaryadsizlangan bo'lsa, uzatish qutisi dastagi ishlamaydi.

Favqulodda vaziyatlarda, tekislikda uzatish qutisini "N" (neytral) rejimga o'tkazish uchun quyidagi choralarni ko'rish kerak:

1. Boshqa avtomobil akkumulyatoridan yoki boshqa akkumulyatordan simlarni dvigatel bo'linmasining ichidagi quvvat manbaiga ulang.

### **Qo'shimcha ma'lumot olish uchun 7-bobdagi "Dvigatelni tashqi manbadan ishga tushirish" bo'limiga qarang.**

2. O't oldirish qurilmasi yoqilganda to'xtash tormozini o'chiring.
3. Ushbu bobning "Neytral rejimdan avtomobil to'xtab turganda foydalanish" bo'limida tasvirlanganidek uzatish qutisini "N" (neytral) rejimga o'tkazing.

## Parkovka

To'liq to'xtashga ishonch hosil qilmaguncha tormoz pedalini qo'yib yubormang. Uzatish qutisini "P" (parkovka) holatiga o'tkazing, qo'l tormozini yoqing va o't oldirish qurilmasini o'chiring. Avtomobildan chiqayotganda kalitni o'zingiz bilan olib keting.

- Xavfsizlik nuqtai nazaridan quyidagi shartlar ostida uzatish avtomatik ravishda P (parkovka) rejimiga o'tadi.
  - Haydovchining xavfsizlik kamarini yechishi va eshikni "Dvigatel to'xtab turgan holatda neytral rejimda qolish" holatida yoki o't oldirish qurilmasini yoqiq holatida qolganda.
  - Dvigatel "R" (orqaga), "D" (oldinga harakatlanish) yoki "N" (neytral) holatidagi uzatish qutisi bilan to'xtatilganda

Bu ixtiyoriy xavfsizlik funksiyasi. Har doim uzatish qutisining "P" (parkovka) holatiga o'tishini tekshiring.

## EHTIYOT BO'LING

**Dvigatel ishlayotgan avtomobilda o'tirganda gaz pedalini uzoq vaqt bosmang. Bu dvigatelni yoki chiqarish tizimini haddan tashqari bosim ostida qolishi va yong'inga olib kelishi mumkin.**

**Ishlangan gazlar va chiqarish tizimining komponentlari juda issiq bo'ladi. Ularga tegmang.**

**Quruq o't, qog'oz yoki barglar kabi yong'in chiqadigan narsalar bor joyda avtomobilingizni to'xtatmang yoki to'xtamang. Bu yong'inga olib kelishi mumkin.**

## LCD displeyi xabari

### **Shifting conditins not met (Uzatish bajarilmadi)**

Agar dvigatel aylanish chastotasi yoki haydash tezligi uzatish o'zgartirish uchun juda yuqori bo'lsa, LCD displeyda ogohlantirish xabari ko'rsatiladi.

Bunday holda uzatishni almashtirishdan oldin transport vositasi tezligini yoki haydash tezligini kamaytirish tavsiya etiladi.

### **Press brake pedal to change gear (Uzatishni o'zgartirish uchun tormoz pedalini bosing)**

Agar uzatish o'zgartirish paytida tormoz pedali bosilmasa, LCD displeyida ogohlantirish xabari ko'rsatiladi.

Tormoz pedalini bosib keyin uzatishni o'zgartirish tavsiya etiladi.

### **Shift to "P" after stopping (To'xtagandan so'ng, "P" holatiga o'ting)**

Agar avtomobil harakatlanayotganda uzatish qutisi "P" (parkovka) holatiga o'tkazilsa, LCD displeyida ogohlantirish xabari ko'rsatiladi.

Uzatish qutisini "P" (parkovka) holatiga o'tkazishdan oldin avtomobilni to'liq to'xtatish kerak.

### **PARK engaged (Qo'l tormozi ishga tushdi)**

Agar avtomobil harakatlanayotganda uzatish qutisi "P" (parkovka) holatiga o'tkazilsa, LCD displeyida ogohlantirish xabari ko'rsatiladi.

Uzatish qutisini "P" (parkovka) holatiga o'tkazishdan oldin avtomobilni to'liq to'xtatish kerak.

### **Press and hold OK button to stay in Neutral when vehicle is Off (Avtomobil o'chiq holatda bo'lganda neytral holatda qolish uchun OK tugmasini bosing va ushlab turing)**

"N" (neytral) tugmachasini bosish LCD displeyida ogohlantirish xabarini ko'rsatadi.

Dvigatelni to'xtatgandan so'ng "N" (neytral) faol rejimini tark etish uchun rulda "OK" tugmasini 1 soniyadan ko'proq ushlab turing.

### **Vehicle will stay in N. Change gear to cancel (Avtomobil o'chirilganda N holatiga o'tadi)**

LCD displeyda "OK" tugmachasi bosilganda "Avtotransport o'chirilganida neytral rejimda qolish uchun" tugmachasini bosing va ushlab turing " xabari paydo bo'lgandan keyin ogohlantiruvchi xabar paydo bo'ladi. Dvigatelni to'xtatgandan so'ng, uzatish neytral rejimda qoladi.

**NEUTRAL engaged (NEUTRAL holati ishga tushdi)** Xabar uzatish qutisi "N" (neytral) rejimga o'tkazilganda LCD displeyda ko'rsatiladi.

**Gear already selected (Uzatish allaqachon tanlangan)** Tanlangan rejim uchun uzatish tugmasi bosilganda LCD displeyda xabar ko'rsatiladi.

**Shift button held down (Uzatish tugmasi ushlab turildi)** Tugma bosilgan holatda bo'lsa yoki to'g'ri ishlamasa, LCD displeyda ogohlantirish xabari ko'rsatiladi. Bunday holda uzatish tugmasi va panel orasidagi bo'shliqni tozalash kerak.

Agar xabar yana ko'rsatilsa, avtomobilngizni HYUNDAI vakolatli dileriga tekshirtirish tavsiya etiladi.

**Shift system malfunction (Uzatish tizimidagi xatolik)** Agar P (parkovka) rejimida uzatish qutisi yoki uzatish dastagi to'g'ri ishlamasa, LCD displeyda ogohlantirish xabari ko'rsatiladi.

Bunday holda transport vositasini tekshirtirish uchun darhol vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.

**Check shift controls (Uzatish boshqaruvini tekshirish)** Rejimni o'zgartirish tugmasi ishlamay qolganda LCD displeyi ogohlantirish xabarini ko'rsatadi.

Bunday holda, transport vositasini tekshirtirish uchun darhol vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.

## Xavfsiz haydash texnikasi

- Gaz pedalini bosgan holda "P" (parkovka) yoki "N" (neytral) holatidan uzatishni boshqa holatga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.
- Avtomobil harakatlanayotganda uzatish qutisini "P" (parkovka) holatiga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.  
Orqaga "R" yoki oldinga "D" uzatishlarini ishga tushirishdan oldin avtomobil to'liq to'xtashini kuting.
- Haydash paytida uzatish qutisini "N" (neytral) holatiga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Bu dvigatel tormozining ishdan chiqishi tufayli baxtsiz hodisalarga olib kelishi, qolaversa, uzatish qutisi shikastlanishi ham mumkin.
- Haydash paytida oyog'ingizni tormoz pedaliga qo'ymang. Tormoz pedalining yengil, lekin doimiy bosilishi haddan tashqari qizib ketishiga, yeyilishga va tormozning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

- Avtotransportdan chiqayotganda qo'l tormozini bosganingizga ishonch hosil qiling. Qo'l tormozi o'rniga qulfning P (parkovka) holatida qulflash tizimidan foydalanmang.
- Qorli yo'llarda haydashda juda ehtiyot bo'ling. Tormozlash, tezlashtirish va uzatishni almashtirishda alohida ehtiyot bo'ling. Sirpanchiq yo'lda tezlik to'satdan o'zgartirishda g'ildiraklarning yo'l bilan aloqasi yo'qolishi mumkin va bunda avtomobil boshqaruv qobiliyatini yo'qotadi. Natijada baxtsiz hodisa bo'lishi mumkin.
- Gaz pedalining ravon ishlashi tufayli avtomobilning eng yaxshi holatda ishlashi va tejamkorligiga erishiladi.



## EHTIYOT BO'LING

**Jiddiy shikastlanish yoki o'lim xavfini kamaytirish choralari:**

- Har doim xavfsizlik kamaridan foydalaning. To'qnashuv sodir bo'lganda yo'lovchining va haydovchining jiddiy shikastlanishi va o'lim ehtimoli ancha yuqori.
- Buriqish paytida tezlikni oshirmang.
- Rulni to'satdan harakatlantirishdan saqlaning, masalan, yo'lni o'zgartirganda yoki tez, keskin burilishlarda.




- Agar tezyurar yo'llarda boshqaruvni yo'qotib qo'ysangiz, ag'darilish xavfi ancha yuqori bo'ladi.
- Boshqaruv yo'qotilishi ko'pincha avtomobil yo'lakdan chiqib ketganda haydovchi yo'lakka qaytish uchun rulni orqaga burishga harakat qilganda sodir bo'ladi.
- Agar avtomobil yo'l chetidan chiqib ketsa, rulni to'satdan burmang. Buning o'rniga, yo'lakka qaytishdan oldin sekinlashing.
- HYUNDAI sizga yo'l belgilari bilan belgilangan tezlik chegaralariga rioya qilishni tavsiya qiladi.

### **i** Ma'lumot

**Uzatishni kamaytirish mexanizmi (ixtiyoriy)**

Uzatishni kamaytirish mexanizmi bilan jihozlangan gaz pedalini bosim nuqtasidan tashqariga bosilganda, dvigatel kuchi maksimal darajaga ko'tariladi. Uzatishni kamaytirish mexanizmining ishlayotganini his qilishingiz va eshitishingiz mumkin. Bu uning normal ishlashini bildiradi, nosozligini emas.

### **Rul ostidagi almashtirgich**



Rul ostidagi uzatish almashtirgichi uzatish qutisi "D" (oldinga harakatlanish) holatida bo'lganda ishlaydi.

**Uzatish tugmachasi "D" holatiga o'tkazilganda.**

Rul kolonkasini avtomobil tezligi soatiga 1 km dan yuqori bo'lganda ishlatish mumkin.

Rul kolonkasi [+] yoki [-] tugmachasini bir marta yuqoriga yoki pastga suring, shunda tizim avtomatik rejimdan qo'l rejimiga o'zgaradi.

Agar avtomobil tezligi soatiga 1 km dan past bo'lsa, gaz pedalini 5 soniyadan ko'proq bosib tursangiz, tizim qo'l rejimidan avtomatik rejimga o'tadi.

### **i** Ma'lumot

Agar bir vaqtning o'zida rul ostidagi [+] yoki [-] tugmalarni ishlatsangiz, uzatish almashinuvi ishlamasligi mumkin.

## Tormoz tizimi

### Tormoz kuchaytirgichi

Avtomobilingiz normal holatda ishlatilganda avtomatik ravishda sozlanadigan tormoz kuchaytirgichi bilan jihozlangan.

Dvigatel o'chirilganda tormoz kuchaytirgich tizimi o'chiriladi. Mashinani to'xtata olasiz lekin tormoz pedalini qattiqroq bosishingiz kerak bo'ladi. Biroq, bu holda tormozlanish masofasi uzoqroq bo'ladi.

Agar dvigatel ishlamayotgan bo'lsa, tormoz pedali har bosilganda zaxira tormoz kuchi qisman kamayadi. Siirpanchiq yo'llarda nazoratni saqlab turish uchun kuchaytirgich o'chirilganida tormoz pedalini bosmang.



### EHTIYOT BO'LING

Quyidagi ehtiyot choralariga rioya qiling:

- Haydash paytida oyog'ingizni tormoz pedaliga qo'ymang. Bu tormozlarning haddan tashqari qizib ketishiga, tormoz nakladkasi va kolodkalarining haddan tashqari yemirilishiga va tormozlanish masofasining oshishiga olib keladi.

- Tormoz pedalini haddan tashqari ishlatmasdan tezlikni boshqarish uchun uzun yoki tik qiyalikda haydashda siz mexanik uzatishni tanlashingiz va tezlikni past darajasini o'rnatishingiz mumkin. Tormozni uzluksiz ishlatish qizib ketishga va tormoz kuchining yo'qolishiga olib kelishi mumkin.
- Nam tortgan tormoz avtomobilning xavfsiz sekinlashuv jarayoniga zarar yetkazishi mumkin; avtomobilni yon tomonga tortishi ham mumkin. Yengil tormozlash tormozning shikastlanganligini ko'rsatadi. Chuqur suvda harakatlangach, tormozni shu tarzda tekshirganingizga ishonch hosil qiling. Tormozni quritish va isitish uchun oyog'ingiz bilan tormoz pedalini yengil bosing. Tormoz to'liq ishlamaguncha xavfsiz tezlikni saqlang. Agar tormoz hali tiklanmagan bo'lsa, tezlikni oshirmang.

## Diska tormozining eskirganligini bildiruvchi indikator

Agar tormoz kolodkalari eskirgan bo'lsa va yangisiga almashtirish kerak bo'lsa, old yoki orqa tormozlardan baland ovozli ogohlantirish signali eshitiladi. Bu signalning paydo bo'lib yo'qolishini bemalol payqash yoki tormoz pedali har bosilganda eshitish mumkin.

Shuni bilish kerakki, muayyan haydash yoki iqlim sharoitida birinchi tormoz berishda (yoki tormoz bosishda) tormozlarning o'tkir g'ichirlashi paydo bo'lishi mumkin. Bu normal holat va tormoz muammosini bildirmaydi.

### MA'LUMOT UCHUN


**Qimmat narxga tormozlarni ta'mirlatishdan qochib avtomobilni eskirgan tormoz kolodkalari bilan ishlatmang.**

### Ma'lumot

Tormoz kolodkalarini faqat oldingi va orqa ko'priklar uchun to'plamlar bilan almashtirish mumkin.

## Qo'l tormozi (oyoqda bosiladigan turi, mavjud bo'lganda)

### Qo'l tormozini ishga tushirish



Avtomobildan tushishdan oldin har doim qo'l tormozini bosing.

Qo'l tormozini ishga tushirish:


Tormoz pedalini qattiq bosing. Qo'l tormozi pedalini iloji boricha siljitish uchun pastga bosing.



### EHTIYOT BO'LING

Jiddiy shikastlanish yoki o'lim xavfini kamaytirish uchun haydash paytida qo'l tormozini bosmang, favqulodda holatlar bundan mustasno. Bu tormoz tizimiga zarar yetkazishi va baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin.

## Qo'l tormozini bo'shatish



yuborish uchun:

Tormoz pedalini qattiq bosing.

Qo'l tormozi pedalini bosing. Shundan so'ng, u o'z-o'zidan ko'tariladi va tormoz bo'shatiladi.

Agar qo'l tormozi qo'yib yuborilmasa yoki to'liq ochilmasa, tizimni tekshirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.



### EHTIYOT BO'LING

- Avtotransport tushayotganda yoki parkovka qilishda avtomobil to'liq to'xtaguncha kutib turing va tormoz pedalini qo'yib yubormang. Uzatish qutisini "P" (parkovka) holatiga o'tkazing, so'ng qo'l tormozini bosing va o't oldirish qurilmasini kalitini LOCK /OFF holatiga burang.

Agar qo'l tormozi to'liq bosilmasa, avtomobil o'z -o'zidan harakat qila boshlaydi va boshqalarga shikast yetkazishi mumkin.

- Avtotransport vositasini boshqarolmaydigan odamlarning qo'l tormozi dastasiga yoki pedaliga tegishiga yo'l qo'ymang. Agar avtomobil tasodifan qo'l tormozidan bo'shatilsa, odamlar jiddiy jarohat olishlari mumkin.
- Qo'l tormozini o'chirayotganda, tormoz pedalini oyog'ingiz bilan mahkam bosib turing.

### MA'LUMOT UCHUN

- Qo'l tormozi ishga tushirilganda pedalini bosmang. Agar shunday qilinsa, ogohlantiruvchi signal eshutiladi. Qo'l tormozi shikastlangan bo'lishi mumkin.
- Avtomobilni qo'l tormozi ishga holatda haydash tormoz tizimining haddan tashqari qizib ketishiga, bu esa tormoz qismlarining yemirilishi va shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Haydashdan oldin qo'l tormozining bo'shatilganligiga va tegishli ogohlantirish chiroqlarining o'chirilganligiga ishonch hosil qiling.

## Elektr qo'l tormozi (EPB) (mavjud bo'lganda)

### Qo'l tormozini ishga tushirish



EPB (elektr qo'l tormozi) ni faollashtirish uchun:


1. Tormoz pedalini bosing.
2. Elektr qo'l tormoz kalitini torting.

Qo'l tormozi ogohlantiruvchi chirog'i yonib turganligini tekshiring.

## EHTIYOT BO'LING

**Jiddiy shikastlanish yoki o'lim xavfini kamaytirish uchun transport vositasi harakatlanayotganda favqulodda holatlardan tashqari EPBdan foydalanmang. Bu tormoz tizimiga zarar yetkazishi va baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin.**

## Qo'l tormozini bo'shatish



EPB (elektr qo'l tormozi) ni bo'shatish uchun EPB kalitini quyidagi holatda bosing:

- O't oldirish qurilmasini yoqing.
- Tormoz pedalini bosing.

Qo'l tormozi ogohlantiruvchi chirog'i o'chirilganligini tekshiring.

**Elektr qo'l tormozini (EPB) avtomatik ravishda bo'shatish uchun:**

Avtomatik uzatish qutisi bo'lgan avtomobil uchun

1. Dvigatelni ishga tushiring.
2. Haydovchi kamarini mahkamlang.
3. Haydovchi eshigini, kapotni va yukxona qopqog'ini yoping.
4. Gaz pedalini uzatish qutisi "R" (orqaga) yoki "D" (oldinga harakatlanish) holatida bosing.

Qo'l tormozi ogohlantiruvchi chirog'i o'chirilganligini tekshiring.

## **i** Ma'lumot

- Xavfsizlik nuqtayi nazaridan elektr bilan ishlaydigan qo'l tormozini, hatto o't oldirish qurilmasini o'chirgan holda ham qo'llash mumkin, lekin endi qo'l tormozini qo'yib bo'lmaydi.
- Xavfsizlik nuqtayi nazaridan tormoz pedalini bosib va EPB tugmachasi yordamida pastga yoki orqaga harakatlanayotganda qo'l tormozini qo'lda bo'shating.


### **MA'LUMOT UCHUN**

- Agar qo'l tormozining ogohlantiruvchi chirog'i EPBni qo'ygandan keyin ham yonishni davom ettirsa, tizimni HYUNDAI vakolatli dileriga tekshirtirish tavsiya etiladi.
- EPB yoqilgan holda haydash taqiqlanadi. Bu tormoz nakladkalari va tormoz rotorining tez yemirilish olib kelishi mumkin.

EPB (elektr qo'l tormozi) avtomatik ravishda quyidagi holatlarda qo'llanilishi mumkin:

- Boshqa tizimlar uchun talab qilinsa.
- Haydovchi avtomatik ushlab turish tizimi yoqiq holatida dvigatelni to'xtatganda.

## Ogohlantirish xabarlari



To release EPB, fasten seatbelt, close door, hood, and trunk (Xavfsizlik kamarlarini mahkamlang, eshiklarni, kapotni va yukxonani yoping)

- EPB yoqilgan holda haydash paytida ogohlantirish signali eshitiladi va tegishli xabar ko'rsatiladi.
- Agar haydovchining xavfsizlik kamari mahkamlanmagan bo'lsa va kapot yoki yukxona ochiq bo'lsa, ogohlantirish signali eshitiladi va xabar ko'rsatiladi.
- Avtomobilda nosozlik bo'lsa, ovozli ogohlantirish signali va tegishli xabar ko'rsatilishi mumkin.

Bunday hollarda tormoz pedalini bosib va EPB tugmasi yordamida EPBni qo'yib yuboring.



## EHTIYOT BO'LING

- Avtotransport tushayotganda yoki parkovka qilishda avtomobil to'liq to'xtaguncha kutib turing va tormoz pedalini qo'yib yubormang. Uzatish qutisini "P" (parkovka) holatiga o'tkazing, so'ng qo'l tormozini bosing va o't oldirish qurilmasini kalitini LOCK /OFF holatiga burang.

Avtomobilni chiqib ketayotganda kalitni o'zingiz bilan olib keting.

Avtomobilni uzatish qutisi "P" (parkovka) holatiga qo'ymay, qo'l tormozni ishga tushirib parkovka qilish avtomobilning kutilmaganda oldinga harakatlanishiga va yaqin atrofdagi odamlarga shikast yetkazishiga sabab bo'lishi mumkin.

- Avtomobil boshqarolmaydigan odamlarning EPB kalitiga tegishiga yo'l qo'ymang. EPB tasodifan qo'yib yuborilsa, odamlar jiddiy jarohat olishlari mumkin.
- EPBni bo'shatishda avtomobilda bo'lish va tormoz pedalini kuchli bosib turish kerak.


## MA'LUMOT UCHUN

- Qo'l tormozi ishga tushirilganda gaz pedalini bosmang. Agar EPB yoqilganda gaz pedali bosilsa, ogohlantirish signali eshutiladi va ogohlantirish xabari ko'rsatiladi. Qo'l tormozi shikastlanishi mumkin.
- Avtotransport qo'l tormozi bilan harakatlanayotganda tormoz tizimi haddan tashqari qizib ketishi mumkin, bu esa muddatidan oldin eskirishiga yoki tormoz tizimi qismlarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Haydashdan oldin EPB bo'shatilganiga va qo'l tormozining ogohlantiruvchi chirog'i o'chganligiga ishonch hosil qiling.



## Ma'lumot

- EPB ishga tushirilganda yoki o'chirilganda taqillagan ovoz eshutilishi mumkin. Bu normal holat holat va EPB to'g'ri ishlashini ko'rsatadi.
- Kalitlarni parkovka xodimiga yoki yordamchiga qoldirganda unga EPBdan foydalanish haqida xabar berishni unutmang.



OIK057079N

**AUTO HOLD turning off! Press brake pedal (AUTO HOLD o'chiriladi! Tormozni bosing).**

Agar avtomatik ushlab turish rejimidan EPB rejimiga o'tish to'g'ri bajarilmasa, ovozli signal eshutiladi va displeyda xabar paydo bo'ladi.



OTM058187L

**Parking brake automatically engaged (Qo'l tormozining avtomatik ishga tushishi)**

Agar avtomatik ushlab turish funksiyasi ishlayotganda EPB yoqilgan bo'lsa, signal eshutiladi va displeyda xabar paydo bo'ladi.

**Nosozlik indikatori  
EPB**



©DN8069014

Agar EPB nosozlik indikatori haydash paytida yonib tursa yoki o't oldirish qurilmasi yoqilganda yonmasa, bu elektr qo'l tormozining ishlamay qolishi mumkinligini ko'rsatadi.

Bunday holda, tizimni tekshirtirish uchun sizga vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.

В этом случае рекомендуется Elektr qo'l tormozining nosozligi indikatori, ESC indikatori yonib turganda, ESC tizimining noto'g'ri ishlashini ko'rsatadi, lekin bu elektr qo'l tormozining ishlamay qolganligini ko'rsatmaydi.



### MA'LUMOT UCHUN

- Agar EPB ogohlantirish chiroqchasi hali ham yoniq bo'lsa, tizimni tekshirtirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.
- Agar qo'l tormozi ogohlantiruvchi chirog'i yonmasa yoki miltillab yonmasa, EPB tugmasi tortilgan bo'lsa ham, EPB tortilmasligi mumkin.
- EPB ogohlantirish chiroqchasi yonib turganda, qo'l tormozining ogohlantirish chiroqchasi yonib-o'chib tursa, kalitni bosib, keyin yuqoriga suring. Bu amalni yana bir marta takrorlang. Agar EPB ogohlantirish chirog'i o'chmasa, tizimni tekshirtirish uchun HYUNDAI vakolatli dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.

### *Favqulodda tormoz berish*

Agar haydash paytida tormoz pedali ishlamay qolsa, favqulodda tormoz berish uchun EPB tugmachasini ushlab turishingiz mumkin. Tormoz berish faqat EPB tugmachasini bosib ushlab turish orqali mumkin.



### EHTIYOT BO'LING

Avtotransport vositasi harakatlanayotganda favqulodda holatlardan tashqari, qo'l tormozini ishga tushirmang. Bu tormoz tizimiga zarar yetkazishi va jiddiy baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin.

### **i** Ma'lumot

Favqulodda tormozlash paytida to'xtash tormozi ogohlantirish chiroqchasi yonadi va tizimning ishlashini ko'rsatadi.

### MA'LUMOT UCHUN

Agar EPBni favqulodda tormoz berishda ishlatganda doimiy shovqin yoki kuyundi hidi bo'lsa, tizimni tekshirtirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.

Agar elektr qo'l tormozini qo'yib bo'lmaydi (EPB)

Agar EPB to'g'ri o'chirilmasa, tizimni tekshirtirish uchun avtomobilni evakuator bilan HYUNDAI vakolatli kompaniyasiga olib borish tavsiya etiladi.

### Qo'l tormozining ogohlantiruvchi signali



O't oldirish qurilmasi kalitini ON holatiga o'tkazing (dvigatelni ishga tushirmasdan) va qo'l tormozining indikator chiroqchasi yonganligini tekshiring.

Agar qo'l tormozi yoqilgan bo'lsa, Avtomatik ushlab turish (mavjud bo'lganda)

Haydashdan oldin qo'l tormozining bo'shatilganligiga va tegishli ogohlantirish chirog'ining o'chiqligiga ishonch hosil qiling.

Agar qiyalikdan o'tgandan keyin tizim to'satdan transport vositasi, piyoda yoki velosipedchini aniqlasa, siz keskin tormozlanishni his qilishingiz mumkin.

Qiyalikda yuqoriga yoki pastga haydashda siz oldingizda harakat holatini doimiy ravishda kuzatib borishingiz va zarur bo'lganda xavfsiz masofani saqlash uchun tormoz pedalidan foydalanishingiz kerak.






[A] : sizning avtomobilngiz,

[B] : Amalga oshiriladigan aylanib o'tish

- Yo'lakni o'zgartirish

Oldinda turgan avtomobil o'z yo'lagini o'zgartirganda FCA avtomobilni kechikish bilan aniqlay oladi, ayniqsa agar avtomobil yo'lakni keskin o'zgartirsa. Bunday holatda siz xavfsiz tormoz masofasini saqlashingiz va zarur bo'lsa, xavfsiz masofani saqlash uchun haydash tezligini sekinlashtirish uchun tormoz pedalini bosing.




[A] : sizning avtomobil,

[B] : sizning avtomobil,

[C] : shu yo'nalishdagi avtomobil

Tez-tez to'xtab turish bilan haydashda va oldingizda turgan transport vositasi yo'lakdan chiqib ketganda, FCA oldingizda turgan yangi transport vositasini darhol aniqlay olmasligi mumkin. Bunday holatda xavfsiz tormoz masofasini saqlashingiz va zarur bo'lsa, xavfsiz masofani saqlash uchun tormoz pedalini uchun bosing.





- Oldinda turgan avtomobilni aniqlash

Agar oldindagi transport vositasida bo'lib, yuk uning orqa qismidan chiqib turgan bo'lsa yoki transport vositasining yer bilan oralig'i birmuncha baland bo'lsa, yo'lga yanada ko'proq e'tiborli bo'lish kerak. FCA transport vositasidan chiqib turgan yukni tanimasligi mumkin. Bunday hollarda, bu yuk bilan xavfsiz tormoz masofasini saqlashingiz va agar zarur bo'lsa, xavfsiz masofani saqlash uchun tormoz pedalini bosib, avtomobil tezligini pasaytirishingiz zarur.

### **Piyodalar va velosipedchilarni aniqlash**

Datchikning ishlashi quyidagi hollarda cheklanishi mumkin:

- Piyodalar yoki velosipedchilar, masalan, piyoda egilgan holatda bo'lsa yoki har doim tik holatda turmasa, old tomon kuzatuv kamerasi aniqlash tizimi tomonidan to'liq aniqlanmaydi.
- Piyodalar yoki velosipedchilar juda tez harakat qilsa yoki doimo old kamera aniqlanish hududidan tashqarida bo'lsa
- Piyodalar yoki velosipedchilarning kiyimlari orqa fon bilan uyg'unlashgani uchun ularni old kamera aniqlash tizimi farqlashi qiyin bo'lsa.
- Atrofdagi yorug'lik juda yorqin (masalan, quyosh nurida yoki quyosh nuri kuchli aks etganda harakatlanish) yoki atrof juda qorong'i bo'lsa (masalan, tunda qorong'i qishloq yo'lida harakatlanganda)
- Piyodalar yoki velosipedchilarni aniqlash va ularni atrofdagi boshqa narsalardan ajratish qiyin bo'lsa, masalan, piyodalar yoki velosipedchilar guruhi yoki katta olomon bo'lsa.
- Odamning sharpasiga o'xshash obyekt mavjud bo'lsa
- Piyodalar yoki velosipedchilar kichik yoshda bo'lsa
- Piyoda harakatlanishi cheklangan bo'lsa

- Datchikning ro'yxatdan o'tkazish imkoniyatlari cheklangan bo'lsa.
- Radar datchigi yoki old kuzatuv kamerasi turli xil narsalar yoki kir bilan qoplangan bo'lsa.
- Qoraytirilgan yoki plyonkali old oynalar, shikastlangan oynalar yoki old oynaning turli xil narsalar (stikerlar, hasharotlar va boshqalar) bilan to'silishi tufayli kamera kuzatuvi cheklanadi.
- Tashqi yorug'lik juda past bo'lsa, masalan, kechasi faralar yoqilmaganda yoki avtomobil tunnelda harakatlanayotgan bo'lsa.
- Noqulay ob-havo sharoitlari, masalan, kuchli yomg'ir yoki qor, radar datchigi yoki old kamera kuzatuv maydonini yomonlashtiradi.
- Ko'cha chiroqlaridan yoki yaqinlashib kelayotgan avtomobildan keladigan yorug'lik yo'lning nam yuzasida, masalan, ko'lmaklarda aks etsa.
- Yaqinlashib kelayotgan avtomobildan quyosh nuri yoki faralarning aksi tufayli oldinga qarash qiyin bo'lsa.
- Old oyna bug'langan bo'lsa; yo'lning aniq ko'rinishi qiyin bo'lsa.
- Sun'iy notekislikdan chiqilganda datchiklarni aniqlash to'satdan o'zgarsa.
- Noqulay yo'l sharoitlari haydash avtomobilning haddan tashqari tebranishiga olib kelsa.
- Aylanma yo'l kesishuvida harakatlanayotganda
- Piyoda yoki velosipedchi to'satdan
- Velosipedchining old tomondan harakatlanish yo'li avtomobilning harakat yo'nalishi bilan kesishsa
- Elektromagnit to'lqinlarga to'sqinlik vujudga kelsa
- Velosipedchining yonida qurilish maydonchasi, relslar yoki boshqa metall buyumlar joylashgan bo'lsa
- Velosiped ishlab chiqarilgan material radar tomonidan tan olinmasa.



## EHTIYOT BO'LING

- **Avtotransport vositasini tortishda FCA ishlatmang.**  
**Tortish paytida FCA dan foydalanish avtomobil yoki tortib ketilayotgan transport vositasining xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.**
- **Oldinda turgan transport vositasining orqa qismidan yuk chiqib turgan bo'lsa yoki avtotransport baland bo'lsa, juda ehtiyot bo'ling.**

- Avtotransport vositasi, piyodalar yoki velosipedchiga o'xshash o'lchamdagi yoki xususiyatlarga ega obyekt aniqlansa, FCA ishga tushishi mumkin.
- FCA radar va videokamera signallari yordamida yo'lda turgan avtomobil yoki piyodani (mavjud bo'lganda) aniqlash va kuzatish uchun mo'ljallangan. U velosiped, mototsikl yoki g'ildirakli yukxalta, xarid qilish aravachasi yoki bolalar aravachasi kabi kichik narsalarni aniqlash uchun mo'ljallanmagan.
- Hech qachon FCA ishlayotganini sinab ko'rishga urinmang. Bu jiddiy shikastlanish yoki o'limga olib kelishi mumkin.
- Agar old bamper, old oyna, old radar yoki old kamera o'zgartirilgan yoki ta'mirlangan bo'lsa, HYUNDAI vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga borib, avtomobilni tekshirtirib ko'rishingiz tavsiya etiladi.

### Ma'lumot

Ba'zi hollarda, elektromagnitli shovqin tufayli FCA uzilishi mumkin.

### Old tomondan to'qnashuvni oldini olish tizimi (FCA) - chorrahada burilish (mavjud bo'lganda)

FCA - chorrahada burilish funksiyasi yaqinlashib kelayotgan transport vositalarini aniqlash va kuzatish orqali to'qnashuv xavfini kamaytirish uchun mo'ljallangan. Tizim old tomon kuzatuv kamerasi va old radar yordamida chorrahada chapga (chapdan) yoki o'ngga (o'ngdan) kelayotgan avtomobillarni oldindan aniqlaydi. U to'qnashuv xavfi darajasiga qarab ogohlantirish xabari va ovozi signallarni beradi.

### Tizim sozlamalari

FCA - Chorrahada burilish funksiyasini quyidagi sozlamalarga muvofiq Foydalanuvchi sozlamalari menyusida yoqish mumkin.

1. Dvigatelni ishga tushirish /to'xtatish tugmachasini "ON" yoki "START" holatiga o'tkazing.
2. "Foydalanuvchi sozlamalari → haydovchiga → yordamchi tizim"ni tanlang.

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun ushbu bobdagi "Old tomondan to'qnashuvni oldini olish tizimi (FCA)" bo'limiga qarang.

### **Qabul qilish uchun zarur shartlar**

FCA axborot-ko'ngilochar ekranda "Faol yordam" yoki "Faqat ogohlantirish"ni tanlab, quyidagi shartlar bajarilganda faollashadi va ishlashga tayyor bo'ladi:

- Tizim old tomondan kelayotgan, to'qnashuv sodir etishi mumkin bo'lgan avtomobilni aniqlaydi. U har qanday vaziyatda chorrahada to'qnashuv xavfini aniqlaganda ishga tushishi mumkin.
- ESC (Elektron barqarorlikni boshqarish tizimi) yoqilganda.
- Qarama-qarshi harakatlanayotgan avtomobilning tezligi soatiga 30 km dan yuqori yoki soatiga 70 km dan past bo'lganda.
- Tezlik 6 mil / soat (10 km) dan yuqori yoki 19 mil (30 km / soat) dan past bo'lganda
- Burilish indikatorlari yoqilganda



### **DIQQAT**

- **FCA tizimi kelayotgan avtomobilning holatiga, harakat yo'nalishiga yoki tezligiga qarab, to'liq yoki qisman ishlamasligi mumkin.**
- **"Faqat ogohlantirish" tanlansa, FCA yoqiladi va faqat ogohlantirish beradi.**



### **EHTIYOT BO'LING**

- **FCA tizimi yaqinlashib kelayotgan transport vositasining kutilmagan xatti-harakati tufayli ogohlantirish bermasligi yoki juda kech ishga tushishi mumkin.**
- **FCA chapga (chapdan) yoki o'ngga (o'ngdan) burilishda qarama-qarshi yo'nalishdagi avtomobillar yo'nalishi bo'yicha ishlaydi va burilish indikatorlari harakat yo'nalishi bo'yicha yonadi.**

### **FCA ogohlantirish xabari va tizim ishlashini nazorat qilish**

FCA tizimi chorrahada chapga (chapdan) yoki o'ngga (o'ngdan) burilganda to'qnashuv xavfi darajasiga qarab ogohlantirish xabari va ogohlantirish signallarini chiqaradi. Tizim, shuningdek, to'qnashuv xavfi darajasiga qarab tormozlarni boshqaradi.



### Collision Warning (dastlabki ogohlantirish)

- LCD displeyda signal va ogohlantirish signallari aks etadi.
- Avtomobil tezligi biroz pasayishi mumkin.
- Tizim avtomobil soatiga 30 kmdan past tezlikda harakat qilganda ishlaydi. (Tizimning tezlik diapazoni atrofdagi sharoitga va kelayotgan transport vositalarining holatiga qarab kamaytirilishi mumkin.)
- Agar LCD yoki axborot-ko'ngilochar tizimda "Faqat ogohlantirish" tanlansa, haydovchi tormoz tizimini boshqarishi kerak, chunki FCA boshqaruvi nazoratga olinmaydi.



### Emergency Braking (ikkinchi ogohlantirish)

- LCD displeyda signal va ogohlantirish signallari aks etadi.
- FCA tizimi oldindan to'qnashuv ta'sirini yumshatishga yordam beradigan cheklangan tormoz boshqaruvi ta'minlaydi. To'qnashuvdan oldin tormoz boshqaruvi maksimal darajada oshiriladi.
- Tizim avtomobil soatiga 30 kmdan past tezlikda harakat qilganda ishlaydi. (Tizimning tezlik diapazoni atrofdagi sharoitga va kelayotgan transport vositalarining holatiga qarab kamaytirilishi mumkin.)
- Agar LCD yoki axborot-ko'ngilochar tizimda "Faqat ogohlantirish" tanlansa, haydovchi tormoz tizimini boshqarishi kerak, chunki FCA boshqaruvi nazoratga olinmaydi.

### EHTIYOT BO'LING

FCA - chorrahada burilish funksiyasi faqat transport vositalarini kuzatadi, ikki g'ildirakli transportlar, hayvonlar yoki to'siqlarni tanimaydi.

### EHTIYOT BO'LING

FCA tormoz nazorati avtomobilning to'liq to'xtashiga yoki to'qnashuvning oldini olishga kafolat bermaydi. Haydovchi xavfsiz haydash va avtomobil boshqaruvi uchun javobgardir.

### EHTIYOT BO'LING

FCA - chorrahada burilish funksiyasi to'qnashuv xavfi darajasiga qarab ishlaydi, masalan, kelayotgan transport vositasining holati, harakat yo'nalishi va tezligi kabi ba'zi parametrlarga ko'ra. Tizimni faollashtirish uchun ataylab xavfli haydash uslubini ishlatishga urinmang.

### *Tizim cheklovlari*

Chorrahada burilish funksiyasi-chorrahada chapga (chapdan) yoki o'ngga (o'ngdan) burilganda haydovchi xavfsizligi uchun qo'shimcha tizimi hisoblanadi. Haydovchi haydash uchun javobgardir. Tizim kelayotgan avtomobillarni old kamera va radar yordamida kuzatadi. Ba'zi hollarda radar yoki old kuzatuv kamerasi kelayotgan avtotransportni aniqlay olmaydi. Tizim funksiyasi cheklangan yoki tizim tasodifan ishga tushgan holatlarda haydovchi juda ehtiyotkor bo'lishi kerak.

### **Datchikning ishlashi quyidagi hollarda cheklanishi mumkin:**

- Old radar datchigi yoki old kuzatuv kamerasi yaqinlashib kelayotgan avtomobilni kech tanisa.
- Old radar datchigi yoki old kuzatuv kamerasi turli xil narsalar yoki kir bilan qoplangan bo'lsa.
- Qarama-qarshi kelayotgan avtomobilning harakat yo'nalishi notekis yoki frontal bo'lsa.
- Yaqinlashib kelayotgan avtomobil yo'lakni juda kech o'zgartirsa yoki to'satdan tormozlasa.
- Yaqinlashib kelayotgan avtomobil datchiklar diapazonidan tashqarida bo'lsa.
- Aylanma harakat vaqtida datchik (old kamera yoki radar) yaqinlashib kelayotgan avtomobilni aniqlamasa.
- Qarama-qarshi yo'nalishdagi avtomobilning tezligi tizim doirasidan tashqarida bo'lsa.
- Qarama-qarshi yo'nalishdagi avtomobilning faralari o'chirilgan yoki assimetrik bo'lsa.
- Kelayotgan avtomobil chapga (chapdan) yoki o'ngga (o'ngdan) burilganda to'xtasa.
- Avtomobil yo'lakni o'zgartirsa.
- Yaqinlashib kelayotgan transport vositasi mavjud bo'lganda avtomobil past tezlikda to'satdan yo'lakni o'zgartirsa.
- Yorqin yorug'lik kameraga kelayotgan avtomobillarni aniqlashga to'sqinlik qilsa.
- Noqulay ob -havo sharoiti, masalan, kuchli yomg'ir yoki qor, old kamera yoki radarning kuzatuv maydonini cheklasa.
- Yaqinlashib kelayotgan avtomobil qor bilan qoplangan bo'lsa.
- Quyosh nuri aks etishi tufayli old tomonni ko'rish qiyinlashsa.
- Kelayotgan avtomobil nostandart shaklga ega bo'lsa.
- Qiyalikda yuqoriga yoki pastga haydashda.


## OGOHLANTIRISH TIZIMI (BCW) (mavjud bo'lganda)

### Tizim tavsifi

#### **Haydovchining ko'rish hududidan tashqarida to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (BCW)**

Orqa bamperdagi radar datchiklari yordamida ko'rish hududidan tashqarida to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi haydovchini ko'rinmas hududda yaqinlashib kelayotgan avtomobil haqida ogohlantiradi.

#### 1) Ko'rinmas hudud




OIK057138

Ko'rinmas hududda aniqlash diapazoni avtomobil tezligiga bog'liq.

Agar avtomobil yaqin atrofdagi avtomobillarga qaraganda yuqori tezlikda harakat qilsa, bu haqda haydovchiga xabar berilmaydi.

#### 2) Yuqori tezlikda yaqinlashish



OIK057139L

Yo'lakni o'zgartirishda yordamchi tizimi haydovchini qo'shni yo'lakda yuqori tezlikda yaqinlashayotgan transport vositasini aniqlaganda ogohlantiradi. Agar haydovchi burilish indikatorini yoqsa, tizim yaqinlashib kelayotgan avtotransportni aniqlasa, ogohlantirish beradi.



### EHTIYOT BO'LING

- Haydash paytida yo'l sharoitlarini doimiy ravishda kuzatib borish va ko'rinmas hududda to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi yoqilgan bo'lsa ham kutilmagan holatlarga tayyor bo'lish zarur.
- BCW - bu yordamchi tizim. Tizimga to'liq ishonish mumkin emas. Xavfsizlik nuqtayi nazaridan avtotransportni boshqarayotganda hushyor bo'lish lozim.



- **BCW avtotransport harakatlanayotganda xavfsizlik kuzatuvini zarurligini bekor qilmaydi. Yo'lakni o'zgartirish yoki orqaga burilishdan oldin ehtiyotkorlik bilan va xavfsiz harakatlaning.**  
**BCW avtomobil atrofidagi barcha narsalar aniqlanishiga kafolat bermaydi.**

## Tizimni sozlash va boshqarish

### *Tizim sozlamalari*

- "Ko'rinmas hudud" monitoring funksiyasini sozlash.  
O't oldirish qurilmasi yoqilganda haydovchi "Foydalanuvchi Sozlamalari → haydovchiga yordamchi tizimi → "ko'rinmas hudud" monitoringi" parametrlarini tanlab tizimni yoqishi mumkin.
  - BCW tizimi "Faqat ogohlantirish" parametri tanlanganda yoqiladi va faollashishga tayyor bo'ladi. Avtomobil haydovchi ko'ra olmaydigan hududga yaqinlashganda, ovozli signal eshitaladi.
  - "O'chirish" tanlansa, BCW o'chiriladi.
- Dvigatelni to'xtatib qayta ishga tushirgandan so'ng tizim avvalgi holatiga qaytadi.
- Ogohlantirishlar uchun taymerni tanlang. Haydovchi "Foydalanuvchi Sozlamalari → haydovchiga yordamchi tizimi → ogohlantirish taymeri" parametrlarini tanlash orqali LCD displeyidagi foydalanuvchi sozlamalarida yoki axborot-ko'ngilochar displeyda dastlabki ogohlantirishni ishga tushirish vaqtini tanlashi mumkin.

Kuzatuv hududidan tashqarida to'qnashuv haqida oldindan ogohlantirish variantlari:

- Normal [Normal]:

Bu parametr tanlanganida, ko'rinmas hududda to'qnashuvlar haqidagi dastlabki ogohlantirish normal hisoblanadi. Agar bu parametr sizga juda sezgir bo'lib tuyulsa, "Keyinroq" variantini tanlang.

Agar yon / orqa tomondan avtomobil tezlashsa, ogohlantirish vaqti sekin ko'rinishi mumkin.

- Later [Keyinroq]:

Serqatnov yo'lda bo'lmasangiz va past tezlikda harakatlanayotgan bo'lsangiz ushbu variantni tanlang.



### Ma'lumot

Agar ogohlantirish vaqtini o'zgartirsangiz, boshqa tizimlarning ogohlantirish vaqti ham o'zgarishi mumkin.

Ogohlantirish vaqtini joriy ogohlantirish vaqtiga qarab sozlang.

- Haydovchi "Foydalanuvchi Sozlamalari → haydovchiga yordamchi tizimi → ogohlantirish ovoz balandligi → Baland/O'rtacha/Past" parametrlarini tanlash orqali LCD displeyidagi foydalanuvchi sozlamalarida yoki axborot-ko'ngilochar displeyda ko'rinmas hududdagi ehtimoliy to'qnashuv haqida ogohlantirish uchun ovoz balandligi darajasini tanlashi mumkin.



### Ma'lumot

Agar ogohlantirish ovoz balandligini o'zgartirsangiz, boshqa tizimlarning ogohlantirish ovoz balandligi ham o'zgarishi mumkin. Ogohlantirish ovoz balandligini o'zgartirganda buni hisobga olish kerak.


### *Ishlash sharoitlari*

Quyidagi shart bajarilganda tizim tayyorlik rejimiga o'tadi:

Avtomobil tezligi soatiga 30 km dan oshsa

## Ogohlantirish xabari va tizimni boshqarish

**Ko'rinmas hududda avtomobil bilan ehtimoliy to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (BCW)**



### Birinchi darajali ogohlantirish signali

Agar transport vositasi tizim ichida aniqlansa, tashqi orqa tomonni ko'rsatuvchi ko'zguda sariq ogohlantirish chirog'i yonadi.

Agar aniqlangan transport vositasi endi ko'rinmaydigan masofada qayd etilmasa, ogohlantirish avtomobilning yo'l sharoitiga qarab o'chiriladi.



[A]: Ovozli ogohlantirish signali

### Ikkinchi darajali ogohlantirish signali

Haydovchining ovoqli xabarnomasi quyidagi hollarda faollashadi:

1. Radar tizimi ko'rinmas hududda avtomobil aniqlasa.
2. Burilish indikatorini yoqilsa (transport vositasi aniqlangan tomonda).

Bu ogohlantirish yoqilganda tashqi ko'zgudagi ogohlantirish chirog'i ham yonadi. Ovozli signal ham eshitiladi. Burilish indikatorini o'chirilganda ikkinchi darajali signal o'chiriladi.

Agar aniqlangan transport vositasi endi ko'rinmaydigan masofada qayd etilmasa, ogohlantirish avtomobilning yo'l sharoitiga qarab o'chiriladi.



### EHTIYOT BO'LING

- Tizim avtomobilni orqa tomondan aniqlaganida tashqi orqa tomonni ko'rsatuvchi ko'zgu indikator chirog'i yonadi. Baxtsiz hodisaga yo'l qo'ymaslik uchun atrofni kuzatishni unutib e'tiboringizni faqat ogohlantiruvchi chiroqqa qaratmasligingiz kerak.
- Avtomobil BCW bilan jihozlangan bo'lsa-da, haydovchi mas'uliyat bilan haydashi zarur. Faqatgina bu tizimlarga tayanmang, yo'lakni o'zgartirish yoki orqaga yurishdan oldin har doim atrofingizni tekshiring.
- Tizim cheklanganligi sababli ba'zi holatlarda ogohlantirish signalini bermasligi mumkin, shuning uchun haydash paytida atrof-muhitni doimiy kuzatib borish zarur.



### DIQQAT

- Haydovchi, tashqi orqa tomonni ko'rsatuvchi ko'zgu ogohlantirish chirog'i yoki ovozli ogohlantirish signali yoqilganligidan qat'iy nazar, avtomobil boshqaruvi uchun javobgar bo'lishi kerak.
- Avtomobil audio tizimidan yuqori ovoz chiqishi BCW ogohlantirish signallarini bekor qilishi mumkin.
- Agar xavfsizlik kamaridan ogohlantirish signallari kabi boshqa ogohlantirish signallari eshitilsa, BCW ovozli signal eshitilmasligi mumkin.

## Aniqlash datchigi

■ Orqa yon tomondagi radar




Orqa yon tomondagi radarlar orqa bamporda joylashgan bo'lib, avtomobilning yon va orqa tomonlarini nazorat qilish uchun mo'ljallangan. Tizim to'g'ri ishlashi uchun orqa bampor toza holatda bo'lishi zarur.

### MA'LUMOT UCHUN

- Datchikni hech qachon demontaj qilmang yoki zarba bermang.
  - Radar datchigi yoki datchik qopqog'iga ortiqcha kuch bermang. Agar datchik majburiy ravishda to'g'ri o'rnatilgan joyidan ko'chirilsa, tizim to'g'ri ishlamasligi mumkin. Bunday holatda ogohlantirish xabari ko'rsatilmaslgi mumkin. Avtomobilni tekshirtirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga borishni maslahat beramiz.
  - Radar datchigi yoniga bampor stikerlari yoki bampor panjarasi kabi turli xil narsalarni qo'ymang va datchik o'rnatish joyini bo'yamang. Bu uning sezgirligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- Agar orqa bampor shikastlangan o'zgartirilgan yoki ta'mirlangan bo'lsa, tizim to'g'ri ishlamasligi mumkin.
  - Aniqlanish maydoni ba'zan qatnov qismining kengligiga bog'liq bo'lishi mumkin. Tor yo'lda tizim transport vositalarini qo'shni yo'lakda qayd etishi mumkin. Boshqa tomondan, agar yo'l keng bo'lsa, tizim ikkala yo'lakda ham transport vositalarini aniqlay olmaydi va ogohlantirish ishga tushirilmaslgi mumkin.
  - Kuchli elektromagnit to'lqinlar tufayli tizim o'chishi mumkin.
  - Datchik har doim toza bo'lishi kerak.

## Ogohlantirish xabari



**Blind-spot collision warning (BCW) system disabled. Radar blocked (Ko'rinmas hududda to'qnashuv haqida ogohlantirish (BCW) tizimi o'chirilgan. Datchik bloklangan)**

Bu ogohlantirish xabari quyidagi hollarda ko'rsatilishi mumkin:

- Orqa bamperdagi bir yoki ikkita datchikka loy, qor yoki begona jism bilan tiqilib qolgan bo'lsa.
- Datchik uzoq vaqt davomida boshqa transport vositalarini aniqlamaydigan qishloq joylarida harakatlanganda.
- Yomg'ir yoki qor kabi yomon ob-havo sharoitida.

Ushbu shartlardan birortasi sodir bo'lganda, tizim avtomatik ravishda o'chadi.

## **i** Ma'lumot


Tirkama yoki velosiped tashish uchun mahkamlagichdan foydalanganda BCW va RCCA o'chirilgan bo'lishi kerak.

- BCWni o'chirish uchun asboblarni kombinatsiyasida yoki axborot-ko'ngilochar displeyda "Foydalanuvchi Sozlamalari → haydovchiga yordamchi tizimi → "ko'rinmas hudud" monitoringi → OFF" parametrlarini tanlang.
- RCCAni o'chirish uchun asboblarni kombinatsiyasida yoki axborot-ko'ngilochar displeyda "Foydalanuvchi Sozlamalari → haydovchiga yordamchi tizimi → xavfsiz parkovka → Kesishgan yo'lda orqa tomondan to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (mavjud bo'lganda)" parametrlarini tanlang.

Agar asboblarni panelida BCW o'chirilganligi to'g'risida ogohlantirish yozuvi ko'rsatilsa, datchik joylashgan orqa bamperdagi loy va qor yo'qligiga ishonch hosil qiling. Datchikning normal ishlashi uchun loy, qor va to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa ifloslantiruvchi moddalarni olib tashlash kerak.

Ifloslantiruvchi moddalar olib tashlagandan so'ng BCW harakatlanish boshlaganidan taxminan 10 minut o'tgach to'g'ri ishlay boshlaydi.

Agar tizim to'g'ri ishlamasa, tizimni tekshirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qiling.



### Check Blind-spot collision warning (BCW) system (Ko'rinmas hududda to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimini tekshiring).

BCW bilan bog'liq muammo bo'lsa, ogohlantirish xabari ko'rsatiladi. Tizim avtomatik ravishda o'chadi. Avtomobilni tekshirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.


### Tizim cheklovlari

Haydovchi quyidagi holatlarda ehtiyotkor bo'lishi zarur chunki ba'zi hollarda tizim transport vositalarini yoki boshqa obyektlarni qayd eta olmaydi.

- Tirkama yoki osma ushlagichning mavjudligi.
- Noqulay ob-havo sharoitida haydash (masalan, kuchli yomg'ir yoki qor).
- Datchik yomg'ir suvi, qor, loy va boshqalar bilan ifloslangan bo'lsa.
- Datchik o'rnatilgan orqa bamberga begona narsalar bilan yopishtirish, masalan, stikerlar, bamber panjarasi, velosiped ushlab turuvchi mahkamlagich va boshqalar.
- Orqa bamporning shikastlanishi yoki datchikning asl joyidan ko'chirilishi.
- Avtotransport balandligi og'ir yuk shinalar bosimi yetarli emasligi va boshqalar tufayli o'zgargan bo'lsa.
- Orqa bamber yuqori harorat ta'sirida bo'lsa.
- Avtoturargohda boshqa transport vositalari, devorlar yoki ustunlar tomonidan datchiklar blokirovka qilinsa.
- Avtomobil egri chiziq bo'ylab harakatlansa.
- Avtomobil bojxona punktidan o'tsa.
- Yo'l qoplamasi (ustki qatlam) g'ayritabiiy miqdordagi metall komponentlar mavjud bo'lsa (ehtimol avtomobil yo'lining qurilishi tufayli).


- Avtomobil yaqinida to'siq kabi turg'un obyekt bo'lsa.
- Yo'lak balandligi tik tushish yoki ko'tarilishda o'zgarganda.
- Daraxtlar va butalar qoplagan tor yo'lda haydashda..
- Datchik uzoq vaqt davomida boshqa transport vositalari yoki binolarni aniqlamaydigan qishloq joylarida harakatlenganda.
- Nam yo'llarda harakatlenganda.
- Ikkala tomonida to'siqlar yoki binolar bo'lgan yo'lda haydashda.
- Avtobus yoki yuk mashinasi kabi katta transport vositasi yonida harakatlanishda.
- Boshqa avtomobilga juda ham yaqinlashganda.
- Boshqa transport vositasini juda katta tezlikda quvib o'tishda.
- Yo'lakning boshqasiga o'zgartirishda.
- Yondagi avtomobil bilan bir vaqtda ishga tushirish va tezlashishda.
- Avtotransportni qo'shni yo'lakdan ikki yo'lak yon tomonga o'tkazish yoki ikki yo'lak narida bo'lgan transport vositasini qo'shni yo'lakka o'tkazishda.
- Yaqin atrofda mototsikl yoki velosiped bo'lganda.
- Yaqin atrofda platforma tirkamasi bo'lsa.

- Agar aniqlash hududida xarid qilish bolalar aravachasi kabi kichik narsalar bo'lsa.
- Sport avtomobili kabi past balandlikdagi transport vositasiga ega bo'lish.
- Tashqi harorat juda past bo'lsa.




- Qayrilma trayektoriya bo'ylab harakatlanish  
Buriqish paytida tizimlar to'g'ri ishlamasligi mumkin. Ba'zi hollarda tizim keyingi yo'lakdagi avtomobilni aniqlay olmaydi.  
Haydash paytida ehtiyot bo'ling va yo'l sharoitlariga e'tibor bering.






Burilish paytida tizimlar to'g'ri ishlamasligi mumkin. Ba'zi hollarda tizim bir yo'lakda bo'lgan transport vositasini tanimasligi mumkin. Haydash paytida ehtiyot bo'ling va yo'l sharoitlariga e'tibor bering



- Yo'lni birlashadigan / bo'linadigan joyda haydash.

Yo'l birlashadigan / bo'linadigan tizimlar to'g'ri ishlamasligi mumkin. Ba'zi hollarda tizim keyingi yo'lakdagi avtomobilni aniqlay olmaydi.

Haydash paytida ehtiyot bo'ling va yo'l sharoitlariga e'tibor bering.




- Qiyalikda haydash


Qiyalik haydashda tizimlar to'g'ri ishlamasligi mumkin. Ba'zi hollarda tizim keyingi yo'lakdagi avtomobilni aniqlay olmaydi.

Bundan tashqari, ba'zi hollarda tizim yer yoki binolarni to'g'ri aniqlay olmasligi mumkin.

Haydash paytida ehtiyot bo'ling va yo'l sharoitlariga e'tibor bering.



©DN8069033



©DN8069035L

- Har xil balandlikdagi yo'laklarda transport harakati  
Harakatlanish har xil bo'lsa, tizimlar to'g'ri ishlamasligi mumkin. Ba'zi hollarda tizim har xil balandlikdagi yo'lakda (chorrahada bo'linadigan yo'llar ayrilishida) avtomobilni aniqlay olmasligi mumkin.  
Haydash paytida ehtiyot bo'ling va yo'l sharoitlariga e'tibor bering.

[A]: shovqindan saqlovchi to'siq, [B]: to'siq

- Bino yaqinidagi yo'lda harakatlanish  
Bino yaqinidagi yo'lda harakatlanayotganda tizimlar to'g'ri ishlamasligi mumkin.  
Ayrim hollarda tizim yo'l yaqinidagi binolarni (shovqindan himoya qiladigan to'siqlar, devorlar, ikki qavatli to'siqlar, bo'linadigan yo'laklar, ustunlar, ko'cha chiroqlari, yo'l belgilari, tunnel devorlari va boshqalar) to'g'ri tanimasligi mumkin.  
Haydash paytida ehtiyot bo'ling va yo'l sharoitlariga e'tibor bering.


## KO'RINMAS HUDUDDA TO'QNASHUV HAQIDA OGOHLANTIRISH TIZIMI (BCW) / KO'RINMAS HUDUDDA TO'QNASHUVNI OLDINI OLISH TIZIMI (BCA) (Mavjud bo'lganda)

### Tizim tavsifi

#### **Haydovchi kuzatuv hududidan tashqarida ehtimoliy to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (BCW)**

BCW orqa bampet radar datchiklaridan foydalanib ko'rinmas hududda yaqinlashib kelayotgan avtomobil haydovchisini ogohlantiradi.

#### 1) ko'rinmas hudud




OIK057138

Ko'rinmas hududda aniqlash diapazoni avtomobil tezligiga bog'liq.

Agar transport vositasi yaqin atrofdagi transportlarga qaraganda yuqori tezlikda harakat qilsa, haydovchiga bu haqda xabar berilmaydi.


#### 2) Yuqori yaqinlashish yaqinlashish



OIK057139L

Yo'lakni o'zgartirishga yordam beruvchi tizim haydovchini yuqori tezlikda harakatlanayotgan avtomobil qo'shni yo'lakka yaqinlashganda ogohlantiradi. Agar haydovchi burilish indikatorini yoqsa, tizim yaqinlashib kelayotgan avtomobilni aniqlasa tizim ogohlantirish beradi.

**Kuzatuv hududidan tashqarida ehtimoliy to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (BCA)**



oynaning yuqori qismiga o'rnatilgan old kamera yordamida, orqa va yon tomondagi chiziqni esa orqa radarlar yordamida aniqlaydi.

Yo'lakni o'zgartirganda BCA yaqinlashib kelayotgan avtomobil bilan to'qnashuv ehtimoliga qarab elektron barqarorlikni boshqarish tizimini (ESC) yoqishi mumkin. Bu to'qnashuv xavfini yoki to'qnashuvda shikastlanish ehtimolini kamaytiradi.

**EHTIYOT BO'LING**

- Haydash paytida hatto, agar BCW va BCA ishlayotgan bo'lsa ham yo'l sharoitini doimo kuzatib borish va kutilmagan holatlarga tayyor bo'lish kerak.
- BCA va BCW yordamchi tizim hisoblanadi. Tizimlarga to'liq ishonib bo'lmaydi. Xavfsizlik nuqtayi nazaridan avtomobilni boshqarayotganda hushyor bo'lish lozim.
- BCW va BCAning mavjudligi haydash paytida xavfsizlik kuzatuvini zarurligini bekor qilmaydi. Yo'lakni o'zgartirish yoki orqaga burilishdan oldin ehtiyotkorlik bilan va xavfsiz harakatlaning.

**BCW va BCA mavjudligi avtomobil atrofidagi barcha narsalarni aniqlashga kafolat bermaydi.**

## Tizimni sozlash va faollashtirish

### Tizim sozlamalari

- O't oldirish qurilmasi yoqilganda, haydovchi "Foydalanuvchi Sozlamalari → haydovchiga yordamchi tizimi → "ko'rinmas hudud" monitoringi → OFF" parametrlarini tanlab tizimni yoqishi mumkin.
  - "Faol yordam" parametri tanlanganida BCA va BCW faollashadi. Avtomobil haydovchi kuzatuvidan tashqaridagi hududga yaqinlashganda ovozli signal beriladi yoki tormoz kuchi qo'llaniladi.
  - "Faqat ogohlantirish" parametri tanlanganida BCW faollashadi. Avtomobil haydovchi kuzatuvidan tashqaridagi hududga yaqinlashganda ovozli signal beriladi. Ushbu parametr tanlanganida tormoz yordamchisi ishlamaydi.
  - "OFF" tanlansa, BCW o'chiriladi.
- Dvigatelni to'xtatib qayta ishga tushirgandan so'ng tizim avvalgi holatiga qaytadi.
- Haydovchi "Foydalanuvchi Sozlamalari → haydovchiga yordamchi tizimi → ogohlantirish taymeri" parametrlarini tanlash orqali LCD displeyidagi foydalanuvchi sozlamalarida yoki axborot-ko'ngilochar displeyda dastlabki ogohlantirishni ishga tushirish vaqtini tanlashi mumkin.
- Kuzatuv hududidan tashqarida haqida oldindan ogohlantirish variantlari:
  - Normal [Normal]:

Bu parametr tanlanganida, ko'rinmas hududda to'qnashuvlar haqidagi dastlabki ogohlantirish normal hisoblanadi. Agar bu parametr sizga juda sezgir bo'lib tuyulsa, "Keyinroq" variantini tanlang.

Agar yon / orqa tomondan avtomobil tezlashsa, ogohlantirish vaqti sekin ko'rinishi mumkin.
  - Later [Keyinroq]:

Serqatnov yo'lda bo'lmasangiz va past tezlikda harakatlanayotgan bo'lsangiz ushbu variantni tanlang

## **i** Ma`lumot

Agar ogohlantirish vaqtini o'zgartirsangiz, boshqa tizimlarning ogohlantirish vaqti ham o'zgarishi mumkin.

**Ogohlantirish vaqtini ongli ravishda. sozlash lozim.**

- Haydovchi "Foydalanuvchi Sozlamalari → haydovchiga yordamchi tizimi → ogohlantirish ovoz balandligi → Baland/O'rtacha/Past" parametrlarini tanlash orqali LCD displeyidagi foydalanuvchi sozlamalarida yoki axborot-ko'ngilochar displeyda ko'rinmas hududdagi ehtimoliy to'qnashuv haqida ogohlantirish uchun ovoz balandligi darajasini tanlashi mumkin.

## **i** Ma`lumot

Agar ogohlantirish ovoz balandligini o'zgartirsangiz, boshqa tizimlarning ogohlantirish ovoz balandligi ham o'zgarishi mumkin. Ogohlantirish ovoz balandligini o'zgartirganda buni hisobga olish kerak.


## **Ishlash sharoitlari**

Tizim faqat "Faol yordam" yoki "Faqat kutish" opsiyasi tanlanganida va quyidagi shartlar bajarilganda kutish rejimiga o'tadi:

- "Active assist" [Faol yordam]
- 1) BCA quyidagi hollarda faollashadi:
    - Avtomobil tezligi taxminan 60-180 km / soat (37-112 mil / soat) bo'lsa.
    - Tizim ikkala yo'lakni ham kuzatsa.
    - Yaqinlashayotgan avtomobil yaqindan yoki orqadan aniqlansa.
  - 2) BCW quyidagi hollarda faollashadi:
    - Avtomobil tezligi soatiga 30 km dan oshsa.
    - "Warning only" [Faqat ogohlantirish]
- 1) BCW quyidagi hollarda faollashadi:
    - Avtomobil tezligi soatiga 30 km (20 mil / soat) dan oshsa
- \* BCA faollashtirilmasa.

## Ogohlantirish xabari va tizimni boshqarish


**Ko'rinmas hududda avtomobil bilan ehtimoliy to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (BCW)**



### Birinchi darajali ogohlantirish signali

Agar transport vositasi tizim ichida aniqlansa, tashqi orqa tomonni ko'rsatuvchi ko'zguda va old oynaga o'rnatilgan displeyda ogohlantirish chiroqchasi (mavjud bo'lganda) yonadi.

Agar aniqlangan transport vositasi endi ko'rinmas hududda qayd etilmasa, avtomobilning yo'l sharoitiga qarab ogohlantirish o'chiriladi.



[A] : Ogohlantiruvchi ovozli signal

### Ikkinchi darajali ogohlantirish signali

Haydovchining ovozli xabarnomasi quyidagi hollarda faollashadi:

1. Radar tizimi ko'rinmas hududda avtomobil aniqlasa.
2. Buriqish indikatorini yoqilsa (transport vositasi aniqlangan tomonda).

Bu ogohlantirish yoqilganda ogohlantirish chirog'i tashqi oynada va old oynaning proyeksion displeyida ham yonadi (mavjud bo'lganda). Ovozli signal ham eshitaladi.

Burilish indikatorini o'chirilganda ikkinchi darajali signal ham o'chiriladi.

Agar aniqlangan transport vositasi endi ko'rinmas hududda qayd etilmasa, avtomobilning yo'l sharoitiga qarab ogohlantirish o'chiriladi.



### EHTIYOT BO'LING

- Tizim avtomobilni orqa tomondan aniqlaganida tashqi orqa tomonni ko'rsatuvchi ko'zgu indikator chirog'i yonadi. Baxtsiz hodisaga yo'l qo'ymaslik uchun atrofni kuzatishni unutib e'tiboringizni faqat ogohlantiruvchi chiroqqa qaratmasligingiz kerak.
- Avtomobil BCW bilan jihozlangan bo'lsa-da, haydovchi mas'uliyat bilan haydashi zarur. Faqatgina bu tizimlarga tayanmang, yo'lakni o'zgartirish yoki orqaga yurishdan oldin har doim atrofingizni tekshiring.
- Tizim cheklanganligi sababli ba'zi holatlarda ogohlantirish signalini bermasligi mumkin, shuning uchun haydash paytida atrof-muhitni doimiy kuzatib borish zarur.



### DIQQAT

- Haydovchi, tashqi orqa tomonni ko'rsatuvchi ko'zgu ogohlantirish chirog'i yoki ovozli ogohlantirish signali yoqilganligidan qat'iy nazar, avtomobil boshqaruvi uchun javobgar bo'lishi kerak.
- Avtomobil audio tizimidan yuqori ovoz chiqishi BCW ogohlantirish signallarini bekor qilishi mumkin.
- Agar xavfsizlik kamaridan ogohlantirish signallari kabi boshqa ogohlantirish signallari eshitilsa, BCW ovozli signal eshitilmasligi mumkin.

### *Ko'rinmas hududda to'qnashuvni oldini olish tizimi (BCA)*

Agar avtomobil yaqinida / orqasida ma'lum masofada yaqinlashayotgan avtomobil aniqlansa, BCA tormozlashni boshlashi mumkin.

Agar avtomobil yaqinida / orqasida ma'lum masofada yaqinlashayotgan avtomobil aniqlansa, BCA tormozlashni boshlashi mumkin.



BCA avtomatik ravishda o'chadi:

- Avtomobil ma'lum masofada uzoqlashsa
- Avtomobil vektori mumkin bo'lgan to'qnashuv vektoriga nisbatan o'zgarsa
- Rul g'ildiragining keskin burilsa
- Tormoz pedali bosilsa
- Ma'lum vaqtdan o'tgandan so'ng

Tizimni tayyorlik holatida qo'llab-quvvatlash uchun haydovchi avtomobilni yo'lak o'rtasida ushlab turishi kerak.

Agar avtomobil yo'lning bir tomoniga juda yaqin harakat qilsa, tizim to'g'ri ishlamasligi mumkin.


Bundan tashqari tizim avtomobilni uning holatiga nomuvofiq holatda boshqarishi mumkin. Shuning uchun har doim yo'l harakati holatini diqqat bilan kuzatib borish kerak.



## EHTIYOT BO'LING

- Haydovchi to'g'ri boshqaruv uchun javobgardir.
- BCA bilan ishlayotganda rulni ortiqcha boshqarishdan saqlaning.
- Haydash paytida har doim juda ehtiyot bo'ling. BCA sizning haydash holatingizga mos holatda ishlamasligi yoki nosoz holatda ishlashi mumkin.
- BCA xavfsiz haydash texnikasi o'rnini bosa olmaydi va faqat qo'shimcha funksiya hisoblanadi. Kutilmagan holatlarning oldini olish uchun ehtiyotkorlik bilan haydash haydovchining majburiyatidir. Yo'ldagi vaziyatni doimiy kuzatib borish zarur.

## Aniqlash datchigi (old kamera va orqa burchakdagi radar)



### Old kuzatuv kamerasi

Old kamera - bu yo'lakdagi vaziyatni kuzatuvchi datchik. Agar datchiklar qor, yomg'ir yoki turli xil narsalar bilan ifloslangan bo'lsa, datchiklarning aniqlash qobiliyati yomonlashgani sababli tizim vaqtincha o'chishi yoki ishlamay qolishi mumkin. Datchik har doim toza bo'lishi kerak.

Old kamera bilan bog'liq ogohlantirishlar uchun "avtomobilni yo'lakda ushlab turishga yordamchi tizim (LKA)" bo'limiga qarang.


**Orqa yon radar** Orqa burchakdagi radarlar - bu orqa bamporda joylashgan, avtomobilning yon va orqa tomonlarini kuzatadigan datchiklar. Tizim to'g'ri ishlashi uchun orqa bampere toza bo'lishi kerak.

### ⚠️ DIQQAT

- Agar orqa bampere shikastlangan o'zgartirilgan yoki ta'mirlangan bo'lsa, tizim to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Aniqlanish maydoni ba'zan qatnov qismining kengligiga bog'liq bo'lishi mumkin. Tor yo'lda tizim transport vositalarini qo'shni yo'lakda qayd etishi mumkin. Boshqa tomondan, agar yo'l keng bo'lsa, tizim ikkala yo'lakda ham transport vositalarini aniqlay olmaydi va ogohlantirish ishga tushirilmasligi mumkin.
- Tizim kuchli elektromagnit to'lqinlar tufayli o'chrilishi mumkin.
- Datchik har doim toza bo'lishi zarur.
- Datchikni hech qachon demontaj qilmang yoki zarba bermang.

- Radar datchigi yoki datchik qopqog'iga ortiqcha kuch bermang. Agar datchik majburiy ravishda to'g'ri o'rnatilgan joyidan ko'chirilsa, tizim to'g'ri ishlamasligi mumkin. Bunday holatda ogohlantirish xabari ko'rsatilmasligi mumkin. Avtomobilni tekshirtirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga borishni maslahat beramiz.
- Radar datchigi yoniga bamber stikerlari yoki bamber panjarasi kabi turli xil narsalarni qo'yamang va datchik o'rnatish joyini bo'yamang. Bu uning sezgirligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- Hech qachon old oynaga aksessuarlar yoki stikerlar qo'ymang yoki old oynani qoraytirmang.
- Old kamerani suv kirishidan himoya qilishga alohida e'tibor bering.
- Hech qachon asboblarni kombinatsiyasiga aks ettiruvchi narsalarni (masalan, oq qog'oz, oyna) qo'ymang. Har qanday yorug'lik aksini tizimning noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.

### **Nazorat chirog'i va xabar**



Blind-Spot Collision Warning (BCW) system disabled. Radar blocked (Ko'rinmas hududda to'qnashuv haqida ogohlantirish (BCW) tizimi o'chirilgan. Datchik bloklangan)

Bu ogohlantirish xabari quyidagi hollarda ko'rsatilishi mumkin:

- Orqa bamberdagi bir yoki ikkita datchikka loy, qor yoki begona jism tiqilib qolgan bo'lsa.
- Datchik uzoq vaqt davomida boshqa transport vositalarini aniqlamaydigan qishloq joylarida harakatlanganda.
- Yomg'ir yoki qor kabi yomon ob-havo sharoitida.

Ushbu shartlardan birortasi sodir bo'lganda, tizim avtomatik ravishda o'chadi.

Agar asboblardan panelida BCW o'chirilganligi to'g'risida ogohlantirish yozuvi ko'rsatilsa, datchik joylashgan orqa bamparda loy va qor yo'qligiga ishonch hosil qiling. Datchikning normal ishlashi uchun loy, qor va to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa ifloslantiruvchi moddalarni olib tashlash kerak.


Ifloslantiruvchi moddalar olib tashlagandan so'ng BCW harakatlanish boshlaganidan taxminan 10 minut o'tgach to'g'ri ishlay boshlaydi.

Agar tizim to'g'ri ishlamasa, tizimni tekshirtirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qiling.

## **i** Ma'lumot


**Tirkama yoki velosiped tashish uchun mahkamlagichdan foydalanganda BCW, BCA va RCCA o'chirilgan bo'lishi kerak.**

«RCCAni o'chirish uchun "Foydalanuvchi Sozlamalari → haydovchiga yordamchi tizimi → "Xavfsiz parkovka → Orqaga qayrilma harakatlanish paytida to'qnashuv haqida ogohlantirish" parametrlarini tanlang.



**Check Blind-Spot Collision Warning (BCW) system (Ko'rinmas hududda to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimini tekshiring).**

BCW bilan bog'liq muammo bo'lsa, ogohlantirish xabari ko'rsatiladi. Tizim avtomatik ravishda o'chadi. BCW nosozligi sababli o'chib qolsa, BCA ishlamaydi. Avtomobilni tekshirtirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.



### **Chech Blind-Spot Collision-Avoidance (BCA) system (Ko'rinmas hududda to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimini tekshiring).**


BCA bilan bog'liq muammo bo'lsa, ogohlantirish xabari ko'rsatiladi. Tizim avtomatik ravishda o'chadi. BCA nosozlik tufayli o'chsa ham BCW ishlashda davom etadi. BCA tizimidan foydalanish uchun avtomobilingizni HYUNDAI vakolatli dileriga tekshirtirish tavsiya etiladi.

### **Tizim cheklovlari**

Haydovchi quyidagi holatlarda ehtiyotkor bo'lishi zarur chunki ba'zi hollarda tizim transport vositalarini yoki boshqa obyektlarni qayd eta olmaydi.

- Tirkama yoki osma ushlagichning mavjudligi.
- Noqulay ob-havo sharoitida haydash (masalan, kuchli yomg'ir yoki qor).  
Datchik yomg'ir suvi, qor, loy va boshqalar bilan ifloslangan bo'lsa.
- Datchik o'rnatilgan orqa bamberga begona narsalar bilan yopishtirish, masalan, stikerlar, bamber panjarasi, velosiped ushlab turuvchi mahkamlagich va boshqalar.
- Orqa bamporning shikastlanishi yoki datchikning asl joyidan ko'chirilishi.
- Avtotransport balandligi og'ir yuk shinalar bosimi yetarli emasligi va boshqalar tufayli o'zgargan bo'lsa.
- Orqa bamber yuqori harorat ta'sirida bo'lsa.
- Avtoturargohda boshqa transport vositalari, devorlar yoki ustunlar tomonidan datchiklar blokirovka qilinsa.
- Avtomobil egri chiziq bo'ylab harakatlansa.
- Avtomobil bojxona punktidan o'tsa.


- Yo'l qoplamasi (ustki qatlam) g'ayritabiyy miqdordagi metall komponentlar mavjud bo'lsa (ehtimol avtomobil yo'lining qurilishi tufayli).
- Yo'lak balandligi tik tushish yoki ko'tarilishda o'zgartirishda. Daraxtlar va butalar o'ralgan tor yo'lda haydashda.
- Ikkala tomonida to'siqlar yoki binolar bo'lgan yo'lda haydashda.
- Boshqa transport vositasini juda katta tezlikda quvib o'tishda.
- Datchik uzoq vaqt davomida boshqa transport vositalari yoki binolarni aniqlamaydigan qishloq joylarida harakatlanganda.
- Nam yo'llarda harakatlanganda.
- Ikkala tomonida to'siqlar yoki binolar bo'lgan yo'lda haydashda. Avtobus yoki yuk mashinasi kabi katta transport vositasi yonida harakatlanishda.
- Yondagi avtomobil bilan bir vaqtda ishga tushirish va tezlashishda.
- Boshqa transport vositasini juda katta tezlikda quvib o'tishda.
- Avtotransportni qo'shni yo'lakdan ikki yo'lak yon tomonga o'tkazish yoki ikki yo'lak narida bo'lgan transport vositasini qo'shni yo'lakka o'tkazishda.
- Yo'lakning boshqasiga o'zgartirishda
- Yaqin atrofda mototsikl yoki velosiped bo'lganda.
- Yaqin atrofda platforma tirkamasi bo'lsa.
- Agar aniqlash hududida xarid qilish yoki bolalar aravachasi kabi kichik narsalar bo'lsa.
- Sport avtomobili kabi past balandlikdagi transport vositasiga ega bo'lish.
- Tormoz pedali bosilgan bo'lsa.
- Elektron barqarorlikni boshqarish (ESC) tizimi faollashtirilgan bo'lsa.
- Elektron barqarorlikni boshqarish (ESC) tizimi faollashtirilgan bo'lsa.
- (ESC) tizimida nosozlik bo'lsa.
- Shinalar bosimi past yoki shinalar\ shikastlangan bo'lsa
- Tormoz qayta bosilsa.
- Avtomobil yo'nalishi keskin o'zgartirilsa.
- Avtomobil yo'lakni keskin o'zgartirilsa.
- Avtomobil to'satdan to'xtatilsa.
- Tashqi harorat juda past bo'lsa.
- Avtomobil notekis yo'llarda qattiq tebransa.
- Avtomobil qor, ko'lmak yoki muz kabi sirpanchiq sirtlarda boshqarilsa.
- Avtomobilni yo'lakda ushlab turishga yordamchi tizim (LKA) to'g'ri ishlamasa (mavjud bo'lganda) Batafsil ma'lumot uchun "Avtomobilni yo'lakda ushlab turishga yordamchi tizim (LKA)" bo'limigaga qarang.



- Qayrilma trayektoriya bo'ylab harakatlanish

Burilish paytida tizimlar to'g'ri ishlamasligi mumkin. Ba'zi hollarda tizim keyingi yo'lakdagi avtomobilni aniqlay olmaydi.


Haydash paytida ehtiyot bo'ling va yo'l sharoitlariga e'tibor bering.



- Yo'lni birlashadigan / bo'linadigan joyda haydash


Yo'l birlashadigan / bo'linadigan joyda tizimlar to'g'ri ishlamasligi mumkin. Ba'zi hollarda tizim keyingi yo'lakdagi avtomobilni aniqlay olmaydi.

Haydash paytida ehtiyot bo'ling va yo'l sharoitlariga e'tibor bering.



Burilish paytida tizimlar to'g'ri ishlamasligi mumkin. Ba'zi hollarda tizim bir yo'lakda bo'lgan transport vositasini tanimasligi mumkin.


Haydash paytida ehtiyot bo'ling va yo'l sharoitlariga e'tibor bering.



- Qiyalikda haydash

Qiyalik haydashda tizimlar to'g'ri ishlamasligi mumkin. Ba'zi hollarda tizim keyingi yo'lakdagi avtomobilni aniqlay olmaydi.

Haydash paytida ehtiyot bo'ling va yo'l sharoitlariga e'tibor bering.




- Har xil balandlikdagi yo'laklarda transport harakati

Harakatlanish har xil balandliklarda bo'lsa, tizimlar to'g'ri ishlamasligi mumkin.

Ba'zi hollarda tizim har xil balandlikdagi yo'lakda (chorrahada bo'linadigan yo'llar ayrilishida) avtomobilni aniqlay olmasligi mumkin.

Haydash paytida ehtiyot bo'ling va yo'l sharoitlariga e'tibor bering.



[A] : shovqindan saqlovchi to'siq [B]:to'siq

- Bino yaqinidagi yo'lda harakatlanish Bino yaqinidagi yo'lda harakatlanayotganda tizimlar to'g'ri ishlamasligi mumkin.

Ayrim hollarda tizim yo'l yaqinidagi binolarni (shovqindan himoya qiladigan to'siqlar, devorlar, ikki qavatli to'siqlar, bo'linadigan yo'laklar, ustunlar, ko'cha chiroqlari, yo'l belgilari, tunnel devorlari va boshqalar) to'g'ri tanimasligi mumkin.

Haydash paytida ehtiyot bo'ling va yo'l sharoitlariga e'tibor bering.



## Muvofiqlik deklaratsiyasi (mavjud bo'lganda)

### Radio chastotali komponentlar (orqa burchakdagi radar) quyidagi davlatlar uchun muvofiqdir:

#### ■ Tayvan uchun



ODN8069120L

電信法第 48 條, 低功率電波輻射性電機管理辦法

第十二條

經型式認證合格之低功率射頻電機, 非經許可, 公司、商號或使用者均不得擅自變更頻率、加大功率或變更原設計之特性及功能。

第十四條

低功率射頻電機之使用不得影響飛航安全及干擾合法通信; 經發現有干擾現象時, 應立即停用, 並改善至無干擾時方得繼續使用。前項合法通信, 指依電信法規定作業之無線電通信。低功率射頻電機須忍受合法通信或工業、科學及醫療用電波輻射性電機設備之干擾。

Article 12

Without permission, any company, firm or user shall not alter the frequency, increase the power, or change the characteristics and functions of the original design of the certified lower power frequency electric machinery.

Article 14

The application of low power frequency electric machineries shall not affect the navigation safety nor interface a legal communication, if an interference is found, the service will be suspended until improvement is made and the interference no longer exist.

ONATEL005

#### ■ Malayziya uchun



ODN8069117L

#### ■ Mo'g'uliston uchun




ODN8069118L

#### ■ Filippin uchun



ODN8069115L

■ Singapur uchun



ODN8069105L

N3346-15

OHCRO79070L

■ Vetnam uchun



ODN8069111L

■ Braziliya uchun



ODN8069109L

Este equipamento opera em caráter secundário, isto é, não tem direito à proteção contra interferência prejudicial, mesmo de estações do mesmo tipo, e não pode causar interferência a sistemas operando em caráter primário.

OHCRO79071L

■ Meksika uchun

IFETEL: RLWAMB15-2026

“La operación de este equipo está sujeta a las siguientes dos condiciones: (1) es posible que este equipo o dispositivo no cause interferencia perjudicial y (2) este equipo o dispositivo debe aceptar cualquier interferencia, incluyendo la que pueda causar su operación no deseada.”

OHCRO79072L

■ Paragvay uchun




■ O'zbekiston uchun




■ Ukraina uchun



■ Jazoir uchun



■ Iordaniya uchun



■ Moldova uchun



■ Ummon sultonligi uchun



■ BAA uchun




ODN8069110L


■ Argentina uchun



■ Mozambik uchun




■ Yamayka uchun



■ Zambiya uchun




■ CE sertifikatidan foydalanadigan Yevropa mamlakatlari uchun



## Kesishmalarda orqaga harakatlanishda ogohlantirish tizimi (RCCW) / Kesishmalarda orqaga harakatlanishda to'qnashuvni oldini olish tizimi (RCCA) (mavjud bo'lganda)

### Tizim tavsifi

**Orqaga harakatlanishda ehtimoliy to'qnashuv haqida ogohlantirish (RCCW)**



Orqaga yurishda RCCW orqa burchakdagi radar datchigi yordamida boshqa avtomobillarning chap va o'ng tomonga yaqinlashishini kuzatadi.

Ko'rinmas hududda aniqlash diapazoni yaqinlashayotgan avtomobil tezligiga bog'liq.

### **Orqaga harakatlanishda to'qnashuvni oldini olish funksiyasi (RCCA)**

RCCA avtomobil harakatlanayotganda chapdan va o'ngdan yaqinlashayotgan transport vositalarini kuzatadi.

RCCA yaqinlashib kelayotgan avtomobil bilan to'qnashuv ehtimoli asosida elektron barqarorlikni boshqarish tizimini (ESC) yoqishi mumkin. Bu to'qnashuv xavfi yoki to'qnashuvda shikastlanish ehtimolini kamaytiradi.



## EHTIYOT BO'LING

- Haydash paytida hatto, agar RCCW va RCCA ishlayotgan bo'lsa ham yo'l sharoitini doimo kuzatib borish va kutilmagan holatlarga tayyor bo'lish kerak.
- RCCW va RCCA yordamchi tizim hisoblanadi. Tizimlarga to'liq ishonib bo'lmaydi. Xavfsizlik nuqtayi nazaridan avtomobilni boshqarayotganda hushyor bo'lish lozim.
- RCCW va RCCA tizimlari xavfsiz haydash texnikasi o'rnini bosa olmaydi. Orqaga harakatlanishda ehtiyotkorlik bilan va xavfsiz harakatlaning.

## Tizim sozlamalari va faollashtirish

### Tizim sozlamalari

- O't oldirish qurilmasi yoqilganda, haydovchi "Foydalanuvchi Sozlamalari → haydovchiga yordamchi tizimi → xavfsiz parkovka → Orqaga harakatlanish xavfsizligi" parametrlarini tanlab tizimni yoqishi mumkin. "Orqaga harakatlanish xavfsizligi" parametri tanlanganida RCCA va RCCW tizimi yoqiladi.
- Dvigatelni to'xtatib qayta ishga tushirgandan so'ng tizim avvalgi holatiga qaytadi.
- Dvigatelni birinchi marta ishga tushirganda va keyin to'xtatib qayta ishga tushirganda, tashqi orqa tomonni ko'rsatuvchi ko'zgidagi yorug'lik indikator 3 soniya yonadi.

Haydovchi "Foydalanuvchi Sozlamalari → haydovchiga yordamchi tizimi → ogohlantirish taymeri" parametrlarini tanlash orqali LCD displeyidagi foydalanuvchi sozlamalarida yoki axborot-ko'ngilochar displeyda dastlabki ogohlantirishni ishga tushirish vaqtini tanlashi mumkin.

Kuzatuv hududidan tashqarida to'qnashuv haqida oldindan ogohlantirish variantlari:

- Normal [Normal]:

Bu parametr tanlanganida, ko'rinmas hududda to'qnashuvlar haqidagi dastlabki ogohlantirish normal hisoblanadi. Agar bu parametr sizga juda sezgir bo'lib tuyulsa, "Keyinroq" variantini tanlang.

Agar yon / orqa tomondan avtomobil tezlasha, ogohlantirish vaqti sekin ko'rinishi mumkin.

- Later [Keyinroq]:

Serqatnov yo'lda bo'lmasangiz va past tezlikda harakatlanayotgan bo'lsangiz ushbu variantni tanlang.

Haydovchi "Foydalanuvchi Sozlamalari → haydovchiga yordamchi tizimi → ogohlantirish ovoz balandligi → Baland/O'rtacha/Past" parametrlarini tanlash orqali ehtimoliy to'qnashuv haqida ogohlantirish uchun ovoz balandligi darajasini tanlashi mumkin.

### Ma'lumot

**Agar ogohlantirish ovoz balandligini o'zgartirsangiz, boshqa tizimlarning ogohlantirish ovoz balandligi ham o'zgarishi mumkin. Ogohlantirish ovoz balandligini o'zgartirganda buni hisobga olish kerak.**

### Ma'lumot

**Agar ogohlantirish vaqtini o'zgartirsangiz, boshqa tizimlarning ogohlantirish vaqti ham o'zgarishi mumkin.**

**Ogohlantirish vaqtini ongli ravishda sozlash lozim.**

### ***Ishlash sharoitlari***

Yoqish:

LCD yoki axborot-ko'ngilochar  
displayda "Foydalanuvchi  
Sozlamalari → haydovchiga  
yordamchi tizimi → xavfsiz  
parkovka → Orqaga harakatlanish  
xavfsizligi" parametrlariga kiring.  
Tizim yoqiladi va faollashtirishni  
kutish rejimiga o'tadi.

Avtotransport vositasi  
"R" (orqaga) holatida oraqaga  
soatiga 10 km dan kam tezlikda  
harakatlansa, tizim ishga tushadi.

\* Agar avtomobil tezligi 10 km / soat  
(7 mil / soat) dan oshsa, tizim  
ishlamaydi. Tezlik 8 km / soat (5  
mil / soat) dan pastga tushganda  
tizim qayta ishga tushadi.

Tizimni aniqlash diapazoni taxminan  
0,5 m-20 m (1-65 fut) ni tashkil qiladi.  
Avtomobil faqat uning tezligi soatiga  
8-36 km (5-22,5 mil) bo'lganida  
aniqlanadi.

Aniqlanish diapazoni va ish tezligi  
ma'lum sharoitlarda farq qilishi  
mumkinligiga e'tibor bering. Shuning  
uchun, orqaga harakatlanishda juda  
e'tiborli va ehtiyot bo'lish kerak.



## Ogohlantirish xabari va tizim boshqaruvi

### Orqaga yurish paytida ehtimoliy to'qnashuv haqida ogohlantirish (RCCW)





Agar radar datchiklar tomonidan aniqlangan boshqa avtomobil orqa tomondan chapga / o'ngga yaqinlashayotgan bo'lsa, signal eshitaladi, tashqi orqa tomonni ko'rsatuvchi ko'zgudagi indikator yonadi va LCD yoki axborot-ko'ngilochar displayda xabar ko'rsatiladi. Agar orqa monitor tizimi yoqilgan bo'lsa, axborot-ko'ngilochar tizim ekranida ham xabar ko'rsatiladi.

Quyidagi shartlar bajarilganda ogohlantirish o'chadi:

- Aniqlangan transport vositasi aniqlash maydonini tark etsa yoki
- Transport vositasi bevosita avtomobil orqasida joylashsa yoki
- avtomobil transport vositasiga yaqinlashmasa yoki
- boshqa avtomobil sekinlashsa.
- Yaqinlashayotgan avtomobilning tezligi pasayib ketsa.

## Orqaga yurish paytida to'qnashuvni oldini olish funksiyasi (RCCA)



Xavf tug'ilganda, RCCW tormoz tizimini ishga tushiradi. Asboblarni kombinatsiyasidagi indikator haydovchiga tormoz tizimini boshqarish haqida ma'lumot beradi. Agar orqa monitor tizimi yoqilgan bo'lsa, axborot-ko'ngilochar tizimi ekranida ham xabar ko'rsatiladi.

Tormoz ishga tushirilgandan so'ng haydovchi darhol tormoz pedalini bosishi va avtomobil atrofidagi vaziyatni tekshirishi kerak.

- Tizim tormozni taxminan 2 soniya ushlab turadi.

Haydovchi ehtiyot bo'lishi zarur chunki bu vaqtdan keyin tormoz qo'yib yuboriladi.

- Haydovchi tormoz pedalini yetarli kuch bilan bosganda tizim bekor qilinadi.
- Uzatish qutisini R "(orqaga)" holatiga o'tkazgandan so'ng tormozni boshqarish o'ng va chap tomonlar uchun bir marta qo'llaniladi.

ESC (Elektron barqarorlikni boshqarish tizimi) holatiga qarab tormoz tizimi to'g'ri boshqarilmasligi mumkin. Bunday holatda asboblarning kombinatsiyasida shunga o'xshash xabar ko'rsatiladi.

- Elektron barqarorlikni boshqarish tizimi (ESC) ogohlantirish chirog'i yonadi.
- ESC (elektron barqarorlikni boshqarish tizimi) boshqa funksiyadan foydalaniladi.



### DIQQAT

- **Avtomobil audio tizimining yuqori ovoz balandligida ishlashi tizimning ogohlantiruvchi ovozi to'sib qo'yishi mumkin.**
- **Bir vaqtning o'zida boshqa tizimning ogohlantirish ovozi ishga tushsa, orqaga yurish paytida to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi ovozi eshitilmasligi mumkin.**
- **Agar boshqa ogohlantirish signallari eshitilsa, masalan, xavfsizlik kamari taqilmagan bo'lsa, orqaga yurish paytida to'qnashuv haqida ogohlantiruvchi signal eshitilmasligi mumkin.**
- **Orqaga yurish paytida to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimini ishga tushirish shartlari bajarilib har qanday obyekt avtomobilning orqasidan yoki yonidan yaqinlashganda (avtomobilingiz tezligi taxminan 0 km / soat) har safar ogohlantirish eshitiladi.**
- **Agar avtomobilingizning chap / o'ng tomonida tizimning ishlashiga xalaqit beradigan to'siq bo'lsa, tizim ogohlantirishi va tormozlanish ishlamasligi mumkin.**
- **Haydovchi orqa tomonni ko'rsatuvchi ko'zgidagi indikator yoqilgan yoki yoqilmaganligidan, shuningdek, ovozli ogohlantirishdan qat'iy nazar, avtomobil boshqaruvi uchun javobgar bo'lishi kerak.**



## EHTIYOT BO'LING

- Avtotransport orqaga yurish paytida to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi va orqaga yurish paytida to'qnashuvni oldini olish funksiyasi bilan jihozlangan bo'lsa-da, haydovchi har doim mas'uliyat bilan haydashi kerak. Faqatgina bu tizimlarga tayanmaslik, orqaga yurishdan oldin har doim atrofni tekshirish lozim.
- Haydovchi avtomobil boshqaruvi uchun javobgardir.
- Haydash paytida har doim juda ehtiyot bo'ling. RCCA va RCCW tizimlari to'g'ri ishlamasligi yoki yo'l sharoitiga qarab noto'g'ri ishga tushirilishi mumkin.
- RCCW tizimi xavfsiz haydash texnikasining o'rnini bosa olmaydi va faqat qo'shimcha funksiya hisoblanadi. Kutilmagan holatlarning oldini olish uchun ehtiyotkorlik bilan haydash haydovchining majburiyatidir. Yo'ldagi vaziyatni doimiy kuzatib borish zarur.

## Aniqlash datchigi



Orqa burchakdagi radarlar - bu orqa bamperda joylashgan, avtomobilning yon va orqa tomonlarini kuzatadigan datchiklar. Tizim to'g'ri ishlashi uchun orqa bamper toza bo'lishi kerak.




## DIQQAT

- Agar orqa bamper shikastlangan, o'zgartirilgan yoki ta'mirlangan bo'lsa, tizim to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Kuchli elektromagnit to'lqinlar tufayli tizim o'chirilishi mumkin.
- Datchik har doim toza bo'lishi kerak.
- Datchikni hech qachon demontaj qilmang yoki zarba bermang.

- Radar datchigi yoki datchik qopqog'iga ortiqcha kuch bermang. Agar datchik majburiy ravishda to'g'ri o'rnatilgan joyidan ko'chirilsa, tizim to'g'ri ishlamasligi mumkin. Bunday holatda ogohlantirish xabari ko'rsatilmasligi mumkin. Avtomobilni tekshirtirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga borishni maslahat beramiz.
- Radar datchigi yoniga bamber stikerlari yoki bamber panjarasi kabi turli xil narsalarni qo'yamang va datchik o'rnatish joyini bo'yamang. Bu uning sezgirligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

### **Nazorat chirog'i va xabar**



**Blind-Spot Collision Warning (BCW) system disabled. Radar blocked (Ko'rinmas hududda to'qnashuv haqida ogohlantirish (BCW) tizimi o'chirilgan. Radar bloklangan)**

Bu ogohlantirish xabari quyidagi hollarda ko'rsatilishi mumkin:


- Orqa bamberdagi bir yoki ikkita datchikka loy, qor yoki begona jism tiqilib qolgan bo'lsa.
- Datchik uzoq vaqt davomida boshqa transport vositalarini aniqlamaydigan qishloq joylarida harakatlanganda.
- Yomg'ir yoki qor kabi yomon ob-havo sharoitida.

Ushbu shartlardan birortasi sodir bo'lganda, tizim avtomatik ravishda o'chadi.

Agar asboblari panelida BCW o'chirilganligi to'g'risida ogohlantirish yozuvi ko'rsatilsa, datchik joylashgan orqa bamparda loy va qor yo'qligiga ishonch hosil qiling. Datchikning normal ishlashi uchun loy, qor va to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa ifloslantiruvchi moddalarni olib tashlash kerak.

Ifloslantiruvchi moddalar olib tashlagandan so'ng BCW harakatlanish boshlaganidan taxminan 10 minut o'tgach to'g'ri ishlay boshlaydi.

Agar tizim to'g'ri ishlamasa, tizimni tekshirtirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qiling.



**Check Blind-Spot Collision Warning (BCW) system (Ko'rinmas hududda to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimini tekshiring).**

BCW bilan bog'liq muammo bo'lsa, ogohlantirish xabari ko'rsatiladi. Tizim avtomatik ravishda o'chadi. BCW nosozligi sababli o'chib qolsa, RCCA va RCCW ishlamaydi. Avtomobilni tekshirtirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.

## **i** Ma'lumot

Tirkama yoki velosiped tashish uchun mahkamlagichdan foydalanganda BCW, BCA va RCCA o'chirilgan bo'lishi kerak.


- BCA va BCWni o'chirish uchun  
"Foydalanuvchi Sozlamalari →  
haydovchiga yordamchi tizimi →  
"Ko'rinmas hudud" monitoringi →  
OFF" parametrlarini tanlang
- RCCAni o'chirish uchun  
"Foydalanuvchi Sozlamalari →  
haydovchiga yordamchi tizimi →  
"Xavfsiz parkovka → Orqaga qayrilma harakatlanish paytida to'qnashuv haqida ogohlantirish" parametrlarini tanlang.

### Tizim cheklovlari

Haydovchi quyidagi holatlarda ehtiyotkor bo'lishi zarur chunki ba'zi hollarda tizim transport vositalarini yoki boshqa obyektlarni qayd eta olmaydi.

- Tirkama yoki osma ushlagichning mavjudligi.
- Noqulay ob-havo sharoitida haydash (masalan, kuchli yomg'ir yoki qor).
- Datchik yomg'ir suvi, qor, loy va boshqalar bilan ifloslangan bo'lsa.
- Datchik o'rnatilgan orqa bamberga begona narsalar bilan yopishtirish, masalan, stikerlar, bamber panjarasi, velosiped ushlab turuvchi mahkamlagich va boshqalar.
- Orqa bamporning shikastlanishi yoki datchikning asl joyidan ko'chirilishi.
- Avtotransport balandligi og'ir yuk shinalar bosimi yetarli emasligi va boshqalar tufayli o'zgargan bo'lsa.
- Orqa bamber yuqori harorat ta'sirida bo'lsa.
- Avtoturargohda boshqa transport vositalari, devorlar yoki ustunlar tomonidan datchiklar blokirovka qilinsa.
- Avtomobil egri chiziq bo'ylab harakatlansa.
- Yo'l qoplamasi (ustki qatlam) g'ayritabiiy miqdordagi metall komponentlar mavjud bo'lsa (ehtimol avtomobil yo'lining qurilishi tufayli).
- Avtomobil yaqinida to'siq kabi turg'un obyekt bo'lsa.
- Yo'lak balandligi tik tushish yoki ko'tarilishda o'zgarganda.
- Daraxtlar va butalar qoplagan tor yo'lda haydashda.
- Datchik uzoq vaqt davomida boshqa transport vositalari yoki binolarni aniqlamaydigan qishloq joylarida harakatlanganda.
- Nam yo'llarda harakatlanganda.
- Ikkala tomonida to'siqlar yoki binolar bo'lgan yo'lda haydashda.
- Avtobus yoki yuk mashinasi kabi katta transport vositasi yonida harakatlanishda.
- Boshqa avtomobilga juda ham yaqinlashganda.
- Boshqa transport vositasini juda katta tezlikda quvib o'tishda.
- Yo'lakning boshqasiga o'zgartirishda.
- Yondagi avtomobil bilan bir vaqtda ishga tushirish va tezlashishda.
- Avtotransportni qo'shni yo'lakdan ikki yo'lak yon tomonga o'tkazish yoki ikki yo'lak narida bo'lgan transport vositasini qo'shni yo'lakka o'tkazishda.
- Yaqin atrofda mototsikl yoki velosiped bo'lganda.
- Yaqin atrofda platforma tirkamasi bo'lsa.


- Agar aniqlash hududida xarid qilish yoki bolalar aravachasi kabi kichik narsalar bo'lsa.
- Sport avtomobili kabi past balandlikdagi transport vositasiga ega bo'lish.
- Tormoz pedali bosilgan bo'lsa.
- Elektron barqarorlikni boshqarish tizimi (ESC) faollashtirilgan bo'lsa.
- ESC (elektron barqarorlikni boshqarish tizimi) da nosozlik bo'lsa.
- Shinalar bosimi past yoki shinalar shikastlangan bo'lsa.
- Tormoz qayta bosilsa.
- Avtomobil to'satdan to'xtatilsa.
- Tashqi harorat juda past bo'lsa.
- Avtomobil notekis yo'llarda qattiq tebransa.
- Avtomobil qor, ko'lماك yoki muz kabi sirpanchiq sirtlarda boshqarilsa.
- Agar avtomobil diagonal holatdagi parkovkadan keyin orqaga yurayotgan bo'lsa.



[A] : Bino

- Avtomobil yoki bino yaqinida haydash  
Avtomobil yoki bino yonida harakatlanayotganda tizim to'g'ri ishlamasligi mumkin.  
Ba'zi hollarda tizim orqadan yaqinlashayotgan avtomobilni aniqlay olmaydi, shunda ogohlantirish va tormoz kuchi to'g'ri qo'llanilmasligi mumkin.  
Haydash paytida har doim atrofingizga diqqat qiling.






- Avtomobilni chiqib ketish qiyin bo'lgan joylarda parkovka qilinganda

Avtomobil chiqib ketish qiyin bo'lgan joylarda parkovka qilingan bo'lsa, tizim to'g'ri ishlamasligi mumkin.

Ba'zi hollarda tizim avtomobilingiz yaqinida to'xtab turgan yoki to'xtash joyidan chiqib ketayotgan transport vositalari bilan to'qnashuv xavfini aniq aniqlay olmasligi mumkin (masalan, avtomobilingiz yonidan chiqib ketayotgan avtomobil, avtomobilingizning orqa tomonida to'xtab turgan yoki to'xtash joyidan chiqib ketayotgan avtomobil, avtomobilingizga burilayotgan transport vositasining yaqinlashishi va boshqalar).

Bunday holatda ogohlantirish va tormozlash to'g'ri ishlamasligi mumkin.




[A] : Avtomobil

- Avtomobil diagonal ravishda parkovka qilinganda

Avtomobil diagonal ravishda parkovka qilingan bo'lsa, tizim to'g'ri ishlamasligi mumkin.

Ba'zi hollarda masalan, diagonal ravishda parkovka qilingan avtomobil to'xtash joyini tark etsa, tizim avtomobilingiz orqasidan chapga/o'ngga yaqinlashayotgan transport vositasini aniqlamasligi mumkin. Bunday holatda ogohlantirish va tormozlash to'g'ri ishlamasligi mumkin.


Haydash paytida doimo atrofingizdan xabardor bo'ling.



- Avtomobil orqaga qarab parkovka qilinganda Agar avtomobil qiyalikda / qiyalik yaqinida bo'lsa, ushbu tizim to'g'ri ishlamasligi mumkin.

Ba'zi hollarda tizim orqa tomon chapdan/o'ngdan kelayotgan avtomobilni aniqlamasligi va ogohlantirish va tormozlash kuchi to'g'ri ishlatilmasligi mumkin.

Haydash paytida doimo atrofingizdan xabardor bo'ling.




[A] : Bino, [B] : Devor

- Bino yonidagi avtoturargohda parkovka qilinganda Agar avtomobil binoga yaqin joyda (avtomobilning orqa / yon tomonida) parkovka qilingan bo'lsa, tizim to'g'ri ishlamasligi mumkin.

Ba'zi hollarda to'xtash vaqtida tizim avtomobilingiz oldida turgan transport vositasini tanimasligi mumkin. Bunday holatda ogohlantirish va tormozlash to'g'ri ishlamasligi mumkin.


Parkovka qilish jarayonida hushyor bo'ling.



- Avtomobil orqaga qarab parkovka qilinganda

Agar avtomobil orqaga qarab parkovka qilingan bo'lsa va radar sensori to'xtash joyining orqa qismida boshqa transport vositasini aniqlasa, tizim ogohlantirish berishi va tormoz tizimini qo'llashi mumkin. Parkovka qilish jarayonida hushyor bo'ling.

## Avtomobilni yo'lakda ushlab turish tizimi (LKA) (mavjud bo'lganda)



Old oynadagi old tomon kuzatuv kamerasi yordamida avtomobilni yo'lakda ushlab turish tizimi (LKA) chiziq belgilarini qayd qiladi va haydovchiga transport vositasini yo'lakda ushlab turishga yordam beradi.

Agar tizim avtomobil o'z yo'lagidan (yoki yo'ldan) chetga chiqayotganini aniqlasa, u haydovchini vizual va ovozli signal bilan ogohlantiradi, shuningdek, avtomobil o'z yo'lagidan (yoki yo'ldan) chiqib ketishining oldini olish uchun rulning kichik aylanish momentini qarama-qarshi yo'nalishda qo'llaydi.

### EHTIYOT BO'LING

LKA xavfsiz haydash amaliyotining o'rnini bosmaydi va yordamchi funksiya hisoblanadi. Haydovchi doimo atrof-muhitni kuzatishi va avtomobil boshqaruvidan chalg'imasligi zarur.


### EHTIYOT BO'LING

LKAdan foydalanganda quyidagi ehtiyot choralarini ko'ring:

- Tizim rul boshqaruviga yordam berayotganda rul g'ildiragini keskin aylantirishdan saqlaning.
- LKA rul g'ildiragini boshqargan holda tasodifiy yo'lakdan chiqib ketishning oldini oladi. Biroq haydovchi faqat tizimga tayanmasligi, balki tanlangan yo'lakda harakatlanish uchun rulni boshqaruvini qo'lga olishi lozim.
- LKA ishlashi yo'l sharoitiga va avtomobil atrofidagi vaziyatga qarab to'xtashi yoki noto'g'ri bo'lishi mumkin. Haydash paytida doimo hushyor bo'ling.

- Old videokamerani oynani qoraytirish yoki har qanday turdagi qopqoq yoki aksessuarlar o'rnatish uchun vaqtinchalik demontaj qilmang. Agar kamera demontaj qilingan va keyin yig'ilgan bo'lsa, HYUNDAI vakolatli dilerida tizim kalibrlanishini tekshirtirish tavsiya etiladi.
- Old oyna, old videokamera yoki rul g'ildiragi qismlarini almashtirayotganda HYUNDAI vakolatli dilerida tizim kalibrlanishini tekshirtirish tavsiya etiladi.
- Old videokameradan foydalanib tizim yo'lakni aniqlaydi va rulni boshqaradi, shuning uchun yo'lakni ko'rish qiyin bo'lsa, tizim ishlamasligi mumkin.  
“Tizim cheklovlari” bo'limiga qarang.
- LKA bilan bog'liq qismlarni olib tashlamang yoki shikastlamang.
- Ovoz juda baland bo'lsa, LKA ogohlantirish signalini eshitmasligingiz mumkin.
- Agar xavfsizlik kamarining ogohlantirish signali kabi boshqa ovozli ogohlantirish tovushlari paydo bo'lsa, LKA signali chalinmasligi mumkin.
- Ko'zgu, oq qog'oz va hokazo kabi aks ettiruvchi narsalarni asboblardan kombinatsiyasiga qo'ymang, bu LKAning noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.
- LKA yoqilganda qo'llaringiz doimo rulda bo'lishi zarur.
- Rul boshqaruvi doimiy emas. Shuning uchun agar avtomobil yuqori tezlikda yo'lakni (yoki yo'l)ni tark etsa, tizim uni boshqara olmasligi mumkin. Tizimdan foydalanganda haydovchi tezlik chegaralariga rioya qilishi kerak.
- Rul g'ildiragiga jismlar birlashtirilgan bo'lsa, tizim rulni boshqarishga yordam bermasligi yoki qo'lni ruldanda olinganligi haqidagi signal to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Tirkama shatakka olinganda LKA o'chirilganligiga ishonch hosil qiling.

## LKA tizimining ishlashi



LKA ni yoqish / o'chirish:

- Yaqin Sharqdan tashqari

O't oldirish qurilmasi yoqilganda LKA tizimi avtomatik ravishda ishga tushadi. Asboblar kombinatsiyasidagi indikator (🚗) avval oq rangda yonadi. Bu LKA TAYYOR ekanligini ko'rsatadi, YOQILMAGANINI bildiradi.

Agar yo'lakda harakatlanayotgan, lekin haydovchining pastki chap tomonidagi asboblar kombinatsiyasida joylashgan xavfsizlik tugmasini bossangiz, LKA va asboblar kombinatsiyasidagi indikator o'chadi.

## LKA funksiyasini o'zgartirish

Haydovchi LKA ni belgilarni kuzatish tizimi (LDW) vazifasini bajarish uchun almashtirishi yoki LCD yoki axborot-ko'ngilochar displeyda LKA rejimini o'zgartirishi mumkin. "Foydalanuvchi sozlamalari"

- Haydovchiga yordamchi tizim
- Yo'lakda harakatlanish xavfsizligi
- Avtomobilni yo'lakda ushlab turish tizimi / yo'lak o'zgartirilganligi haqidagi ogohlantirish / OFF parametrlariga o'ting.

### **LKA (avtomobilni yo'lakda ushlab turish tizimi)**

Ushbu rejimda tizim haydovchiga transport vositasini yo'lakda ushlab turishda yordam beradi. Avtomobil yo'lak bo'ylab harakatlanayotganda u kamdan-kam hollarda rul boshqaruvini nazoratga oladi. Biroq agar avtomobil o'z yo'lagidan chetga chiqa boshlasa, tizim rulni boshqaradi.

### **LKA (avtomobilni yo'lakda ushlab turish tizimi)**

Ushbu rejimda tizim haydovchiga transport vositasini yo'lakda ushlab turishda yordam beradi. Avtomobil yo'lak bo'ylab harakatlanayotganda u kamdan-kam hollarda rul boshqaruvini nazoratga oladi. Biroq agar avtomobil o'z yo'lagidan chetga chiqa boshlasa, tizim rulni boshqaradi.

### O'chirilgan

"OFF [O'chirish]" tanlansa, LKA o'chiriladi.



LKA tizimini YOQISH uchun avtomobil tezligi kamida 60 km/soat (37 mil/soat) bo'lishi kerakligini unutmang.

Tizim yoqilgandan so'ng asboblarda kombinatsiyasidagi indikator yonadi.

Indikator rangi LKA holatiga qarab o'zgaradi.

- Oq : Datchik yo'lak chegaralarini aniqlamaydi yoki avtomobil tezligi soatiga 60 km (37 milya) dan past bo'ladi.
- Yashil : Datchik yo'lak chegaralarini qayd qiladi va tizim avtomobil boshqaruvini nazorat qilishga tayyor bo'ladi.


### Ma'lumot

Dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasi yoqilganda LKA avtomatik ravishda yoqiladi. Kalitdagi indikator yonadi va asboblarda kombinatsiyasidagi indikator avval oq rangda yonadi.

Haydovchi rulning pastki chap tomonidagi asboblarda kombinatsiyasida joylashgan LKA tugmachasini bosish yoki LCD displeyda Foydalanuvchi sozlamalari rejimida LDWni tanlash orqali LKAni o'chirib qo'yishi mumkin.

### LKA tizimining ishlashi




- LCD asboblarda kombinatsiyasidagi LKA ekranini ko'rish uchun Assist (Yordam) () rejimini tanlang. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun 4-bobdagi "LCD rejimlari" bo'limiga qarang.



- Agar avtomobil tezligi 60 km/soat (37 mil/soat) dan ohsa va tizim yo'lak belgilarini aniqlasa, yo'lak rangi kulrangdan oqqa o'zgaradi.
- Tizimning to'liq ishlashi uchun yo'lakning ikkala chizig'i ham aniqlanishi kerak.

- Avtomobil ekranga tushirilgan yo'lakdan oldinga chiqib ketganda LKA quyidagicha ishlaydi:




1. LCD displeyda vizual ogohlantirish paydo bo'ladi. Avtomobilning og'ish yo'nalishiga qarab LCD displeyda chap yoki o'ng yo'lak chegara chizig'i millitlaydi.
2. LKA quyidagi sharoitlarda yo'lak belgilarini kesib o'tishning oldini olish uchun transport vositasini nazorat qilish bo'yicha tuzatish choralarini ko'radi.
  - Avtomobil tezligi 60 km/soatdan past bo'lsa
  - Tizim yo'lak belgilarini (yoki yo'l chetlarini) aniqlasa
  - Haydash paytida avtomobil ikki yo'lak orasida joylashgan bo'lsa
  - Rulni keskin burganda.



Agar ikkala yo'lak chizig'i aniqlansa va LKAni yoqish uchun barcha shartlar bajarilsa, LKA indikator chirog'i oqdan yashil rangga o'zgaradi. Bu LKA yoqilganligini va rul boshqaruvi davom etayotganligini bildiradi.

### Nazorat chirog'i va xabar



#### ***Keer hands on steering wheel / [Qo'lni ruldanda olmang]***

Agar haydovchi LKA yoqilgan paytda qo'llarini ruldanda olsa, tizim uni bir necha soniyadanda so'ng ogohlantiradi.

#### ***i* Ma'lumot**

Rul juda bo'sh holda ushlab turilgan bo'lsa, LKA haydovchining qo'llari ruldanda ekanligini tasdiqlay olmasligi sababli ogohlantirish xabari paydo bo'lishi mumkin.

#### ***!* EHTIYOT BO'LING**

Yo'l harakati holatiga qarab ogohlantirish xabari juda kech paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun haydash paytida qo'l doimo ruldanda bo'lishi kerak.

#### ***!* EHTIYOT BO'LING**

- LKA faqat qo'shimcha funksiya hisoblanadi. Yo'lda hushyorturish va transport vositasini doimo yo'lakda ushlab turish haydovchining vazifasidir.
- Quyidagi holatlarda LKAni o'chiring va avtomobilni usiz boshqaring:
  - Yomon ob-havo sharoitida
  - Yomon holatdagi yo'l sharoitlarida
  - Haydovchi rulni tez-tez burganda
  - Transport vositasi tortilganda yoki shatakka olinganda

#### ***i* Ma'lumot**

- Tizim rul boshqaruviga yordam bersa ham haydovchi ruldanda foydalanishi mumkin.
- Rul boshqaruviga yordamchi tizimi ishlayotganida boshqaruv kuchi odatdagidan yuqori yoki pastroq bo'lishi mumkin.

## Check Lane Keeping Assist (LKA) system (Avtomobilni yo'lakda ushlab turishga yordamchi (LKA) tizimini tekshiring)



Tizimda muammo bo'lsa, bir necha soniyadan so'ng LCD displeyda xabar ko'rsatiladi. Muammo bartaraf etilmasa, LKA nosozlik indikatori yonadi.

### LKA indikatori



LKA noto'g'ri ishlasa nosozlik indikatori (sariq rangda) yonadi. Tizimni tekshirtirish uchun HYUNDAI vakolatli dileriga borishingiz tavsiya etiladi.

Agar tizimda muammo bo'lsa, quyidagilardan birini bajaring:

- Dvigatelni to'xtating va qayta ishga tushiring, keyin tizimni yoqing.
- O't oldirish qurilmasi yoqilganligiga ishonch hosil qiling.
- Ob-havo sharoitlarining (masalan, tuman, kuchli yomg'ir va boshqalar) tizimga ta'sirini tekshiring.
- Kamera obyektivida begona narsalar yo'qligini tekshiring.

Muammo bartaraf etilmasa, HYUNDAI vakolatli dileriga tizimni tekshirtirish tavsiya etiladi.

LKA yoqilmaydi va rul boshqaruviga tuzatuvchi ta'sir ko'rsatmaydi, agar:

- Yo'lakni almashtirishdan oldin burilish indikatori yoqilgan bo'lsa. Agar yo'lak o'zgarishi paytida burilish indikatori yoqilmagan bo'lsa, tizim rulni boshqarishda davom etishi mumkin.
- Tizim yoqilganda yoki yo'lakni darhol almashtirgandan so'ng avtomobil yo'lak o'rtasida harakatlanmasa.
- ESC (Elektron barqarorlikni boshqarish) yoki VSM (Avtomobil barqarorligini boshqarish) tizimlari yoqilgan bo'lsa.

- Avtomobil keskin burilganda.
- Avtomobil tezligi 60 km/soat (37 mil/soat) dan past va 180 km/soat (110 mil/soat) dan yuqori bo'lsa.
- Avtomobil yo'lakni keskin o'zgartirsa.
- Avtomobil keskin sekinlashsa.
- Faqat bitta yo'lak chegarasi aniqlansa.
- Yo'lda ikkitadan ortiq chiziqli belgilar mavjud bo'lsa, masalan, yo'l ta'mirlash ishlarida.
- Avtomobilni tik qiyalikda haydalganda.
- Rul keskin burilganda.
- Dvigatelni ishga tushirgandan yoki old videokamera tizimini yoqqan yoki qayta ishga tushirgandan so'ng, tizim taxminan 15 soniya davomida ishlamasligi mumkin.

### Tizim cheklovlari

Quyidagi holatlarda LKA avtomobil o'z yo'lagini tark etmagan bo'lsa ham muddatidan oldin ishga tushishi, haydovchiga yo'lakni tark etishi yoki rul boshqaruviga o'tmasligi haqida ogohlantirmasligi mumkin.

### Yomon holatdagi qoplama yoki yo'lak holatida


- Yo'l belgilarini yo'ldan, shikastlangan yoki noaniq belgilardan ajratish qiyin bo'ladi.
- Belgilar rangini yo'l qoplamasi rangidan farqlash qiyin bo'ladi.
- Yo'l sirtida kamera tomonidan to'g'ri aniqlanmagan yo'l belgilariga o'xshash belgilar mavjud bo'ladi.
- Belgi chizig'i (yoki yo'l cheti) ko'rinmaydi yoki shikastlangan bo'ladi.
- Yo'lak belgilari birlashadi yoki bo'linadi (masalan, bojxona punkti).
- Yo'laklar sonini yoki belgi chiziqlarining kesishishini ko'paytirish yoki kamaytirish kerak bo'ladi.
- Oldinda yo'lakda ikkitadan ortiq qator mavjud bo'ladi.
- Belgi chiziqlari juda yupqa yoki juda qalin bo'ladi.
- Yo'lak (yoki yo'l) juda keng yoki tor bo'ladi.

- Yo'laklarning (yoki yo'l chetlarining) ko'rinishi yomg'ir, qor, yo'l yuzasidagi suv, shikastlangan yoki iflos yo'l qoplamalari va boshqa omillar bilan cheklanadi.
- Belgilarga ajratuvchi chiziqlar, daraxtlar, to'siqlar, shovqindan himoyalovchi to'siqlar va boshqalarning soyasi tushadi.
- Belgi chizig'i juda murakkab yoki vaqtinchalik belgilar bo'ladi, masalan, yo'l ta'miri ishlarida.
- Yo'lda piyodalar o'tish belgilari yoki boshqa belgilar mavjud bo'ladi.
- Tunneldagi yo'llar (yoki yo'l chetlari) neft mahsulotlari va hokazolar bilan ifloslanadi.
- Chiziq birdan yo'qoladi, masalan, chorrahada.
- Ko'cha chiroqlari yoki kelayotgan transport vositalarining yorug'ligi nam yo'l yuzasida, masalan, ko'lmaklarda aks etadi.
- Quyosh nurlarining aks etishi tufayli old tomonni ko'rish qiyinlashadi.
- Oldindagi transport vositasiga yaqin masofa bu chiziqni (yoki yo'l chetini) aniqlashga imkon bermaydi yoki oldingi avtomobil belgi chiziqlari (yoki yo'l cheti) bo'ylab harakatlanadi.
- Tik qiyalikda, tepaga yoki burilishda haydash.
- Noqulay yo'l sharoitlari haydash paytida avtomobilning haddan tashqari tebranishiga olib keladi.
- To'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri va hokazolar ta'sirida ichki orqa ko'zgu atrofidagi yuqori harorat kuzatiladi.

### **Tashqi sharoitlar ta'sir ko'rsatganda**

- Tashqarida yorug'likning keskin o'zgarishi, masalan, tunnelga kirish yoki chiqish paytida yoki nazorat punkti ostida harakatlanayotganda.
  - Tashqarida yorug'lik juda past bo'lsa, masalan, kechasi faralar yoqilmagan yoki avtomobil tunnelda harakatlanayotganda.
  - Beton panjara, xavfsizlik panjarasi yoki aks ettiruvchi ustunlar kabi avtomobil yo'li chegarasining konstruksiyasi old videokamera tomonidan to'g'ri aniqlanmaganida.
- ### **Old tomondan kuzatuv yomonlashganda**
- LKA tizimining old oynasi yoki kamera obyektivlari ifloslangan bo'ladi.
  - Old oyna bug' bilan qoplangan bo'ladi; yo'lni aniq ko'rish qiyinlashadi.
  - Asboblar kombinatsiyasida turli xil obyekt va hokazo bo'ladi.
  - Old videokamera tuman, kuchli yomg'ir yoki qor tufayli yo'lak chegaralarini aniqlamaydi.

## Yo'lakni kuzatish tizimi (LFA) (mavjud bo'lganda)



Old oynadagi old tomon kuzatuv kamerasi yordamida yo'lakni kuzatish tizimi (LFA) chiziq belgilarini qayd qiladi va haydovchiga transport vositasini yo'lakda ushlab turishga yordam beradi.

### EHTIYOT BO'LING

LFA xavfsiz haydash amaliyotining o'rnini bosmaydi va yordamchi funktsiya hisoblanadi. Haydovchi doimo atrof-muhitni kuzatishi va avtomobil boshqaruvidan chalg'imasligi zarur.


### EHTIYOT BO'LING

LFA dan foydalanganda quyidagi ehtiyot choralarini ko'ring:

- Tizim rul boshqaruviga yordam berayotganda rul g'ildiragini keskin aylantirishdan saqlaning.
- LFA rul g'ildiragini boshqargan holda tasodifiy yo'lakdan chiqib ketishning oldini oladi. Biroq haydovchi faqat tizimga tayanmasligi, balki tanlangan yo'lakda harakatlanish uchun rulni boshqaruvini qo'lga olishi lozim.
- LFA ishlashi yo'l sharoitiga va avtomobil atrofidagi vaziyatga qarab to'xtashi yoki noto'g'ri bo'lishi mumkin. Haydash paytida doimo hushyor bo'ling.

- Old videokamerani oynani qoraytirish yoki har qanday turdagi qopqoq yoki aksessuarlar o'rnatish uchun vaqtinchalik demontaj qilmang. Agar kamera demontaj qilingan va keyin yig'ilgan bo'lsa, HYUNDAI vakolatli dilerida tizim kalibrlanishini tekshirtirish tavsiya etiladi.
- Old oyna, old videokamera yoki rul g'ildiragi qismlarini almashtirayotganda HYUNDAI vakolatli dilerida tizim kalibrlanishini tekshirtirish tavsiya etiladi.
- Old videokameradan foydalanib tizim yo'lakni aniqlaydi va rulni boshqaradi, shuning uchun yo'lakni ko'rish qiyin bo'lsa, tizim ishlamasligi mumkin. "Tizim cheklovlari" bo'limiga qarang.
- LFA bilan bog'liq qismlarni olib tashlamang yoki shikastlamang.
- Ovoz juda baland bo'lsa, LFA ogohlantirish signalini eshitmasligingiz mumkin.
- Ko'zgu, oq qog'oz va boshqalar kabi aks ettiruvchi narsalarni asboblarni kombinatsiyasiga qo'ymang. Quyosh nurlarining aks etishi tizimning noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.
- LFA yoqilganda qo'llar doimo rulda bo'lishi zarur. Agar ekranda "Keep hands on steering wheel [Qo'lni ruldanda olmang]" xabari paydo bo'lgandan so'ng, siz rulni qo'lda ushlab turmasdan haydashda davom etsangiz, tizim avtomatik ravishda o'chadi. Biroq agar haydovchi yana qo'llarini rulga qo'ysa, tizim rulni boshqarishda davom etadi.
- Rul boshqaruvi doimiy emas. Shuning uchun agar avtomobil yuqori tezlikda yo'lakni (yoki yo'lni) tark etsa, tizim uni boshqara olmasligi mumkin. Tizimdan foydalanganda haydovchi tezlik chegaralariga rioya qilishi kerak.
- Rul g'ildiragiga jismlar biriktirilgan bo'lsa, tizim rulni boshqarishga yordam bermasligi yoki qo'lni ruldanda olinganligi haqidagi signal to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Tirkama shatakka olinganda LFA o'chirilganligiga ishonch hosil qiling.

## LFA tizimining ishlashi



Dvigatelni ishga tushirish / to'xtatish tugmasi "ON" yoki "START" holatida bo'lsa, yo'lakni kuzatish tizimini tugmani bosish orqali faollashtirish mumkin.

### ***Ishlash shartlari***

Tizimning faollashishi asboblarni kombinatsiyasidagi ogohlantiruvchi chiroq (⊕) bilan ko'rsatiladi. Indikator chirog'ining rangi LFA holatiga qarab o'zgaradi.


- Yashil: tizim faol holatida.
- Oq: tizim kutish rejimida.

## ***LFA tizimini yoqish***

- LFA yoqilgandan so'ng agar avtomobil yo'lda bo'lsa, har ikki tomondagi yo'lak belgilari qayd etiladi (yo'lak rangi kulrangdan oqqa o'zgaradi) va haydovchi rulni keskin burmasa, indikator chirog'i oqdan yashil rangga o'zgaradi. Bu LFA YOQILGAN holatda ekanligini va rul boshqaruvini nazorat qilishini ko'rsatadi.
- Boshqaruv vaqtincha o'chirilgan bo'lsa, indikator rangi yashildan oqqa o'zgaradi.
- Agar tizim belgi chizig'ini tanimasa yoki oldindagi avtomobil holatiga qarab (avtomobil mavjudligi, haydash sharoitlari va h.k.), rul cheklangan holatda boshqariladi.

Agar rul boshqaruvi vaqtincha to'xtatilsa, funksiyani faollashtirish indikatorini yashil rangda yonadi va keyin oq rangga o'zgaradi.

## Ogohlantirish xabari



### Keep hands on steering wheel

#### [Qo'lni ruldanda olmang]

Agar haydovchi LFA yoqilgan paytda qo'llarini ruldanda olsa, tizim uni bir necha soniyadan so'ng ogohlantiradi.

#### **i** Ma'lumot

Rul juda bo'sh holda ushlab turilgan bo'lsa, LFA haydovchining qo'llari ruldanda ekanligini tasdiqlay olmasligi sababli ogohlantirish xabari paydo bo'lishi mumkin.

#### **!** EHTIYOT BO'LING

Yo'l harakati holatiga qarab, ogohlantirish xabari juda kech paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun, haydash paytida qo'l doimo ruldanda bo'lishi kerak.

Agar "Keep hands on steering wheel" [qo'lni ruldanda olmang] ogohlantirish xabari paydo bo'lgandan keyin haydovchi qo'llarini rulgaga qaytarmasa, tizim endi rulni boshqara olmaydi va haydovchi faqat yo'lak chegaraga chizig'ini kesib o'tganda ogohlantiriladi.

Biroq agar haydovchi yana qo'llarini rulgaga qo'ysa, tizim rulni boshqarishda davom etadi.


#### **!** EHTIYOT BO'LING

- Haydovchi avtomobil boshqaruvi uchun javobgardir.
- Quyidagi holatlarda avtomobilni tizimni o'chirgan holatda boshqaring.
  - Yomon ob-havo sharoitida
  - Yomon holatdagi yo'l sharoitida
  - Rul haydovchi tomonidan tez-tez burilsa.

#### **i** Ma'lumot

- Tizim rul boshqaruviga yordam bersa ham haydovchi ruldanda foydalanishi mumkin.
- Rul boshqaruviga yordamchi tizimi ishlayotganida boshqaruv kuchi odatdagidan yuqori yoki pastroq bo'lishi mumkin.





### Check Lane Following Assist (LFA) system (LFA) tizimini tekshiring (yo'lakni kuzatish tizimi)

Tizimda muammo bo'lsa, bir necha soniyadan so'ng xabar ko'rsatiladi. Muammo bartaraf etilmasa, LFA nosozlik indikatorini yonadi.

### LFA "ASSIST" (YORDAMCHI) funksiyasini bajarmaydi, qachonki:

- Yo'lakni almashtirishdan oldin burilish indikatorini yoqilgan bo'lsa. Agar yo'lak o'zgarishi paytida burilish indikatorini yoqilmagan bo'lsa, tizim rulni boshqarishda davom etishi mumkin.
- Tizim yoqilganda yoki yo'lakni darhol almashtirgandan so'ng avtomobil yo'lak o'rtasida harakatlanmasa.
- ESC (Elektron barqarorlikni boshqarish) yoki VSM (Avtomobil barqarorligini boshqarish) tizimlari yoqilgan bo'lsa.
- Keskin burilish amalga oshirilsa.

- Transport vositasi tezligi:
  - Yaqin Sharq: 145 km/soat (90 mil/soat) bo'lsa
  - Yevropa va Avstraliya: 175 km/soat (108 mil/soat) bo'lsa
- Yo'lak keskin o'zgartirilsa.
- Keskin tormoz berilsa.
- Faqat bitta yo'lak chegarasi aniqlansa.
- Yo'lak juda keng yoki tor bo'lsa.
- Burilish radiusi juda kichik bo'lsa.
- Qiyalikdan pastga tushilsa.
- Rulni keskin burish amalga oshirilsa.
- Dvigatelni ishga tushirgandan yoki old videokamera tizimini yoqqan yoki qayta ishga tushirgandan so'ng, tizim taxminan 15 soniya davomida ishlamasligi mumkin.

## Tizim cheklovlari

Quyidagi holatlarda LFA avtomobil o'z yo'lagini tark etmagan bo'lsa ham muddatidan oldin ishga tushishi, haydovchiga yo'lakni tark etishi yoki rul boshqaruviga o'tmasligi haqida ogohlantirmasligi mumkin.

## Yomon holatdagi qoplama yoki yo'lak holatida

- Yo'l belgilarini yo'ldan, shikastlangan yoki noaniq belgilardan ajratish qiyin bo'ladi.
- Belgilar rangini yo'l qoplamasi rangidan farqlash qiyin bo'ladi.
- Yo'l sirtida kamera tomonidan to'g'ri aniqlanmagan yo'l belgilariga o'xshash belgilar mavjud bo'ladi.
- Belgi chizig'i (yoki yo'l cheti) ko'rinmaydi yoki shikastlangan bo'ladi.
- Yo'lak belgilari birlashadi yoki bo'linadi (masalan, bojxona punkti).
- Yo'laklar sonini yoki belgi chiziqlarining kesishishini ko'paytirish yoki kamaytirish kerak bo'ladi.
- Oldinda yo'lakda ikkitadan ortiq qator mavjud bo'ladi.
- Belgi chiziqlari juda yupqa yoki juda qalin bo'ladi.
- Yo'lak (yoki yo'l) juda keng yoki tor bo'ladi.

- Yo'laklarning (yoki yo'l chetlarining) ko'rinishi yomg'ir, qor, yo'l yuzasidagi suv, shikastlangan yoki iflos yo'l qoplamalari va boshqa omillar bilan cheklanadi.
- Belgilarga ajratuvchi chiziqlar, daraxtlar, to'siqlar, shovqindan himoyalovchi to'siqlar va boshqalarning soyasi tushadi.
- Belgi chizig'i juda murakkab yoki vaqtinchalik belgilar bo'ladi, masalan, yo'l ta'miri ishlarida
- Yo'lda piyodalar o'tish belgilari yoki boshqa belgilar mavjud bo'ladi
- Tunneldagi yo'llar (yoki yo'l chetlari) neft mahsulotlari va hokazolar bilan ifloslanadi
- Chiziq birdan yo'qoladi, masalan chorrahada

## Tashqi sharoitlar ta'sir ko'rsatganda

- Tashqarida yorug'likning keskin o'zgarishi, masalan, tunnelga kirish yoki chiqish paytida yoki nazorat punkti ostida harakatlanayotganda.
- Tashqarida yorug'lik juda past bo'lsa masalan, kechasi faralar yoqilmagan yoki avtomobil tunnelda harakatlanayotganda.
- Beton panjara, xavfsizlik panjarasi yoki aks ettiruvchi ustunlar kabi avtomobil yo'li chegarasining konstruksiyasi old videokamera tomonidan to'g'ri aniqlanmaganida

- Ko'cha chiroqlari yoki kelayotgan transport vositalarining yorug'ligi nam yo'l yuzasida, masalan, ko'lmaklarda aks etadi.
- Quyosh nurlarining aks etishi tufayli old tomonni ko'rish qiyinlashadi.
- Oldindagi transport vositasiga yaqin masofa bu chiziqni (yoki yo'l chetini) aniqlashga imkon bermaydi yoki oldingi avtomobil belgi chiziqlari (yoki yo'l cheti) bo'ylab harakatlanadi.
- Tik qiyalikda, tepaga yoki burilishda haydash.
- Noqulay yo'l sharoitlari haydash paytida avtomobilning haddan tashqari tebranishiga olib keladi.
- To'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri va hokazolar ta'sirida ichki orqa ko'zgu atrofidagi yuqori harorat kuzatiladi.
- Sun'iy past-balandliklardan o'tish yoki tik qiyalikdan yuqoriga yoki pastga, o'ngga yoki chapga haydashda datchik sezuvchanligi to'satdan o'zgaradi.

### **Old tomondan kuzatuv yomonlashganda**

- LKA tizimining old oynasi yoki kamera obyektivlari ifloslangan bo'ladi.
- Old oyna bug' bilan qoplangan bo'ladi; yo'lni aniq ko'rish qiyinlashadi.
- Asboblarning kombinatsiyasida turli xil obyekt va hokazo bo'ladi.
- Old videokamera tuman, kuchli yomg'ir yoki qar tufayli yo'lak chegaralarini aniqlamaydi.

## HAYDOVCHI DIQQATINI NAZORAT QILISH TIZIMI (DAW) (mavjud bo'lganda)

Haydovchining diqqatini nazorat qilish (DAW) tizimi haydovchining charchoq darajasini yoki uning haydash xulq-atvorini hisobga olgan holda e'tiborsizlik darajasini ko'rsatadi.

- Normal [Normal]:

DAW haydovchini "Keyinroq" rejimiga qaraganda avtomobil tezroq haydalganda e'tiborning pasayishi yoki charchoq haqida ogohlantiradi.

### Tizim konfiguratsiyasi va boshqaruvi

#### Tizim sozlamalari

- DAWni yoqish uchun dvigatelni ishga tushiring va LCD displey yoki axborot-ko'ngilochar panelida "Foydalanuvchi Sozlamalari" => "Haydovchiga yordamchi tizim" => "Haydovchi diqqatini nazorat qilish darajasi" => "Qiyalik haqida ogohlantirish"] bandini tanlang.
- Dvigatel qayta ishga tushirilganda DAW sozlamalari saqlanib qoladi.
- Haydovchi diqqatini nazorat qilish tizimi sozlamalari dvigatelni qayta ishga tushirishda saqlanib qoladi.

- Later [Keyinroq]:

DAW haydovchini "Normal" rejimiga qaraganda avtomobil tezroq haydalganda kam e'tibor yoki charchoq haqida ogohlantiradi.






#### Ma'lumot


Ogohlantirish vaqti sozlamalarini o'zgartirish FCA kabi boshqa haydovchilarga yordamchi tizimlar sozlamalarini o'zgartirishi mumkin.

#### Ogohlantirish taymerini tanlash

Haydovchi "Foydalanuvchi Sozlamalari" => "Haydovchiga yordamchi tizim" => "Ogohlantirish taymeri"ni tanlab, LCD displeydagi foydalanuvchi sozlamalarida dastlabki ogohlantirish vaqtini tanlashi mumkin. E'tiborsizlik bilan haydash haqida dastlabki ogohlantirish variantlari quyidagilardan iborat:

## Haydovchi diqqati darajasini ko'rsatish




ASSIST Mode (yordamchi rejim) rejimi tizim yoqilgan holatda tanlanganida LCD displeyda DAW ekrani paydo bo'ladi (Qo'shimcha ma'lumot olish uchun 4-bobdagi "LCD rejimlari" bo'limiga qarang.) 

- Haydovchi diqqati darajasi 1 dan 5 gacha bo'lgan shkalada ko'rsatiladi. Bu daraja qanchalik past bo'lsa, haydovchi haydashda shunchalik beparvo bo'ladi.
- Haydovchi haydash vaqtida ma'lum vaqt davomida tanaffus qilmasa, daraja pasayadi.
- Haydovchi ma'lum vaqt oralig'ida avtomobilni diqqat bilan boshqarganida daraja ortadi.
- Ushbu tizim haydash paytida yoqilganda ekranda oxirgi tanaffus vaqti ko'rsatiladi.

- Haydovchi asoboblar kombinatsiyasidagi LCD displeyda haydash holatini tekshirishi mumkin.

## Tanaffus qiling




- Haydovchi diqqatini nazorat qilish tizimi asboblarni kombinatsiyasidagi LCD displeyda “Consider taking a break [Tanaffus qilish haqida o‘ylab ko‘ring]” degan xabarni ko‘rsatadi va haydovchi diqqati 1-darajadan pastga tushsa, tanaffus qilish haqida ogohlantiruvchi ovoqli signallarni chiqaradi.
- Agar umumiy haydash vaqti 10 daqiqadan kam bo‘lsa, DAW tanaffus qilishni taklif qiladi va tanaffusdan keyin 10 daqiqa qo‘shimcha tanaffus qilishni tavsiya etmaydi.

## Tizim ko‘rsatkichlarini qayta o‘rnatish

- Haydovchi DAWni qayta o‘rnatganida oxirgi dam olish vaqti 00:00 ga va haydovchi diqqati darajasi 5ga (juda diqqatli) o‘rnatiladi.
- Quyidagi holatlarda DAW oxirgi tanaffus vaqtini 00:00 ga va haydovchining diqqat darajasini 5 ga tiklaydi.
  - Dvigatel o‘chirilganda.
  - Haydovchi xavfsizlik kamarini yechganda va haydovchi tomondagi eshikni ochganda.
  - Avtotransport 10 daqiqadan ko‘proq vaqt davomida to‘xtab turganda.
- Haydovchi haydashni davom ettirganda DAW yana yoqiladi.


## Tizimning kutish rejimi



DAW kutish holatiga o'tadi va "Standby" ekrani quyidagi holatlarda paydo bo'ladi:

- Tizim transport vositasi haydovchisining haydash sharoitlarini kuzatish uchun ma'lumotlarni to'play olmasa.
- Haydash tezligi 180 km/soat (112 mil/soat)dan yuqori bo'lsa.

## Tizimning kutish rejimi



**Check Driver Attention Warning (DAW) system [DAW funksiyasini tekshirish]**

"Check Driver Attention Warning (DAW) [DAW funksiyasini tekshirish" ogohlantirish xabari ko'rsatilganda tizim to'g'ri ishlamayotgan bo'ladi. Bunday holatda avtomobilingizni HYUNDAI vakolatli dileriga tekshirtirish tavsiya etiladi.



## EHTIYOT BO'LING

- DAW xavfsiz haydash amaliyotining o'rnini bosa olmaydi va faqat qo'shimcha funktsiya hisoblanadi. Doimo kutilmagan vaziyatlarning oldini olish uchun ehtiyotkorlik bilan haydash haydovchining vazifasidir. Yo'ldagi vaziyatni doimiy ravishda kuzatib borish kerak.
- DAW tegishli ogohlantirishlar bermasa ham haydovchi tanaffus qilishi lozim.



## Ma'lumot

Tizim haydovchining haydash uslubi yoki odatlariga ko'ra hatto charchoqni his qilmasa ham tanaffus qilishni taklif qilishi mumkin.

## MA'LUMOT UCHUN

DAW o'z ishi uchun old oynadagi old kuzatuv kamerasidan foydalanadi. Old kuzatuv kamerasining ish holatini saqlab qolish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

- Hech qachon old oynaga aksessuar yoki stikerlarni joylashtirmang yoki old oynani qoraytirmang.
  - Asboblarning kombinatsiyasiga hech qanday aks ettiruvchi narsalar (masalan, oq qog'oz, oyna)ni qo'ymang. Yorug'likning har qanday aks etishi tizimning noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.
  - Videokamera datchigini suv kirishidan himoya qilishga alohida e'tibor bering.
  - Hech qachon videokamera uzelinii qismlarga ajratmang yoki videokamera uzeligga zarba bermang.
- Datchik to'g'ri o'rnatilgan holatidan majburan olib tashlansa, tizim to'g'ri ishlamasligi mumkin. Tizimning kalibrlanishini tekshirtirish uchun HYUNDAI vakolatli dileriga murojaat qiling.





## DIQQAT

DAW quyidagi holatlarda ogohlantirish bermasligi mumkin:

- Dvigatelni ishga tushirgandan yoki old videokamera tizimini yoqqan yoki qayta ishga tushirgandan so'ng tizim taxminan 15 soniya davomida ishlamasligi mumkin.
- Yo'lakni aniqlash funksiyasi cheklangan bo'lsa. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun ushbu bobdagi "Yo'lakda ushlab turish tizimi (LKA)" bo'limiga qarang.
- Avtotransport vositasi notekis boshqarilsa yoki to'siqqa urilib ketmaslik uchun keskin burilsa (masalan, qurilish maydonida, notekis yo'lda, boshqa transport vositalari, yiqilib tushadigan narsalar bilan to'qnashuvdan qochish uchun).
- Avtomobil old g'ildiragi boshqaruvini oldindan aytib bo'lmaydi (ehtimol bu shinalar bosimidagi katta farqlar, shinalarning yeyilishi, ag'darilish / ko'tarilish bilan bog'liq).
- Avtomobil egri trayektoriyada harakatlansa.
- Avtomobil kuchli shamol sharoitida harakatlansa.
- Avtomobil past-baland yo'lda harakatlansa.

- Avtomobil quyidagi haydashga yordam tizimlari tomonidan boshqariladi:

- Yo'lakda ushlab turish tizimi (LKA)
- Old tomondan to'qnashuvni oldini olish tizimi (FCA)



## DIQQAT

Avtomobil audio tizimi orqali baland ovoz balandligidagi audio ijrosi DAW ogohlantirish signallarini bekor qilishi mumkin.

## Oldindagi avtomobil harakati haqida ogohlantirish (mavjud bo'lganda)

Oldindagi avtomobil uzoqlashgandan so'ng tizim bu haqda haydovchiga xabar beradi.

### Tizimni sozlash va ishlash shartlari

#### **Tizim sozlamalari**

O't oldirish qurilmasi yoqilgan holda oldindagi avtomobil harakati haqida ogohlantirish tizimini yoqish uchun asboblarni kombinatsiyasida "Foydalanuvchi sozlamalari" → "Haydovchi yordamchisi tizimi" → "Haydovchi diqqatni nazorat qilish" → "Oldindagi avtomobil uzoqlashganligi haqida ogohlantirish"ni tanlang. Sozlamalarda o'chirilgan bo'lsa, tizim ishlashni to'xtatadi. Biroq dvigatelni to'xtatib qayta ishga tushirgandan so'ng tizim avvalgi holatiga qaytadi.

#### **Ishlash sharoitlari**



Oldingi avtomobil uzoqlashgandan so'ng asboblarni kombinatsiyasida ogohlantirish xabari paydo bo'ladi.

### EHTIYOT BO'LING

- Oldindagi avtomobil harakati haqida ogohlantirish tizimi yordamchi bo'lib, oldindagi avtomobil uzoqlashganda signal bermasligi mumkin.
- Tizim haydovchiga oldindagi transport vositasining harakatini aniqlab olish imkonini bersa-da, u doimo atrof-muhitni kuzatishi va shunga mos ravishda haydash haqida qaror qabul qilishi lozim.



## DIQQAT

- Oldindagi avtomobil harakati haqida ogohlantirish tizimi old kuzatuv kamerasidan foydalanadi. Old kuzatuv kamerasining optimal ishlashi uchun haydovchi uning holatini diqqat bilan kuzatishi lozim. Batafsil ma'lumot uchun Lane Keeping Assist [yo'lakda ushlab turish tizimi] (LKA) ogohlantirish eslatmalariga qarang.
- Oldindagi avtomobil harakati to'g'risida ogohlantirish tizimi O'CHIRILGAN holatda bo'ladi, agar:
  - Transport vositasi oldida odam yoki velosiped bo'lsa.
  - Avtomobil qo'shni yo'lakdan sizning qatoringizga o'tsa
  - Oldindagi transport vositasi to'satdan harakatlana boshlasa yoki orqaga burilsa.
  - Avtmobil yo'lda yoki qiyalikda sun'iy tepalikka qo'yilgan bo'lsa.
  - Avtomobil o'ngga burilish paytida yoki egri trayektoriyada harakatlanayotganda to'xtasa.
  - Pats-balandliklar kabi qiyin yo'l sharoitlarida.
  - Avtomobil yo'l chetida, dam olish maskanida yoki to'xtash joyida to'xtatilsa.
  - Dvigatel ishga tushirilgandan yoki old videokamera yoqilgandan yoki qayta ishga tushirilgandan keyin tizim taxminan 15 soniya davomida ishlamasligi mumkin.

## KO'RINMAS HUDUD MONITORI (BVM) (MAVJUD BO'LGANDA)



Chap yoki o'ng burilish indikatorlari yonganda ko'rinmas hudud monitori asboblari kombinatsiyasining orqasida chap yoki o'ng tomonidagi ko'rinmas hududlarni ko'rsatadi. Bu xususiyat qatorlarni almashtirishda xavfsizlikni yaxshilaydi.

- Tizim quyidagi shartlar bajarilganda faollashadi.
  1. Dvigatel ishlayotgan bo'lsa.
  2. Burilish indikatorlari yoqilgan bo'lsa.


- Quyidagi shartlardan biri bajarilganda tizim o'chiriladi:
  - Kontakt o'chirilgan bo'lsa.
  - Burilish indikatorlari o'chirilgan bo'lsa
  - Ogohlantirish chirog'i yoqilgan bo'lsa.
  - Ko'rinmas hudud monitoring tizimini bekor qiladigan ogohlantirish ekrani ko'rsatilsa.

### EHTIYOT BO'LING

- Bu tizim faqat qo'shimcha funktsiya hisoblanadi. Haydovchi burilish yoki yo'lakni o'zgartirishdan oldin transport vositasining atrofini doimiy ravishda kuzatib borishi lozim.
- Haydashdan oldin to'qnashuvning oldini olish uchun avtomobil atrofida hech qanday narsa yo'qligiga ishonch hosil qiling.
- Obyektlar ko'ringanidan ko'ra yaqinroq bo'ladi. Yo'lakni o'zgartirishdan oldin vizual xavfsizlik tekshiruvini o'tkazmaslik jiddiy jarohat yoki o'limga olib keladigan yo'l-transport hodisasiga olib kelishi mumkin.
- Kamera obyektivlarini har doim toza tuting. Obyektiv begona moddalar bilan qoplangan bo'lsa, kamera normal ishlamasligi mumkin.

## Harakatlanish nazorati (SS)

### Harakatlanish nazorati tizimining ishlashi



#### 1. CRUISE(HARAKATLANISH)

indikatorini (🚗)

#### 2. Tezlikni sozlash (Set)

Harakatlanish nazorati tizimi sizga gaz pedalini bosmasdan 30 km/soat (20 mil/soat) dan ortiq doimiy tezlikda harakatlanish imkonini beradi.



### EHTIYOT BO'LING

Quyidagi ehtiyot choralariga rioya qilish kerak:

- Har doim avtomobil tezligini mamlakatingizdagi tezlik chegarasiga muvofiq belgilang.
- Agar siz harakatlanish nazoratini yoqilgan holda qoldirsangiz (asboblar 🚗) kombinatsiyasidagi harakatlanish nazorati indikatorini (🚗) yonadi), u o'z-o'zidan ishga tushishi mumkin. Agar siz tasodifiy tezlik ehtimolini bartaraf etish uchun undan foydalanmoqchi bo'lmasangiz, harakatlanish nazorati tizimini (CRUISE indikator chirog'i OFF holatida) ishga tushirmang.

- Harakatlanish nazoratidan faqat yaxshi ob-havo sharoitida ochiq yo'llarda harakatlanayotganda foydalaning.
- Agar doimiy tezlikda harakatlanish xavfli bo'lsa, harakatlanish nazoratidan foydalanmang:
  - Yo'l harakati og'ir bo'lgan yo'lda yoki yo'l sharoitlari doimiy tezlikda harakatlanishni qiyinlashtirganda
  - Sirpanchiq yo'llarda harakatlanayotganda (yomg'irda nam bo'lgan, muzli yoki qor bilan qoplangan yo'llar)
  - Tog'li joylarda yoki kuchli shamol paytida haydashda
  - Juda kuchli shamolli joylarda haydashda
- Tirkama tortishda harakatlanish nazoratidan foydalanmang.

## **i** Ma'lumot

- Harakatlanish nazorati tizimining normal ishlash sharoitida va SET tugmasi tormozni faollashtirilgandan keyin qayta yoqilgan bo'lsa, harakatlanish nazorati taxminan 3 soniyadan keyin yoqiladi. Bu kechikish normaldir.
- Harakatlanish nazoratini yoqishdan oldin tizim tormoz pedali datchigi funksiyasini tekshiradi. Buning uchun o't oldirish qurilmasi yoqilgandan so'ng tormoz pedalini kamida bir marta bosish kerak.

### Harakatlanish nazorati tugmasi

O (Bekor qilish): Harakatlanish nazorati tizimini bekor qilish.


CRUISE ( ( ( ) ), CRUISE):

Harakatlanish nazoratini yoqish yoki o'chirish.

RES+: Harakatlanish nazorati tezligini tiklash yoki oshirish.


SET-: Harakatlanish nazorati tezligini o'rnatish yoki kamaytirish.

## Harakatlanish nazorati tezligini sozlash



ODN8069043

1. Tizimni faollashtirish uchun ruldagi (harakatlanish nazorati) tugmasini bosing. (CRUISE) indikator yonadi.
2. Eng kamida 30 km/soat (20mil/soat) bo'lishi kerak bo'lgan kerakli tezlikka erishing.




ODN8069044

3. O'zgartirish tugmachasini pastga qisqa bosing (SET-). Belgilangan tezlik LCD displeyda yonadi.
4. Gaz pedalini qo'yib yuboring.

## **i** Ma'lumot

Tik qiyalikda yuqoriga yoki pastga harakatlanayotganda avtomobil biroz sekinlashishi yoki tezlashishi mumkin.

### Harakatlanish nazorati tezligini oshiring



- O'zgartirish tugmachasini yuqoriga bosing (RES +) va asboblar kombinatsiyasida o'rnatilgan tezlikning oshishini kuzatgan holda uni ushlab turing.

Kerakli tezlikni o'rnatgandan so'ng tugmachani qo'yib yuboring. Avtomobil tezligi belgilangan tezlikka oshadi.

- O'zgartirish tugmachasini yuqoriga qisqa bosing (RES +). Har safar bosganingizda tezlik soatiga 1,0 km/soat (1 mil/soat) ga oshadi.
- Dastakni yuqoriga suring (RES +) va uni shu holatda ushlab turing. Avtomobilingiz tezligi sozlamalari soatiga 10 km/soat (5 mil/soat) ga oshadi. Kerakli tezlikni tanlagandan so'ng tugmachani qo'yib yuboring.

### Harakatlanish nazorati tezligini kamaytirish




- O'zgartirish tugmachasini pastga qisqa bosing (SET-). Har safar bosganingizda tezlik soatiga 1,0 km/soatga kamayadi.
- O'zgartirish tugmachasini pastga (SET-) bosing va uni shu holatda ushlab turing. Avtomobilingiz tezligi sozlamalari soatiga 10 km/soat (5 mil/soat) ga kamayadi. Kerakli tezlikni tanlagandan so'ng tugmachani qo'yib yuboring.
- Tormoz pedalini ohista bosing. Avtomobil kerakli tezlikka erishgandan so'ng, o'zgartirish tugmachasini pastga bosing (SET-).


### **Harakatlanish nazorati yoqilgan holda vaqtincha tezlashish**

Gaz pedalini bosing. Oyog'ingizni gaz pedalidan olganingizdan so'ng harakatlanish nazorati tizimi avval o'rnatilgan haydash tezligini tiklaydi.



Gaz pedalini bosing. Oyog'ingizni gaz pedalidan olganingizdan so'ng harakatlanish nazorati tizimi avval o'rnatilgan haydash tezligini tiklaydi.

### **Harakatlanish nazoratining o'chish sabablari:**




- Tormoz pedalini bosish.
- Rul g'ildiragidagi O (bekor qilish) tugmasini bosish.
- CRUISE tugmasini bosish.  va tezlikni sozlash bo'yicha ogohlantirish chiroqlari o'chadi.
- Uzatish qutisini "N" (neytral) holatiga o'tkazish.
- Avtomobil tezligini soatiga 30 km/soat (20 mil/soat)dan kamayishi.
- ESC (Elektron dinamik barqarorlikni boshqarish tizimi) yoqilgan bo'lishi.

### **i Ma'lumot**

Yuqoridagi harakatlarning har biri harakatlanish nazoratini bekor qilishga olib keladi (asboblarni kombinatsiyasida o'rnatilgan tezlik o'chadi), lekin faqat tugmani bosish (harakatlanish nazorati)  tizimni o'chiradi. Harakatlanish nazorati tizimini qayta yoqish uchun rul g'ildiragidagi o'zgartirish tugmachasini yuqoriga bosing (RES+). Agar tizim  (harakatlanish nazorati) tugmasi bilan o'chirilmagan bo'lsa, u avval o'rnatilgan haydash tezligini tiklaydi.





### **Avval o'rnatilgan harakatlanish nazorati tezligini tiklash**




O'zgartirish tugmachasini yuqoriga suring (RES+). Agar avtomobil tezligi soatiga 30 km/soat (20 mil/soat) dan oshsa, tizim avval belgilangan tezlikni tiklaydi.

### **Harakatlanish nazorati tizimini o'chirish**



- (CRUISE) tugmasini bosing  ((CRUISE) indikatorini  o'chadi).

## Stop & go (To'xtash va harakatlanish) funksiyasiga ega aqlli harakatlanish nazorati (mavjud bo'lganda)



- ① Harakatlanish nazorati indikatorini
- ② Tezlikni sozlash
- ③ Transport vositalari o'rtasidagi masofa

Asboblarning kombinatsiyasi LCD displeyidagi SCC ekranini ko'rish uchun Assist (A) rejimini tanlang. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun 4-bobdagi "LCD rejimlari" bo'limiga qarang.

Intellektual harakatlanish nazorati olddagi transport vositalaridan doimiy tezlik va masofani saqlab turish uchun avtomobil harakatini dasturlash imkonini beradi.

Intellektual harakatlanish nazorati avtomobil tezligini belgilangan tezlik va oldindagi avtomobilgacha bo'lgan masofaga qarab gaz yoki tormoz pedallarini bosmasdan avtomatik ravishda sozlaydi.


### ⚠ EHTIYOT BO'LING

Xavfsizlik nuqtayi nazaridan Intelligent Cruise Control (aqlli harakatlanish nazorati) dan foydalanishdan oldin foydalanish qo'llanmasini diqqat bilan o'qib chiqish tavsiya etiladi.

### ⚠ EHTIYOT BO'LING


- Aqlli harakatlanish nazorati xavfsiz haydash amaliyotini o'rnini bosa olmaydi va faqat qo'shimcha funktsiya hisoblanadi. Haydovchi har doim harakat tezligini va oldindagi avtomobilgacha bo'lgan masofani nazorat qilishi shart.
- Haydash paytida siz doimo yo'l sharoitlarini kuzatib borishingiz va hatto aqlli harakatlanish nazorati ishlayotgan bo'lsa ham kutilmagan vaziyatlarga tayyor bo'lishingiz lozim. работает
- Intelligent Cruise Control (Aqlli harakatlanish nazorati) haydovchiga yordam berish uchun qo'shimcha funktsiya hisoblanadi. Faqatgina tizimga tayanib bo'lmaydi. Xavfsizlik nuqtayi nazaridan haydash paytida hushyor bo'lish lozim.

## Aqlli harakatlanish nazorati tizimi tugmalari

CRUISE / : Harakatlanish nazoratini yoqish yoki o'chirish

RES+ : Harakatlanish nazorati tezligini tiklash yoki oshirish.

SET- : Harakatlanish nazorati tezligini o'rnatish yoki kamaytirish.


 : Avtomobillar orasidagi masofani o'rnatish.

CANCEL (CNCL) : Harakatlanish nazorati tizimini bekor qilish.

## Aqlli harakatlanish nazorati orqali tezlikni nazorat qilish

### Tezlikni aqlli harakatlanish nazorati orqali sozlash



1. Tizimni faollashtirish uchun ruldagi CRUISE  / (harakatlanish nazorati) tugmasini bosing. Harakatlanish nazorati indikator yonadi.
2. Tezlikni kerakli darajaga oshiring. Aqlli harakatlanish nazorati tizimi uchun tezlikni sozlash quyidagicha amalga oshiriladi:
  - 10 dan 180 km/soatgacha (5 dan 110 mil/soatgacha): oldinda transport vositalari bo'lmaganda **0** dan 160 km/soatgacha (0 dan 100 mil/soatgacha): oldinda transport vositalari bo'lmaganda



ODN8069044

3. O'zgartirish tugmachasini pastga bosing (SET-). Belgilangan tezlik va oldindagi avtomobilgacha bo'lgan masofa LCD displeyda ko'rsatiladi.
4. Gaz pedalini qo'yib yuboring. Tanlangan tezlik avtomatik ravishda saqlanadi.


Agar oldindagi avtomobil pastroq tezlikda ketayotgan bo'lsa, masofani saqlab qolish uchun tezlikni kamaytirish mumkin.

Tik qiyaliklarda tezlik kamayishi, pastga tushayotganda esa tezlik biroz oshishi mumkin.

### **i** Ma'lumot

- Tepaga ko'tarilayotganda avtomobil tezligi kamayishi va pastga tushayotganda ortishi mumkin.
- Harakatlanish nazorati tezligini oldingizda turgan avtomobilga qarab o'rnatganingizda avtomobilingiz tezligi 0 ~ 30 km/soat (0 ~ 20 mil/soat) bo'lsa, tezlik 30 km/soat (20 mil/soat)ga teng bo'ladi.

### **Aqlli harakatlanish nazorati uchun belgilangan tezlikni oshirish**



ODN8069045


Quyidagi amallarni bajaring:

- O'zgartirish tugmachasini yuqoriga qisqa bosing (RES +). Har safar bosganingizda tezlik 1,0 km/soat (1 mil/soat)ga oshadi.
- Dastakni yuqoriga suring (RES+) va uni shu holatda ushlab turing. Avtomobilingiz tezligi soatiga 10 km yoki 5 milga oshadi. Kerakli tezlikni tanlagandan so'ng tugmani qo'yib yuboring.
- Belgilangan tezlikni soatiga 180 km/soat (110 mil/soat) ga oshirish mumkin.

### **⚠** DIQQAT

O'zgartirish tugmachasini ishlatishdan oldin haydash sharoitlarini baholang. O'zgartirish tugmachasini bosib ushlab turganda tezlik keskin oshadi.

### **Aqlli harakatlanish nazorati uchun belgilangan tezlikni pasaytirish**



Quyidagi amallarni bajaring:

- O'zgartirish tugmachasini pastga qisqa bosing (SET-). Har safar bosganingizda tezlik 1,0 km/soatga kamayadi.
- Dastakni pastga suring (SET-) va uni shu holatda ushlab turing. Avtomobilingiz tezligi soatiga 10 km yoki 5 milga kamayadi. Kerakli tezlikni tanlagandan so'ng tugmani qo'yib yuboring.
- Belgilangan tezlikni soatiga 30 km/soat (20 mil/soat) ga oshirish mumkin.

### **Aqlli harakatlanish nazorati yoqilgan holda vaqtincha tezlashish**

Agar aqlli harakatlanish nazorati yoqilgan vaqtda avtomobil tezligini vaqtincha oshirish zarur bo'lsa, gaz pedalini bosing. Tezlik oshishi aqlli harakatlanish nazorati tizimiga va belgilangan tezlikka ta'sir qilmaydi.


Belgilangan tezlikka qaytish uchun siz gaz pedalini qo'yib yuborishingiz kerak.

Agar dastak yuqori tezlikda pastga surilsa (SET-), belgilangan tezlik yangilanadi.

### **i Ma'lumot**

**Tezlikni vaqtincha oshirishda ehtiyot bo'lish lozim, chunki oldinda boshqa avtomobil bo'lsa ham tizim tezlikni avtomatik ravishda sozlamaydi.**

**Quyidagi hollarda aqlli harakatlanish nazorati tizimi vaqtincha o'chiriladi:**



**Qo'lda bekor qilish**

- Tormoz pedali bosilsa.
- Rul g'ildiragidagi CANCEL (CNCL) tugmasi bosilsa.

LCD displeydagi tezlik va masofani sozlash indikatorini o'chganida harakatlanish nazorati vaqtincha o'chiriladi.

Harakatlanish nazorati indikatorini doimiy yonib turadi. ( )

**Avtomatik bekor qilish**

- Haydovchi eshigi ochilsa.
- N (neytral), R (orqaga) yoki P (parkovka) rejimi yoqilsa.
- Qo'l tormozi yoqilsa.
- Avtomobil tezligi soatiga 190 km/soat (120 mil/soat) dan yuqori bo'lsa.
- ESC (Elektron barqarorlikni nazorat qilish tizimi), TCS (Tortish kuchini nazorat qilish tizimi) yoki ABS tizimi ishlayotgan bo'lsa.

- ESC o'chirilgan bo'lsa.
- Datchik yoki datchik qopqog'i ifloslangan bo'lsa.
- Avtomobil ma'lum vaqt davomida to'xtab tursa.
- Avtomobil 5 daqiqadan ko'proq vaqt davomida to'xtab tursa.
- Uzoq vaqt davomida tez-tez to'xtashlar yuzaga kelsa.
- Gaz pedalining belgilangan vaqtdan ko'proq vaqt davomida uzluksiz bosilsa.
- Gaz pedalining bir daqiqadan ko'proq vaqt davomida doimiy bosilsa.
- Dvigatel noto'g'ri ishlasa.
- Dvigatel chastotasi qizil hududda bo'lsa.
- Haydovchi o'zgartirish tugmachasini yuqoriga (RES+) yoki pastga (SET-) bosish yoki avtomobil aqlli harakatlanish nazorati tizimi tomonidan to'xtatilgandan so'ng gaz pedalini bosish orqali haydashni boshlasa.
- Haydovchi oldinda to'xtab turgan transport vositasi bo'lganda avtomobilni to'xtatgandan so'ng o'zgartirish tugmachasini yuqoriga (RES+) yoki pastga (SET-) bosib yoki gaz pedalini bosib haydashni boshlasa.
- Old tomondan to'qnashuvni oldini olish tizimi (FCA) faollashtirilsa.


- Dvigatel aylanish chastotasi xavfli diapazonda bo'lsa.
- Dvigatel ISG tizimi tomonidan to'xtatilgan bo'lsa (to'xtatish va salt yurishda ishga tushirish).

Ushbu harakatlarning har biri aqlli harakatlanish nazorati funksiyasini bekor qiladi. LCD displeyda o'rnatilgan tezlik va oldindagi avtomobilgacha bo'lgan masofa o'chadi.

Aqlli harakatlanish nazorati avtomatik ravishda o'chirilgandan so'ng RES+ yoki SET- o'zgartirish tugmasi yoqilgan bo'lsa ham tizim avtomatik ravishda qayta yoqilmaydi.

### Ma'lumot

**Agar Intelligent Cruise Control (Aqlli harakatlanish nazorati) yuqorida sanab o'tilganlardan boshqa sabablarga ko'ra ishlamay qolsa, HYUNDAI vakolatli dileriga tizimni tekshirtirish tavsiya etiladi:**



### **Smart Cruise Control cancelled [SCC avtomatik ravishda bekor qilindi]**

Agar tizim o'chirilgan bo'lsa, ogohlantirish signali eshitiladi va bir necha soniya davomida xabar paydo bo'ladi.

Avtomobil tezligini yo'l sharoitiga qarab gaz yoki tormoz pedallari orqali boshqarish mumkin.

Yo'llar holati doimo kuzatilishi lozim. Faqat avtomatik mexanizmga tayanib bo'lmaydi.

### **Aqlli harakatlanish nazorati tizimi uchun o'rnatilgan tezlikni tiklash**

Agar o'rnatilgan tezlik harakatlanish nazorati o'zgartirish tugmasidan boshqa biron-bir usul bilan bekor qilingan bo'lsa, tizim faolligicha qoladi va o'zgartirish tugmasi yuqoriga (RES+) yoki pastga (SET-) bosilganda o'rnatilgan tezlik avtomatik ravishda tiklanadi.


O'zgartirish tugmachasini yuqoriga bosish (RES+) oxirgi o'rnatilgan tezlikni tiklaydi. Biroq agar avtomobil tezligi soatiga 10 km/soat (15 mil/soat) dan pastga tushsa va oldinda boshqa transport vositasi bo'lmasa, o'rnatilgan tezlik tiklanadi.






### **Ma'lumot**

Saqlangan tezlikni tiklash uchun o'zgartirish tugmachasini (RES+) bosishdan oldin har doim yo'l holatini tekshiring.

### **Harakatlanish nazorati tizimini o'chirish**











- CRUISE tugmasini bosish.  Harakatlanish nazorati indikatorini o'chadi. Agar siz harakatlanish nazorati tizimidan  foydalanishni xohlamasangiz, har doim  CRUISE (harakatlanish nazorati) tugmasini bosib tizimni o'chiring.



### **EHTIYOT BO'LING**

Quyidagi ehtiyot choralariga rioya qilish lozim:

- Har doim avtomobil tezligini mamlakatingizdagi  tezlik chegarasiga muvofiq belgilang.
- Agar siz aqlli harakatlanish nazoratini yoqilgan  holda qoldirsangiz  (asboblarning kombinatsiyasidagi  CRUISE ogohlantirish chirog'i yonadi), u o'z-o'zidan ishga tushishi mumkin. Agar siz tasodifiy tezlik ehtimolini bartaraf etish uchun undan  foydalanmoqchi bo'lmasangiz,  harakatlanish nazorati tizimini  (CRUISE indikator chirog'i OFF holatida) ishga tushirmang.  CRUISE



- Aqlli harakatlanish nazorat tizimidan faqat yaxshi ob-havo sharoitida ochiq yo'llarda harakatlanayotganda foydalaning.
- Agar doimiy tezlikda harakatlanish xavfli bo'lsa, Aqlli harakatlanish nazorati tizimidan foydalanmang:
  - Harakatlanish og'ir bo'lgan yo'llarda yoki transport sharoitlari doimiy tezlikda harakatlanishni qiyinlashtirganda
  - Sirpanchiq yo'llarda harakatlanayotganda (yomg'irli nam, muz yoki qor bilan qoplangan yo'llarda)
  - Avtomobil pastga yoki tepaga qarab harakatlanayotganda
  - Shamol juda kuchli bo'lgan joylarda haydashda
  - Avtoturargohda harakatlanayotganda
  - Yo'l to'siqlari yonida haydashda
  - Keskin burilish paytida
  - Ko'rish cheklangan holda haydashda (tuman, qor, yomg'ir yoki chang bo'roni kabi yomon ob-havo tufayli)
  - Avtotransport vositalarini aniqlash transport vositasining old va orqa qismlarining turli balandliklariga olib keladigan modifikatsiyasi tufayli buzilganda.
- Kutilmagan vaziyatlar ehtimoliy baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin. Hatto Intelligent Cruise Control (SCC Aqlli harakatlanish nazorati) ishlayotgan bo'lsa ham yo'l holati va harakatni doimo kuzatib boring.


Haydash rejimi sozlamasini o'zgartirish Intelligent Cruise Controlning javob berish qobiliyatini o'zgartiradi. (mavjud bo'lganda)

Drive Mode [Haydash rejimi]	SCC Responsiveness [scc javob tezligi]
COMFORT [komfort]	Normal [Normal]
ECO [tejamkor]	Slow [Sekin]
SPORT [SPORT]	Normal [Normal]
SMART [aqlli]	Fast [Tez]

CUSTOM rejimida SCC javob tezligi dvigatel / transmissiyadagi rejim sozlamalariga mos keladi. (masalan, agar CUSTOM rejimida haydovchi dvigatel / transmissiya rejimini ECO sifatida tanlasa, SCC javob tezligi sekin bo'ladi)


## Aqlli harakatlanish nazorati tizimi orqali avtomobillar orasidagi belgilangan masofani saqlash

### O'zingiz va oldingizda harakatlanayotgan avtomobil o'rtasidagi masofani belgilash



Aqlli harakatlanish nazorati yoqilganda avtomobillar orasidagi belgilangan masofa tormoz yoki gaz pedallarini bosmasdan saqlanadi.

Aqlli harakatlanish nazorati yoqilganda avtomobillar orasidagi belgilangan masofa tormoz yoki gaz pedallarini bosmasdan saqlanadi.



Masalan, soatiga 90 km/soat (56 mil/soat) tezlikda harakatlanayotganda quyidagi masofalar qo'llab-quvvatlanadi:

Distance 4 (masofa 4)

— taxminan 52,5 m

Distance 3 (masofa 3)

— taxminan 40 m

Distance 2 (masofa 2)

— taxminan 32,5 m


Distance 1 (masofa 1)

— taxminan 25 m

### **i** Ma'lumot

Dvigatelni ishga tushirgandan so'ng tizimni birinchi marta ishlatganda, u oldingi avtomobilgacha bo'lgan masofa uchun so'nggi sozlamaga o'rnatiladi.

### Oldinda yo'lak bo'sh bo'lganda:




Avtomobil tezligi oldindan belgilangan darajada saqlanadi.

### Oldinda boshqa avtomobil bo'lsa:



masofa 4 4

ODN8069051/ODN8069053




masofa 2 2

ODN8069052/ODN8069054

- Belgilangan masofani saqlab qolish uchun avtomobil tezligi kamaytiriladi yoki oshiriladi.
- Agar oldindagi avtomobilning tezligi oshsa, harakatlanish nazorati belgilangan tezlikni saqlab qoladi.
- Agar oldindagi avtomobilgacha bo'lgan masofa uning tezlashishi yoki sekinlashishi natijasida o'zgarsa, LCD displeydagi masofa ham o'zgarishi mumkin.
- Oldindagi avtomobil LCD displeyda faqat avtomobilingiz oldida paydo bo'lganda ko'rsatiladi.

### EHTIYOT BO'LING



### Aqlli harakatlanish nazoratidan foydalanganda:

- Agar tizim belgilangan masofani ushlab turolmasa, ogohlantirish xabari ko'rsatiladi va signal eshitiladi.
- Ogohlantirish xabari ko'rsatilganda yoki ovozli signal eshitilganda avtomobil tezligini to'g'rilash va oldindagi avtomobilgacha belgilangan masofani saqlash uchun tormoz pedalini bosish lozim.
- Ogohlantirish xabari ko'rsatilmasa va ovozli signal eshitilmasa ham xavfli vaziyatlarning oldini olish uchun yo'lda atrofni doimiy ravishda kuzatib borish kerak.
- Avtomobil audio tizimining yuqori ovoz balandligida ishlashi tizimning ogohlantirish ovozini to'sib qo'yishi mumkin.

 **DIQQAT**


Agar masofani nazorat qilish rejimida oldinda harakatlanayotgan avtomobil (30 km/soatdan kam tezlikda) yo'lakni o'zgartirsa, ogohlantirish ovozi eshitaladi va displeyda "Watch for surrounding vehicles [Diqqat! Atrofdagi avtomobillarni kuzating]" xabari paydo bo'ladi.

Har doim boshqa transport vositalari yoki boshqa to'siqlar oldingizda to'satdan paydo bo'lishi ehtimolini hisobga oling va tormozni bosishga tayyor bo'ling.

Oldindagi harakatlanish holatini doimiy ravishda kuzatib borish kerak.

### Yo'l-transport harakati oqimida harakatlanish




Use switch or pedal to accelerate  
(Tezlashtirish uchun tugma yoki gaz pedalidan foydalaning)

- Yo'l-transport harakati oqimida harakatlanayotganda oldindagi avtomobil to'xtab qolsa, avtomobilingiz ham to'xtaydi. Xuddi shunday, agar oldindagi avtomobil harakatlana boshlasa, avtomobil yana harakatni davom ettiradi. Biroq agar to'xtash vaqti 3 soniyadan oshsa, haydashni boshlash uchun siz gaz pedalini yoki o'zgartirish tugmachasini yuqoriga (RES+) yoki pastga (SET-) bosishingiz kerak.

- Avtomatik ushlab turish va moslashuvchan harakatlanish nazorati ishlayotgan vaqtda aqlli harakatlanish nazorati tugmachasi (RES+ yoki SET-) bosilsa, gaz pedali bosilgan yoki yo'qligidan qat'iy nazar avtomatik ushlab turish o'chiriladi va avtomobil harakatlana boshlaydi. AUTO HOLD (Avtomatik ushlab turish) indikator yashildan oq rangga o'zgaradi. (EPB (elektr qo'l tormozi) mavjud bo'lganda).

### Oldindagi avtomobilgacha bo'lgan masofani kuzatish datchigi

#### Old kuzatuv kamerasi




Old kuzatuv kamerasi yo'lakdagi vaziyatni kuzatuvchi datchikdir.

Datchiklar qar, yomg'ir yoki boshqa narsalar bilan qoplangan bo'lsa, ularning aniqlash qobiliyati yomonlashuvi tufayli tizim vaqtincha o'chirilishi yoki to'g'ri ishlamasligi mumkin. Datchik har doim toza bo'lishi zarur.

\* Old kamera bilan bog'liq ogohlantirishlar uchun "avtomobilni yo'lakda ushlab turishga yordamchi tizim (LKA)" bo'limiga qarang.


## Old radar



Old radar - bu oldindagi transport vositalarini va ulargacha bo'lgan masofani kuzatuvchi datchik.

Datchiklar qor, yomg'ir yoki boshqa narsalar bilan qoplangan bo'lsa, ularning aniqlash qobiliyati yomonlashuvi tufayli tizim vaqtincha o'chirilishi yoki to'g'ri ishlamasligi mumkin. Datchik har doim toza bo'lishi kerak.

## Ogohlantirish xabari



**Smart Cruise Control (aqlli harakatlanish nazorati) o'chirilgan. datchik bloklangan**

Datchik obyektiv qopqog'i loy yoki qor bilan qoplangan bo'lsa, aqlli harakatlanish nazorati vaqtincha ishlamasligi mumkin. Bunday vaziyat yuzaga kelganda LCD displeyda ogohlantirish xabari paydo bo'ladi. aqlli harakatlanish nazoratini ishga tushirishdan oldin radar datchigi obyektiv qopqog'ini loy, qor va qoldiqlardan tozalang.

Agar radar butunlay iflos bo'lsa yoki dvigatelni ishga tushirgandan keyin hech qanday obyekt aniqlanmasa (masalan, ochiq joylarda) aqlli harakatlanish nazorati to'g'ri ishlamasligi mumkin.


## **i** Ma'lumot

Agar SCC tizimi radar bloklangani tufayli vaqtincha to'xtatilgan bo'lsa, lekin siz harakatlanish nazorati (tezlikni boshqarish funksiyasi) rejimidan foydalanmoqchi bo'lsangiz, harakatlanish nazorati rejimiga o'tishingiz lozim (keyingi sahifadagi "Harakatlanish nazoratiga o'tish" ga qarang).

## **DIQQAT**

- Radar datchigi yoniga davlat raqami yoki stikerlar raqam yozilgan tunukalar kabi begona narsalarni qo'ymang. Bu radarning sezgirligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- Radar datchiklari va obyektiv qopqog'ini har doim toza tuting.
- Avtomobilni tozalash uchun faqat yumshoq matodan foydalaning. Bosimli suvni to'g'ridan-to'g'ri datchik yoki datchik qopqog'iga sepmang.
- Radar datchigi yoki datchik qopqog'iga ortiqcha kuch bermang. Agar datchik majburiy ravishda to'g'ri pozitsiyadan siljitilsa, FCA to'g'ri ishlamasligi mumkin. Bunday holda, ogohlantirish xabari ko'rsatilmayishi mumkin. Avtomobilni tekshirtirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga borishni maslahat beramiz.
- Agar old bamperdagi radar datchigi yaqinida shikastlanish bo'lsa, FCA to'g'ri ishlamasligi mumkin. Avtomobilni tekshirtirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qilishingizni tavsiya qilamiz.

- Buzilgan datchik yoki datchik qopqog'ini ta'mirlash yoki almashtirish uchun faqat haqiqiy ehtiyot qismlardan yoki mos keladigan moslamadan foydalaning. Datchik qopqog'iga bo'yoq surtmang.



### Smart Cruise Control [SCC (aqlli harakatlanish nazorati)] tizimini tekshiring

Avtomobil orasidagi masofani kuzatish tizimi ishlamay qolganda xabar ko'rsatiladi.

Avtomobilni tekshirtirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga borishni maslahat beramiz.

- Agar old bamperdagi radar datchigi yaqinida shikastlanish bo'lsa, FCA to'g'ri ishlamasligi mumkin. Avtomobilni tekshirtirish uchun vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qilishingizni tavsiya qilamiz.

- Buzilgan datchik yoki datchik qopqog'ini ta'mirlash yoki almashtirish uchun faqat haqiqiy ehtiyot qismlardan yoki mos keladigan moslamadan foydalaning. Datchik qopqog'iga bo'yoq surtmang.

## Harakatlanish nazoratiga o'tish

Faqat harakatlanish nazorati rejimida haydashni tanlash uchun quyidagi amallarni bajarish lozim:

1. Aqlli harakatlanish nazoratini yoqing (harakatlanish nazorati indikatorini chirog'i yonadi, tizim faol holatga o'tmaydi).
2. Avtomobillar orasidagi masofani kuzatish tugmasini 2 soniyadan ortiq bosib turing.
3. "Smart Cruise Control (SCC)" (Aqlli harakatlanish nazorati) yoki "Cruise Control (CC)" (harakatlanish nazorati) ni tanlang.

Agar tizim CRUISE tugmasi bilan o'chirilgan bo'lsa yoki dvigatelni ishga tushirgandan so'ng CRUISE tugmasi bosilsa, aqlli harakatlanish nazorati rejimi yoqiladi. 🚗


## EHTIYOT BO'LING

**Harakatlanish nazorati rejimida avtomobillar orasidagi masofa tormoz pedali yordamida sozlanishi kerak. Tizim avtomatik ravishda oldindagi avtomobilgacha bo'lgan masofani saqlamaydi.**

## Tizim cheklovlari


Aqlli harakatlanish nazorati tizimi yo'l sharoitlari yoki yo'l harakati sharoitlari tufayli avtomobil oldindagi transport vositasigacha bo'lgan masofani aniqlashda cheklovlarga ega.

### Burilishlarda



- Aqlli harakatlanish nazorati bir qatorda oldinda turgan avtomobilni aniqlamasligi va tezlikni belgilangan tezlikka oshirishi mumkin. Bundan tashqari, oldinda avtomobil aniqlanganda tezlik kamaytirilishi mumkin.
- Burilish paytida oldindan belgilangan tegishli tezlikni tanlang va agar zarur bo'lsa, tormoz yoki gaz pedalini bosing.






Qo'shni yo'lakda avtomobil aniqlanganda tezlik ham kamayishi mumkin.


Bunday holatda gaz pedali yordamida tegishli tezlikni o'rnatish kerak. Aqlli harakatlanish nazorati tizimi berilgan yo'l sharoitida xavfsiz ishlashiga doimo ishonch hosil qilish zarur.

### Qiyaliklarda



- Tepalikka yoki pastga qarab harakatlanayotganda aqlli harakatlanish nazorati bir qatorda oldinda turgan avtomobilni aniqlamasligi va tezlikni belgilangan tezlikka oshirishi mumkin. Bundan tashqari, oldinda avtomobil aniqlanganda tezlik keskin kamaytirilishi mumkin.
- Burilish paytida oldindan belgilangan tegishli tezlikni tanlang va agar zarur bo'lsa, tormoz yoki gaz pedali bosing.

## Yo'lakni o'zgartirish




[A] : sizning avtomobilingiz,

[B] : Amalga oshiriladigan aylanib o'tish

- Qo'shni yo'lakdan chiqib ketayotgan avtomobilni qamrov hududidan tashqarida bo'lganida datchik aniqlay olmaydi.
- Oldinda harakatlanayotgan transport vositasini yo'lakni keskin o'zgartirganda uni radar tomonidan aniqlash biroz kechikish bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun yo'l harakati holatini doimiy ravishda kuzatib borish kerak.

- Agar bir yo'lakda oldinda ketayotgangan avtomobil pastroq tezlikda harakatlansa, belgilangan masofani saqlab qolish uchun tezlik kamaytirilishi mumkin.
- Agar xuddi shu yo'lakdagi oldinda ketayotgan avtomobil yuqori tezlikda harakatlansa, tezlik belgilangan tezlikka oshadi.

## **Avtotransport vositalarini aniqlash**




Bir yo'lakdagi oldinda joylashgan ba'zi transport vositalari datchik tomonidan aniqlanmasligi mumkin:

- Mototsikl yoki velosiped kabi kichik transport vositalari
- Yon tomonga qo'zg'algan transport vositalari
- Sekin harakatlanuvchi yoki keskin sekinlashuvchi transport vositalari
- To'xtatilgan transport vositalari
- Kichik orqa qismga ega bo'lgan transport vositalari, masalan, yuk ortilmagan tirkama


Oldingi avtomobil quyidagi hollarda datchik tomonidan to'g'ri aniqlanmaydi:

- Yuk yuklanishi tufayli avtomobilning old qismi ko'tarilganda
- Rul g'ildiragi aylanganda
- Yo'lakning chetida harakatlanayotganda
- Tor yo'lakda yoki burilishda harakatlanayotganda

Bunday holatda tormoz yoki gaz pedalidan foydalanish kerak.




- Oldinda ketayotgan avtomobil oldinlab ketgan taqdirda tezlik oshishi mumkin.
- Oldinda transport vositasi yo'qligi haqida ogohlantirish olgandan so'ng avtomobil boshqaruviga yanada e'tiborli bo'lish lozim.




©HI1058308L

- Tez-tez to'xtab harakatlanayotganda va oldindagi avtomobil yo'lak chegarasidan tashqarida to'xtatilganda, tizim oldinda turgan yangi transport vositasini darhol aniqlay olmasligi mumkin. Bunday holatda xavfsiz tormozlanish masofasini saqlash va agar zarur bo'lsa, xavfsiz masofani saqlash maqsadida tezlikni kamaytirish uchun tormoz pedalini bosish lozim.



©HI1058323L

- Tizim oldindagi transport vositasigacha masofani saqlash rejimida ishlayotganida doimiy ravishda piyodalarni kuzatish zarur.



©DN8069027L

- Baland va og'ir yuk ortilgan transport vositalaridan ehtiyot bo'lish zarur.

## EHTIYOT BO'LING

**Intelligent Cruise Control (aqlli harakatlanish nazorati)dan foydalanganda quyidagi ehtiyot choralarini ko'ring:**

- Favqulodda to'xtash agar zarur bo'lsa, tormoz yordamida amalga oshirilishi kerak. Aqlli harakatlanish nazorati barcha holatlarda avtomobilni to'xtata olmaydi.
- Haydovchi yo'l sharoitiga mos ravishda oldindagi transport vositasigacha xavfsiz masofani saqlashi kerak. Haydovchi to'qnashuvni oldini olish uchun oldindagi transport vositasigacha masofa saqlashi zarur.

- Oldindagi avtomobilgacha bo'lgan masofa tormozlanish masofasiga mos kelishi kerak. Agar zarur bo'lsa, tormozni bosib tezlikni kamaytirish lozim.
- Aqlli harakatlanish nazorati harakatsiz transport vositasini, piyodalarni yoki yaqinlashib kelayotgan transport vositasini aniqlay olmaydi. Kutilmagan vaziyatlarning paydo bo'lishini oldini olish uchun doimiy ravishda yo'ldagi to'xtash holatlarini kuzatib borish kerak.
- Agar oldinda ketayotgan avtomobillar tez-tez yo'lakni almashtirsa, bu tizimning kechikishiga olib kelishi yoki tizim qo'shni yo'lakda harakatlanayotgan avtomobilga javob berishi mumkin.  
Kutilmagan vaziyatlarning yuzaga kelishini oldini olish uchun transport vositasini ehtiyotkorlik bilan boshqarish zarur.
- Har doim muqobil harakat tezligi va o'z avtomobilingiz va oldindagi avtomobil orasidagi masofani tanlang. Haydovchi faqat tizimga tayanmasligi va harakatlanish sharoitlarini kuzatishi va avtomobil tezligini nazorat qilishi kerak.
- Aqlli harakatlanish nazorati qiyin vaziyatlarda samara bermasligi mumkin, bu holatlarda doimo yo'l harakati holatini kuzatib borish va xavfsiz haydash tezligini tanlash lozim.
- Tirkama yoki velosiped tashish uchun mahkamlagichdan foydalanganda Aqlli harakatlanish nazoratidan foydalanmang.
- Shatakka olish paytida Aqlli harakatlanish nazoratini o'chiring.

### **MA'LUMOT UCHUN**

Aqlli harakatlanish nazorati quyidagi sabablarga ko'ra vaqtincha to'xtatilishi mumkin:

- Elektr shovqinlar
- Amortizatsiya modifikatsiyasi
- Shinalarning ishqalanishi yoki shinalar bosimidagi farq
- Har xil turdagi shinalar o'rnatish

## Muvofiqlik deklaratsiyasi (mavjud bo'lganda)- Radiochastotali komponent (old radar) quyidagilarga muvofiqdir:

- Ozarbayjon uchun



ODN8069100L

- Tayvan uchun



ODN8069099L

- Malayziya uchun



ODN8069101L

- Meksika uchun

: RCPMAMR18-1560

"La operación de este equipo está sujeta a las siguientes dos condiciones:

(1) es posible que este equipo o dispositivo no cause interferencia perjudicial y

(2) este equipo o dispositivo debe aceptar cualquier interferencia, incluyendo la que pueda causar su operación no deseada."

IFETEL : RCPMALR19-0107

ODN8069130L

- Singapur uchun

Complies with  
IMDA Standards  
DA105282

ODN8069102L

## MAXSUS HAYDASH SHAROITLARI

### Xavfli haydash sharoitlari

Suv, qor, muz, loy, qum va boshqalar kabi xavfli sharoitlarda ushbu ko'rsatmalarga amal qiling:

- Ehtiyotkorlik bilan haydang va to'xtash masofasi oshishini unutmang.
- Qattiq tormozlash yoki rulni boshqarishdan saqlaning.
- Agar avtomobil qor, loy yoki qumga botib qolsa, ikkinchi uzatishdan foydalaning. G'ildirakning haddan tashqari aylanishiga yo'l qo'ymaslik uchun ohista tezlashtiring.
- Avtomobil muz, qor yoki loyga botib qolsa, qo'shimcha tortishni ta'minlash uchun g'ildiraklar ostiga qum, toshtuz, g'ildirak zanjiri yoki boshqa sirpanishga qarshi narsalardan foydalaning.

### EHTIYOT BO'LING

Silliq yuzalarda harakatlanayotganda avtomat uzatmani pastga tushirish avariya olib kelishi mumkin. G'ildirak tezligining keskin o'zgarishi sirpanishga olib kelishi mumkin. Qachon ehtiyot bo'ling almashtirish yoqilgan sirpanchiq yo'llarda vitesni pasaytirish.

### Avtomobilni silkitish

Avtomobilni qor, qum yoki loydan tozalash uchun uni silkitish kerak bo'lsa, oldingi g'ildiraklar atrofidagi joyni tozalash uchun avval rulni o'ngga va chapga burang. Keyin R (orqaga) va oldinga uzatishni navbatma-navbat almashtiring.

G'ildiraklarni aylantirmaslikka harakat qiling va dvigatel tezligini oshirmang. Transmissiya qismlarining eskirishini oldini olish uchun uzatishlarni almashtirishdan oldin g'ildiraklar to'liq to'xtaguncha kuting. Uzatishlarni almashtirishda gaz pedalini qo'yib yuboring va uzatish o'rnatilgach biroz bosing. G'ildiraklarni sekin oldinga va orqaga aylantirish avtomobilni silkinishiga olib keladi, bu esa uni tozalashga yordam beradi.

### EHTIYOT BO'LING

Agar avtomobil botib qolsa va g'ildirakning haddan tashqari aylanishi sodir bo'lsa, shinalar ichidagi harorat juda tez ko'tarilishi mumkin. Shinalar shikastlangan bo'lsa, ular teshilishi yoki portlashi mumkin.

Bu holat xavfli va bunda insonlarning shikastlanish ehtimoli mavjud.

Ushbu jarayonni avtomobil yaqinida odamlar yoki narsalar bor joyda sinab ko'rmang.

Agar avtomobilni bo'shatishga harakat qilsangiz, dvigatel juda tez qizib ketishi, bu esa dvigatel bo'linmasida yong'in chiqishi yoki boshqa shikastlanishga olib kelishi mumkin. Shinalar yoki dvigatelning haddan tashqari qizib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun g'ildirakning haddan tashqari aylanishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

56 km/soat (35 mil/soat)dan yuqori tezlikda avtomobil g'ildiragining sirpanishi mumkin emas.



### Ma'lumot

Avtomobilni silkitishdan oldin ESC tizimini (mavjud bo'lganda) o'chiring

#### MA'LUMOT UCHUN

Agar bir necha marta urinishdan keyin avtomobilni bo'shatib bo'lmasa, dvigatelning haddan tashqari qizib ketishiga va uzatish qutisi va shinalarga zarar yetkazilishiga yo'l qo'ymaslik uchun shatakdan foydalanish kerak. 6-bobdagi "Shatakka olish" bo'limiga qarang.

### Ohista burilish

Burilish paytida, ayniqsa, nam yo'llarda tormozlash yoki uzatishni almashtirishdan saqlaning. Eng yaxshisi, burilishni yengil tezlashtirish bilan amalga oshiring.

### Kechasi haydash

Kechasi haydash xavfliroq. Bu yerda esda saqlash kerak bo'lgan ba'zi maslahatlar mavjud:

- Sekinlashing va avtomobilingiz va boshqa transport vositalari orasidagi masofani oshiring, chunki tunda ko'rish keskin pasayadi, ayniqsa ko'cha chiroqlari bo'lmagan joylarda.
- Boshqa avtomobillar faralarining porlashini kamaytirish uchun oynalarni sozlang. .
- Farlaringizni toza tuting va ularni to'g'ri sozlang. Kir yoki noto'g'ri sozlangan faralar kechasi ko'rishni sezilarli darajada yomonlashtiradi.
- Qarama-qarshi tomondan kelayotgan transport vositalarining faralariga qaramang. Bunday holatda vaqtincha ko'rish mumkin bo'lmay qoladi va ko'z yana qorong'ilikka ko'nikishi uchun bir necha soniya kerak bo'ladi.



### Yomg'irda haydash

Yomg'ir va nam yo'llar haydash uchun xavfli bo'lishi mumkin. Yomg'irli havoda yoki sirpanchiq yo'llarda haydashda quyidagilarga e'tibor bering:

- Tezlikni kamaytirib va xavfsiz oraliq masofani oshiring. Kuchli yog'ingarchilik ko'rishni qiyinlashtirishi va avtomobilni to'xtatish uchun zarur bo'lgan masofani oshirishi mumkin.
- Harakatlanish nazoratini o'chiring (mavjud bo'lganda).
- Agar old oyna tozalagich chotkalari chiziqlar yoki bo'shliqlar hosil qilsa, ularni almashtiring.
- Shinalarning eskirmaganligini tekshiring. Agar shinalar eskirgan bo'lsa, nam yo'l yuzasida tezda to'xtash qiyinlashishi, bu esa o'z navbatida baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin. **8-bobdagi "Shinalarni almashtirish" bo'limiga qarang.**
- Avtomobil yo'l harakatining boshqa ishtirokchilariga yaxshi ko'rinishi uchun faralarni yoqing.
- Katta ko'lmaklardan juda tez haydash tormozlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agar ko'lmaklardan o'tish kerak bo'lsa, sekinroq yurishga harakat qiling.
- Agar tormoz namiqqan bo'lsa, haydash paytida tormozning normal ishlashi tiklanmaguncha sekinlashing.

### Sirpanish

Agar yo'l yetarlicha nam, tezlik esa yetarlicha yuqori bo'lsa, avtomobil yo'l yuzasi bilan deyarli yoki to'liq aloqani yo'qotib, nam yuzada siljiy boshlaydi. Nam yo'llarda haydashda eng yaxshi maslahat TEZLIKNI KASHAYTIRISHDIR.

**Qoplama yeyilishi bilan sirpanish xavfi ortadi, 8-bobdagi "Shinalarni almashtirish" bo'limga qarang.**

### Suv bosgan joylarda haydash

Agar suv sathi faqat g'ildirak gupchagiga yetib borishiga ishonchingiz komil bo'lmasa, yo'lning suv bosgan qismlaridan haydashdan saqlaning. Suv bo'ylab sekin harakatlaning.

Tormozlarning ishlashi buzilishi mumkinligi sababli, tegishli masofani tanlang.

Suvda harakat qilgandan so'ng avtomobil sekin harakatlanayotganda tormozlarni qayta-qayta yumshoq tormozlash orqali quriting.

## Avtomagistralda haydash

### **Shinalar**

Haddan tashqari bosim ostida shinalar qizib ketishi yoki shikastlanishi mumkin.

Eskirgan yoki shikastlangan shinalarni o'rnatmang. Bu tortish kuchini kamaytirishi yoki tormozlashni buzishi mumkin.

### **Ma`lumot**

**Shinalar bosimini ko'rsatilgandan oshirib yubormang.**

### ***Yonilg'i, dvigatel sovutish suyuqligi va motor moyi***

Avtomagistrallarda yuqori tezlikda haydash o'rtacha tezlikda haydashga qaraganda yonilg'i sarfini oshiradi. yonilg'i tejash uchun tez yuriladigan yo'llarda o'rtacha tezlikda harakat qilish tavsiya etiladi.

Haydashdan oldin dvigatelning sovutish suyuqligi va motor moyi darajasini tekshiring.

### ***Uzatma tasmasi***

Bo'shashgan yoki shikastlangan uzatma tasmasi dvigatelning haddan tashqari qizib ketishiga olib kelishi mumkin.

## QISH SHAROITLARIDA HAYDASH

Qattiq qishki ob-havo sharoiti shinalarning tez yeyilishiga va boshqa muammolarga olib keladi. Qishda haydashda xavfni kamaytirish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish lozim:

### Qor va muz ustida haydash

Oldinda va yaqin atrofdagi transport vositalarigacha xavfsiz masofani saqlang.

Ohista tormoz bering. Yuqori tezlikda haydash, keskin tezlashish va tormozlash, keskin burilishlar katta xavf tug'diradi.

Sekinlashish uchun imkon qadar dvigatel tormozlanishidan foydalaning. Qorli va muzli yo'llarda qattiq tormozlanish sirpanishga olib kelishi mumkin.

Qalin qorda haydash qishki shinalar yoki sirpanishga qarshi zanjirlarni talab qilishi mumkin.

Avtomobilingizda har doim favqulodda yordam to'plami bo'lishi lozim. U sirpanishga qarshi zanjirlar, shatakka olish tasmalari yoki zanjirlari, cho'ntak chirog'i, ogohlantirish chiroqlari, qum, belkurak, dvigatelni tashqi akkumulyatordan ishga tushirish uchun simlar, shisha tozalash kurakchasi, qo'lqop, to'shama, qopqoq, choyshab va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin.

### Qishki shinalar

#### EHTIYOT BO'LING

**Qishki shinalarning o'lchami va turi avtomobil standart shinalari bilan bir xil bo'lishi zarur. Aks holda, bu haydash xavfsizligiga ta'sir qilishi mumkin.**

Avtomobilingizga qishki shinalarni o'rnatayotganda ular asl shinalar bilan bir xil o'lchamdagi va yuk diapazonidagi radial shinalar ekanligiga ishonch hosil qiling. Har qanday ob-havo sharoitida avtomobil boshqaruvini muvozanatlash uchun qishki shinalarni barcha to'rt g'ildirakka o'rning.

Qishki shinalarni quruq yo'llarda ta'minlovchi tortish kuchi asl shinalarga qaraganda kamroq bo'lishi mumkin. Qishki shinalar bilan haydash uchun tavsiya etilgan maksimal tezlikni shina sotuvchisidan bilib oling.

#### Ma'lumot

**Avval mahalliy va milliy qoidalarni, ulardan foydalanish bo'yicha mumkin bo'lgan cheklavlarni tekshirmasdan turib tishli shinalar o'rnatmang.**

## Sirpanishga qarshi zanjirlar



Radial shinalarning yon devorlari boshqa turdagi shinalarga qaraganda yuqaroq bo'lganligi sababli ba'zi turdagi sirpanishga qarshi zanjirlar o'rnatilgan bo'lsa, ular shikastlanishi mumkin.

Shuning uchun sirpanishga qarshi zanjirlar o'rniga qishki shinalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Alyuminiy diskali transport vositalariga sirpanishga qarshi zanjirlarni o'rnatmang, ular bu uchun mo'ljallanmagan.

Agar sirpanishga qarshi zanjirlarni ishlatishga zarurat tug'lsa, HYUNDAI asl qismlari yoki avtomobil uchun unga tenglashtirilgan qismlardan foydalaning va zanjirlarni faqat ular bilan birga kelgan yo'riqnomani o'qib chiqqandan keyin o'rnatning.

Mos bo'lmagan zanjirlardan foydalanish natijasida transport vositasiga yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi tomonidan kafolatlanmaydi.

## EHTIYOT BO'LING

Zanjirlarni o'rnatish transport vositasini boshqarishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:

- **Maksimal 30 km/soat (20 mil/ SOAT) tezlikdan yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilgan tezlikdan qaysi biri pastroq bo'lsa, o'sha tezlikda harakatlaning.**
- **Ehtiyotkorlik bilan haydang, yo'ldagi past-balandliklar, o'yiqlar, o'tkir burilishlar va barqarorlikni yo'qotishi mumkin bo'lgan boshqa xavflardan ehtiyot bo'ling.**
- **Keskin burilishlardan va tormozlashdan saqlaning.**

## Ma'lumot

- **G'ildirak zanjirlarini old shinalarga o'rnatning. Shuni yodda tutingki, g'ildirak zanjirlarini o'rnatish qo'zg'alish kuchini oshiradi, ammo shinalar yeyilishini oldini olmaydi.**
- **Avval mahalliy va milliy qoidalarni, ulardan foydalanish bo'yicha mumkin bo'lgan cheklavlarni tekshirmasdan turib tishli shinalar o'rnatmang.**

### Zanjirlarni o'rnatish

Zanjirlarni o'rnatishda ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga rioya qiling va ularni iloji boricha mahkam o'rnatilgan bo'lsa, maksimal 30 km / soat (20 mil) tezlikda harakatlaning. Agar zanjir shassiga yoki avtomobil kuzoviga tegsa, to'xtang va zanjirlarni torting. Agar bu muammoni hal qilmasa, tezlikni bunday kontakt bo'lmaydigan tezlikka kamaytiring. Quruq yo'lga kirganingizdan so'ng zanjirlarni olib tashlang. Zanjirlarni o'rnatish uchun transport vositasini tirbandlikdan uzoqroq joyga qo'ying. Ogohlantiruvchi chiroqlarni yoqing va avtomobil orqasiga favqulodda to'xtash haqida ogohlantiruvchi uchburchak belgini (mavjud bo'lganda) qo'ying. Zanjirlarni o'rnatish uchun uzatish qutisi "P" (parkovka) holatiga o'rnatilishi, qo'l tormozini bosish va dvigatelni o'chirish lozim.

### **MA'LUMOT UCHUN**

**Sirpanishga qarshi zanjirlardan foydalanganda:**

- **Noto'g'ri o'lchamdagi shinalar yoki noto'g'ri o'rnatilgan zanjirlar tormoz tizimlari, kuzov va g'ildiraklarga zarar yetkazishi mumkin.**
- **SAE "S" shinalari yoki sirpanishga qarshi zanjirlardan foydalaning.**
- **Agar shinalar kuzovga tegsa, bu kontakti oldini olish uchun ularni qayta torting.**
- **Kuzovga zarar yetkazmaslik uchun zanjirlarni har 0,5-1,0 km (0, 3-0,6 mil)da taranglashtiring.**
- **Alyuminiy diskali transport vositalariga zanjir o'rnatmang. Ularning g'ildiraklari bu uchun mo'ljallanmagan.**
- **Zanjir birikmasi shikastlanmasligi uchun sirpanishga qarshi zanjir halqalarining kengligi 12 mm (0,47 dyum)dan oshmasligi kerak.**

## Qish mavsumida ehtiyot choralari

### Sovutish suyuqligi sifatida yuqori sifatli etilenglikoldan foydalaning

Avtomobilingiz sovutish tizimida yuqori sifatli etilenglikol bilan birga keladi. Faqat bu turdagi sovutgichdan foydalaning, chunki u korroziya va muzlashdan saqlaydi hamda suv nasosini moylaydi. Sovutgichni 8-bo'limdagi texnik xizmat ko'rsatish jadvaliga muvofiq almashtirish va to'ldirishni unutmang. Qish mavsumi boshlanishidan oldin sovutish suyuqligining muzlash nuqtasi qish sharoitlariga mos kelishiga ishonch hosil qilish uchun uni tekshiring.

### Batareya va kabellarni tekshiring

Past haroratlar batareyaning zaryadsizlanishini tezlashtiradi. Batareya va kabellarni 8-bobda tavsiflanganidek tekshiring. Batareyaning zaryad darajasini HYUNDAI vakolatli dilleri yoki ustaxonasida tekshirish mumkin.

### Zarur bo'lganda qishki moydan foydalaning.

Ba'zi hududlarda qish mavsumida qayishqoqligi past bo'lgan "qishki" moydan foydalanish tavsiya etiladi. Batafsil ma'lumot 8-bobga qarang. Agar qishki moy turiga ishonchingiz komil bo'lmasa, yordam uchun HYUNDAI vakolatli dileringizga murojaat qiling.

### O't oldirish svechalari va tizimini tekshiring

**O't oldirish svechalari va tizimini tekshiring.** Zarur bo'lganda almashtiring. Qishki moyning turiga ishonchingiz komil bo'lmasa, yordam uchun HYUNDAI vakolatli dileriga murojaat qiling.

### Eshik qulflarini muzlashdan saqlang

Qulflarning muzlashiga yo'l qo'ymaslik uchun kalit teshiklariga tasdiqlangan muzlatishga qarshi suyuqlik yoki glitserinni qo'llang. Agar qulf tirqishi allaqachon muz bilan qoplangan bo'lsa, uni olib tashlash uchun muzga muzlashga qarshi tasdiqlangan suyuqlik surting. Agar qulfning ichki qismlari muzlab qolsa, ularni qizdirilgan kalit bilan muzdan tushirishga harakat qiling. Shikastlanmaslik uchun qizdirilgan kalitni ehtiyotkorlik bilan tuting.

### **Oyna yuvish tizimida tasdiqlangan antifrizdan foydalaning**

Oyna yuvish suyuqligining muzlashiga yo'l qo'ymaslik uchun rezervuarga tasdiqlangan antifriz birikmasini qo'shing. Muzlatishga qarshi aralashmani HYUNDAI vakolatli dileringiz va ko'plab avtomobil ehtiyot qismlari do'konlaridan topishingiz mumkin. Avtomobil bo'yoqlariga shikast yetkazmaslik uchun dvigatel sovutish suyuqligi yoki antifrizdan foydalanmang.

### **Qo'l tormozini muzlashdan saqlang**

Ba'zi sharoitlarda qo'l tormozi yoqilgan holatda muzlashi mumkin. Orqa tormozlar ustida yoki yaqinida muz to'plansa yoki orqa tormoz nam bo'lsa, bu ko'proq sodir bo'ladi. Agar qo'l tormozining muzlashi xavfi mavjud bo'lsa, uni uzatish qutisi dastagini "P" (parkovka) holatiga o'tkazish orqali vaqtincha faollashtirish lozim. Shuningdek, avtomobil sirpanib ketishini oldini olish uchun orqa g'ildiraklarni oldindan tirab qo'ying. So'ngra qo'l tormozini qo'yib yuboring.

### **Avtomobil ostida qor va muz to'planishini oldini oling**

Ba'zi sharoitlarda avtomobil kapoti ostida qor va muz to'planib boshqaruvga xalaqit berishi mumkin.

Mana shunday qattiq qish sharoitida haydashda old g'ildiraklar va boshqaruv qismlarining harakatiga to'sqinlik yuzaga kelmasligi uchun avtomobilning pastki qismini muntazam ravishda tekshirish zarur.

### **Avtomobilingizda favqulodda vaziyatlar uchun uskunalar bo'lsin**

Ob-havo sharoitlariga qarab, avtomobilingizda har doim favqulodda yordam to'plami bo'lishi lozim. U sirpanishga qarshi zanjirlar, shatakka olish tasmalari yoki zanjirlari, cho'ntak chirog'i, oghlantirish chiroqlari, qum, belkurak, dvigatelni tashqi akkumulyatordan ishga tushirish uchun simlar, shisha tozalash kurakchasi, qo'lqop, to'shama, qopqoq, choyshab va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin.

### **Dvigatel bo'limiga begona narsalar yoki materiallarni qo'ymang**

Dvigatel bo'linmasidagi begona narsalar yoki materiallar dvigatelning ishlamay qolishiga yoki yong'inga olib kelishi, negaki ular dvigatel sovishiga xalaqit berishi mumkin. Ishlab chiqaruvchining kafolati bunday zararni qoplamaydi.

## TIRKAMANI SHATAKKA OLIISH

Tirkamani shatakka olish uchun transport vositasidan foydalanishdan oldin tegishli organ tomonidan tasdiqlangan mahalliy qoidalarni tekshirish lozim. Qonunchilikdagi farqlar tufayli turli mamlakatlarda tirkamalar, avtomobillar yoki boshqa transport vositalari va qurilmalarni shatakka olish uchun turli talablar bo'lishi mumkin. Shatakka olishdan oldin qo'shimcha ma'lumot olish uchun HYUNDAI vakolatli dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.

Esda tutingki, tirkamali avtomobilni boshqarish yolg'iz avtomobilni haydashdan farq qiladi. Tirkama bilan haydashda boshqaruvda, ishonchda va yonilg'i sarfida o'zgarishlar bo'ladi. Tirkama bilan xavfsiz haydash uchun mos va to'g'ri ishlatiladigan uskunalar zarur. Avtotransport vositasiga shatakka olishdagi xatolar tufayli yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchining kafolatiga kirmaydi.

Ushbu bo'limda ko'plab muhim, vaqt sinovidan o'tgan tavsiyalar va tirkamali avtomobilni boshqarish bo'yicha xavfsizlik qoidalari mavjud. Ularning aksariyati sizning va yo'lovchilaringiz xavfsizligi uchun katta ahamiyatga ega. Tirkamani shatakka olishdan oldin ushbu bo'limni diqqat bilan ko'prikib chiqing.



### EHTIYOT BO'LING

Quyidagi ehtiyot choralariga rioya qiling:

- **Noto'g'ri shatakka olish moslamasidan foydalanish yoki tirkamani shatakka olishda noto'g'ri haydash uslubi avtomobil boshqaruvini yko'prikotishiga olib kelishi mumkin. Misol uchun, agar tirkama juda og'ir bo'lsa, tormozlanish samaradorligi kamayishi mumkin. Natijada siz va yo'lovchilaringiz jarohatlanishi yoki halok bo'lishi mumkin. Tirkamani faqat ushbu bo'limdagi barcha tavsiyalarga to'liq rioya qilgan holda shatakka oling.**
- **Shatakka olishdan oldin tirkamaning yalpi vazni, GCW (yalpi birikma vazni), GVW (avtomobilning yalpi vazni), GAW (to'liq ko'prik yuki) va tirkama tortmasining yuki cheklolardan chiqmaganligiga ishonch hosil qiling.**



## **i** Ma'lumot - Yevropa uchun

- Qaysi bir qiymat pastroq bo'lishiga qarab orqa ko'prik(lar)dagi texnik jihatdan ruxsat etilgan maksimal yuk maksimal 15%ga va texnik jihatdan ruxsat etilgan maksimal avtomobil vazni maksimal 10% yoki 100 kg (220,4 funt)dan oshishi mumkin. Bunday holatda tezlik M1 rusumli avtomobil uchun 100 km / soat (62,1 mil/soat) yoki N1rusumli avtomobil uchun 80 km / soat (49,7 mil/soat) dan oshmasligi kerak.
- M1 rusumli avtomobil tirkama shatakka olganda tirkama shatakiga qo'llaniladigan qo'shimcha yuk shinalardagi ruxsat etilgan maksimal yukdan oshib ketishi mumkin, lekin bu 15%dan oshmasligi zarur. Bunday holatda tezlikni100 km / soat (62,1 mil/soat)dan oshirmang va shinalar bosimini kamida 0,2 barga oshiring.

※ M1: yo'lovchi tashuvchi avtomobil (9 yoki undan kam o'rindiqli)


※ N1: Yuk tashuvchi avtomobil (3,5 tonna yoki undan kam yuk oluvchi)

## Tirkamani shatakka olganda

Tirkamani shatakka olishga qaror qilinganda quyidagi muhim maslahatlarga amal qilish lozim:


- Tirkama tebranishini nazorat qilish tizimidan foydalanishni o'ylab ko'ring. Tirkama sotib olgan dileringizdan Tirkama tebranishini nazorat qilish tizimi haqida so'rang.
- Dvigatel ishlamay qolganda, ya'ni, dastlabki 2000 km (1200 mil) masofada tirkamani shatakka olish uchun transport vositasidan foydalanmang. Ushbu ehtiyot chorasiga rioya qilmaslik dvigatel yoki transmissiyaning jiddiy shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Tirkamani shatakka olishni rejalashtirayotganda shatakka olish to'plami va boshqa shu kabi qo'shimcha talablar uchun HYUNDAI vakolatli dileriga murojaat qilishni unutmang.
- Faqat o'rtacha tezlikda (100 km/soat (60 mil/soat) dan kam) yoki shatakka olish tezligi cheklovi o'rnatilgan holda haydang.
- Tik qiyaliklarda tezlik 70 km/soat (45 mil/soat)dan yoki yo'l belgisida ko'rsatilgan maksimal shatakka olish tezligidan qaysi biri pastroq bo'lishiga qarab oshmasligi kerak.
- Keyingi sahifalardagi og'irlik va yuk cheklovlari haqidagi ma'lumotlarni diqqat bilan ko'prikib chiqing.

### Tirkama vazni



Xavfsiz maksimal tirkama vazni qancha? Uning vazni hech qachon tormozlangan tirkamaning maksimal vaznidan oshmasligi kerak. Ammo bunday tirkama ham juda og'ir bo'lishi mumkin. Bu tirkamadan foydalanish rejalariga bog'liq. Tezlik, balandlik, qiyaliklar, tashqi harorat va tirkama shatakka olish uchun transport vositasi qanchalik tez-tez ishlatilishi kabi omillar juda muhim. Optimal tirkama vazni avtomobilda mavjud bo'lgan maxsus jihozlarga ham bog'liq bo'lishi mumkin.

### Tirkama tortmasining yuki



Tirkama tortmasidagi yuk muhim ahamiyatga ega, chunki u avtomobilning umumiy vazniga ta'sir qiladi. Tirkama tortmasidagi yuk maksimal ruxsat etilgan shatakka olish yuki doirasida yuklangan tirkama umumiy vaznining 10 foizidan oshmasligi kerak.

Tirkamani yuklagandan so'ng ular talablarga javob berishini ta'minlash uchun tirkama va keyin tortma ustidagi yukni alohida torting. Agar ular mos kelmasa, tirkamadagi ba'zi narsalarni shunchaki siljitish orqali ularni tuzatish mumkin.



## EHTIYOT BO'LING

Quyidagi ehtiyot choralariga rioya qiling:

- Hech qachon tirkamaning orqa qismiga old qismiga qaraganda ko'proq yuk yuklamang. Tirkamaning old qismidagi yuk umumiy yukning taxminan 60 foizini tashkil qilishi lozim; shunga muvofiq, tirkamaning orqa qismidagi yuk umumiy yukning taxminan 40 foizini tashkil qilishi kerak.
- Hech qachon tirkama va tirkama tortmasining maksimal vaznidan oshmang.

Noto'g'ri yuklash avtomobilning shikastlanishiga va/yoki jaraohatlanishga olib kelishi mumkin. Vazn va yuklarni yuk tarozida yoki tarozi bilan jihozlangan yo'l nazorati postida tekshiring.

### Tirkamani shatakka olishda vazn va masofa ko'rsatkichi

#### ■ Yevropa davlatlaridan tashqari

Dvigatel		Benzin bilan ishlaydigan dvigatel	
		2,0 I MPI	2,5 I MPI
		A/T	A/T
Tirkamaning maksimal vazni kg	Tormoz tizimisiz	700	700
	Tormoz tizimi bilan	1 400	1 400
Ulovchi qurilmada ruxsat etilgan maksimal statik vertikal yuk Kg		70	70
Orqa g'ildirakning markazidan shatak o'rtasigacha tavsiya etilgan masofa mm		1 315	1 315


#### ■ Yevropa modeli

Dvigatel		Benzin bilan ishlaydigan dvigatel	
		2,0 I MPI	2,5 I MPI
		A/T	A/T
Tirkamaning maksimal vazni Kg	Tormoz tizimisiz	700	700
	Tormoz tizimi bilan	1 400	1 400
Ulovchi qurilmada ruxsat etilgan maksimal statik vertikal yuk Kg		70	70
Orqa g'ildirakning markazidan shatak o'rtasigacha tavsiya etilgan masofa mm		1 315	1 315

A/T : Avtomatik transmissiya

## Tirkamani shatakka olish uskunolari

### Tirqishlar



### **i** Ma'lumot

Tutqich o'rnatish uchun tirqishlar orqa g'ildiraklar orqasidagi pastki qopqoqning ikkala tomonida joylashgan.

To'g'ri shatakni tanlash katta ahamiyatga ega. Yon tomondan keladigan shamollar, og'ir yuk tashuvchi samosvallarning o'tishi va notekis yo'llar - bu to'g'ri shatak tanlashning ba'zi sabablari hisoblanadi. Quyida rioya qilish kerak bo'lgan bir nechta qoidalar keltirilgan:

- Tirkama shatagini o'rnatish uchun avtomobil kuzovida tirqishlar ochish kerakmi? Agar shunday qilingan bo'lsa, ushbu uskunani olib tashlaganingizdan so'ng tirqishlarni yoping. Agar yopilmasa, chiqindi gazlar, jumladan uglerod oksidi (CO), shuningdek, chang va suv avtomobilga kirishi mumkin.

- Avtomobilning bampirlari shataklarni ulash uchun mo'ljallanmagan. Ularga ijaraga olingan shataklar yoki bamperga o'xshash qurilmalarni biriktirmang. Faqatgina ramaga o'rnatiladigan shataklardan foydalaning.

- Mexanik shatak olish moslamasi orqa davlat raqami yoki avtomobil yoritgichining biron bir qismini to'sib qo'ymasligi kerak. Agar orqa tomondagi davlat raqami va/yoki chiroqlar mexanik shatakka olish moslamasining biron bir qismi bilan qisman to'sib qo'yiladigan bo'lsa, u holda mexanik shatakka olish moslamalarini ishlab chiqaruvchi tomonidan taqdim etilgan ishlatish uchun qulay (ya'ni 20 Nm dan ortiq bo'lmagan kuchlanishli) kalitidan boshqa asboblarsiz osongina olib tashlanishi yoki ko'chirilishi mumkin bo'lmagan mexanik shatakka olish moslamalaridan foydalanmang.

O'rnatilgan, lekin ishlatilmagan mexanik shatakka olish moslamasi agar orqa tomondagi davlat raqami va/yoki orqa chiroqlar mexanik shatakka olish moslamasining biron bir qismi tomonidan to'sib qo'yiladigan bo'lsa, har doim olib tashlanishi yoki boshqa joyga ko'chirilishi zarur.

- HYUNDAI tirkamalarini shatakka olish uchun jihozlarni vakolatli HYUNDAI dileringizdan xarid qilishingiz mumkin.

### ***Xavfsizlik zanjirlari***

Avtomobil va tirkama o'rtasida har doim xavfsizlik zanjirlaridan foydalaning.

Xavfsizlik zanjirlarini ishlatish bo'yicha ko'rsatmalar tirkama yoki shatakka olish moslamasi ishlab chiqaruvchisi tomonidan taqdim etilishi mumkin. Xavfsizlik zanjirlarini mahkamlash uchun ishlab chiqaruvchining tavsiyalariga amal qiling. Tirkama burilishi uchun doimo bo'sh joy qoldiring. Hech qachon yo'lda xavfsizlik zanjirlarini tortmang.

***Tirkamaning tormoz tizimi*** Agar tirkama tormoz tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, uning milliy qonunchilikka mos kelishi, to'g'ri o'rnatilganligi hamda ishlayotganiga ishonch hosil qiling.

Agar tirkama vazni tormozsiz tirkama uchun ruxsat etilgan maksimal vazndan oshsa, u to'g'ri tormoz bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

To'g'ri o'rnatish, sozlash va texnik xizmat ko'rsatish uchun tirkama tormoz tizimi ko'rsatmalarini ko'prikib chiqing va ularga rioya qiling. Tirkama tormoz tizimini tortuvchi avtomobil tormoz tizimiga ulamang.

Tirkama tormozini ishga tushirish avtomobilning tormoz tizimidan mustaqil ravishda amalga oshirilishi zarur.



### **EHTIYOT BO'LING**

**Tormoz tizimining to'g'ri sozlanishiga shubha tug'ilsa, mustaqil tormoz tizimiga ega tirkamadan foydalanmang. Ushbu sozlash faqat professionallar tomonidan amalga oshirilishi kerak. Ushbu ish uchun vakolatli tirkama xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.**

### **Tirkama bilan haydash**

Tirkamani shatakka olish uchun biroz tajriba talab qilinadi. Umumiy foydalaniladigan yo'lga chiqishdan oldin tirkama qurilmasi bilan tanishib chiqish lozim. Rul boshqaruvi qanchalik ta'sirchan ekanligi va tirkama vaznining qo'shilishi bilan tormoz qanday ishlashini o'zingiz sinab ko'ring. Va har doim esda tutingki, boshqarilayotgan avtomobil endi yolg'iz transport vositasiga qaraganda birmuncha uzunroq hamda boshqarishga kamroq ta'sirchan bo'ladi.

Haydashdan oldin tirkama shatagi va platformasini, xavfsizlik zanjirlarini, elektr aloqalarini, chiroqlarni, shinalar va tormozlarni tekshiring.

Harakatlanish paytida vaqti-vaqti bilan bagajning mahkam bog'langanligini, shuningdek, chiroqlarning ishlashini va tirkamaning tormoz tizimini tekshiring.

### **Masofa**

Oldindagi avtomobillar orasi bilan masofani kamida ikki baravar oshiring. Bu keskin tormozlanish va burilishlarni talab qiladigan vaziyatlarni oldini oladi.

### **Quvib o'tish**

Tirkamani shatakka olganda bosib o'tish uchun zarur bo'lgan masofa oshiriladi.

Bundan tashqari tirkamali avtomobilning uzunligi oshganligi sababli o'z qatoriga qaytish uchun quvib o'tiladigan avtomobilgacha ancha katta masofa talab qilinadi.

### **Orqaga harakatlanish**

Bir qo'lingiz bilan rulni past tomondan ushlang. Keyin tirkamani chapga siljitish uchun qo'lni chapga surish kifoya. Tirkamani o'ngga siljitish uchun esa qo'lni o'ngga suring.

Orrqaga har doim sekin harakatlaning va iloji bo'lsa, kimdir sizga yo'l-yo'riq berishini so'rang.

### **Burilishda harakatlanish**

Tirkama bilan burilish paytida odatdagidan yumshoqroq harakat qiling. Buni tirkama yo'l chetiga siljib ketmasligi yoki yo'l chetidagi to'siqlarga, yo'l belgilariga, daraxtlarga yoki boshqa narsalarga urilishining oldini olish uchun amalga oshiring. Silkinish yoki keskin manevrlar qilmang. Burilish signallarini oldindan yoqing.

**Burilish indikatorlari** Tirkamani shatakka oladigan transport vositasida qo'shimcha burilish indikatorlari va simlar bo'lishi kerak. Asboblar kombinatsiyasidagi yashil strelkalar burilish yoki yo'lakni o'zgartirish signali berilganda miltillaydi. To'g'ri ulangan tirkama chiroqlari ham boshqa haydovchilarni burilish, yo'lakni o'zgartirish yoki to'xtash arafasida ekanligingiz haqida ogohlantirish uchun miltillaydi.

Tirkamani shatakka olayotganda tirkamadagi burilish indikatorlari chiroqlari yongan bo'lsa ham asboblar kombinatsiyasidagi yashil strelkalar burilganda miltillaydi.

Natijada, siz kuzatib borayotgan transport vositalarining haydovchilari sizning signallaringizni ko'rishadi deb o'ylaysiz, lekin aslida ular signallarni ko'rishmaydi.

Shuning uchun tirkama chiroqlarining to'g'ri ishlashini vaqti-vaqti bilan tekshirish lozim. Bundan tashqari, har safar avtomobildan ajratilganda yoritish moslamalarining ishlashini tekshirib ko'ring va so'ngra simli ulagichlarni qayta ulang.



## EHTIYOT BO'LING

**Tirkama yoritish tizimini to'g'ridan-to'g'ri avtomobil yoritish tizimiga ulamang.** Tasdiqlangan eshilgan tirkama simidan foydalaning. Bu talabga rioya qilmaslik avtomobilning elektr tizimiga zarar yetkazishi va/yoki shikastlanishga olib kelishi mumkin. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun **HYUNDAI vakolatli dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.**

### **Qiyaliklarda haydash**

Uzoq yuriladigan yoki tik qiyalikda haydashdan oldin sekinlashing va uzatish qutisini eng past uzatishga sozlang. Past uzatishga sozlamasangiz, tez-tez tormozlashingiz kerak bo'ladi, bu tormozlarning haddan tashqari qizib ketishiga olib keladi hamda ularning samaradorligi pasayadi.

Dvigatel va transmissiyaning haddan tashqari qizib ketishi ehtimolini bartaraf qilish uchun uzun qiyaliklarda pastroq uzatishga o'ting va tezlikni taxminan 70 km / soat (45 mil/soat) ga tushiring.

Agar avtomat uzatish qutili transport vositasi uchun tirkama vazni tormozsiz tirkama uchun ruxsat etilgan maksimal vazndan oshib ketgan bo'lsa, u holda tirkamani shatakka olish uchun uzatish dastagi D (oldinga harakatlanish) holatida bo'lishi zarur.



Tirkamani shatakka olganda D (oldinga harakatlanish) rejimida haydash tormozning haddan tashqari qizib ketishini kamaytiradi va uzatish qutisi yaroqlilik muddatini uzaytiradi.

### **MA'LUMOT UCHUN**

Dvigatel va transmissiyaning haddan tashqari qizib ketishining oldini olish uchun quyidagi choralar ko'riladi:

- Tik qiyaqlarda (6% dan yuqori) tirkamani shatakka olganda haddan tashqari qizib ketmasligi uchun dvigatel sovutish suyuqligi harorati o'Ichagichini kuzatib borish kerak. Agar sovutish suyuqligi harorati o'Ichagichining indikatori "130 yoki H (yuqori harorat)" shkalasida bo'lsa, avtomobilni imkon qadar tezroq xavfsiz joyda to'xtating va dvigatel soviguncha salt yurish rejimida qoldiring. Dvigatel maqbul darajaga qadar sovutilgandan so'ng, harakatlanishni davom ettirish mumkin.
- Maksimal og'irlikdagi avtomobil bilan maksimal og'irlikdagi tirkama shatakka olinganda dvigatel yoki transmissiya haddan tashqari qizib ketishi mumkin. Bunday sharoitda harakatlanayotganda dvigatel sovib ketguncha avtomobilni salt yurish rejimida qoldiring. Dvigatel yoki transmissiya maqbul darajada sovigandan so'ng harakatlanishni davom ettirish mumkin.

- Tirkamani shatakka olishda tezlik transport vositalari umumiy transport oqimi tezligidan sezilarli darajada past bo'lishi mumkin, ayniqsa tepaga ko'tarilganda. Tirkamani tepaga tortayotganda o'ng yo'lakdan foydalaning. Avtotransportning tezligi tirkamali transport vositalari uchun ruxsat etilgan maksimal tezlikka, qiyaqlikning tikkaligiga va tirkama vazniga qarab tanlanishi kerak.

### **Qiyaliklarda to'xtash**

Odatda agar avtomobilga tirkama ulangan bo'lsa, uni qiyalikda to'xtatmaslik kerak.

Biroq, agar tirkamani qiyalikda to'xtashingiz zarur bo'lsa, quyidagi amallarni bajaring:

1. Avtoturargohga kiring.  
Rulni chekka tomonga burang (pastlikka bo'lsa o'ngga, tepaga bo'lsa chapga).
2. Uzatish qutisini "P" (parkovka) holatiga qo'ying.
3. Qo'l tormozini torting va dvigatelni o'chiring.
4. Qiyalik tomondagi tirkama g'ildiraklari ostiga to'xtash kolodkalarini joylashtiring.
5. Dvigatelni ishga tushiring, tormoz pedalini bosing, neytral holatga o'ting, qo'l tormozini bo'shating va tormozlarni asta-sekin qo'yib yuboring, shunda tirkama to'xtash kolodkalari yukni ko'tara oladi.
6. Tormoz pedalini yana bosing va qo'l tormozini ishga tushiring.
7. Uzatish qutisini "P" holatiga o'rnating.
8. Dvigatelni o'chiring va avtomobil tormozini bo'shating, lekin qo'l tormozini yoqilgan holda qoldiring.



### **EHTIYOT BO'LING**

**Jiddiy shikastlanish yoki o'lim ehtimolini bartaraf etish uchun:**

- **Qo'l tormozi mahkam bosilmaguncha avtomobilni tark etmang. Dvigatel yoqilgan bo'lsa, avtomobil to'satdan harakatlanishi mumkin. Natijada siz va boshqalar jiddiy jarohatlanishingiz yoki halok bo'lishingiz mumkin.**
- **Avtomobilni yuqoriga ko'tarilishda ushlab turish uchun gaz pedalini bosmang.**

### **Qiyalikda to'xtagandan keyin harakatlanish**

1. Uzatish qutisini "P" (parkovka) holatiga qo'ying, tormoz pedalini bosing va ushlab turing hamda quyidagilarni bajaring:
  - Dvigatelni ishga tushiring;
  - Transmissiyani yoqing; va
  - Qo'l tormozini bo'shating.
2. Oyog'ingizni asta tormoz pedalidan oling.
3. Tirkamani to'xtash kolodkalaridan chiqarish uchun sekin harakatlaning.
4. To'xtash kolodkalarini olish uchun to'xtang.

## Tirkamani shatakka olganda texnik xizmat ko'rsatish

Tirkamani muntazam shatakka olish avtomobilga tez-tez texnik xizmat ko'rsatishni talab qiladi.

motor moyi, avtomatik uzatish suyuqligi, ko'priknı moylash va sovutish tizimi suyuqligi darajasini tekshirishga alohida e'tibor berilishi lozim. Bundan tashqari, tormozlarning holatini tez-tez tekshirish kerak. Agar tirkamali avtomobil boshqarsangiz, harakatlanishdan oldin ushbu bo'limlarni ko'rib chiqing. Tirkama va shatakka olish moslamasini ko'zdan kechirishni unutmang. Tirkama bilan birga kelgan texnik xizmat ko'rsatish jadvaliga rioya qiling va uni vaqti-vaqti bilan tekshiring.

Har kuni haydashdan oldin tekshirish tavsiya etiladi. Avtomobilga shatakka olish moslamasini o'rnatish sifatini tekshiring.

Tormozlar, burilish indikatorlari, yon va ogohlantirish chiroqlarning to'g'ri ishlashiga ishonch hosil qilish uchun tirkama simlarini tekshiring.

### MA'LUMOT UCHUN

**Avtomobilga zarar yetish ehtimolini bartaraf qilish uchun:**

- Issiq havoda yoki tepaga ko'tarilayotganda tirkama yukining ortishi qizib ketishga olib keladi. Agar sovutish suyuqligi harorati indikatorı haddan tashqari qizib ketganini ko'rsatsa, konditsionerni o'chiring va dvigatelni sovutish uchun xavfsiz joyda to'xtang.
- Tirkamani shatakka olganda avtomatik uzatish qutisi suyuqligini tez-tez tekshirib turing.
- Agar avtomobil konditsioner bilan jihozlanmagan bo'lsa, tirkamani shatakka olganda dvigatelning ishlashini yaxshilash uchun kondensator ventilyatorini o'rnating.

## AVTOMOBIL VAZNI

Haydovchi eshigida transport vositasining ruxsat etilgan yuk og'irligini ko'rsatadigan ikkita, shinalar va yuk ma'lumotlari hamda sertifikat belgisi mavjud.

Avtomobil og'irligini o'lchashdan oldin sertifikat belgisida ko'rsatilganidek avtomobilning vazn xarakteristikasini tushunish uchun quyidagi shartlarni ko'priking:

### To'liq jihozlangan avtomobilning yuksiz vazni

Bu to'liq to'ldirilgan yonilg'i baki va barcha standart jihozlarni o'z ichiga olgan avtomobilning og'irligi. Unga yo'lovchilar, yuklar yoki qo'shimcha jihozlar kirmaydi.

### Avtomobilning yuksiz vazni

Bu dilerdan olingan va birqancha ixtiyoriy uskunalar o'rnatilgan yangi avtomobilning vazni.

### Yukning vazni

Ushbu og'irlik to'liq jihozlangan transport vositasining cheklov vazniga qo'shilgan barcha og'irliklarni, shu jumladan yuk va qo'shimcha jihozlarni o'z ichiga oladi.

### Ko'prikdagi to'liq yuk (GAW)

Bu avtomobilning o'z vazni va barcha foydali yuklarni o'z ichiga olgan har bir (old va orqa) ko'priknig umumiy vazni.

### Ko'prikdagi to'liq nominal yuk (GAWR)

Bu bitta ko'prik (old yoki orqa) ko'tarishi mumkin bo'lgan maksimal ruxsat etilgan og'irlikdir. Ushbu qiymatlar sertifikat belgisida ko'rsatilgan.

Har bir ko'prikdagi umumiy yuk hech qachon GAWR dan oshmasligi kerak.

### Avtomobilning umumiy vazni (GVW)

Bu yukning vazni va yo'lovchilarning vazni bilan to'liq jihozlangan transport vositasining yuksiz vazni.

### Avtomobilning nominal umumiy vazni (GVWR)

Bu to'liq yuklangan transport vositasining maksimal ruxsat etilgan vazni (barcha parametrlar, jihozlar, yo'lovchilar va yuklarni o'z ichiga oladi). Avtomobilning umumiy vazni (GVWR) haydovchi eshigida joylashgan sertifikat belgisida ko'rsatilgan.

## Ortiqcha yuk



### EHTIYOT BO'LING

Avtomobil uchun ko'prikning nominal umumiy vazni (GAWR) va avtomobilning nominal umumiy vazni (GVWR) haydovchi (yoki old yo'lovchi) eshigiga yopishtirilgan sertifikat belgisida ko'rsatilgan.

Ushbu nominal vazndan oshib ketish avtohalokatga yoki avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Narsalarni (va odamlarni) avtomobilga joylashtirishdan oldin ularni tortish orqali yuk vaznini hisoblashingiz mumkin. Avtomobilga ortiqcha yuk yuklamaslikka harakat qiling.


# 7. Favqulodda vaziyatlar

Favqulodda yorug'lik signalizatsiyasi.....	7-3
Haydash paytida kutilmagan vaziyat yuzaga kelganda.....	7-3
Haydash paytida dvigatel to'xtab qolsa .....	7-3
Dvigatel chorrahada to'xtab qolsa .....	7-3
Haydash paytida shinadagi havo bosimi tushib ketsa.....	7-4
Dvigatel ishga tushmasa .....	7-5
Dvigatel ishlamas yoki sekin ishlasa.....	7-5
Dvigatel odatdagidek ishlasa, lekin ishga tushmasa.....	7-5
Dvigatelni tashqi manbadan ishga tushirish.....	7-6
Dvigatelni tashqi manbadan ishga tushirish.....	7-10
Shinalar bosimini nazorat qilish tizimi (TMS).....	7-12
Shinalar bosimini tekshirish .....	7-12
Shinalar bosimini nazorat qilish tizimi.....	7-13
Shinalardagi past bosim indikatorini .....	7-14
Shinalardagi past bosim holati indikatorini va shinalar bosimi indikatorini.....	7-14
TPMS tizimi nosozlik indikatorini (shinalar bosimini nazorat qilish tizimi) .....	7-16
TPMS yordamida shinalarni almashtirish .....	7-16
Haydash paytida shinadagi havo bosimi tushib ketsa (zaxira g'ildirak bilan).....	7-19
Domkrat va asboblar .....	7-19
G'ildirakni almashtirish .....	7-20
Domkrat ko'tarish.....	7-26
Domkrat uchun Yvropa Ittifoqining muvofiqlik deklaratsiyasi .....	7-27
Shinadagi havo bosimi tushib ketsa (shinalarni ta'mirlash to'plami bilan).....	7-28
Kirish.....	7-28
Shinalarni ta'mirlash to'plamidan xavfsiz foydalanish bo'yicha eslatmalar .....	7-29
Shinalarni ta'mirlash to'plami komponentlari.....	7-31
Shinalarni ta'mirlash to'plamidan foydalanish.....	7-32
Zichlik taqsimlash.....	7-34
Shinalar bosimini tekshirish .....	7-35

---

Shatakka olish .....	7-38
Transport vositalarini ko'chirish xizmati .....	7-38
Olinadigan shatak ilgagi.....	7-39
Favqulodda shatakka olish .....	7-40
Favqulodda yordam to'plami .....	7-43
O'to'chirgich .....	7-43
Birinchi yordam to'plami.....	7-43
Favqulodda to'xtash belgisi.....	7-43
Shina manometri .....	7-43
Era-glonass favqulodda chaqiruv .....	7-44
ERA-GLONASS qurilmasi .....	7-46

## Favqulodda yorug'lik signalizatsiyasi



Favqulodda yorug'lik signalizatsiyasi boshqa haydovchilarga avtomobil yaqinida o'ta ehtiyotkor bo'lish haqida ogohlantirish bo'lib xizmat qiladi.

Favqulodda ta'mirlash ishlari olib borilganda yoki avtomobil yo'l chetida to'xtatilganda foydalanish kerak.

Favqulodda yorug'lik signalizatsiyasini yoqish yoki o'chirish uchun xavfli ogohlantirish signalizatsiyasini bosib (o't oldirish qurilmasini yoqish yoki o'chirish mumkin). Tugma markaziy panelning chetida joylashgan. Barcha burilish signallari bir vaqtning o'zida yonadi.

- Favqulodda yorug'lik signalizatsiyasi transport vositasining harakatlanishidan yoki to'xtashidan qat'iy nazar ishlashi mumkin.
- Favqulodda yorug'lik signalizatsiyasi yoqilganda burilish signallari ishlamaydi.

## HAYDASH PAYTIDA KUTILMAGAN VAZIYATLAR YUZAGA KELGANDA

### Haydash paytida dvigatel to'xtab qolsa

- To'g'ri chiziqda harakatlanayotganda tezlikni asta-sekin kamaytiring. Yo'l chetidagi xavfsiz joyda ehtiyotkorlik bilan to'xtang.
- Favqulodda yorug'lik signalizatsiyasini yoqing.
- Dvigatelni ishga tushirishga harakat qiling. Agar avtomobil dvigatelini ishga tushira olmasangiz, HYUNDAI vakolatli dilingizga murojaat qilishingiz tavsiya etiladi.

### Dvigatel chorrahada to'xtab qolsa

Dvigatel chorrahada yoki kesishgan yo'lda to'xtab qolsa, uzatyish qutisi dastagini "N" (neytral) holatiga qo'ying va avtomobilni xavfsiz joyga o'tkazing.



## Agar haydash paytida shina teshilib qolsa

Agar haydash paytida shinalardan havo chiqa boshlasa:

- Oyog'ingizni gaz pedalidan oling va to'g'riga harakatlanishda davom eting, chunki avtomobilning sekinlashishiga imkon beradi.

Tormoz bermang yoki yo'l chetiga chiqishga urinmang, chunki bu avtomobil boshqaruvini yo'qotish va baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin.

Avtomobil tezligini xavfsiz darajaga tushirgandan so'ng sekin tormozlagn holda avtomobilni yo'l chetida to'xtating. To'xtash joyi imkon qadar yo'ldan uzoqda, tekis, qattiq sirtida bo'lishi lozim. Avtomobil yo'lining o'rtasida to'xtash taqiqlanadi.

- Avtomobilni to'xtatgandan so'ng favqulodda yorug'lik signalizatsiyasini yoqing, uzatish qutisi dastagini "P" (parkovka) holatiga qo'ying, qo'l tormozini yoqing va o't oldirish qurilmasini o'chiring.

- Barcha yo'lovchilar transport vositasidan tushishlari, qolaversa, ular avtomobi yo'lining qarama-qarshi tomonida bo'lishlari lozim.
- G'ildirakni almashtirayotganda ushbu bobdagi ko'rsatmalarga amal qiling.

## Dvigatel ishga tushmasa

### Dvigatel ishlamas yoki sekin ishlasa

- Avtomatik uzatish qutisi avtomobillar uchun uzatish qutisi dastagi "N" (neytral) yoki "P" (parkovka) holatida ekanligiga ishonch hosil qiling. Dvigatel faqat uzatish qutisi dastagi "N" (neytral) yoki "P" (parkovka) holatiga o'rnatilganda ishga tushirilishi mumkin.
- Batareya quloqlari ulanishlarini tekshiring va ular toza hamda mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling.
- Salon yorititgichini yoqing. Agar o't oldirish qurilmasi yoqilganda chiqqlar xira bo'lsa yoki o'chsa, batareya zaryadsizlangan bo'ladi.

**Avtomobilni tortish yoki surish orqali dvigatelni ishga tushirishga urinmang. Bu avtomobilga zarar yetkazishi mumkin. Ushbu bobdagi dvigatelni tashqi manba yordamida ishga tushirish bo'yicha ko'rsatmalarga qarang.**



### DIQQAT

**Avtomobilni tortish yoki surish orqali dvigatelni ishga tushirishga urinish katalitik konvertorga katta miqdorda yoqilg'i tushishiga olib keladi, bu esa emissiyani nazorat qilish tizimiga zarar yetkazishi mumkin.**

### Dvigatel

### odatdagidek ishlasa, lekin ishga tushmasa

- yonilg'i darajasini tekshiring va zarur bo'lganda yonilg'i to'ldiring.

Agar dvigatel shunda ham ishga tushmasa, vakolatli HYUNDAI dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.

## Dvigatelni tashqi manba yordamida ishga tushirish

Dvigatelni tashqi manba yordamida ishga tushirish to'g'ri bajarilmasa, xavfli bo'lishi mumkin. Jiddiy jarohatlanmaslik yoki avtomobilni shikastlamaslik uchun dvigatelni tashqi manba yordamida ishga tushirish tartibi ushbu bo'limda berilganidek bajarilishi kerak. Dvigatelni tashqi manba yordamida to'g'ri ishga tushirish imkoniyatiga ishonchingiz komil bo'lmasa, xizmat ko'rsatish bo'yicha mutaxassis yoki evakuator xizmatlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

### EHTIYOT BO'LING

Akkumlyator batareyasi yaqinida ishlaganda yoki unga xizmat ko'rsatayotganda **JIDDIY JAROHAT** yoki **O'LIM** ehtimolini oldini olish uchun har doim quyidagi ehtiyot choralarini ko'ring:



Batareya bilan ishlashdan oldin quyidagi ko'rsatmalarni o'qing.



Ko'zlarni elektrolit uchqunlaridan himoya qilish uchun xavfsizlik ko'zoynaklaridan foydalanish lozim.



Batareya yaqinida ochiq olov yoki tutun ishlatmang.



Batareya elementlari har doim portlashi mumkin bo'lgan yonuvchi vodorod gazini o'z ichiga oladi.

Batareyalar bolalar qo'li yetmaydigan joyda saqlanishi kerak.



Batareyalarda tez korroziyaga uchrash xususiyatiga ega bo'lgan sulfat kislota mavjud. Ko'zlarga, teriga yoki kiyimga kislota tushishidan saqlaning.



Agar kislota ko'zingizga tushsa, ularni kamida 15 daqiqa davomida toza suv bilan yuving va darhol shifokorga murojaat qiling. Agar kislota teriga tushsa, zararlangan joyni yaxshilab yuvib tashlang. Kislota tushgan joy og'risa yoki kuyish belgilari namoyon bo'lsa, darhol shifokorga murojaat qiling.

- Plastmassa korpusli batareyani ko'tarayotganda korpusni haddan tashqari bosish batareya kislotasining to'kilishiga olib kelishi mumkin. Batareyani maxsus moslama yordamida yoki qo'l bilan qarama-qarshi burchaklardan ushlab ko'taring.

- Avtomobil akkumulyatoridagi elektrolitlar muzlagan bo'lsa, dvigatelni tashqi manbadan ishga tushirishga urinmang.
- Batareyani avtomobilga ulangan holatida zaryad qilmang.
- O't oldirish tizimida yuqori kuchlanish mavjud. Dvigatel ishlayotganda yoki o't oldirish qurilmasi yoqilganda, bu qismlarga TEGMANG.
- Dvigatelni tashqi manba yordamida ishga tushirish uchun (+) va (-) kablarning bir-biriga tegishiga yo'l qo'yilmaydi. Bu uchqun hosil qilishi mumkin.
- Zaryadi tugagan yoki muzlagan batareya yordamida ishga tushirishga urinayotganda batareya yorilishi yoki portlashi mumkin.

### MA'LUMOT UCHUN

Transport vositasining shikastlanishini oldini olish uchun:

- Dvigatelni ishga tushirish uchun faqat 12 voltli quvvat manбайдan (batareya yoki boshqa quvvat manbai) foydalanish kerak.
- Avtomobilni tortish yoki surish orqali dvigatelni ishga tushirishga urinmang.




### Ma'lumot



Batareyadan noto'g'ri foydalanish atrof-muhit va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Batareyadan mahalliy qonun-qoidalarga muvofiq foydalaning.

### **Dvigatelni tashqi manba yordamida ishga tushirish tartibi**

1. Avtotransport vositalarini yetarlicha uzunlikdagi kabellar bilan ta'minlash uchun bir-biriga yetarlicha yaqin joylashtiring.
2. Dvigatel bo'linmasidagi ventilyatorlar va boshqa harakatlanuvchi qismlarga hatto avtomobil dvigateli to'xtab qolganda ham tegmaslikka harakat qiling.
3. Radio, chiroq, konditsioner va hokazo kabi barcha elektr jihozlarini o'chiring. Uzatish qutisini "P" (parkovka) holatiga qo'ying va qo'l tormozini torting. Ikkala transport vositasining dvigatellari to'xtatilishi zarur.



4. Ishga tushirish kabellarini rasmda ko'rsatilgan ketma-ketlikka qat'iy rioya qilgan holda ulang.  
Avvalo, zaryadsizlangan batareya (1) bo'lgan avtomobilda tashqi manba yordamida ishga tushirish uchun boshlang'ich simi musbat qizil rangli quloqqa (+) ulanadi.
5. Ishga tushirish kabelining ikkinchi uchi zaryadlangan akkumulyatorli avtomobildagi musbat (+) qizil rangli qulog'iga / tashqi ishga tushirish qulog'iga ulanadi (2).
6. Ikkinchi ishga tushirish kabelini zaryadlangan akkumulyator ega (3) avtomobildagi manfiy (-) qora rangli akkumulyator / shassi qulog'iga ulang.

7. Ikkinchi ishga tushirish kabelining ikkinchi uchini zaryadsizlangan avtomobildagi manfiy (-) qora rangli shassi qulog'iga ulang (4).

Kabellarni tegishli batareya quloqlari, tashqi manba yordamida ishga tushirish quloqlariga yoki tegishli "massa" dan tashqari boshqa joylarga ulash va batareyani ulashda uning ustiga engashish mumkin emas.

8. Dvigatelni to'xtatishdan oldin avtomobil kamida 30 daqiqa ishlashi yoki dvigatel kamida 60 minut salt yurish rejimda bo'lishi kerak. Batareyani zaryadlash uchun yetarli vaqt bo'lmasa, dvigatelni keyingi ishga tushirish muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkin. Batareyani zaryadlash va tekshirish uchun eng yaqin xizmat ko'rsatish markaziga ham murojaat qilishingiz mumkin.

Agar dvigatel bir necha marta urinishdan keyin ishga tushmasa, texnik xizmat ko'rsatish talab qilinadi. Bunday holatda malakali xodimdan yordam so'rashingiz zarur.

Agar akkumulyator zaryadsizlanishining sababi aniq bo'lmasa, avtomobilni HYUNDAI vakolatli dileriga tekshirtirishni tavsiya qilamiz.

Tashqi manba yordamida ishga tushirish kabellarini teskari ketma-ketlikda ajratib oling:

1. Akkumulyatori zaryadsizlangan avtomobildagi manfiy (-) qora rangli shassi qulog'idan ishga tushirish kabelini ajratib oling (4).
2. Ishga tushirish kabelining ikkinchi uchini zaryadlangan akkumulyatorli (3) avtomobildagi manfiy (-)qora rangli akkumulyator qulog'i / shassi qulog'idan ajratib oling.
3. Zaryadlangan akkumulyatorli (2) avtomobildagi musbat (+) qizil rangli akkumulyatordan / tashqi ishga tushirish qulog'idan ikkinchi ishga tushirish kabelini ajratib oling.
4. Akkumulyatori zaryadsizlangan avtomobildagi musbat (+) qizil rangli ishga tushirish kabelining ikkinchi uchini ajratib oling (1).


## AGAR DVIGATEL HADDAN TASHQARI QIZIB KETSA

Agar harorat o'lhagich haddan tashqari qizib ketganlikni ko'rsatsa, quvvat yo'qotilishi sezilsa yoki qattiq taqillatish yoki detonatsiya eshitilsa, dvigatel haddan tashqari qizib ketgan bo'lishi mumkin. Agar bu sodir bo'lsa:

1. Iloji boricha tezroq yo'ldan chetga chiqing va xavfsiz bo'lganda transport vositasini to'xtating.
2. Uzatish qutisini "P" (parkovka) holatiga qo'ying va qo'l tormozini torting. Konditsioner yoqilgan bo'lsa, uni o'chiring.
3. Agar dvigatel sovutgichi avtomobil ostidan oqib chiqsa yoki kapot ostidan bug' chiqsa, dvigatelni to'xtatish lozim. Sovutish suyuqligi oqimi va bug' chiqishi to'xtamaguncha kapotni ochmaslik kerak. Agar sovutish suyuqligi oqishi bilinmasa, dvigatelni ishlayotgan holda qoldiring va dvigatel sovutish tizimi ventilyatori ishlayotganligiga ishonch hosil qiling. Agar ventilyator ishlamasa, dvigatel to'xtatilishi zarur.



### EHTIYOT BO'LING



Jiddiy shikastlanmaslik uchun dvigatel ishlayotgan vaqtda sovutish tizimi ventilyatori va uzatma tasmasi kabi harakatlanuvchi qismlarga tegmang.

4. Radiator, shlanglar va avtomobil ostidagi bo'shliqdan sovutish suyuqligi oqmayotganini tekshiring. (Agar konditsioner ishlatilsa, avtomobil to'xtatilgandan keyin sovutish suyuqligi oqib chiqishi odatiy holdir.)
5. Dvigatel sovutish suyuqligi sizib chiqsa, HYUNDAI vakolatli dilingingizga murojaat qilish tavsiya etiladi.



### EHTIYOT BO'LING



Dvigatel hali ham issiq bo'lsa, radiator qopqog'ini ochmang yoki radiator tiqinini olib tashlamang. Issiq sovutish suyuqligi va bosimli bug'chiqishi jiddiy shikastlanishga olib kelishi mumkin.

Dvigatelni to'xtating va dvigatel sovishini kuting. Radiator qopqog'ini yechib olishda juda ehtiyot bo'lish zarur. Buni amalga oshirish uchun tiqinni qalin mato bilan o'rang va birinchi to'xtashgacha asta-sekin soat miliga teskari yo'nalishda aylantiring.

**Jiddiy shikastlanmaslik uchun dvigatel ishlayotgan vaqtda sovutish tizimi ventilyatori va uzatma tasmasi kabi harakatlanuvchi qismlarga tegmang.**

6. Agar haddan tashqari qizib ketish sababi topilmasa, dvigatel harorati normal holatga qaytishini kutish lozim. So'ngra, zarur bo'lganda sovutish suyuqligini kengaytiradigan bakka ehtiyotkorlik bilan o'rtacha darajaga yetguncha qo'shing

7. Ehtiyotkorlik bilan haydashda davom eting, qizib ketish belgilarini kuzating. Haddan tashqari qizib ketish takrorlansa, yordam uchun HYUNDAI vakolatli dileriga murojaat qiling.

#### **MA'LUMOT UCHUN**

- **Sovutish suyuqligining sezilarli darajada yo'qolishi sovutish tizimida sizish borligini ko'rsatadi, shuning uchun HYUNDAI vakolatli dileringizga tizimni tekshirtirish tavsiya etiladi.**
- **Agar sovutish suyuqligi darajasining pastligi natijasida dvigatel haddan tashqari qizib ketsa va ko'p miqdorda sovutish suyuqligi tezda qo'shilsa, dvigatel yorilishi mumkin. Zararlanishni oldini olish uchun sovutish suyuqligi kichik qismlarga asta qo'shiliishi kerak.**




## Shinalar bosimini nazorat qilish tizimi (SKDV) (mavjud bo'lganda)



- (1) Shinalardagi past bosim / SKDV nosozlik indikatorini
- (2) Shinalardagi past bosim holati va shinalardagi bosim indikatorini (LCD displeyda ko'rsatiladi).

## Shinalar bosimini tekshiring (mavjud bo'lganda)



- Shinalar bosimini asboblarning kombinatsiyasidagi "ASSIST (Yordamchi)" rejimida tekshirish mumkin.
- **4-bobdagi "LCD rejimlari" bo'limiga qarang.**
- Shinalar bosimini dvigatelni ishga tushirgandan so'ng haydashdan bir necha daqiqa o'tgach ko'rsatiladi.
- Agar avtomobil to'xtatilgandan keyin bosim ko'rsatilmasa, "Drive to display (xabar paydo bo'lishi uchun harakatlanishni boshlang)" xabari ko'rsatiladi. Harakatlanishni boshlagandan keyin shinalar bosimini tekshiring.
- Ko'rsatilgan shinalar bosimi shinalar bosimi o'lchagichi bilan o'lchanganidan farq qilishi mumkin.
- Shinalardagi bosim birligi asboblarning kombinatsiyasidagi foydalanuvchi sozlamalarida o'zgartirilishi mumkin.
  - Funt / kv. dyum, kPa, bar
- **(4-bobdagi "Foydalanuvchi sozlamalari" bo'limiga qarang).**

## Shinalar bosimini nazorat qilish tizimi



### EHTIYOT BO'LING

**Haddan tashqari bosim yoki bosim yetishmasligi shinalar xizmat qilish muddatini qisqartirishi, transport vositasini boshqarishga salbiy ta'sir ko'rsatishi va shinaning to'satdan yorilishiga olib kelishi mumkin, bu esa boshqaruvni yo'qotish va yo'l-transport hodisasi kuzatilishiga olib kelishi mumkin.**

Sovuq havoda har oy har bir shinadagi bosimni, shu jumladan zaxira g'ildiragini (mavjud bo'lganda) tekshiring va zarur bo'lganda shinalar bosimini ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilgan bosimga keltiring (shinalar bosimi darajasida va avtomobil ma'lumot belgilarida ko'rsatilgan).

(Agar avtomobilga belgilarda ko'rsatilgan o'lchamlardan farqli bo'lgan shinalar o'rnatilgan bo'lsa, ular uchun tegishli bosim darajasini aniqlash lozim.)

Qo'shimcha xavfsizlik tizimi sifatida avtomobil shinalar bosimini nazorat qilish tizimi (TPMS) bilan jihozlanishi mumkin, bu shinalardagi past bosim haqida ogohlantirish signalidan foydalangan holda bir yoki bir nechta shinalardagi bosimning sezilarli darajada pasayganini ko'rsatadi.

Shinalardagi past bosim haqida ogohlantirish signali yonsa, avtomobilni imkon qadar tezroq to'xtating, shinalar holatini tekshiring va shinalar bosimini normal holatga keltiring. Shinalardagi past bosim bilan haydashni davom ettirish shinalarning haddan tashqari qizishi va mexanik shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Bosimi odatdagidan past holatdagi shinalar ham yonilg'i sarfini oshiradi, shinalarning ishlash muddatini qisqartiradi va avtomobilni boshqarish va tormozlanish masofalariga ta'sir qilishi mumkin.

Shuni esda tutingki, TPMS tizimidan foydalanish hatto bosimning pasayishi TPMS shinalardagi past bosim haqida ogohlantirish signalini ishga tushirish uchun yetarli bo'lmasa ham shinalarga to'g'ri xizmat ko'rsatish yoki ularni shishirilishi zarur degani emas.

Avtomobil shuningdek, tizimning to'g'ri ishlashini nazorat qilish uchun TPMS nosozlik indikatorini bilan jihozlangan. TPMS nosozlik indikatorini shinalardagi past bosim haqida ogohlantirish signali bilan birlashtirilgan. Tizim muammoni aniqlaganida indikator taxminan bir daqiqa miltillab turadi, so'ngra yonib turadi.

Ushbu ketma-ketlik avtomobilning keyingi ishga tushirilishidan so'ng nosozlik bartaraf bo'lgunga qadar davom etadi.

Nosozlik indikatorini yoqilgan bo'lsa, tizim tegishli shinalardagi past bosimni aniqlay olmasligi yoki signal bera olmasligi mumkin. TPMS noto'g'ri ishlashi turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin, jumladan shinalar yoki g'ildiraklarni o'rnatish yoki almashtirish. Bir yoki bir nechta shinalar yoki g'ildiraklarni o'rnatgan yoki almashtirgandan so'ng TPMS ishlayotganiga ishonch hosil qilish uchun har doim TPMS nosozlik indikatorini tekshiring.

### MA'LUMOT UCHUN

Quyidagi hollarda tizimni tekshirtirish uchun HYUNDAI vakolatli dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi:

1. Shinalardagi past bosim haqida ogohlantirish signali yoki TPMS nosozlik indikatorini o't oldirish qurilmasi yoqilganda yoki dvigatel ishlayotganida 3 soniya davomida yonmaydi.
2. Taxminan 1 daqiqa miltillagandan keyin TPMS nosozlik indikatorini yoniq qoladi.
3. Shinalardagi past bosim indikatorini yoniq qoladi.



## Shinalardagi past bosim indikatorini

## Shinalardagi past bosim indikatorini va shinalar bosim indikatorini



Shinalar bosimi nazorat qilish tizimining ogohlantirish indikatorlari yoqilganda bu bir yoki bir nechta shinalar tavsiya etilgan bosimdan ancha past ekanligini bildiradi.

G'ildirakdagi past bosim indikatorini tegishli holat chirog'ini yoqish orqali qaysi shinada bosim past ekanligini ko'rsatadi.

Indikator chiroqlaridan birortasi yonganda tormozlanish masofasi oshishi mumkinligini hisobga olib keskin burilishlardan qilmagan holda sekinlashing. Iloji boricha tezroq to'xtang va shinalarni tekshiring.

Shinalarni haydovchi tomonidagi o'rtadagi ustunning tashqi tomonida joylashgan avtomobil ma'lumot belgisida yoki shinalar bosimi yorlig'ida ko'rsatilganidek, to'g'ri bosim darajasiga keltiring. Agar xizmat ko'rsatish joyiga yetib borishning iloji bo'lmasa yoki shishgandan keyin shinalar bosimi to'g'ri darajada saqlanmasa, shishgan shinani zaxiradagisi bilan almashtiring.

Shinalardagi past bosim haqida ogohlantirish chirog'i yoniq qoladi va past bosimli g'ildirak ta'mirlanmaguncha yoki almashtirilmaguncha TPMS nosozlik indikator chirog'i bir daqiqa miltillashi va keyin doimiy yonib turishi mumkin (agar avtomobil soatiga 25 km/soatdan (15,5 mil/soat) yuqori tezlikda taxminan 10 daqiqa harakatlansa).



### Ma'lumot

Zaxira g'ildirak shinalar bosimi datchigi bilan jihozlanmagan.



### DIQQAT

Sovuq havo sharoitida shinalar iliq ob-havo uchun tavsiya etilgan bosimda o'rnatilgan bo'lsa, shinalardagi past bosim haqida ogohlantiruvchi chirog'i yonishi mumkin. Bu TPMS tizimining noto'g'ri ishlashini ko'rsatmaydi, chunki haroratning pasayishiga mutanosib ravishda shinalar bosimi ham pasayadi.

Harorati past bo'lgan hududdan yuqori haroratli hududga va aksincha, tashqi harorat sezilarli darajada yuqori yoki pastroq bo'lsa, shinalar bosimini tekshiring va uni tavsiya etilgan darajaga keltiring.



### EHTIYOT BO'LING

**Past bosim xavfi**

Shinalardagi juda past bosim avtomobil boshqaruvining yo'qolishiga va tormozlanish masofasining oshishiga olib kelishi mumkin.

Shinalardagi past bosim bilan haydashni davom ettirish shinalarning haddan tashqari qizib ketishiga va mexanik shikastlanishiga olib kelishi mumkin.



## TPMS (Shinalar bosimini nazorat qilish tizimi) nosozlik indikatorini

Shinalar bosimini nazorat qilish tizimida nosozlik bo'lsa, shinalardagi past bosim indikatorini bir daqiqa miltillaydi va keyin doimiy ravishda yonadi. Darhol HYUNDAI vakolatli dileriga tizimni tekshirtirish tavsiya etiladi.

### MA'LUMOT UCHUN

TPMS tizimida nosozlik bo'lsa, avtomobil shinalari bosimi yetarli bo'lmasa ham shinalardagi past bosim indikatorini ko'rsatilmaydi.

### MA'LUMOT UCHUN

Avtomobil politsiya bo'limlari, davlat va jamoat idoralari, radioeshittirish stansiyalari, harbiy inshootlar, aeroportlar, retranslatiya minoralari va hokazolarda o'rnatilgan elektr kabellari yoki radio uzatgichlari yonidan o'tganda, TPMS nosozlik indikatorini bir daqiqa miltillagandan keyin doimiy ravishda yonishi mumkin.

TPMS nosozlik indikator chirog'i sirpanishga qarshi zanjirlar yoki kompyuterlar, zaryadlovchi qurilmalar, masofadan ishga tushirish, sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimlari va boshqa shu kabi ba'zi elektron qurilmalardan foydalanganda yonishi mumkin. Bu shinalar bosimini nazorat qilish tizimining (TPMS) normal ishlashiga xalaqit berishi mumkin.

## Shinalarni TPMS tizimi bilan almashtirish

Shinalarda havo bosimi tushib ketsa, shinalardagi past bosim indikatorini yonadi va havo bosimi tushgan shinani ko'rsatadi. Shinani imkon qadar tezroq HYUNDAI vakolatli dilerida yoki o'rnatilgan zaxira g'ildirak bilan ta'mirlash tavsiya etiladi.

### MA'LUMOT UCHUN

Past bosimli shinani ta'mirlash va/ yoki shishirish uchun HYUNDAI dileri tomonidan tasdiqlanmagan mahsulotlardan (yoki avtomobilga mos kelmaydigan mahsulotlardan) foydalanish tavsiya etilmaydi. HYUNDAI dileri tomonidan tasdiqlanmagan shinalar germetikasi yoki ekvivalent mahsulotdan foydalanish shinalar bosimi datchigiga zarar yetkazishi mumkin.

Zaxira g'ildirak (mavjud bo'lganda) bosim datchigi bilan jihozlanmagan. Teshilgan shinani zaxiradagisiga almashtirgandan so'ng shinalardagi past bosim haqida ogohlantiruvchi chiroq yoniq qoladi. Bundan tashqari agar avtomobil taxminan 1 daqiqa davomida soatiga 25 km (15,5 mil) dan ortiq masofani bosib o'tgan bo'lsa, TPMS nosozlik indikatorini bir daqiqa miltillagandan so'ng doimiy ravishda yonadi.

Ta'mirlangan g'ildirakni bosim datchigi bilan o'rnatgandan va tavsiya etilgan bosimga sozlangandan so'ng, TPMS nosozlik indikatorini bir necha daqiqadan so'ng o'chadi.

Agar ogohlantirish chirog'i bir necha daqiqadan so'ng o'chmasa, HYUNDAI vakolatli dileringizga murojaat qiling.

Har bir g'ildirak ventil shtogi orqasidagi shinaga o'rnatilgan shinalar bosimi datchigi bilan jihozlangan (zaxira g'ildirakdan tashqari). TPMS tizimiga mos keladigan g'ildiraklardan foydalanish kerak. Shinalarga texnik xizmat ko'rsatish har doim vakolatli HYUNDAI dileri tomonidan amalga oshirilishi zarur.

Vizual tekshiruv har doim ham shinalardagi havo bosimining pasayishini o'z vaqtida aniqlashga imkon bermaydi. Shinalar bosimini o'lchash uchun har doim yaxshi sifatli plastik bosim o'lchagichdan foydalanish lozim. Shuni yodda tutish kerakki, Issiq holatdagi shina bosimi (harakatlanish boshlanishi bilan) sovuq holatdagisiga qaraganda yuqori bo'ladi.

Sovuq holatdagi shinalar avtomobil 3 soat davomida harakatlanmagani va bu 3 soatlik vaqt ichida 1,6 km (1 mil) dan kamroq masofani bosib o'tganligini bildiradi.

Shinalar bosimini o'lchashdan oldin shinalarning sovishini kuting. Tavsiya etilgan bosimga keltirish sovuq shinalar bilan amalga oshirilishi kerak.



## EHTIYOT BO'LING

- **TPMS tizimi yo'lda o'tkir narsalar kabi tashqi omillar ta'sirida to'satdan shinalar shikastlanishi haqida ogohlantirish uchun mo'ljallanmagan.**
- **Agar avtomobilning yo'lda harakatlanishi beqaror bo'lib qolsa, darhol oyog'ingizni gaz pedalidan oling, sekin va ohista kuch bilan tormoz pedalini bosib va avtomobilni xavfsiz holatda asta to'xtating.**



## EHTIYOT BO'LING

TPMS komponentlarini noto'g'ri ishlatish, o'zgartirish yoki o'chirish tizimning haydovchini shinalardagi past bosim yoki TPMS noto'g'ri ishlashi haqida ogohlantirish xususiyatiga ta'sir qilishi mumkin.

Shinalar bosimini nazorat qilish tizimining (TPMS) komponentlarini noto'g'ri ishlatish, o'zgartirish yoki o'chirish avtomobil kafolatini bekor qilishi mumkin.



## EHTIYOT BO'LING

Yevropa uchun

- Avtomobilga o'zgartirishlar kiritmang, chunki bu TPMS funksiyasiga ta'sir qilishi mumkin.
  - Bozorda mavjud bo'lgan g'ildiraklar TPMS datchiklari bilan jihozlanmagan. Xavfsizligingiz uchun HYUNDAI vakolatli dileridan olingan ehtiyot qismlardan foydalanish tavsiya etiladi.
  - Agar sotuvda mavjud g'ildiraklar ishlatilsa, HYUNDAI dileri tomonidan tasdiqlangan TPMS datchiklari yoki tasdiqlangan ekvivalent mahsulotlardan foydalanish kerak. Avtomobil TPMS datchigi bilan jihozlanmagan bo'lsa yoki TPMS tizimi to'g'ri ishlamasa, avtomobil majburiy texnik ko'rikdan o'ta olmasligi mumkin.
- ※ YEVROPA bozorida quyida ko'rsatilgan vaqt oralig'ida sotiladigan barcha avtomobillar TPMS tizimi bilan jihozlangan bo'lishi zarur.
- Yangi avtomobil modellari:  
1-noyabr 2012 yil ~
  - Mavjud avtomobil modellari:  
2014 yil 1-noyabr ~ (avtomobilni ro'yxatga olish asosida)

## HARAKAT VAQTIDA SHINA TESHILSA (ZAXIRA G'ILDIRAK BILAN, MAVJUD BO'LGANDA)

### EHTIYOT BO'LING

Shinani almashtirish xavfli bo'lishi mumkin. Jiddiy shikastlanish yoki o'lim xavfini kamaytirish uchun ushbu bo'limdagi ko'rsatmalarga rioya qilish ZARUR.

### DIQQAT

Yassi tomoniga tegib ketmaslik uchun domkrat tutqichidan foydalanganda ehtiyot bo'ling. Yassi tomonida kesishi mumkin bo'lgan o'tkir qirralar mavjud.




OLF064031N

Zaxira g'ildirakni olish uchun qanotli bolti soat miliga teskari aylantiring.

Zaxira g'ildirakni bir xil bo'linmada saqlang, bunda bolti soat mili yo'nalishi bo'yicha mahkamlang. Zaxira g'ildirak va asboblardan zirillagan shovqin chiqishini oldini olish uchun ularni tegishli joyda saqlang.

### Domkrat va asboblari




OLF064004N

- (1) Domkrat tutqichi
- (2) Domkrat
- (3) G'ildirak gaykalari kaliti

Domkrat, domkrat tutqichi va g'ildirak gaykalari kaliti yukxona qopqog'i ostidagi yuk bo'linmasida saqlanadi.

Domkrat faqat favqulodda g'ildirakni almashtirish uchun mo'ljallangan.





Agar qanotli boltni qo'l bilan ochish qiyin bo'lsa, uni domkrat tutqichi yordamida osongina ochish mumkin.

1. Domkrat tutqichini (1) qanotli boltning bir tomoniga o'rnatish.
2. Qanotli boltni domkrat tutqichi bilan soat miliga teskari yo'nalishda burang.

## G'ildirakni almashtirish



### EHTIYOT BO'LING

Domkratni ko'tarish transport vositasining sirpanib ketishi yoki ag'darishiga olib kelishi, bu esa jiddiy jarohat yoki o'limga sabab bo'lishi mumkin.

Quyidagi ehtiyot choralarini ko'rish kerak:

- Avtotransport domkratda turgan holatida uning ostida o'tirmang.
- G'ildirakni yo'lakda **ALMASHTIRMANG**. G'ildiraklarni almashtirish **DOIMA** yo'ldan tashqarida tekis va mustahkam yuzada amalga oshirilishi kerak. Agar tekis va mustahkam sirtga ega bo'lgan joyni topa olmasangiz, evakuatorni chaqiring.
- Domkrat faqat ushbu avtomobil uchun berilgan haydovchi uskunalar bilan ishlatilishi zarur.
- Avtotransportni ko'tarish uchun domkrat **FAQAT** maxsus ajratilgan joylarga o'rnatilishi va **HECH QACHON** bamper yoki avtomobilning boshqa qismlari ostiga o'rnatilmasligi lozim.
- Domkratlangan avtomobilning dvigateli to'xtatilishi kerak.

- Agar avtomobil domkrat yordamida ko'tarilgan bo'lsa, unda hech kim bo'lmasligi zarur.
- Bolalarning yo'ldan va transport vositasidan yetarlicha masofada bo'lishini ta'minlash kerak.

G'ildirakni quyidagi ketma-ketlikda almashtirish kerak:

1. Avtomobilni qattiq, tekis yuzaga to'xtating.
2. Uzatish qutisini "P" (parkovka) holatiga qo'ying.
3. Favqulodda ogohlantirish tugmasini bosing.
4. Avtomobildan g'ildirak gaykalari kaliti, domkrat, domkrat tutqichi va zaxira g'ildirakni oling.



ODN8069090L


6. G'ildirak gaykalarini soat miliga teskari yo'nalishda bo'shating, lekin g'ildirak yerdan ko'tarilmaguncha ularni to'liq bo'shatmang.



ODN8069089L


[A] : Bloklash

5. Almashtirilishi kerak bo'lgan g'ildirakning qarshisidagi old va orqa g'ildiraklarni diagonal ravishda blokirovka qiling.



ODN8069091L

7. Almashtirilishi kerak bo'lgan g'ildirakka eng yaqin bo'lgan maxsus ko'tarish nuqtalari ostiga domkrat qo'ying. Ko'tarish nuqtalari ramaga ikkita kesma bilan payvandlangan bo'ladi. Avtotransportni domkrat bilan boshqa joydan ko'tarish taqiqlanadi. Bu yon tomon zichlagichga zarar yetkazishi mumkin.



8. Tutqichni domkratka soling va g'ildirak yerdan ko'tarilmaguncha soat mili yo'nalishi bo'yicha aylantiring. Domkratlangan avtomobil barqaror ekanligiga ishonch hosil qiling.
9. G'ildirak gaykalarini kalit bilan bo'shating va oxirida qo'l bilan burang. G'ildirakni gaykalar bilan chiqarib oling va uni yerga qo'ying. Gaykalarni, montaj yuzalari va g'ildirakni kirdan tozalang.
10. Zaxira shinani gupchak gaykalariga o'rnatib.
11. G'ildirak gaykalarini qo'l bilan g'ildirak tomon konus qismiga torting.
12. Domkrat tutqichini soat miliga teskari burab avtomobilni yerga tushiring.
13. G'ildirak gaykalari kaliti yordamida **g'ildirak gaykalarini ko'rsatilgan ketma-ketlikda burang. Har bir gaykaning mahkamligini qayta tekshiring.** G'ildiraklarni almashtirgandan so'ng g'ildirak gaykalarini kerakli momentga mahkamlash uchun imkon qadar tezroq **HYUNDAI** vakolatli dileriga murojaat qilishingiz tavsiya etiladi. G'ildirak gaykalari mahkamlash uchun burash momenti: **11~13 kgc • m (79-94 funt-kuch • fut).**

Agar sizda shinalar bosimi o'lchagichi bo'lsa, shinalar bosimini tekshiring (shinalar bosimi bo'yicha ko'rsatmalar uchun 2-bobdagi "G'ildiraklar va shinalar" bo'limiga qarang). Agar bosim noto'g'ri bo'lsa, shinalar bosimini sozlash uchun avtomobilni past tezlikda eng yaqin xizmat ko'rsatish joyiga olib boring. Shinalar bosimini sozlagandan so'ng, ventillarni qopqog'ini o'z joyiga burab qo'yish lozim. Qopqoq joyiga qo'yilmasa, shinadan havo chiqishi mumkin. Ventil qopqog'i yo'qolgan bo'lsa, yangisini sotib oling va iloji boricha tezroq joylashtiring. Teshilgan shina almashtirilgandan so'ng domkrat va asboblarni o'z joyiga qo'yilishi kerak.

#### **MA'LUMOT UCHUN**

- **Zaxira g'ildirakni o'rnatgandan so'ng shinalar bosimini imkon qadar tezroq tekshiring. Tavsiya etilgan bosimni o'rnatib.**
- **G'ildiraklarni almashtirgandan so'ng 50 km harakatlaning, so'ngra g'ildirak gaykalari mahkam buralganligini tekshiring. 1000 km dan ortiq masofani bosib o'tgandan so'ng g'ildirak gaykalarining mahkamligini qayta tekshiring.**



#### **DIQQAT**

**Ushbu avtomobil uchun metrik rezbalı gaykalardan foydalanadi. G'ildirakni almashtirishda asl g'ildirak gaykalaridan foydalaning. Agar g'ildirak gaykalarini almashtirish zarur bo'lsa, metrik rezbalı gaykalardan foydalanish zarur, aks holda g'ildirak gaykalaridagi buramalar shikastlanishi mumkin va g'ildirak to'g'ri mahkamlanmaydi. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun HYUNDAI vakolatli dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.**

Domkrat, gaykalar, rezbalarni yoki boshqa jihozlarni shikastlangan yoki yomon holatda bo'lsa, g'ildirakni almashtirishga urinmang. Bunday holatda yordam chaqirish zarur.

#### ***Kompakt zaxira g'ildirakdan foydalanish***

##### ***(mavjud bo'lganda)***

Kompakt zaxira g'ildirak faqat favqulodda vaziyatlarda foydalanish uchun mo'ljallangan. Kompakt zaxira g'ildirakni o'rnatilganda barcha xavfsizlik choralariga rioya qilgan holda transport vositasini ehtiyotkorlik bilan boshqaring.



## EHTIYOT BO'LING

**Kompakt g'ildirakning shikastlanishiga yo'l qo'ymaslik va keyinchalik ehtimliy baxtsiz hodisa oqibatida boshqaruvni yo'qotmaslik uchun:**

- **Kompakt zaxira g'ildirak faqat favqulodda vaziyatlarda qo'llanilishi kerak.**
- **Avtomobil tezligi 80 km/soat (50 mil/soat) dan oshmasligi zarur.**
- **Kompakt zaxira g'ildirakning yon tomonida ko'rsatilgan maksimal yuk yoki sig'imgan oshmang.**
- **Kompakt zaxira g'ildirakdan doimiy foydalanmang. Avtomobilning o'z shinasini ta'mirlash yoki almashtirish kompakt zaxira g'ildirakning shikastlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun imkon qadar tezroq amalga oshirilishi zarur.**

Kompakt zaxira g'ildirakdan foydalanganda:

- Kompakt zaxira g'ildirakni o'rnatgandan so'ng havo bosimini tekshirish lozim. Kompakt zaxira g'ildirakdagi havo bosimi 420 kPa (60 funt/dyum<sup>2</sup>) bo'lishi kerak.
- Agar kompakt zaxira g'ildirak o'rnatilgan bo'lsa, avtomatik avtomobil yuvish xizmatidan foydalanmang.
- Kompakt zaxira g'ildirak boshqa transport vositalarida ishlatilmasligi lozim chunki u faqat shu avtomobil uchun mo'ljallangan.
- Kompakt zaxira g'ildirak shinasini qoplamasining ishlash muddati oddiy shinanikiga qaraganda qisqaroq bo'ladi. Kompakt zaxira g'ildirak shinasini qoplamasini muntazam tekshirib turish zarur. Zarur bo'lganda xuddi shu shina bilan almashtirish kerak.
- Bir vaqtning o'zida bir nechta kompakt zaxira g'ildiraklardan foydalanmang.
- Agar avtomobil kompakt zaxira g'ildirak bilan jihozlangan bo'lsa, tirkamani shatakka olishga ruxsat berilmaydi.

**MA'LUMOT UCHUN**

Original g'ildirakni ta'mirlagan va qayta o'rnatgandan so'ng g'ildirak tebranishni oldini olish uchun mahkamlash gaykalari tegishli momentga buralishi zarur. G'ildirak gaykalarini mahkamlash uchun burash momenti: 11~13 kgc • m (79-94 funt-kuch • fut)).


- Kompakt zaxira shinani boshqa g'ildiraklarga o'rnatish mumkin emas. Kompakt zaxira g'ildirakka o'rnatish uchun standart va qishki shinalar, dekorativ qopqoqlar yoki qoplama halqalaridan foydalanmaslik kerak.

**DIQQAT**

Kompakt zaxira g'ildirak va avtomobilga zarar yetkazmaslik uchun:

- Past-balandlik yoki loy kabi turli xavf-xatarlardan yo'liqmaslik uchun yo'l holatiga qarab yetarlicha past tezlikda harakatlaning.
- Ko'rish qiyin bo'lgan joyda harakatlanishda ehtiyot bo'ling. Kompakt zaxira g'ildiragi shinasining diametri an'anaviy shinanikidan kichikroq bo'lib, u yer bilan oraliq masofani taxminan 25 mm (1 dyum)ga kamaytiradi.
- Kompakt zaxira g'ildiragiga g'ildirak zanjirlarini o'rnatish mumkin emas. Kichik g'ildirak o'lchami tufayli g'ildirak zanjirlarini to'g'ri o'rnatib bo'lmaydi.

## Domkrat etiketkasi



OHYK065011

Avtomobildagi haqiqiy domkrat etiketkasi rasmdagidan farq qilishi mumkin. Batafsil texnik xususiyatlar domkratga yopishtirilgan etiketkada ko'rsatilgan.

1. Model nomi.
2. Maksimal ruxsat etilgan yuk.
3. Domkratni ishlatganda qo'l tormozini ishga tushiring.
4. Domkratni ishlatganda dvigatelni to'xtating.
5. Domkrat bilan ko'tarilgan transport vositasi ostida turish taqiqlanadi.
6. Rama ostida o'rnatish joylari taqdim etilgan.
7. Avtotransport vositasini ko'tarayotganda domkrat asosi vertikal bo'lishi va ko'tarish joyi ostida bo'lishi zarur.
8. Mexanik uzatish qutisi bo'lgan transport vositalarida uzatish dastagini orqaga, avtomatik/ikki muftali uzatish qutisi bo'lgan transport vositalarida dastakni P holatigaga o'tkazing.
9. Domkrat qattiq gorizontaal yuzaga tayanishi lozim.
10. Domkrat ishlab chiqaruvchisi.
11. Ishlab chiqarilgan sana.
12. Kompaniya vakilligi va manzili.

## Domkrat uchun Yevropa Ittifoqining muvofqlik deklaratsiyasi



### EC Declaration of Conformity according to EC Machinery Directive 2006/42/EC

We, **SAMKI IND. CO., LTD.**

# 22, Hyojuk3-Gil, Buk-Gu, Ulsan, Korea

declare under our sole responsibility that the product

**Product** : Jack Assembly

**Type Designation(s)** : Jack Assembly-600kg, Jack Assembly-700kg  
Jack Assembly-800kg, Jack Assembly-1000kg  
Jack Assembly-1200kg, Jack Assembly-1500kg

**Serial No.** : N/A

**Year of Manufacture** : 2013

to which this declaration relates is in conformity with the following standard(s) or other normative document(s):

EN ISO12100 (2010)	Safety of machinery - General principles for design – Risk assessment and risk reduction
EN ISO12100-2/A1 (2009)	Safety of machinery - Basic concepts, general principles for design, Part 2 : Technical principles
EN 1494/A1 (2008)	Mobile or movable jacks and associated lifting equipment

following the provisions of Directive(s):

2006/42/EC	Directive on the approximation of the laws of Member States relating to machinery (OJ L157 Jun, 9, 2006)
------------	--


Ulsan, Korea / Jul 25, 2013      Hyun Duck, Cho      President   
(Place and date of issue)(name and signature or equivalent making of authorized person)

\* T.C.F Compiling Person: Safenet Limited (European Notified body : 1674 )  
Denford Garage, Denford, Kettering Northants, NN14 4EQ, England

JACKDOC14S



## AGAR SHINA TESHILSA (TA'MIRLASH TO'PLATI BILAN, MAVJUD BO'IGANDA)



Foydalanishdan oldin xavfsizligingiz uchun ushbu yo'riqnomadagi ko'rsatmalarni diqqat bilan o'qing.

- (1) Kompessor
- (2) Shina germetikasiga ega kamer yamash to'plami

Dala sharoitida shinalarini ta'mirlash to'plami shinalarni ta'mirlash uchun vaqtinchalik yechim bo'lib tizimni tekshirtirish uchun imkon qadar tezroq HYUNDAI vakolatli dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.

### **DIQQAT**

**Ikki yoki undan ortiq shinalar teshilgan bo'lsa, shina germetikasidan foydalanmang chunki bitta shina germetikasiga ega kamer yamash to'plami faqat bitta teshilgan shinani ta'mirlashga yetadi.**

### **EHTIYOT BO'LING**

Shinaning yon devori teshilgan taqdirda ta'mirlash uchun shina germetikasidan foydalanmang. Bu shina yorilganda baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin.

### **EHTIYOT BO'LING**

Shinalarni imkon qadar tezroq ta'mirlang. Shina germetikasi bilan ta'mirlangandan so'ng shinalar istalgan vaqtda bosimni yo'qotishi mumkin.

### **Kirish**

Agar shina germetikasiga ega shinalarni ta'mirlash to'plami mavjud bo'lsa, shina teshilganidan keyin ham avtomobil harakatlanishda davom etadi.

Kompessor va germetik birikmadan iborat tizim ko'p hollarda shinalar bosimini tiklagan holda yengil avtomobil shinalarida mix yoki shunga o'xshash kichik narsalar tufayli yuzaga kelgan teshilishlarni oson va samarali ta'mirlash imkonini beradi.

Shinadagi bosim pasaymasligiga ishonch hosil qilgandan so'ng shu tarzda ta'mirlangan shina eng yaqin texnik xizmat ko'rsatish joyida shinani ta'mirlash yoki almashtirish uchun maksimal 80 km/soat (50 mil/soat) tezlikda 200 km (120 mil) masofani bosib o'tishi mumkin.

Ba'zi shinalar, ayniqsa katta hajmda teshilgan yoki yon devori shikastlangan shinalar bu tarzda ta'mirlanmasligi mumkin.

Shinalardagi bosimning yo'qolishi shina xarakteristikasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu sababli, keskin manyovrlar qilmaslik lozim, ayniqsa transport vositasiga yuk ortilgan yoki tirkama shatakka olingan bo'lsa.

Shina germetikasiga ega kamer yamash to'plami shinalarni doimiy ta'mirlash uchun mo'ljallanmagan va bitta to'plam faqat bitta shinani ta'mirlash uchun ishlatilishi zarur. Ushbu qo'llanma teshilgan shinalarni vaqtincha ta'mirlash bo'yicha bosqichma-bosqich nima qilish kerakligi haqida ma'lumot beradi.

"Shinalarni ta'mirlash to'plamidan xavfsiz foydalanish bo'yicha eslatmalarni" o'qing.



### EHTIYOT BO'LING

**Teshilgan shina bilan haydash paytida shina jiddiy shikastlangan bo'lsa shinalarni ta'mirlash to'plamidan (TMK) foydalanmang.**


**TMK yordamida faqat shina qoplamasidagi teshiklarni ta'mirlash mumkin.**

### Shinalarni ta'mirlash to'plamidan xavfsiz foydalanish bo'yicha eslatmalar

- Shinalarni ta'mirlash to'plamidan foydalanish uchun avtomobilni yo'l chetida to'xtating.
  - Avtomobilni hatto o'rtacha tekis yuzada ham harakatsiz ushlab turish uchun qo'l tormozini qo'llang. Shinalarni ta'mirlash to'plamidan faqat teshiklarni ta'mirlash va yengil avtomobil shinalarini shishirish uchun foydalaning. Faqat shina qoplamasi qismidagi teshiklarni shinalarni ta'mirlash to'plami bilan ta'mirlash mumkin.
  - Velosiped, mototsikl yoki boshqa turdagi shinalarda foydalanmang.
  - Agar shina va g'ildirak shikastlangan bo'lsa, xavfsizlik nuqtayi nazaridan shinalarni ta'mirlash to'plamidan foydalanmang.
  - Diametri 6 mm (0,24 dyum) dan kattaroq shikastlanishlar uchun shinalarni ta'mirlash to'plamidan foydalanish samarali bo'lmasligi mumkin.
- Agar shinani shinalarni ta'mirlash to'plami bilan ishlatishga yaroqli holatga keltira olmasangiz, HYUNDAI vakolatti dileriga murojaat qilishingizni tavsiya qilamiz.

- Teshilgan shina bilan haydash paytida shina jiddiy shikastlangan bo'lsa, shinalarni ta'mirlash to'plamidan foydalanmang.
- Shinani teshgan mix va shunga o'xshash narsalarni chiqarib tashlamang.
- Agar avtomobil tashqarida bo'lsa, dvigatelni to'xtatmang. Aks holda ishlayotgan kompressor avtomobil akkumulyatorini zaryadsizlantirishi mumkin.
- Foydalanish vaqtida shinalarni ta'mirlash to'plamini qarovsiz qoldirmang.
- Kompressorni to'xtamasdan 10 daqiqadan ortiq ishlatmang chunki bu uning qizib ketishiga olib kelishi mumkin.
- Agar atrof-muhit harorati  $-30^{\circ}\text{C}$  ( $-22^{\circ}\text{F}$ ) dan past bo'lsa, shinalarni ta'mirlash to'plamidan foydalanmang.
- Agar germetika teringizga tegsa, ko'p miqdorda suv bilan yaxshilab yuvib tashlang. Agar achishish xususiyati davom etsa, shifokorga murojaat qiling.
- Agar germetika ko'zingizga tushsa, kamida 15 daqiqa davomida ko'zlaringizni suv bilan yuving. Agar achishish xususiyati davom etsa, shifokorga murojaat qiling.
- Agar germetika yutib yuborilsa, og'zingizni suv bilan yuving va ko'p miqdorda suv iching. Hushsiz odamga hech narsa bermang, darhol tez tibbiy yordamga murojaat qiling.
- Germetika bilan uzoq vaqt davomida ishlash to'qima va buyrak kabi organlarga zarar yetkazishi mumkin.

## Shinalarni ta'mirlash to'plami komponentlari



OSK3068011L

1. Tezlik cheklovi etiketkasi
2. Shina germetikasi idishi va tezlik chegarasi etiketkasi
3. Shina germetikasi idishidan g'ildirakka kirish shlangi
4. Batareyani to'g'ridan-to'g'ri ulash uchun ulagich va kabellar
5. Shina germetikasi idishi uchun ushlagich
6. Kompessor
7. O'chirib-yoqish tugmasi

8. Shina bosimi o'lchagichi.
9. Shina bosimini pasaytirish tugmasi
10. Kompessorni shina germetikasi idishi yoki g'ildirak bilan ulash uchun shlang.

Ulagich, kabel va ulash shlangi kompressor korpusida saqlanadi.

Belgilangan harakatlar ketma-ketligiga qat'iy rioya qilish zarur, aks holda germetika yuqori bosim ostida chiqib ketishi mumkin.

### EHTIYOT BO'LING

Muddati o'tgan germetika. Yaroqlilik muddati o'tgan shina germetikasidan foydalanish mumkin emas (germetika o'ramida ko'rsatilgan). Bu shinaning ishdan chiqishi xavfini oshiradi.

### EHTIYOT BO'LING

#### Germetika

- Bolalar qo'li yetmaydigan joyda saqlanishi lozim.
- Ko'zga kirishidan saqlaning.
- Ichga yutmang.

## Shinalarni ta'mirlash to'plamidan foydalanish

### DIQQAT



Shina germetikasi idishidan (1) tezlik chegarasi ko'rsatilgan etiketkani olib tashlang va haydovchiga belgilangan tezlikdan oshmasligini eslatish uchun uni aniq ko'rinadigan joyga (masalan, rulga) joylashtiring.

1. Shina germetikasi idishini silkiting.



©DN8079019

2. Ulovchi shlangni (10) shina germetikasi idishi ulagichiga burab kirgazing.
3. Kompresor tugmasi (9) bosilmaganligiga ishonch hosil qiling.



ODN8079020

5. Shina germetikasi idishi ustini pastga qarab kompresor korpusiga (5) soling.
6. Kompresor o'chiqligiga ishonch hosil qiling



©DN8079006L

4. Teshilgan shinadan ventill qopqog'ini bo'shating va uning o'rniga shina germetikasi idishi ulovchi shlangini (3) burab kirgazing.



ODN8079008

7. Kompresorni kabel va ulagichlar (4) yordamida avtomobil rozetkasiga ulang.
8. Shina germetikasi idishida kerakli bosim hosil qilish uchun kompresorni o't oldirish qurilmasi yoqiq holatda 5-7 daqiqa davomida yoqing (2-bobdagi "G'ildirak va shinalar" bo'limiga qarang). Shinaning shishish bosimi hozircha muhim emas, u keyinroq tekshiriladi va tuzatiladi.

### **DIQQAT**

**Germetika yetkazib berish shlangini klapanga mahkam ulang. Aks holda germetika teskari yo'nalishda harakatlanishi va germetika shlangini tiqilib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.**

Shinaga ortiqcha bosim o'tkazmaslik uchun ehtiyot bo'lish zarur.

Shinani germetika bilan to'ldirganda u bilan yetarlicha masofani saqlang.

Shina va g'ildirak shikastlangan bo'lsa, xavfsizlik nuqtayi nazaridan shinalarni ta'mirlash to'plamidan foydalanmang.

9. Kompresorni o'chiring.
10. Shlanglarni shina germetikasi idishi va shina ventilidan ajratib oling.

TMKni avtomobilda u uchun ajratilgan saqlash joyiga joylashtiring.

### **DIQQAT**

#### **Shina bosimi**


**Shinalar bosimi 200 kPa (29 funt/dyum) dan past bo'lsa, transport vositasini harakatlanishni boshlash mumkin emas. Bu shinalar yorilib ketgan taqdirda baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin.**

### **EHTIYOT BO'LING**

#### **Is gazi**

**Dvigatelni bino ichida uzoq vaqt davomida ishlatish is gazi bilan zaharlanish va bo'g'ilishga olib kelishi mumkin.**

## Germetikani taqsimlash



11. Mastikni shinaga teng taqsimlash uchun zudlik bilan haydashni boshlang va taxminan 7-10 km (4-6 mil yoki taxminan 10 min) yuring.

Tezlikni 80 km / soat (50 mil/soat) dan oshirmang. Iloji bo'lsa, tezlikni soatiga 20 km/soat (12 mil/soat) dan kamaytirmang.

Agar haydash paytida haddan tashqari tebranish, beqarorlik yoki shovqin sezilsa, tezlikni pasaytiring va transport vositasini xavfsiz joyda to'xtating.

Shundan so'ng yo'l yoki shatakka olish xizmatiga murojaat qilishingiz kerak.

## Shinalar bosimini tekshirish



1. Taxminan 7-10 km (4-6 mil yoki taxminan 10 daqiqa) yuring va xavfsiz joyda to'xtang.
2. Kompessorni ulovchi shlangini (10) to'g'ridan-to'g'ri shina ventiliga ulang.
3. Kompessorni kabel va ulagichlar yordamida avtomobil rozetkasiga ulang.
4. Shinalar bosimini tavsiya etilgan qiymatga sozlang

### - Shinalar bosimini oshirish

uchun: Kompessorni yoqing ("1" holati). Oqimni tekshirish uchun kompessorni qisqa vaqtga yoqing bosim shinalarni shishiradi.

### - Shinalar bosimini pasaytirish

uchun: bosingkompessoridagi tugmani (8) bosing.

## MA'LUMOT UCHUN

Kompessorning 10 daqiqadan ko'proq ishlashiga yo'l qo'ymang, chunki bu qurilmaning haddan tashqari qizishi va shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

## **i** Ma'lumot

Kompessor ishlayotgan paytda bosim o'lchagich haqiqiy qiymatdan yuqoriroq qiymatni ko'rsatishi mumkin. To'g'ri qiymatni olish uchun kompessorni o'chiring.

## **!** DIQQAT

Agar havo bosimi saqlanib qolmasa, qayta sinovdan o'tkazing, so'ngra "Germetika taqsimoti" bo'limiga qarang. Keyin 1-4-bosqichlarni takrorlang.

TMK 4 mm (0,16 dyum) dan katta zararlanish uchun samarasiz bo'lishi mumkin.

Agar shinani shinalarni ta'mirlash to'plami bilan ta'mirlagach ishlatish mumkin bo'lmasa, HYUNDAI vakolatli dileriga murojaat qilish tavsiya etiladi.





## EHTIYOT BO'LING

Shinalar bosimi 2-bobdagi “SHINA VA G'ILDIRAKLAR” bo'limida yoki haydovchi tomonidagi markaziy ustundagi shinalar bosimi jadvali etiketkasida ko'rsatilgandek bo'lishi lozim. Agar bunday bo'lmasa, haydashni to'xtating.

Shundan so'ng yo'l yoki shatakka olish xizmatiga murojaat qilishingiz kerak.



## DIQQAT

Shinalar bosimi datchigi (TPMS mavjud bo'lganda)

Shina yangisiga almashtirilganda havo bosimi datchigi va shinadan germetikani olib tashlash kerak. Bunday holatda datchikni tekshirish lozim. Vakolatli dilerga murojaat qilishingizni tavsiya qilamiz.



## Ma'lumot

Avtomobilga ta'mirlangan shina yoki zaxira shinani o'rnatayotganda g'ildirak gaykalarini 11 ~ 13 kgf • m (79 ~ 94 tortish kuchi) ga torting.

## Shinalarni ta'mirlash to'plamidan xavfsiz foydalanish bo'yicha eslatmalar

- Shina ta'mirlash to'plamidan foydalanish uchun avtomobilni yo'l chetida to'xtating. Favqulodda to'xtash belgisini ko'zga tashlanadigan joyda ko'rsating, shunda transport vositasini boshqa haydovchilar o'z vaqtida ko'rishlari mumkin.
- Avtomobilni hatto o'rtacha tekis yuzada ham harakatsiz ushlab turish uchun qo'l tormozini torting.
- Shinalarni ta'mirlash to'plami faqat teshilgan joylarni tuzatish va yengil avtomobil shinalari damlash uchun ishlatilishi kerak. Velosiped, mototsikl yoki boshqa turdagi shinalar uchun foydalanishga ruxsat berilmaydi.
- Shinani teshgan mix va vint kabi narsalarni chiqarib olmang.
- Shinalarni ta'mirlash to'plamini ishlatishdan oldin germetika idishida yozilgan ogohlantirishni o'qing.
- Agar avtomobil tashqarida bo'lsa, dvigatelni ishlayotgan holda qoldiring. Aks holda ishlayotgan kompressor avtomobil akkumulyatorini zaryadsizlantirishi mumkin.

- Foydalanish vaqtida shinalarni ta'mirlash to'plamini qarovsiz qoldirmang.
- Kompessor 10 daqiqadan ortiq uzluksiz ishlamasligi zarur, chunki bu qizib ketishga olib kelishi mumkin.
- Atrof-muhit harorati minus 30 °C (minus 22 °F)dan past bo'lsa, shinalarni ta'mirlash to'plamidan foydalanmang.
- Agar shina va g'ildirak shikastlangan bo'lsa, xavfsizlik nuqtayi nazaridan ushbu shinalarni ta'mirlash to'plamidan foydalanmang.

### **Texnik tafsilotlar**

Tizim kuchlanishi: 12 V doimiy quvvat

Kuchlanish: 10-15 V doimiy quvvat

Nominal quvvat: maks. 15 A

Quyidagi atrof-muhit haroratida foydalanishga ruxsat beriladi:

minus 40 dan plus 70 °C gacha  
(minus 40 dan plus 158 °F gacha)

Maks. ish bosimi: 6,2 bar (90 funt dyum<sup>2</sup>)

Kompessor o'lchami:

140 x 150 x 60 mm (5,5 x 5,9 x 2,4 dyum)

Germetika idishi: 104 x ø85,5 mm (4,1 x ø3,7 dyum)

Kompessor og'irligi: 795 g (1,75 funt)


Germetika hajmi: 300 ml (18,3 kub dyuym)

\* Germetika va ehtiyot qismlarni vakolatli avtomobil yoki shinalar sotuvchisidan sotib olish va almashtirish mumkin.

\*Bo'sh germetika idishlarini maishiy chiqindilar bilan birga olib tashlash mumkin. Suyuq germetika qoldiqlaridan avtomobil yoki shinalar sotuvchisi yordamida yoki mahalliy chiqindilarni boshqarish qoidalariga muvofiq foydalanish kerak.

## SHATAKKA OLISH

### Evakuatsiya xizmati



[A] : Harakatlanuvchi aravachalar

Favqulodda shatakka olish holatida HYUNDAI vakolatli dileriga yoki avtomobillarini evakuatsiya qilish xizmatiga murojaat qilish tavsiya etiladi.

Avtotransportga shikast yetkazmaslik uchun to'g'ri ko'tarish va shatakka olish tartib-qoidalariga rioya qilish kerak.

Harakatlanuvchi aravacha yoki platformadan foydalanish tavsiya etiladi.

Orqa g'ildiraklar yerda bo'lib (harakatlanuvchi aravachasiz) old g'ildiraklari ko'tarilganda transport vositasini shatakka olish mumkin. Agar g'ildiraklar yoki ilgak qismlarining birortasi shikastlangan bo'lsa yoki avtomobil old g'ildiraklari yerda qolgan holatida shatakka olingan olingan bo'lsa, old g'ildiraklar ostida harakatlanuvchi aravachadan foydalanish zarur.

Harakatlanuvchi aravacha ishlatilmagan holda evakuator bilan shatakka olinganda, avtomobilning orqa tomoni emas, balki har doim old tomoni ko'tarilishi kerak.



### DIQQAT

- Old g'ildiraklar yerga tegsa, avtomobilni shatakka olishga yo'l qo'yilmaydi. Bu avtomobilga zarar yetkazishi mumkin.



- Egiluvchan shatakdan foydalanish mumkin emas. G'ildirakli ko'targich yoki platformadan foydalanish lozim.



G'ildirak aravachalaridan foydalanmagan holda avtotransportni favqulodda shatakka olinganda:


1. O't oldirish qurilmasi kalitini ACC holatiga o'rnatib.
2. Uzatish qutisi tugmachasini "N" (neytral) holatiga o'rnatib.
3. Qo'l tormozini bo'shating.





## DIQQAT

Uzatish qutisi tugmachasini "N" (neytral) holatiga o'tkazmaslik uzatish qutisining ichki shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

## Olinadigan shatak ilgagi





1. Yukxonani oching va asboblarni qutisidan shatak ilgagini oling.



2. Bamber tirgishi qopqog'ini uning pastki qismini bosib chiqarib oling.
3. Shatak ilgagini soat mili yo'nalishi bo'yicha tirgishga imkon qadar burab o'rnatib.
4. Foydalanib bo'lgach shatak ilgagini burang va qopqoqni qayta o'rnatib.

## Favqulodda shatakka olish



Shatakka olish zarur bo'lganda HYUNDAI vakolatli dileriga yoki avtomobillarini evakuatsiya qilish xizmatiga murojaat qilish tavsiya etiladi.

Favqulodda vaziyatda evakuatorni chaqirishning iloji bo'lmasa, vaqtinchalik vosita sifatida transport vositasini old yoki orqa shatak ilgagiga biriktirib, arqon yoki zanjir bilan shatakka olish mumkin.

Avtomobilni arqon yoki zanjir bilan shatakka olishda juda ehtiyot bo'lish zarur. Rul va tormoz pedali yordamida boshqarish uchun haydovchi avtomobilda bo'lishi lozim.


Shu tarzda shatakka olish faqat asfaltlangan yo'llarda, qisqa masofalarda va past tezlikda ruxsat etiladi. Bundan tashqari, g'ildiraklar, ko'priklar, transmissiya, rul va tormozlar yaxshi holatda bo'lishi lozim.

### **DIQQAT**

**Avtotransport shatakka olinganda haydovchi rulni boshqarish va tormozlash uchun ichkarida bo'lishi kerak. Avtotransportda haydovchidan boshqa yo'lovchilar bo'lmasligi zarur.**

Favqulodda shatakka olish paytida har doim quyidagi choralarni ko'rish kerak:

- Rul qulfini ochish uchun o't oldirish qurilmasi kalitini ACC holatiga burang.
- Uzatish qutisi tugmachasini "N" (neytral) holatiga qo'ying.
- Qo'l tormozini bo'shating.
- Tormoz pedalini odatdagidan ko'ra ko'proq kuch bilan bosang. Bunday holda tormozlanish samaradorligi pasayadi.
- Rulda kuchaytirgich tizimi ishlamay qolishi sababli boshqarish uchun ko'proq harakat talab etiladi.
- Shatakka oluvchi sifatida og'irroq transport vositasidan foydalanish zarur.
- Ikkala transport vositasining haydovchilari o'rtasida aloqa saqlanishi lozim.
- Favqulodda shatakka olishdan oldin, shatak ilgagi yaxshi holatda ekanligiga ishonch hosil qiling.
- Shatak arqoni yoki zanjirini shatak ilgagiga mahkam bog'lang.
- Keskin siltanishdan ehtiyot bo'ling. Siltanish yengil bo'lishi va bir tekis harakat qilish lozim.



- Shatak arqoni yoki zanjiri uzunligi kamida 5 m (16 fut) bo'lishi kerak. Yaxshiroq ko'rish uchun shatak arqoni o'rtasiga oq yoki qizil mato (taxminan 30 sm (12 dyum) kenglikdagi) qo'ying.
- Shatakka olish paytida arqon yoki zanjir tarang holatda turishi lozim.
- Shatakka olishdan oldin avtomatik uzatish qutisidan suyuqlik oqmasligiga ishonch hosil qiling.

#### **MA'LUMOT UCHUN**

**Shatak arqoni yoki zanjirining tarangligini saqlagan holda asta-sekin tormoz bering, aks holda shatak ilgaklari va avtomobil shikastlanishi mumkin.**

**MA'LUMOT UCHUN**

**Avtomobil shatakka olinganda shikastlanishni oldini olish uchun:**

- Ilgaklarni ishlatganda oldinga qarab torting. Yon tomonga yoki vertikal burchak ostida tortmang.
- Avtomobilni loy, qum va hokazolardan tortib olish uchun shatak ilgaklaridan foydalanmang
- Avtomatik uzatish qutisiga zarar yetkazmaslik uchun avtomobil tezligi 15 km/soat (10 mil/soat) va shatakka olish masofasi 1,5 km (1 mil) dan oshmasligi zarur.

## Favqulodda holat to'plami (mavjud bo'lganda)

Avtomobil favqulodda vaziyatlarda foydalanish uchun mo'ljallangan favqulodda holat to'plami bilan jihozlangan.

### Yong'inga qarshi

Kichik yong'in chiqsa, uni o'chirish uchun o't o'chirish moslamasidan foydalanish mumkin. Buning uchun quyidagi amallarni bajarang:

1. Tutqichning tasodifiy bosilishiga yo'l qo'ymaydigan o't o'chirgichning yuqori qismidagi xavfsizlik shtiftini torting.
2. Naychani olov tagiga yo'naltiring.
3. Olovdan taxminan 2,5 m (8 fut) uzoqlikda turing va o't o'chirgichni chiqarish uchun tutqichni bosing. Tutqichqo'yib yuborilganda chiqarish to'xtaydi.
4. Naychani olov asosi bo'ylab oldinga va orqaga harakatlantiring. Olov o'chgandan so'ng kuzatishni davom ettirish lozim, chunki takroriy yonish yuz berishi mumkin.

### Birinchi yordam to'plami

Birinchi yordam ko'rsatishda foydalanish uchun mo'ljallangan. To'plam qaychi, bog'ichlar, yopishqoq plastir va boshqalarni o'z ichiga oladi.

### Favqulodda to'xtash belgisi

Nosozlik tufayli yo'l chetida transport vositasining to'xtatib qolishi kabi favqulodda vaziyatlarda yaqinlashib kelayotgan transport vositalarini ogohlantirish uchun yo'lda favqulodda to'xtash belgisi o'rnatilishi kerak.

### Shina manometri (mavjud bo'lganda)

Shinalar odatda kundalik foydalanishda kam havo yo'qotadi va vaqti-vaqti bilan havo qo'shish zarur bo'lishi mumkin. Bu shinalar germetikligi kam degani emas, balki oddiy eskirish natijasidir. Shinalar bosimi har doim sovuqda tekshirilishi zarur, chunki harorat ko'tarilganda bosim kuchayadi.

Shinalardagi bosimni tekshirish uchun quyidagi amallarni bajarish lozim:


1. G'ildirak gardishida joylashgan ventil qopqog'ini burang.
2. Monometrni shinalar klapaniga bosib ushlab turing. Bu oz miqdorda havo chiqaradi. Monometr havo chiqishini to'xtatish uchun yetarlicha qattiq bosilishi kerak.
3. Bosim qattiq bosish orqali (havo chiqarmasdan) o'lchanadi.
4. Haqiqiy shinalar bosimi monometrga qarab aniqlanishi mumkin.
5. Shinalardagi kerakli bosimni sozlang. 2-bobdagi "g'ildirak va shinalar" bo'limiga qarang.
6. Ventil qopqog'ini qayta burang.



## **FAVQULODDA ERA-GLONASS CHAQIRUVI (mavjud bo'lganda)**

Ushbu avtomobilda ERA-GLONASS tizimiga ulangan favqulodda qo'ng'iroq qilish moslamasi\* mavjud. ERA-GLONASS tizimi - bu Rossiya Federatsiyasi yo'llarida yo'l-transport hodisasi yoki boshqa\*\* voqea sodir bo'lgan taqdirda tez yordam xizmatlarini chaqirish uchun avtomatlashtirilgan tizim.

Ushbu tizim, zarur bo'lganda Rossiya Federatsiyasining avtomobil yo'llarida baxtsiz hodisa yuz bergan taqdirda Yagona navbatchi-dispetcherlik xizmati (EDDC) operatoriga murojaat qilish imkonini beradi. ERA-GLONASS tizimi ushbu Avtomobil uchun qo'llanmada, shuningdek, Avtomobil uchun xizmat ko'rsatish kitobida belgilangan shartlarni hisobga olgan holda minimal ma'lumotlar to'plamini yagona navbatchi-dispetcherlik xizmatiga uzatadi, shu jumladan, avtomobil joylashuvi, modeli, VIN kodi (avtomobil identifikatsiya raqami) kabi.



ODN8079024L

1. Yo'l-transport hodisasi
2. Simsiz aloqa
3. Yagona navbatchi-dispetcherlik xizmati (EDDC)
4. Qutqaruv guruhi

\* USHBU AVTOMOBILDAN FOYDALANISH YO'RIQNOMASIDAGI ERA-GLONASS QURILMASI AVTOMOBILGA O'RNATILGAN VA ERA-GLONASS TIZIMI BILAN O'ZARO TA'SIRNI TA'MINLAYDIGAN USKUNANI ANGLATADI.

\*\* "BOSHQA HODISALAR" DEGANDA ROSSIYA FEDERATSIIYASI YO'LLARIDA JABRLANGANLAR VA / YOKI KIMGADIR YORDAM KERAK BO'LGAN HAR QANDAY HODISALAR TUSHUNILADI. HAR QANDAY HODISAGA DUCH KELGANDA AVTOMOBILNI TO'XTATING VA SOS TUGMASINI BOSING (USHBU TUGMA JOYLASHUVI USHBU FOYDALANISH QO'LLANMASINING "FAVQULODDA ERA-GLONASS CHAQIRUVI (MAVJUD BO'LGANDA)" BO'LIMIDAGI RASMDA KO'RSATILGAN). SHU BILAN BIRGA, QO'NG'IROQ QILISHDA QO'NG'IROQ QILINGAN AVTOMOBIL HAQIDA MA'LUMOTLAR TO'PLAMI SHAKLLANADI VA QO'NG'IROQ SABABINI AYTIB BERISHI KERAK BO'LGAN OPERATOR BILAN BOG'LANADI.

ERA-GLONASS tizimida saqlangan ma'lumotlar haydovchi va yo'lovchilarga tegishli yordam ko'rsatish uchun qutqaruv markaziga o'tkazilgandan so'ng bu ma'lumotlar qutqaruv operatsiyasi oxirida o'chiriladi. ERA-GLONASS tizimining tarkibiy qismlarining ishlashi uchun (Avtomobilga o'rnatilgan uskunalardan tashqari) ERA-GLONASS tizimining operatori (OA GLONASS) 28.12.2013 yildagi 395-FZ sonli "ERA-GLONASS" davlat avtomatlashtirilgan axborot tizimi to'g'risida"gi Federal qonunga muvofiq javobgardir.

### ERA-GLONASS qurilmasi



Avtomobil saloniga o'rnatilgan ERA GLONASS tizimi elementlari:

1. Mikrofon
2. SOS tugmasi
3. SOS TEST tugmasi
4. LED chiroqlar

SOS tugmasi: Haydovchi / yo'lovchi tugmani bosish orqali Yagona navbatchi-dispetcherlik xizmatiga favqulodda qo'ng'iroq qiladi.

SOS TEST (test) tugmasi: Bu tugma HYUNDAI vakolatli dileri qoshida tizimning ishlashini sinash imkonini beradi. "SOS TEST" rejimini faqat HYUNDAI avtomobilining vakolatli dilerlik markazlari mutaxassisi faollashtirishi mumkin. Yolg'on qo'ng'iroqlarga yo'l qo'ymaslik uchun ushbu tugmani bosmaslikni hamda "SOS test" rejimini o'zingiz faollashtirmasligingizni so'raymiz.

LED chiroq: O't oldirish qurilmasi yoqilganda qizil va yashil LED chiroqlar 3 soniya davomida yonadi. Keyin tizimning normal ishlash vaqtida ular o'chadi.

Tizimda muammo bo'lsa, LED chiroq qizil rangda yonishda davom etadi.

## Yo'l-transport hodisasi yuz berganda favqulodda qo'ng'iroqni avtomatik faollashtirish



ERA-GLONASS qurilmasi avtomobil ishtirokida yo'l-transport hodisasi yuz berganda qutqaruv ishlarini o'z vaqtida bajarish uchun avtomatik ravishda yagona navbatchi-dispetcherlik xizmatiga favqulodda qo'ng'iroq qiladi.

O'z vaqtida yordam olish uchun ERA-GLONASS tizimi yo'l-transport hodisasi haqidagi ma'lumotlarni avtomatik ravishda yagona navbatchi-dispetcherlik xizmatiga uzatadi.

Bunday holatda favqulodda qo'ng'iroqni SOS tugmasini bosish bilan tugatib bo'lmaydi va ERA-GLONASS tizimi qo'ng'iroqni qabul qilgan yagona navbatchi-dispetcherlik xizmati operatori favqulodda qo'ng'iroqni o'chirmaguncha ulangan holatda qoladi.

### MA'LUMOT UCHUN


Kichik yo'l-transport hodisalarida ERA GLONASS tizimi avtomatik ravishda favqulodda qo'ng'iroq qilmasligi mumkin. Bunday holatda SOS tugmachasini bosib qo'l rejimida favqulodda qo'ng'iroq qilish mumkin.



### DIQQAT

Mobil uyali aloqa qamrovi va GPS va GLONASS signali bo'lmasa, tizim ishga tushmaydi.

## "SOS" tugmasini bosish orqali favqulodda qo'ng'iroqni qo'lda faollashtirish



Haydovchi / yo'lovchi favqulodda xizmatlarga qo'ng'iroq qilish uchun SOS tugmasini bosib yagona navbatchi-dispetcherlik xizmatiga favqulodda qo'ng'iroq qilishi mumkin.

ERA-GLONASS tizimidan foydalangan holda favqulodda yordam xizmatiga qo'ng'iroqni yagona navbatchi-dispetcherlik xizmati operatori bilan aloqa o'rnatilgunga qadar SOS tugmasini yana bosish orqali bekor qilish mumkin.

Favqulodda qo'ng'iroqni qo'l rejimida faollashtirgandan so'ng o'z vaqtida yordam berish uchun ERA GLONASS tizimi yo'l-transport hodisasi / boshqa hodisa to'g'risidagi ma'lumotlarni SOS tugmasini bosish orqali yordam chaqiruvi paytida yagona navbatchi-dispetcherlik xizmati operatoriga uzatadi. Agar haydovchi yoki yo'lovchi tomonidan SOS tugmasi tasodifan bosilsa, tugmani qayta bosish orqali uning ishlashini bekor qilish mumkin. (Rossiya uchun)

3 soniyadan keyin tugmani yana bosish orqali uni bekor qilish mumkin. Shundan so'ng, uni endi bekor qilib bo'lmaydi. (Rossiyadan tashqari)

YTH yoki boshqa voqea sodir bo'lgan taqdirda qo'l rejimida favqulodda qo'ng'iroqni faollashtirish uchun siz:

1. Avtomobilingizni to'xtating, keyin Yo'l harakati qoidalariga muvofiq o'zingiz va boshqa yo'l harakati qatnashchilarining xavfsizligini ta'minlang;
2. SOS tugmasini bosing. SOS tugmachasini bosganingizda qurilma mobil radiotelefon tarmoqlarida qayd etiladi va qurilmaning texnik talablariga muvofiq avtomobil va uning joylashgan joyi haqidagi minimal ma'lumotlar to'plami shakllanadi. Shundan so'ng favqulodda qo'ng'iroq qilish holatlarini aniqlash uchun ERA-GLONASS operatori bilan aloqa o'rnatiladi.

3. Favqulodda qo'ng'iroqning holatlarini aniqlagandan so'ng, UDDS operatori favqulodda xizmatlarga minimal ma'lumotlar to'plamini uzatadi va favqulodda qo'ng'iroqni tugatadi.

Agar favqulodda qo'ng'iroq yuqoridagi algoritmgga muvofiq bajarilmasa, bu qo'ng'iroq noto'g'ri deb aniqlanadi.



### EHTIYOT BO'LING

**ERA-GLONASS tizimining akkumulyator batareyasidan oladigan zaxira quvvat manbayi**

- ERA-GLONASS tizimining akkumulyatori favqulodda vaziyat natijasida avtomobilning asosiy quvvat manbayi uzilib qolsa, bir soat davomida quvvat beradi.
- ERA-GLONASS tizimining batareyasi har 3 yilda bir marta almashtirilishi lozim. Batafsil ma'lumot uchun 8-bobdagi "Texnik xizmat ko'rsatish jadvali" bo'limiga qarang.

**Qizil rangdagi LED chiroq yonishi (tizim nosozligi)**

Oddiy haydash sharoitida qizil rangdagi LED chiroq doimiy yonib tursa, bu ERA-GLONASS tizimining nosozligini ko'rsatishi mumkin.

**ERA GLONASS tizimini tekshirtirish uchun darhol HYUNDAI vakolatli dileriga murojaat qiling.**

Aks holda avtomobilingizga o'rnatilgan ERA-GLONASS qurilmasining ishlashi kafolatlanmaydi. Yuqoridagi

qoidalarga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun javobgarlik transport vositasi egasiga yuklanadi.

Tizim sozlamalarini o'zboshimchalik bilan olib tashlash va o'zgartirish

ERA-GLONASS tizimi yordam ko'rsatish uchun favqulodda xizmatlarni chaqirish uchun mo'ljallangan.

Shuning uchun ERA-GLONASS tizimi sozlamalarini o'zboshimchalik bilan olib tashlash yoki sozlamalariga o'zgartirish kiritish haydash paytida xavfsizligingizga ta'sir qilishi mumkin. Bu shuningdek, yagona navbatchi-dispetcherlik xizmatiga noto'g'ri favqulodda qo'ng'iroqlarni amalga oshirishga olib kelishi mumkin. Shularni inobatga olgan holda avtomobilingizga o'rnatilgan ERA-GLONASS tizim uskunasi sozlamalariga mustaqil ravishda/ uchinchi shaxs orqali hech qanday o'zgartirish kiritmasligingizni so'raymiz.

## Sinov rejimi



Avtomobil saloniga o'rnatilgan ERA-GLONASS tizimi elementlari:

1. Mikrofon
2. SOS tugmasi
3. SOS TEST tugmasi
4. LED chiroqlar

Avtomobilingizga o'rnatilgan ERA-GLONASS qurilmasining ishlashini texnik jihatdan tekshirish mumkin. Yolg'on qo'ng'iroqlar, shuningdek, ERA-GLONASS qurilmasining nosozligini oldini olish uchun avtomobilingizga o'rnatilgan ERA-GLONASS qurilmasini tekshirish faqat HYUNDAI vakolatli dilerlik markazlari mutaxassislari va test rejimiga kirish uchun interfeys foydalanuvchisini ishlatish uchun quyidagi ko'rsatmalarga muvofiq tegishli vakolatli HYUNDAI hududida amalga oshirilishi kerak.

ERA-GLONASS qurilmasi sinov rejimi "SOS test" tugmasini bosish orqali boshlanadi. Sinov rejimi ERA-GLONASS qurilmasining ishlashini tekshirish uchun ovozli ko'rsatmalar bilan birga ishga tushiriladi. ERA-GLONASS qurilmasining funksional tekshiruvi paytida qizil va yashil LED chiroqlar yonib turadi.

Ovozli ko'rsatmalarni chiqarish paytida test rejimini o'chirish uchun yana "SOS test" tugmasini bosish zarur

## 8. Texnik xizmat ko'rsatish

Dvigatel bo'lmasi.....	8-4
Texnik xizmat ko'rsatish ishlari kompleksi.....	8-5
Avtomobil egasining javobgarligi.....	8-5
Avtomobil egasi tomonidan amalga oshiriladigan texnik xizmat ko'rsatishdag ehtiyot choralari.....	8-5
Avtomobil egasi tomonidan amalga oshiriladigan texnik xizmat ko'rsatish.....	8-7
Avtomobil egasi tomonidan amalga oshiriladigan texnik xizmat ko'rsatish jadvali .....	8-8
Davriy texnik xizmat ko'rsatish ishlari kompleksi .....	8-10
Odatiy foydalanish sharoitlari uchun texnik xizmat ko'rsatish jadvali Benzinda ishlaydigan dvigatel (Yevropa uchun).....	8-11
Og'ir foydalanish sharoitlari va qisqa masofalarda foydalanish uchun texnik xizmat ko'rsatish - benzinda ishlaydigan dvigatel (Yevropa uchun).....	8-15
Odatiy foydalanish sharoitlari uchun texnik xizmat ko'rsatish jadvali benzinda ishlaydigan dvigatel (Yevropadan tashqari) .....	8-17
Og'ir foydalanish sharoitlari va qisqa masofalarda foydalanish uchun texnik xizmat ko'rsatish - benzinda ishlaydigan dvigatel (Yevropadan tashqari).....	8-22
Davriy texnik xizmat ko'rsatish holatlari .....	8-24
Dvigatelni moylash tizimi.....	8-28
motor moyi darajasini tekshirish.....	8-28
motor moyi va filtrni almashtirish.....	8-29
Sovutish tizimi suyuqligi .....	8-30
Dvigatel sovutish suyuqligi darajasini tekshirish.....	8-30
Dvigatel sovutish suyuqligini almashtirish .....	8-33
Tormoz suyuqligi.....	8-34
Tormoz suyuqligi darajasini tekshirish .....	8-34
Old oyna yuvgichi suyuqligi.....	8-36
Old oyna yuvgichi idishidagi suyuqlik darajasini tekshirish .....	8-36
Qo'l tormozi .....	8-37
Qo'l tormozi tekshiruvi .....	8-37
Havo filtri.....	8-38
Filtrni almashtirish .....	8-38




Mikroiqlim nazorati tizimi havo filtri .....	8-39
Filtr holati .....	8-39
Filtrni almashtirish .....	8-39
Oyna tozalagich cho'tkalari .....	8-41
Cho'tkalarning holatini tekshirish .....	8-41
Cho'tkalarni almashtirish .....	8-41
Akkumulyator batareyasi .....	8-44
Batareyani ishlatish bo'yicha maslahatlar .....	8-44
Batareya sig'imi etiketkasi (misolga qarang) .....	8-46
Batareyani qayta zaryadlash .....	8-47
Asboblar parametrlarini tiklash .....	8-49
G'ildiraklar va shinalar .....	8-50
Shinalar parvarishi .....	8-51
Sovuq shina uchun tavsiya etilgan bosim .....	8-51
Shinalar bosimini tekshirish .....	8-52
G'ildiraklarni qayta joylashtirish .....	8-53
G'ildiraklarni o'rnatish burchagi va shinalar muvozanatini sozlash .....	8-54
Shinalarni almashtirish .....	8-54
G'ildiraklarni almashtirish .....	8-56
Shina ushlagichi .....	8-56
Shinalarga texnik xizmat ko'rsatish .....	8-56
Shinaning yon tomonidagi belgi .....	8-56
Past profilli shinalar .....	8-61
Eruvchan saqlagichlar .....	8-62
Asboblar kombinatsiyasi saqlagichini almashtirish .....	8-63
Dvigatel bo'lmasining saqlagich panelini almashtirish .....	8-64
Saqlagich va rele paneli tavsifi .....	8-66

## 8. Texnik xizmat ko'rsatish


Yoritish chiroqlari .....	8-76
Old fara, gabarit chiroqlar, burilish indikatori chiroqlari  yon tomon gabarit chiroqlar va tumanga qarshi chiroqlarni almashtirish .....	8-77
Yon burilish indikatori chiroqlarini almashtirish.....	8-80
Kombinatsiyalangan orqa fonar chiroqlarini almashtirish.....	8-80
Yuqori tormoz chirog'ini almashtirish .....	8-82
Davlat raqami chirog'ini almashtirish.....	8-82
Salon chirog'ini almashtirish.....	8-83
Avtomobil tashqi ko'rinishiga e'tibor qaratish.....	8-85
Tashqi parvarish .....	8-85
Salon parvarishi.....	8-93
Emissiyani nazorat qilish tizimi.....	8-96
Karter emissiyasini kamaytirish tizimi.....	8-96
yonilg'i baki emissiyasini nazorat qilish tizimi .....	8-97
Ishlangan gazlar emissiyasini nazorat qilish tizimi.....	8-97

## Dvigatel bo'lmasi

### ■ 2,0MPI



### ■ Smartstream G2,5



**Avtomobilning haqiqiy dvigatel bo'lmasi rasmdagidan farq qilishi mumkin**

ODN8089049L/ODN8089048L

- |   |   |
|---|---|
| 1. Dvigatel sovutish suyuqligi rezervuari | 6. Old oyna yuvgichi suyuqligi rezervuari |
| 2. Hidrotormoz rezervuari                 | 7. Saqlagich bo'limi                      |
| 3. Havo filtri                            | 8. Akkumulyator batareyasi                |
| 4. motor moyi darajasi ko'rsatkichi       |   |
| 5. motor moyi to'ldirish qopqog'i         |   |

## TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH ISHLARI KOMPLEKSI

Har qanday texnik xizmat ko'rsatish yoki tekshirish ishlarini bajarayotganda transport vositasini shikastlamaslik yoki o'zingizga shikast yetkazmaslik uchun juda ehtiyot bo'lish zarur.

Avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun vakolatli HYUNDAI dileriga borish tavsiya etiladi. HYUNDAI vakolatli dilerlari HYUNDAI xizmatining eng yuqori sifat standartlarini qo'llab-quvvatlaydi va xizmat ko'rsatishning eng yuqori darajasini ta'minlash uchun HYUNDAI kompaniyasidan texnik yordam oladi.

### Avtomobil egasining javobgarligi

Hujjatlarni saqlash va xizmat ko'rsatish uchun avtomobil egasi javobgardir. Keyingi sahifalarda ko'rsatilgan rejalashtirilgan texnik xizmat ko'rsatish jadvaliga muvofiq bajarilgan xizmat ko'rsatish hujjatlarini saqlang. Ushbu ma'lumot transport vositasiga texnik xizmat ko'rsatish va profilaktik xizmat ko'rsatish avtomobil kafolatini saqlash talablariga javob berishini tasdiqlash uchun zarur.

Kafolat majburiyatlari to'g'risida batafsil ma'lumot avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish sertifikatida keltirilgan.

Kafolat noto'g'ri texnik xizmat ko'rsatish yoki kerakli texnik xizmat ko'rsatilmasligi natijasida yuzaga keladigan ta'mirlash va sozlashlarni o'z ichiga olmaydi.

### Avtomobil egasiga texnik xizmat ko'rsatishdagi ehtiyot choralari

Noto'g'ri, chala yoki qoniqarsiz texnik xizmat ko'rsatish avtomobilda muammolarga olib kelishi, bu esa shikastlanish, baxtsiz hodisalar yoki jarohatlarga sabab bo'lishi kelishi mumkin. Ushbu bobda faqat yengil texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ko'rsatmalar mavjud.

Avtomobilni har qanday o'zgartirish kiritish taqiqlanadi. Bunday o'zgartirishlar avtomobilning ishlashi, xavfsizligi yoki ishonchligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va avtomobilning cheklangan kafolati shartlarini bekor qilishi mumkin.

### **MA'LUMOT UCHUN**

Kafolat muddati davomida avtomobil egasi tomonidan noto'g'ri texnik xizmat ko'rsatish kafolatning amal qilishiga ta'sir qilishi mumkin. Batafsil ma'lumot uchun avtomobil bilan birga taqdim etilgan "Foydalanuvchi qo'llanmasi va Kafolat ma'lumotlari" risolasiga qarang. Avtomobilingizda biron bir ta'mirlash yoki texnik xizmat ko'rsatish amaliyotini to'g'ri bajarishingiz mumkinligiga ishonchingiz komil bo'lmasa, tizimga xizmat ko'rsatish uchun HYUNDAI vakolatli dileriga murojaat qilishingizni tavsiya qilamiz.

## AVTOMOBIL EGASI TOMONIDAN AMALGA OSHIRILADIGAN TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

### EHTIYOT BO'LING

Avtomobilingizga texnik xizmat ko'rsatish xavfli bo'lishi mumkin. Agar yetarli bilim va tajribaga ega bo'lmasangiz yoki ishni bajarish uchun tegishli asbob-uskunalar va jihozlarga ega bo'lmasangiz, tizimga texnik xizmat ko'rsatishni vakolatli HYUNDAI dileriga topshirish tavsiya etiladi. Ta'mirlash ishlarini bajarishda DOIMO quyidagi ehtiyot choralariga rioya qiling.

- Avtomobilni tekis yuzaga qo'ying, uzatish qutisi dastagini "P" (parkovka) holatiga qo'ying, qo'l tormozini torting va o't oldirish qurilmasini LOCK / OFF holatiga aylantiring.
- Avtomobil harakatlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun g'ildiraklarni (old va orqa) to'sib qo'ying. Harakatlanuvchi qismlarga yopishib qolishi mumkin bo'lgan bo'sh kiyim va zargarlik buyumlarini olib tashlang.
- Dvigatelni texnik xizmat ko'rsatish vaqtida ishga tushirish zarur bo'lsa, uni ochiq havoda yoki ventilyatsiya yetarli darajada mavjud bo'lgan joyda bajarish kerak.

- Olov va uchqun paydo bo'lishidan, shuningdek, akkumulyator va yonilg'i tizimining komponentlari yonida chekish buyumlari bo'lishidan ehtiyot bo'ling.

Quyida avtomobilning xavfsiz va ishonchli ishlashini ta'minlash uchun avtomobil egasi yoki HYUNDAI vakolatli dileri tomonidan belgilangan chastotada bajarilishi kerak bo'lgan tekshiruvlar ro'yxati keltirilgan.

Har qanday noqulayliklar haqida darhol dilerga xabar qilish zarur.

Ushbu avtotransport tekshiruvlari odatda kafolatlanmaydi va mehnat haqi, ehtiyot qismlar va moylash materiallari uchun hisob-kitob qilinishi mumkin.

## **Avtomobil egasi tomonidan amalga oshiriladigan texnik xizmat ko'rsatish jadvali**

### **Avtomobilga yonilg'i quyishda:**

- Avtomobilga yonilg'i quyishda:
- Dvigatel sovutish suyuqligining rezervuardagi darajasini tekshiring.
- Old oyna yuvgichi idishidagi suyuqlik darajasini tekshiring.
- Shinadagi bosim yetarli darajada yuqori ekanligiga ishonch hosil qiling.
- Radiator va kondensatorni tekshiring. Radiator va kondensatorning old qismi toza va barg, kir, hasharotlar va boshqa narsalardan toza ekanligiga ishonch hosil qiling.

Yuqoridagi qismlardan birortasi haddan tashqari kir bo'lsa yoki ularning qoniqarli ekanligiga shubha tug'ilsa, HYUNDAI vakolatli dileringizga murojaat qilishingiz tavsiya etiladi.



### **EHTIYOT BO'LING**

**Issiq dvigatel bilan sovutish suyuqligi darajasini tekshirishda ehtiyot bo'ling. Bunday jarayonda sovutish suyuqligi tirqishdan oqib chiqishi va jiddiy kuyish va jarohatlarga olib kelishi mumkin.**

### **Avtomobildan foydalanish paytida:**

- Ishlangan gazlar tovushidagi har qanday o'zgarishlardan, shuningdek, salondagi ishlangan gaz hidi paydo bo'lishidan xabardor bo'ling.
- Rul tebranishini tekshiring. Rul harakatining kuchayganini, zaiflashishini yoki to'g'ri chiziq holatidan o'zgarishini tekshiring.
- Tekis, ravon yo'lda harakatlanayotganda transport vositasining bir tomonga doimiy ravishda yengil «sirg'alishi» bo'lmasligiga e'tibor bering.
- Tormozlash vaqtida noodatiy tovushlar, bir tomonga harakatlanish, tormoz pedalining harakatlanishi yoki tormoz pedalini bosish qiyinlashishi holatlariga diqqat qilish uchun avtomobil tizimlari ishlash jarayoniga e'tibor bering.
- Sirg'alib ketgan yoki uzatish qutisi ishlashi o'zgargan taqdirda uzatish qutisi suyuqligi darajasini tekshiring.
- Avtomatik uzatish qutisining ishlashini "P" holatida tekshiring.
- Qo'l tormozining ishlashini tekshiring.
- Avtomobilning tagida suyuqlik sizib chiqmayotganini tekshiring (ishlash vaqtida yoki o'chirilgandan keyin konditsioner tizimidan suv oqishi nosozlik emas).

**Oyiga kamida bir marta:**

- Kengaytiradigan idishdagi sovutish suyuqligi darajasini tekshiring.
- Barcha tashqi chiroqlarning, shu jumladan tormoz chiroqlari, burilish indikatorlari va xavfli ogohlantirish chiroqlarining ishlashini tekshiring.
- G'ildirakni mahkamlash gaykalarining bo'shashmaganligini tekshiring.

**Yiliga kamida ikki marta  
(ya'ni har bahor va kuzda):**

- Radiator, isitgich va konditsionerning egiluvchan shlanglarida teshik va shikastlanishlar bor-yo'qligini tekshiring.
- Old oyna yuvgichi va tozalagichining ishlashini tekshiring. Tozalagich cho'tkalarini yuvgich suyuqligi bilan namlangan toza mato bilan tozalang.
- Faralarning sozlanishini tekshiring.
- Glushitel, ishlangan gaz quvurlari, qoplama va qisqichlarni tekshiring. Xavfsizlik kamarlarining eskirmaganligi va to'g'ri ishlashini tekshiring.

**Yiliga kamida bir marta:**

- Avtomobil kuzovi va eshiklaridagi drenaj tirqishlarini tozalang.
- Eshik va kapot halqalarini moylang.
- Eshik va kapot qulflari va lo'kidonlarini moylang.
